Markaziy Osiyo mintaqasi hududining boy uran zaxiralariga egaligi va mintaqqa mamlakatlarida yadro texnologiyalari sohasida mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatning yetarli darajada ekanligi yadroviiy texnologiyalardan tinchlik yo'lida foydalanishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Yadroviiy texnologiyalarning Markaziy Osiyo mamlakatlarida tinchlik maqsadlarida rivojlanishi, o'z navbatida, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratibgina qolmay, balki uning energetik xavfsizligini ta'minlashga ham munosib hissa qo'shadi. Xalqaro hamkorlik asosida zamonaviy texnologiyalardan harbiy maqsadlarda foydalanishning oldini olishni yetarli darajada ta'minlay oladigan samarali mexanizmlarning ishlab chiqilishi esa global va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni bartaraf etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Документ ООН. S/RES/1172(1998)06/06/1998
2. А.Калядин. ООН и принуждение к нераспространению ОМУ: опыт, возможности, перспективы. // Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 4
3. А.Калядин. ООН и принуждение к нераспространению ОМУ: опыт, возможности, перспективы. // Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 4
4. Г.К. Хромов, Ядерное оружие, ядерные пороговые страны, структурный и количественный состав их ядерных сил. /Материалы лекции в МФТИ. – www.armscontrol.ru/course/lectures04b/gkh040916.htm
5. Меморандум о Договоренности об установлении исходных данных в связи с Договором между США и СССР о сокращении стратегических наступательных вооружений. – www.armscontrol.ru/start/rus/docs/start1
6. Договор между РФ и США о дальнейшем сокращении и ограничении стратегических наступательных вооружений (CHB-2). – www.armscontrol.ru/start/rus/docs/dogovor.htm
7. J.Deutch. A Nuclear Posture for Today. //Foreign Affairs – N.Y.2005-January/February. – P.50.
8. Statement attributable to the Spokesman for the Secretary-General on the occasion of the signing by all nuclear-weapon States of the Protocol to the Treaty on a Nuclear-Weapon-Free Zone in Central Asia. <https://www.un.org/sg/en/content/sg/statement/2014-05-06/statement-attributable-spokesman-secretary-general-occasion-signing>.

UDK: 371.9:9(575.1)

SOBIQ ITTIFOQ DAVRIDA BOLALAR UYLARINING FAOLIYATI**A.M.Egamberdiyeva***Navoiy Davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. Muallif ushbu maqolada, sovet mustamlakachiligi davrida bolalar uylarining tashkil topishi tarixi va ularning ochilishiga bo'lgan tarixiy sharoitlarni arxiv ma'lumotlari talqini asosida yoritgan. Shuningdek, ochilgan bolalar uylari xizmat faoliyatining sifat darajasiga hujjatlar asosida baho berilgan.

Kalit so'zlar: Sovet ittifoqi, ikkinchi jahon urushi, bolalar uylari, evakuasiya qilingan bolalar, bolalarning majburiy mehnati.

Деятельность детских домов в годы советской власти

Аннотация. Автор в этой статье, пользуясь сведениями архива, остановился на вопросах истории создания и исторических условиях открытия детских домов за время советской власти. А также дана оценка на основе документов на уровень качества работы открытых детских домов.

Ключевые слова: Советский период, вторая мировая война, детские дома, эвакуация детей, принудительный труд детей.

Activity of orphan houses during the years of soviet power

Abstract. The outer of the article revealed the history of foundation of orphan houses in the period of soviet colonialism, and the historical conditions of their foundation were open on the bases of analysis of archive materials.

Keywords: Soviet Union, second world war, orphan houses, evacuated children, compulsory children's work.

Mustaqillik yillarida jamiyat hayotida bolalar va yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Sobiq ittifoq davrida bu masalaga qanday yondashilganligini bolalar uylari faoliyati misolida o'rganish tarix fanining vazifalaridan biri deb o'ylaymiz. Xo'sh, ittifoq davrida qarovchisiz qolgan bolalarning yashash sharoiti qanday edi, ularga hukumat qay darajada sharoitlar yaratgan edi? degan xaqli savol tug'iladi.

Bolalar uyi – ota-onasiz yoki qarovchisiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan tarbiya muassasasi. Asosan, ikki xil bo'lgan: maktabgacha tarbiya yoshidagi (3-7 yoshli) va maktab yoshidagi (7-18 yoshli). Maktabgacha tarbiya yoshidagi Bolalar uyida bolalar bog'chasi tartibi asosida ish ko'radi. Maktab yoshidagi Bolalar uyida tarbiyalanuvchilarning jamoat ishlab chiqarish mehnati maktabning o'quv-tarbiya maqsadlariga bo'ysundirilgan. Yuqori sinflarda o'qiydigan tarbiyalanuvchilar o'quv-mehnat ustaxonalari yoki yordamchi xo'jalikda ishlab chiqarish tayyorgarligidan o'tishadi. Dastlab, Bolalar uylari 1918-yili XKSning dekreti bilan yetimxonalar asosida tashkil qilingan edi. Keyinroq O'zSSRda boylardan musodara qilingan katta bino va bog'rog'larning ko'pchiligi Bolalar uylari ixtiyoriga berildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Armiyasining jangchilari uchun maxsus Bolalar uylari tashkil etilib, ularda Ukraina, Belorussiya, Boltiq Bo'yi Respublikalar, Moskva, Leningraddan keltirilgan ming-minglab bolalar tarbiyalandi. O'zSSRdagi Bolalar uylari soni 44 ta bo'lib, ularda 7166 ta bola tarbiyalandi (1970) [1].

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1918-yilgacha O'zbekiston hududida Bolalar uylari bo'lmagan. Yetim bolalar vaqf mulklariga qarashli xonaqoh, masjid va madrasalar ixtiyorida bo'lib, ularning ta'minoti shu mulk evazidan bo'lgan. Davlat vaqf mulklaridan soliq olmagan. Daromad xayriya ishlariga sarf etilib, bu bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilingan.

Ittifoq davrida davlat budjeti hisobidan qarovchisiz qolgan bolalar uchun Bolalar uylari tashkil qilindi. Respublika miqyosida aholining joylashuviga qarab ularning soni taqsimlandi. 1941-yilning oktabridan 1942-yilning sentabriga qadar, O'zbekiston 78 ta bolalar uyini, 9918 ta tarbiyalanuvchisi va 20650 chog'li ko'chirib keltirilgan bolalarni ham qabul qilib olgandi. Hamma bolalar maktablarga joylashtirildi. 30 ta bolalar uyi qoshida ustaxonalar tashkil etildi. Dastlabki kunlardan oq jumhuriyatimiz ishchilari, kolxozchilar, xizmatchilari 2500 bolani o'z tarbiyasiga oldi. O'zbekiston

jumhuriyatining o'sha davrdagi rahbari Yo'ldosh Oxunboboyev 1942-yilda bunday deb yozgan edi: "O'zbek xalqi belorus, ukrain, yahudiy bollalarini iliq kutib oldi. Jumhuriyatimiz shahar va nohiyalariga bolalar ko'chirib olib kelinganligi xaqidagi xabarni eshitishlari bilanoq hamma joyda jamoatchilikning yangi ajoyib harakati boshlandi... yuzlab kishilar urush tufayli ota-onasidan judo bo'lgan bolalarni o'z tarbiyasiga olish istagini bildirdilar" [2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'chirib keltirilgan bolalar mehnatidan keng foydalanildi. Ularni mehnat intizomiga rioya qilishi davlat tomonidan nazorat qilindi. Jumladan, Evakuatsiya qilingan bolalarga yordam ko'satish Respublika komissiyasi mas'ul kotibi Rachinskaya, Buxoro viloyatining Xalq ta'limi bo'limi mudiri Narishkinga yo'llagan buyrug'i bunga misol bo'la oladi. "Evakuatsiya qilingan bolalarga yordam ko'rsatish Davlat Komissiyasi Sizdan so'raydiki, shaxsan o'zingiz evakuatsiya qilingan bolalarga yordam ko'satish ishlarini olib borishingizni so'raydi. Jumladan, bolalar uylarini qisman kolxozlar qaramog'iga o'tkazishni, o'smirlarni ish bilan ta'minlashni ma'qullaydi. Lekin, siz alohida e'tiborni ish bilan ta'minlangan o'smirlarga qaratishingizni so'raymiz. Chunki, ular ko'pincha ish joyiga yetib bormaydilar va nazoratsiz hayot tarzini davom ettiradilar. Mehnat intizomiga rioya etmaydilar" [3].

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining yetti yoshdan yetmish yoshgacha aholisi yoppasiga front orti uchun safarbar qilindi. Bu yo'lda Bolalar uylarilari tarbiyalanuvchilari ham o'z mehnati bilan hissa qo'shdilar. Arxiv hujjatlari bilan tanishar ekanmiz, Bolalar uylarini ochish ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng ham davom etganligini ko'ramiz. Jumladan, O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashi: № 744 qaror (16-may 1949-yil)ida shunday jumalar mavjud. "...a) Xalq qishloq xo'jalik vazirligining 1949-yilgi rejasiga asosan II va III kvartallar mobaynida 12 ta bolalar uylarini ochish, shu jumladan, Toshkent shahrida -1 (maxsus), Andijon viloyatida - 2, Namangan viloyatida - 1, Samarqand viloyatida - 2 (shu jumladan 1 maxsus), Buxoro viloyatida -2, Farg'ona viloyatida - 1, Toshkent viloyatida - 2, Qashqadaryo viloyatida -1; [4].

Yillar	Bolalar uylari soni	Ularda tarbiyalanuvchilar soni
1941	137	16 980
1942	164	21 470
1943	200	26 500
1944	230	30 000
1945	242	31 500

[5]

Bolalar uylari ommaviy tarzda tashkil etilgan. Ammo, Arxiv hujjatlarida ma'lum bo'lishicha sifat darajasiga amalda yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Jumladan, O'zSSR Vazirlar Kengashining qarorini inkor etib, 1949-yilda rejada nazarda tutilgan 12 ta bolalar uylari o'rniga bor-yug'i 7 ta ochildi. Andijon, Toshkent oblispolkomlari va Toshkent shahar gorispolkomi yangi bolalar uylariga nafaqat binolar ajratishni orqaga surdi, aksincha to'rtta bolalar uyini belgilangan maqsadga javob bermaydigan inshootlarga joylashtirgan. Tekshirilgan Bolalar uylarining muhim qismi direktorlar va boshqa xizmat xodimlari tomonidan xonadon (kvartira) sifatida foydalanilmoqda. Natijada esa bolalar uylari keskin zichlangan bo'lib qolayapti.

Tekshirilgan sakkizta bolalar uylarida (№29 Andijondagi, № 17 Toshkent shahridagi, № 20 Andijon viloyati, Stalin tumanidagi № 25, Toshkent viloyati Begovot tumanidagi va boshqalar) 322 tarbiyalanuvchi ikkitadan bitta yotoq joyida yotgan [6].

Ushbu Bolalar uylarida izolyator, tibbiyot punkti, karantin bo'limi, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalar, dars tayyorlash xonalari va boshqa xizmatlar uchun xonalar yo'q edi. Ayrim viloyatlarda Bolalar uylarining inshoot maydonlari, hisobot axborotlari xaqiqatga to'g'ri kelmaydi[7].

Bolalar uylari hali-hanuz kerakli darajada qattiq inventar (9 mingga yaqin krovat yetishmaydi), kiyim, poyafzal, kosa-tovoq bilan ta'minlanmagan. Bir qator bolalar uylarida mablag', moddiy vositalar va oziq-ovqat mollarinig, talon-taroj qilinishiga yo'l qo'yilayapti. O'quv-tarbiyaviy ishlarni, mehnat, o'qishni, tibbiyot xizmat ko'rsatishlar, tashkillanishi qoniqarsiz, oddiy sanitar-gigiyena qoidalariga rioya qilinmaydi hamda xizmat ko'rsatish xodimlar tomonidan tarbiyaluvchilarga

nisbatan berahmlik holatlari uchraydi” deb O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashi №2396 Qarorida (24.12.1949) [8] qayd etilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lumotga asoslanib shunday deyish mumkinki, davlat rejalashtirish qo‘mitasi tomonidan besh yillik loyihalar faqat tasdiqlangan xolos. Amalda esa buning ijrosi taminlanmagan. Ayniqsa, qarovchisiz qolgan bolalarga nisbatan ayovsiz munosabatda bo‘lib ularning oddiy yashashi uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan. Kerakli binolar o‘z vaqtida bo‘shatib berilmaganligi sababli bolalar kattaroq xonadonlarga joylashtirilgan. Ular inshoot bo‘lsada ikki kishi bir yotoq joyida yotishi albatta noxush holatlardan biri. Bu holat ta‘lim-tarbiya ishlarida ham kuzatilganligi arxiv ma‘lumotlarida qayd etilgan. Hattoki, 1949-yilning to‘qqiz oyi ichida bolalar uylaridan qochish holatlari 728 taga yetganligidan shuni bilishimiz mumkinki Bolalar uylaridan ko‘chaning qora ishlari yosh go‘daklarga ma‘qul bo‘lish darajasiga borgan [9]. Bunday holat har qanday rivojlanishni xohlagan davlat uchun ayanchli hodisa edi. Lekin, bu noxush holatni faqat tavg‘ish komissiyasi a‘zolari bilgan xalos. Jamiyatda shunday mafkura hukmron ediki, hottoki bolalar o‘z xuquqlarini talab qila olmas edi. Bizning nazarimizda bu davrda qarovchisiz qolgan bolalarga nisbatan adolatsizlikka yo‘l qo‘yilgan. Bolalarning qochib ketishi norozilik mitengining bir ko‘rinishi edi.

Mustaqillik yillarida esa, mehrga tashna bolalarga nafaqat inshootlar balki SOS tashkilotlari, homiylar va davlat tomonidan mahallalar qurilib foydalanishga topshirilmoqda. Jumladan, Xiva shahrida bunyod etilgan “Bolalar shaharchasida” o‘n sakkizta ikki qavatli uyning har birida olti nafardan sakkiz nafargacha bola istiqomat qiladi. Eng zamonaviy rusumdagi kompyuter, televizor, radio ular ixtiyorida. Oshxona va yuvinish xonalari hamda, binolar yonida sport zali, maydonchalari, basseyn, axborot-resurs markazi... butun bir shaharchani tashkil etadi. Endilikda har bir uyda bolalar tanlovi asosida ishga qabul qilingan tarbiyachi ona va tarbiyachi xola bilan birga istiqomat qilishadi. Ular kecha-yu kunduz bolalar yonida. Bolalar bilan birga bozor-do‘konlarga borib, oziq-ovqat xarid qilishadi. Taomlar ham bolalar istagiga ko‘ra, har bir uyning o‘zidagi oshxonada tayyorlanadi. Bu jarayonlarda bolajonlar ham ishtirok etadi, ya‘ni ular o‘zlarini oila muhitida his etishadi. Albatta bunday sharoitda yashayotgan davlatning bolalari mustaqillikni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbek sovet ensiklopediyasi-T. 2-tom. O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1972 yil 330 bet
2. Oxunboboyev Y. O‘zbekiston frontga. – M.1942. 29-30 b.
3. Buxoro viloyat davlat arxivi F-1157. D-1. S-2.
4. Buxoro viloyat davlat arxivi F-1316. OP- 1. D-1. S-170
5. Fozixo‘jayev Q. Farzandlarni O‘zbekiston o‘z bag‘riga oldi. –T. O‘zbekiston. 1991 y. 10 b.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi F-1157. OP- 1. D-1. b-23
7. Buxoro viloyat davlat arxivi F-1157. OP- 1. D-1. b-24
8. Buxoro viloyat davlat arxivi F-1316. OP- 1. D-1. b-176.
9. Buxoro davlat arxivi F-1316. OP- 1. D- 1. b- 127.

UDK:9(575.1):668.01

NAVOIY HUDUDIDA KONCHILIK SANOATINING TARIXI VA BUGUNI

Sh.B.Xoliqulova

Navoiy Davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Navoiy hududida tog‘-kon sanoatining yillar davomida tizimli rivojlanishini manba va adabiyotlar asosida yoritgan. Shuningdek, sanoatning bu sohasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati misolida davlatning iqtisodiy potensialiga qo‘shib borgan hissasini sovet mustamlakachiligi va bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "nou-xau", "to‘rtta to‘qqiz", gigant konlar, Muruntau koni, Dovg‘istov koni, inson manfaatlari, ishchilarning yashash darajasi.

История горной промышленности Навоийского региона

Аннотация: В данной статье освещено системное развитие горной промышленности в Навоийском регионе. А также проанализирован вклад Навоийского горно-металлургического комбината в экономический потенциал государства в советской период и в настоящее время.

Ключевые слова: Навоийский горно-металлургического комбинат, "ноу-хау", «четыре девятки», гигантские месторождения, рудник Мурунтау, месторождения Даугыстау, интересы человека, уровень жизни работников.

The history of mining industry in Navoi region

Abstract. In the article the systematical development of mountain-mining industry of Navoi region is revealed. Also the contribution of the Navoi mountain-metallurgical factory to the economy of the country is analyzed.

Keywords: Navoi mountain-metallurgical factory, "know-how", "four nines", giant sources, Muruntau mine, Daugystau sources, persons interests, life level of the workers.

O'zbekiston Respublikasi 74 yil mobaynida sobiq ittifoqqa ma'naviy va iqtisodiy qaramlikda bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarida Respublikamizning Markaz boshqarayotgan iqtisodiy hayoti xususida shunday deyilgan. "Qishloq xo'jaligimiz mamlakatdagi paxtaning uchdan ikki qismini, qorako'l terisining uchdan bir qismidan ko'prog'ini, pillaning 60 foizdan ziyodini, ko'p miqdorda kanop, meva, uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirib bermoqda...". O'zbek xalqining yetishtirib bergan mahsulotlari "evaziga" ittifoq miqyosida aholining iste'mol darajasi eng quyi o'rinlarda turardi. O'zbekistondan nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari balki yirik ko'lamda yer osti boyliklari ham, jumladan, oltinning barchasi Markazga olib ketilgan holda, mahalliy aholining iste'mol tovarlariga ehtiyoji tobora oshib borgan [1].

O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. Ya'ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud. Jumladan, Muruntau ochiq koni Yevroosiyo qit'asidagi eng katta oltin xazinasi bo'lib hisoblanadi. Shu nom bilan ushbu kon 1967-yildan buyon atalib kelmoqda. Ochiq kon yuqori sifatli sof oltin bilan mashhurdir. Muruntau ochiq konining chuqurligi 550 metrda oshdi [2].

XX asrning ikkinchi yarmidan, kon-metallurgiya ishlab chiqarishining keng miqyosda avj oldirilishi O'zbekistonning industrial qiyofasini o'zgartirishga sabab bo'ldi. Masalan, markaziy Qizilqum sahro tumanlarining sanoat jihatidan o'zlashtirilishi oltin va uran qazib olish sanoatining paydo bo'lishini taqozo etdi, u yerda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining qurilishi mis va qo'rg'oshin-rux sanoatining rivojlanishiga turtki berdi. O'zbekiston oltin qazib olishda yetakchi o'rinlardan birini egallardi. Uning birinchi quymasi 1969-yil iyun oyida Zarafshon oltin chiqarish zavodida olingan edi. 80-yillarning oxiriga kelib Respublikada har yili 50 tonnagacha yetkazib «sariq metall» eritilardi. Respublika oltin yetkazib berish bo'yicha SSSRda asosiy o'ringa chiqib olgan bo'lib, umumittifoq oltinining qariyb 50% ni yetkazib berardi. 70-80-yillarda uran ishlab chiqarish kengaydi, uning zaxiralari bo'yicha o'lkamiz dunyoda 7-8-o'rinni egallardi. Eng so'nggi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, har yili O'zbekistonda yer osti konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorida foydali qazilmalar olingan. Biroq «oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik materiallar jahon bozorida xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromad O'zbekiston g'aznasiga kelib tushmasdi. Respublika tabiiy, xom ashyo resurslari va o'zi ishlab chiqargan mahsulot qayerga ketayotganidan, uni eksport qilishdan olingan daromad kimning cho'ntagiga kelib tushayotganidan butunlay xabarsiz edi. O'zbekistonning yer osti boyliklaridan qimmatbaho resurslarni so'rib olgan ittifoq korxonalari nari borsa, olingan foydaning bor-yo'g'i 1% ini mahalliy budjetga o'tkazishardi. Bu talonchilik mexanizmi milliy iqtisodiyotni tagtugi bilan quritib, o'zbek xalqini xonavayron qilardi. Oltin, nodir rangli metallar, uran va boshqa strategik xom ashyo favqulodda maxfiylik niqobi ostida o'lkamizdan tashqariga amalda tekinga olib ketilardi [3]. Masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati direktori Nikolay Kucherskiyning eslashicha; "...Navoiy kon-metallurgiya kombinati sun'iy ravishda nazardan yiroqda saqlanardi.

Ommaviy axborot vositalarida uning ishlab chiqaradigan mahsulotining haqiqiy miqdorlari haqida sha'ma qilishga ham yo'l qo'yilmasdi. Jazirama Qizilqum qumliklarida to'satdan qad ko'targan ulkan sanoat korxonasi faoliyatining asosiy yo'nalishi uran qazib olish haqida ham lom-mim deyilmasdi. Kombinat rahbarlari oldiga AQShda uran qazib olish haqidagi ma'lumotlar qo'yilganda, ular ajablangan holda iljayib qo'ya qolishardi. Chunki kombinat shuncha miqdordagi mahsulotni atigi uch oy mobaynida ishlab chiqarardi..."[4]. Mamlakatdan bu kabi qazilma boyliklar olib ketilsada, aholining yashash mafaatlari ijobiy o'zgarishlar sezilmaganligi mustamlaka siyosatining ifodasi albatta.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov Mustaqilligimizning 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida ta'kidlaganlaridek, "... Mustaqillik biz uchun – bu o'z taqdirimizni qo'lga olib, yurtimizning yer osti, yer usti boyliklariga egalik qilish, beqiyos moddiy va ma'naviy salohiyatimizni amalga oshirish, jahon miqyosida o'zimizga munosib o'rin egallash demakdir" [5].

Bugun iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Albatta, bunday vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy industrial zonalar muhim o'rin tutadi. Bu esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport, shuningdek, transport va telekommunikasiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mahalliy mahsulot va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlarda xalqaro sifat, sertifikatlashtirish talablarini joriy etish orqali raqobatdoshligini oshirish, yangi ish joylarini barpo etish, malakali ishchi-muhandislar, xo'jalik va boshqaruv kadrlarini tayyorlash va ular malakasini oshirish kabi bir qator muhim masalalarni hal etish imkonini beradi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy e'tibor mamlakat hududlarining tabiiy resurslari hamda industrial salohiyatidan foydalanish samarasini yuksaltirish va oxir-oqibat eksport tizimini kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Aynan shu yo'nalishda jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan va o'z samarasini berayotgan bir qator vositalar mavjud. Bu xorijiy hamkorlar bilan teng huquqlilik asosida tuzilgan shartnomalardir.

Hozirgi vaqtda 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan. Oltinning asosiy zaxiralari oltin konlarining o'zida Markaziy Qizilqumda joylashgan bo'lib, tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha Respublikani dunyoda to'rtinchi o'ringa olib chiqadi. Muruntau koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Yevroosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan eng yirik kondir. Muruntau konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi. Muruntau koni - juda katta manba bo'lib, undan har yili millionlab kub metr kon tuprog'i qazib olinadi. Undan dunyodagi eng sifatli oltin olish mumkin. Bu holning o'ziyoq dunyoning oltin qazib oluvchi sanoati uchun noyob namunadir. Oltin tozalashda affinaj (eng sof metall olish) jarayonining zamonaviy texnologiyasi joriy etilgan. Bu texnologiya bir qator "nou-xau"ni o'z ichiga oladi. Natijada oliy tovar ko'rinishiga ega bo'lgan, soflik darajasi "to'rtta to'qqiz"ga teng asl oltin olinmoqda. Ana shu oltin O'zbekistonga ko'plab xalqaro sovrinlar keltirdi. Ko'p yillar foydalanish natijasida Muruntau konining chetida katta hajmda minerallashgan uyumlar ajratilgan va to'plab qo'yilgan edi. Uning tarkibidagi oltin miqdorini olish imkoni yo'q edi. Bugungi kunda ana shu minerallashgan uyumlar Amerikaning "Nyumont Mayning Korporeyshn" kompaniyasi ishtirokida eng yangi texnologiyalar jalb etilib, qayta ishlanmoqda [6].

Sir emaski, zamonaviy innovatsion texnologiyalarini joriy etilishi katta moliyaviy quyilmalar bilan bog'liq bo'lib, aynan shu sababli kombinat rahbariyati har bir yangi loyihani O'zbekiston FA olimlari, yetakchi loyiha tashkilotlari va tekshirish institutlarini jalb etgan holda chuqur tahlil etadi, o'rganadi va ishlab chiqadi. Kombinatning ilmiy potensiali juda yuqori bo'lib, kon-metallurgiya sohasining jahon miqyosidagi peshqadamlari bo'lgan kompaniyalar bilan yaqin hamkorligi bozor sharoitlarida innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi, bu esa o'z navbatida tovar mahsuloti tannarxini kamaytirish imkonini beradi. NKMKda hozirgi kunda 7 ta fan doktori va 40 dan ziyod texnika fanlari kandidatlarini ishlayotgan. Kombinatning doimiy faoliyat yuritayotgan va yaxshi jihozlangan o'quv markazlarida har yili yuzlab yosh muhandislar, texniklar va yetakchi ishchi kadrlar malakalarini oshirmoqdalar. Yirik sohaviy ilmiy-tekshirish va akademik institutlar bilan mustahkam aloqalar

o'rnatilgan. Jahon bozorida oltin bahosining o'sishi hisobga olinib, Respublika rahbariyati tomonidan oltin ishlab chiqarishni jadallashtirish vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifaning kombinatda bajarilishi yirik investitsiya loyihalarining asosi bo'lgan jahon sifat standartlari darajasida yuqori samarali resurs tejaydigan texnologiyalarni qo'llash hisobiga amalga oshirilmoqda. Ularni amalga oshirish Muruntau konining xom ashyo bazasining kamaya borishiga ko'ra kombinat bo'yicha oltin ishlab chiqarishni uzoq vaqt davomida saqlab qolish imkoniyatini beradi. Yangi, zamonaviy texnika va uskunalar bilan jihozlangan kon-metallurgiya korxonalarining ishga tushirilishi, tayyor mahsulot eksporti hajmining oshishi O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning natijasidir.

Chiqarilayotgan mahsulotlar ko'pgina turlarining sifati eng yuqori jahon standartlariga mos keladi. NKMK Respublikada birinchilardan bo'lib 2006-yilda sifat, ekologiya, sanoat xavfsizligi va sog'lik menejmenti tizimini kiritdi. [7].

Oltin tarkibli ma'danlarni qazish va qayta ishlash bo'yicha NKMK sanoat kompleksi yillar davomida yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan turg'un ishlab kelmoqda. Respublika mustaqilligi yillarida oltin ishlab chiqarish 1,5 baravarga oshdi. Bu yutuqlar amaldagi korxonalarni to'liq texnik qayta jihozlash hisobiga, yangi ishlab chiqarishlarni qurish hisobiga, shuningdek oltin ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradigan eng yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy qilish hisobiga erishildi. Bunday yo'nalishlardagi ishlarga birinchi navbatda NKMKning INTEGRA GROUP(AQSh), "Integra" YoAJ (Rossiya), Vnipromtexnologiya (Rossiya), Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi seysmologiya instituti, Ukraina Milliy konchilik akademiyasi tabiatdan foydalanish va ekologiya muammolari instituti bilan hamkorlikda bajargan tadqiqotlari kiradi. Ochiq konlarni loyihalash, qurish va foydalanish tajribasi ko'rsatadiki, kon qazuvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi asosan qurilish, konchilik ishlarni olib borish texnologiyasi va tartibini, ma'danlar va ochishlar hajmining taqvimiy taqsimlanishini, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash turini tanlash masalalarini to'g'ri yechishga bog'liq. Kombinatning kon qazuvchi korxonalari rivojini optimallashtirish uchun g'arb namunalaridan qolishmaydigan, ayrim hollarda ulardan yuqori bo'lgan maxsus kompyuter texnologiyalari ishlab chiqildi va oltin ma'danli konlarni loyihalash, rejalashtirish va ishlatish amaliyotga joriy qilindi [8].

Asosiy mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari, NKMK fosforit xom-ashyosini qazib olish, sulfat kislota va oltin, kumush buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Suyuq shisha, portlatish moddalari, polivinilxlorid va poliyetilen quvurlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mahalliy xom ashyo asosida shag'al, beton, asfalt betoni, formovka qumi, ohaktosh, gabbro, marmar va granitdan sirlangan buyumlar ishlab chiqarishi tashkil etilgan. Kombinatsion sanoat jihozlarini ta'mirlash bo'yicha ham xizmat ko'rsatadi. Metall qirqish stanoklari, qurilish metall konstruksiyalar, payvandlash elektrodleri, maishiy texnika, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa xalq iste'moli mollarini ishlab chiqaradi. NKMK innovatsion siyosati amaldagi ishlab chiqarish bazasini yangilash, texnik qayta jihozlash, ilg'or ilmiy ishlanmalarni joriy etishga yo'naltirilgan.

2008-yil 15-iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PP-916-sonli Qarori e'lon qilinishi bilan kombinatda innovatsion faoliyat yangicha ruh kasb etdi. Mustaqillik yillarida kombinat dunyodagi eng peshqadam o'nta kompaniyalardan biri maqomini saqlab qoldi va Davlat korxonasining kamyob qudratli sanoat gigantini rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi. Kombinatsion sanoat kamyob innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilgan va joriy qilingan. 3-sonli Gidrometallurgiya zavodiga oltingugurtli oltin ma'danlarni flotatsion boyitishning takomillashtirilgan texnologiyasi joriy qilindi.. NKMK yer osti boyliklarining matematik modeli va sanoat zaxiralari bahosi, konchilik ishlarining eng muvofiq kalendar jadvali, karerlarning yakuniy va oraliq shakllari kabi tuzilish topshiriqlarini yechishga imkon beradigan kamyob dasturiy-texnik kompleksga ega. Bu kelajakda gidrometallurgiya zavodlarining barqaror ishlash davrini yaqin 100 yilga uzaytirish va kombinat kon qayta ishlash komplekslarining ishini yaxshilash imkonini beradi. Yer osti boyliklarini o'zlashtirish, mahsulot qazib olish, transport yordamida tashish va rudani qayta ishlashning texnologik muammolarini yechishda kombinatning yuqori malakali mutaxassisleri ish olib boradilar. Yirik tarmoq ilmiy-tadqiqot va akademik institutlari bilan mustahkam aloqalar yo'lga qo'yilgan. Tarmoqlararo kooperatsiya (birlashmalar) jadal rivojlanmoqda [9].

Insonlar – bu Qizilqum yerining eng asosiy boyligi, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining oltin zaxirasi. Kombinatsion ijtimoiy siyosati mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilashga,

mehnatkashlarning turmush darajasini oshirishga qaratilgan va bu hududiy rivojlanish hamda ijtimoiy barqarorlikka salmoqli hissa qo'shish imkonini beradi. Xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash ishiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va O'zbekistonning chetga mahsulot chiqarish salohiyatini kengaytirishga qo'shgan ulkan hissasi, shuningdek, erishilgan barqaror yuqori ishlab chiqarish va ijtimoiy ko'rsatkichlari, mineral xom ashyo boyliklardan samarali foydalanishni oshirishdagi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdagi, yetakchi chet el kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlashdagi samarali faoliyati uchun kombinat 2000-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan.

Kombinat bo'linmalari joylashgan Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod, Zafarobod shaharlari temir yo'l va avtomobil yo'llari, Respublikaning energiya tizimiga birlashgan elektr uzatish leniyalari bilan o'zaro bog'langan va markazlashgan issiqlik va suv ta'minoti, zamonaviy turar joy fondi, ijtimoiy soha obyektlarini o'zida mujassam etgan mustaqil hayot ta'minoti tizimiga ega. Bu yerda turmush farovonligi u yoki bu darajada NKMK bilan bog'liq bo'lgan 59 ming kishidan ortiq mehnat jamoasidan iborat 350 mingga yaqin kishi yashaydi va mehnat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mustaqil O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakatidir. Respublikamiz tabiiy-jo'g'rofiy joylashuvining o'zi ham bu imkoniyatlarga yo'l ochadi. Sobiq ittifoq davrida biz o'z imkoniyatlarimizni anglash huquqidan mahrum edik. Chunki mustamlaka davlatning fuqarolari ikkinchi darajali shaxslar edi. Mustaqillikdan so'ng ham sobiq ittifoq bu boyliklarni O'zbekiston qo'lga osonlik bilan berib qo'yishni istamadi. Ammo, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning shaxsiy tashabbusi bilan biz o'z haqqimizga ega bo'ldik. NKMK kelajakda 100 yillarga yetadigan loyihalarni qo'llab ishlamoqda. O'zbekistonning sanoat lakomativi bo'lgan ushbu korxona bugun ishlab chiqaradigan mahsulot ko'lamini kengaytirib mamlakatimiz iqtisodiy potensialini yuqori darajaga ko'tarmoqda. Bu kabi rivojlanishlar tarixda o'z o'rniga egadir.

Adabiyotlar

1. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.-Т. Ўзбекистон. 2011 й. 169-бет.
2. Zarafshan 1965-2010 Зарафшан. Рук. Ред.гр. Н.Снитка. Самарканд. "Yangiyo'l poligraph servis". 2010 г.
3. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларини ўзлаштирилиши. Мас.мух.Д.Алимова. Т. Шарқ. 2001й. 210-б.
4. Кучерский Н. Концерн в пустыне // звезда востока, 1992. № 4. С.6-7.
5. Каримов. И. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма уч йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи / Халқ сўзи. 2014. 01- сентябр.
6. Каримов.И. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида.6-жилд. Т.,Ўзбекистон. 1998 йил. 182-183 бет.
7. NKMK markaziy arxivi I-19.fond 1853-ish.17-b.
8. Bizning yutuqlarimiz. Bosh sahifa. www.ngmk.uz
9. Eng yangi texnologiyalar. Bosh sahifa. www.ngmk.uz

UDK: 9(575.1:5)

UZBEK-ASEAN COOPERATION AND ITS PERSPECTIVES

G.M.Djurayeva

University of World Economy and Diplomacy

Abstract. In this article, in order to study interstate relations, the dynamics in the development and intensification of cooperation of the Republic of Uzbekistan with Indonesia, Malaysia and Singapore as key countries in the region was considered. An analysis of the development of relations between the Republic of Uzbekistan and the ASEAN countries showed that ties with the Republic of Uzbekistan developed along an ascending line, consistently and systematically, mainly through mutual efforts.

Keywords: international relations, foreign policy, diplomatic relations, ASEAN, countries of South-East Asia, regional security.

O‘zbek-ASEAN aloqalari va uning rivojlanish istiqbollari

Annotatsiya. ASEAH davlatlari bilan tashqi siyosiy aloqalarni rivojlantirishda, O‘zbekiston Respublikasini hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada davlatlararo munosabatlar rivojlanishidagi asosiy xususiyatlarni to‘liq ko‘rib chiqish maqsadida mintaqada joylashgan yetakchi Malaysiya, Indoneziya, Singapur va Vietnam kabi davlatlarning O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarining taraqqiy etishi dinamikasi ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi va ASEAH davlatlari munosabatlarining rivojlanish tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu aloqalar ko‘tarilish chiziqlari bo‘yicha, ya’ni ketma-ketlik va ohistalik bilan, asosiysi ikki tomonning o‘zaro rozilik harakatlari natijasida rivojlanishi tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, integrasiya, diplomatik aloqalar, ASEAN, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, mintaqaviy xavfsizlik.

Узбекско-АСЕАНское сотрудничество и его перспективы

Аннотация. В данной статье в целях изучения межгосударственных отношений, рассмотрена динамика в развитии и интенсификации сотрудничества Республики Узбекистан с Индонезией, Малайзией и Сингапуром как ключевыми странами в регионе. Анализ развития отношений Республики Узбекистан со странами АСЕАН, показал что связи с Республикой Узбекистан развивались по восходящей линии, последовательно и планомерно, главным образом за счет обоюдных усилий.

Ключевые слова: международные отношения, внешняя политика, дипломатические отношения, АСЕАН, страны Юго-Восточной Азии, региональная безопасность.

While developing foreign policy relations with the countries of ASEAN the cooperation of Uzbekistan is very important. As essential perspectives Uzbekistan considers becoming one of the world's developed countries, implementation of political, economic reforms and its continuation, modernization of the country, formation of civil society and on the base of it providing social welfare for its citizens[1].

Successful development of diplomatic relations has been attained by the cooperation based on mutual and national interests of states. Furthermore, as a result of rapidly growing global threats states are cooperating comprehensively and in full accord in different spheres, particularly in the field of security, politics, economics and culture.

As I.A.Karimov states "While strengthening our confidence in our future the main factor is that we have put exact and clear aims before us. In accordance with these goals and on the base of our great opportunities and capacities we should deepen new and existing reforms and implement them gradually. Besides, we should modernize our country using the experience of world's leading states[2]."

According to our compatriot researcher A.Sharapov the cooperation of Uzbekistan with South-East Asian countries is based on political and economic conditions and has its special goals and tasks. However, the countries have one common position regarding global and regional, particularly, fight against terrorism, drug traffic and testing nuclear weapons[3].

In order to understand deeply the main features of interstate relations' development we could have a look at the gradual development of the cooperation between Uzbekistan and leading countries of the region: Malaysia, Singapore, Indonesia and Vietnam.

Uzbekistan - Malaysia. Diplomatic relations between two countries were established on the February 21, 1992. Development of the cooperation between Uzbekistan and Malaysia can be noted by the fact that there are some similarities between them in many aspects. For example, in Malaysia the majority of the indigenous population is Malays, in its turn, Uzbekistan's indigenous population mostly consists of Uzbeks. In Central Asia Uzbekistan is the most populated country. And it is also considered to be rich in recourses and to have a strong base of agriculture. Initially, Malaysia's economics was based on traditional agriculture. Though the state religion is Islam in Malaysia, other religions are not prohibited. In Uzbekistan there is the policy of religious tolerance as well.

Furthermore, the state development programs also resemble: the strategic program of Uzbekistan is similar to Malaysia's strategic program "Perspective-2020" in many ways.

For Uzbekistan it is of great significance to cooperate with Malaysia which is considered to be the leading state in ASEAN[4]. Especially, Uzbekistan is interested in the attraction of investments from the region of South-East Asia in order to implement high technology in the country and to supply Uzbek goods to the markets of South East Asia. Therefore, regarding the issues of growing international terrorism and religious extremism it is of great importance to cooperate within OIC[5]. In the geopolitical aspect Uzbekistan is in the centre of Asia and it has a multilateral policy. For Uzbekistan cooperating with such a prestigious country as Malaysia is considered to be one of the main factors which influence the stability in the region. In addition, the cooperation with Muslim countries leads to prospective future. It must be noted that in 2007 the initiative of UNESCO on choosing Tashkent as the cultural capital of Islam was wholly supported by Malaysia. Both Uzbekistan and Malaysia have supported each other's initiatives on the world arena. For instance, Uzbekistan has always supported the candidacy of Malaysia in the structures of the UN, particularly, in 1997 in ECOSOS, in 1998 its temporary membership in Security Council, in 1997, in 2001 and in 2005 in international tribunal on Yugoslavia, in 2003 in international tribunal on Ruanda, in 2004 in the Committee of eradicating all kinds of female discrimination, in 2008 the candidacy of Malaysia for chairmanship in the Committee of Kodeks Alimentarius[6]. In 2007 Uzbekistan also supported Malaysia's membership in the Executive council of International civil aviation. Malaysia has been supporting the initiatives of Uzbekistan on transforming Central Asia into a nuclear-free zone, on forming a Common market in Central Asia. Also, Malaysia was in favour of Uzbekistan's participation in the Dialogue on Asian cooperation in 2006[7]. Furthermore, Malaysia as well as other OIC countries supported Uzbekistan's position when the 61-session, confidential process No 1503 of UN Committee on human rights took place in 2005 (the session was devoted to the situation regarding the issue of human rights in Uzbekistan)[8].

Frequent mutual high-level visits demonstrate that both of the states are interested in mutual cooperation. In 1992 the president of Uzbekistan I.A.Karimov visited Malaysia, and in 1993 the prime-minister of Malaysia M.Mukhammad visited Uzbekistan. In 2003 there was paid a visit to Uzbekistan by the king of Malaysia Tuank Said Sirojiddin Said Jamalullayla. In 2005 the president of Uzbekistan I.A.Karimov paid one more state visit to Malaysia. In 1997 between two states there were signed important agreements, particularly, intergovernmental treaties on increasing investments and on mutual avoidance of taxations. On the base of the Treaty on trade there was set a prosperous favourable course. These signed agreements led to the creation of joint projects between two sides, for example, regarding investments there were worked out joint projects with Malaysian corporation "Petronas". Together representatives of two states have been doing geological research in the Aral coastal zone, in Ustyurt plateau and in Surkhandarya and they have discovered new mines as well. In addition, they are developing a technical-economic base of the project on building a plant which would produce synthetic liquefied fuel from methane. According to the international information agency "United Press International" (the USA) "Petronas" is considered to be a source of some more flows of foreign currency and to be a good ground for the increasing levels of Uzbekistan's gas produce and its export.

In order to develop the cooperation in the sphere of transportation links Uzbekistan has offered its service in the international logistics centre which was set up on the base of Navoi international airport. Such cooperation gives Malaysia a chance to enter the markets of Central Asia. And this, in its turn, means that Uzbekistan is considered to be a bridge in the cooperation with the countries of South-East Asia.

Uzbekistan is one of the main trade partners of Malaysia in Central Asia. According to the data of Uzbekistan's Committee of state statistics turnover made up \$76,3 million in 2012 [9]. In 2013 this index went up to \$78 million[10]. Nowadays Uzbekistan holds the 3rd place in the list of CIS countries with whom Malaysia has bilateral and investment relations.

Historical and cultural commonality, as well as the fact that Uzbekistan and Malaysia's tourism infrastructures are developed can be considered as the main factor which strengthens bilateral cooperation in the sphere of tourism.

Nations of Uzbekistan and Malaysia have a lot in common, particularly, eagerness to strengthen peace and stability, to solve conflicts in a peaceful way, fight against terrorism, drug traffic and commonality in religion, traditions, customs and way of life.

Uzbekistan - Indonesia. Diplomatic relations were established on the 23rd June, 1992. Although territorially Uzbekistan and Indonesia are far from each other the two states are close in history, culture and religion.

These two states are actively developing bilateral relations in the spheres of politics, economics and culture. The president of Uzbekistan I.A.Karimov paid an official visit to Indonesia in 1992. In its turn, the president of Indonesia Suharto visited Uzbekistan in 1995. During these visits there were set legal foundations of bilateral relations, there were identified the main directions of the cooperation. Long before this in 1956 the former president of Indonesia Sukarno visited Samarkand and went to such sightseeing places as the mausoleum of famous theological scientist Imom Bukhoi and Qusam-ibn-Abbos in the memorial complex of Shohi-Zinda mausoleum.

There is an intergovernmental memorandum in the sphere of tourism which has been functioning since 1955[11]. If we have a look at the main features of bilateral relations in the first years the atmosphere of cooperation was rather warm. However, the economic crisis which hit East-Asian countries in the 1990-s had an influence on bilateral relations and caused suspension of some beneficial projects for both sides. Furthermore, at the beginning of the XXI century Indonesia overcame the economic crisis and restored its position in the international market by activating foreign business relations gradually[12].

Starting from 2004 Indonesia again expanded the cooperation with Uzbekistan and in the same year there was organized an exhibition of Indonesian goods. In 2005 there were organized business meetings and visits of Indonesian businessmen in order to strengthen business relations between two states.

Nowadays bilateral relations between Uzbekistan and Indonesia are developing on the base of such documents as “The intergovernmental agreement on economic and technical cooperation”, “The intergovernmental agreement on the protection and support of incomes” and “The intergovernmental agreement on avoidance of double taxation”[13].

Mutual trade is limited by a number of goods and services and it does not meet the economic opportunities of two states. In 2012 turnover was \$15 million[14], in 2013 it was \$17 million[15].

As the base of the development of the Uzbek-Indonesian relationships we can consider two states’ high potential in the sphere of tourism and issues of mutual cooperation. Learning Indonesian experience and implementing it in the industry of tourism can be beneficial to the potential growth of tourism in our country and to its profitability.

Most of the population in Indonesia is Muslims. Every year they set out on a pilgrimage. Uzbekistan’s lots of Islam sightseeing places, particularly, mausoleums of such theological and religious scientists as Al-Bukhori, Nakshbandi, At-Termizi are very popular in Indonesia.

In our opinion, there is a great opportunity of the growth of tourist flow from Indonesia and transforming Uzbekistan into a sub continental touristic center by organizing travel tours for visiting historical sightseeing places of Uzbekistan.

There is a mutual Commission on bilateral cooperation between the governments of Uzbekistan and Indonesia which has been functioning since 2009.

In September, 2002 there was established a friendship society “Uzbekistan-Indonesia” in order to develop further friendship, cooperation and cultural relations between two states. In September, 1997 there was signed a Protocol on the establishment of sworn brotherhood relations between Samarkand and Banda-Acheh.

There is a study center of the Indonesian language at Samarkand University of economics and technique which has been functioning since 2001. In this center about 20 students study for free annually[16]. There is a Cabinet of the Indonesian language and culture at Samarkand World Languages University. In addition, the Indonesian language is taught there as an optional subject.

At regional and multilateral level both states are members of authoritative international organizations, particularly, UNO, OIC. What’s more, the positions of the two states in these organizations are directed for supporting each other. For instance, Uzbekistan has supported temporary membership of Indonesian the UN Security Council, also Indonesia got support of Uzbekistan in

Human Rights Council, Council of international communications union, UN ECOSOC and UNEP. Indonesia has supported Uzbekistan's position on the issue of human rights. Thus, on the ground of bilateral economic relations development impulses have arisen for the last years. However, Uzbekistan and Indonesia have been developing not accordingly to their trade potential.

According to the analysis of studied resources diplomatic relations between two states are developing successfully. Furthermore, in the dynamic growth of global threats mutual cooperation in the spheres of security, politics, economics and culture is growing rapidly.

Uzbekistan-Singapore. In 1997 diplomatic relations between Uzbekistan and Singapore were established. Political-legal foundation of the relations was maintained during the visit of the president of Uzbekistan I.A.Karimov to Singapore in 2007. Both of the states are interested in the expansion of different relations. For Singapore cooperation with our country means an access to the markets of Central Asia and CIS, for Uzbekistan this means free cooperation with ASEAN countries as Singapore is an active and influential member of this organization.

Uzbekistan and Singapore have common attitudes towards regional and international problems; these two states also consider the exchange of experience in the spheres of economics, culture, education and techniques very important. Furthermore, both states have common attitude towards fight against terrorism, drug traffic, organized transnational crime.

The main factor in maintaining regional security we can see close cooperation and similar attitudes of two states. In addition, cooperation within the frames of such international organizations as UNO, MAGATE, Asian bank of development is also of great significance.

Singapore wholly supports Uzbekistan's position on transforming Central Asia into a nuclear-free zone. In its turn, Singapore also played a significant role in creating an analogical zone in South-East Asia. For these two states mutually beneficial cooperation is related to implementing modern technologies in industry, particularly, in production of petrochemical products, pharmacy, electronics and high-tech products and exporting them to the third-world countries. If we analyze the development of cooperation between two states, we can see that cooperation in such spheres as energetics, electrotechnology, petrochemistry, information-telecommunications, textile manufacture, tourism, banking and finance sector and important directions of the economics.

Furthermore, there was set a prosperous favourable course of relations by two states and there is being developed attraction of investments into such perspective fields of Uzbekistan as gas-and-oil producing industry, petrochemistry and light industry, information-telecommunications, electrotechnology, transport infrastructure, private business, tourism in the frames of various agreements[17].

Regarding the cooperation between our country and Singapore it can be noted that our president I.A.Karimov asserts that "cooperation with the countries of South-East Asia is one of the main perspectives of our foreign policy"[18]. Such factors as the economic potential of Singapore, Uzbekistan's natural resources, its geographic location, the legal foundation for investment and business activities contribute much to the development of bilateral relations.

In our opinion, according to the views of the local researcher P.S.Azizhonova mutually beneficial cooperation between two states includes:

- Cooperation in finance and banking sector. Close ties between financial institutes and banks can contribute to the increase of mutual investments and trade;
- The factors that Uzbekistan is rich in the sources of raw materials and Singapore is rich in hi-tech industry and financial sources can attract Singapore companies in exploring, mining and refining hydrocarbon and other raw materials;
- Attracting high potential beneficial investments from Singapore in mining and refining non-ferrous and valuable metals;
- Uzbekistan's interest in the cooperation with Singapore companies is explained by the active business in the sphere of "hi-tech" led by these companies. Because in Uzbekistan information-telecommunications are developing at a high level and these Singapore companies can get much profit here. The attractiveness of this sector can also be explained by the fact that at the modern technology market of Uzbekistan there can be found products of big Japanese, Korean, German, Russian, Chinese and other companies;

- Such factors as climate conditions, uniqueness of historical and religious monuments, direct air-routes with big cities and all continents, mountain sport identify the main directions of cooperation in attracting more investments into the economics of Uzbekistan;
- Uzbekistan's interest in the development of relations in such fields as training of specialists and education;
- Cooperation in creating and regulating special export and economic zones in Uzbekistan, maintaining the integration between transcontinental transportation corridors and our transport infrastructure;[19]

In our country Singapore companies' interest in Uzbekistan is supported wholly. In its turn, Uzbekistan is ready to provide all necessary conditions for Singapore companies.

Thus, the fact that Uzbekistan and Singapore have similar positions on a lot of issues and that they do not have any political conflicts really leads to mutually beneficial cooperation. For our country Singapore's experience is especially useful in the case of adaptation processes in the world crisis.

Furthermore, according to Times Educational Supplement (TES) Singapore has set the best program of training professional specialists and has a really good system of education. In accordance with this for our country it's of great interest to learn Singapore experience in this sphere.

Among the countries of South-East Asia Singapore has the biggest amount of goods turnover with Uzbekistan. In 2003-2005 the amount of turnover between two states was \$76,1 million, in 2006 it made up \$86,2 million[20].

In 2011 the goods turnover exceeded \$101 million[21]. In 2012 it made up \$178 million[22]. For the last several years the amount of goods turnover has been constantly increasing. But this is not about to stop, because the potential of two countries are at a high level and their cooperation will constantly develop at the same level.

Uzbek-Vietnam cooperation. Vietnam recognized Uzbekistan's independence on December 27, 1991 and on January 17, 1992 the diplomatic relations were established. In 1993 the embassy of Vietnam was opened in Tashkent.

In 1996 the president of Uzbekistan I.A.Karimov paid an official visit to Vietnam. As a conclusion of this visit there was signed an agreement on the base of interstate relations, cooperation and some intergovernmental conventions. The legal foundation of this consists of 13 intergovernmental documents. On July 26-28, 2010 a 3- level Uzbek-Vietnam political consultations (between the Ministries of foreign affairs) and a 4-level Uzbek-Vietnam meeting of Intergovernmental commission took place. On September 9-13, 2010 the minister of team security of BCP Le Hong Anya visited Uzbekistan in order to develop comprehensive cooperation. During this visit there was signed an intergovernmental agreement on joint fight against terrorism, organized crime and others[23].

In December 2010 the ambassador of Uzbekistan to Indonesia was appointed as an ambassador concurrently to Vietnam.

On November 17-21, 2010 some representative businessmen under the guidance of the deputy minister of industry and trade of BCP visited Uzbekistan in order to develop bilateral cooperation in the sphere of economics and to continue implementing signed agreements. During the visit there were signed 2 memorandums on cooperation in the sphere of light industry. In May 2014 some staff representatives of Prosecutor General's Office of Vietnam visited Uzbekistan. As a conclusion of visit a memorandum on bilateral cooperation was signed.

In addition, the turnover indexes between Uzbekistan and Vietnam do not correspond to the economic trade, investment cooperation perspectives of two states. In 2012 the turnover was \$10,6 million, in 2013 it made up \$13,5 million[24].

In order to develop the cooperation in cultural-humanitarian sphere there has been functioning a friendship society "Uzbekistan-Vietnam" and "Vietnam-Uzbekistan" since December, 1995. During 2014 both of the states exchanged several visits in the sphere of cultural cooperation.

The analysis of relationship development between Uzbekistan and ASEAN countries shows that these relations are developing gradually and constantly in a full accordance with their mutual consent.

The main focus is on the cooperation in the sphere of tourism and on strengthening economic relations. Our foreign policy which is based on the balance of power since the end of XX century has not changed its status and this means that in the XXI century Uzbekistan will continue to cooperate with ASEAN members in the same mode. Uzbekistan is an active supporter of strengthening the

cooperation in such spheres as exploring and mining mineral resources, energetic sources and development of tourism. Signed agreements and similar positions on resolving international problems show that mutual relations between these states will succeed in positive perspectives in future.

References

1. I.A.Karimov. Speech at the plenary session of UN Summit devoted to the Millennium development goals. September 20, 2010. – Deepening democratic reforms and forming a civil society is the main criterion of our country's development. T.19. Tashkent. "Uzbekistan", 2011, p.19
2. I.A.Karimov. Speech on the celebration of 17th anniversary of independence of Uzbekistan. – T.17. Our main task is to provide a progressive and sustainable development of the country. – Tashkent: Uzbekistan, 2009. – p. 6-7
3. A.A.Sharapov. Integration processes in the region of Asian-Pacific//Economy and law. – Tashkent, 2004. - №4. – p.75-77
4. A.G.Hudoyberdiev. Political-legal foundations of the Uzbek-Malaysian cooperation: the collection of theoretical and practical seminar at Tashkent state institute of Oriental studies. Tashkent, 2011, - p.81-83
5. F.U.Usarov. Uzbek-Malaysian relations are developing//Our national values are our spiritual wealth. The collection of theoretical and practical conference. – Tashkent, 2006. – p.74-75
6. F.U.Usarov. Uzbekistan's cooperation with South-East Asian countries (on the example of Malaysia). – Tashkent: Uzbekistan National state University, 2010. – p.28
7. Malaysia's foreign policy: Continuity & Change; edited by Abdul Razak Baginda. – Malaysia: Marshall Cavendish Editions, 2007. – P. 186.
8. I.Jurayev. Uzbekistan's mutual cooperation with South-East Asian countries: the collection of theoretical and practical seminar at UWED. Tashkent, 2010. – p.75
9. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
10. http://kommersant.uz/intervyu?mode=view&post_id=1268802
11. Indonesia's foreign policy in the current global era. Presented by Nicholas T.Dammen, Director General/head of policy planning and development agency Ministry of Foreign Affairs of The Republic of Indonesia. – Tashkent, 28 November, 2005. – P.13-14.
12. On the way to multinational, fair and prospering country: the speech of the president of Indonesia Megavati Sukarnoputri at Moscow state institute of international relations, Ministry of foreign affairs of Russia, April 23, 2003.
13. Indonesia's foreign policy in the current global era. Presented by Nicholas T.Dammen, Director General/head of policy planning and development agency Ministry of Foreign Affairs of The Republic of Indonesia. – Tashkent, 28 November, 2005. – P. 5-6.
14. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
15. http://kommersant.uz/intervyu?mode=view&post_id=1035002
16. D.Ahmedov. Uzbekistan-Indonesia: activization of relations // <http://iqtisod.zn.uz/2588>.
17. Singapur's foreign policy: Continuity & Change; edited by Abdul Razak Baginda. – Singapur: Marshall Cavendish Editions, 2007. – P. 186.
18. Uzbekistan intends to attract \$1,3 billion investments from Singapore 24.01.2007. - <http://www.easttime.ru/news/1/3/133.html>
19. P.S.Azizhonova. Singapore and Malaysia in the foreign policy of Uzbekistan // The collection of theoretical and practical conference at Tashkent state institute of oriental studies. – Tashkent, 2009. – p.76-77
20. Uzbekistan and Singapore: an important step on the way of development of cooperation - <http://www.uzembassy.ru/1641.htm>
21. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
22. Tashkent and Singapore signed several documents on bilateral cooperation. - <http://www.podrobno.uz/uz/cat/politics/tashkent-i-singapur-podpisali-ryad-soglasheni/>
23. http://mfa.uz/rus/mej_sotr/uzbekistan_i_strani_mira/uzbekistan_strani_atr/
24. Uzbekistan and Vietnam discussed the development of economic relations. - <http://www.gazeta.uz/2014/09/13/vietnam/>

UDK: 323.2

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA SAN’AT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI.**M.I.Nasrullayev, M.G.Xasanov**
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida san’at sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish ochib berilgan. Sohani rivojlantirish borasida qabul qilingan qaror va farmonlarning mazmun-mohiyati aks etgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, qarorlar, mustaqillik, musiqa san’ati, raqs san’ati.

Формирование правовых основ развития сферы искусства в годы независимости Узбекистана

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование правовых основ развития в сфере искусства в годы независимости республики Узбекистан. Раскрытие сущности и значения принятых нормативно-правовых документов, касающихся рассматриваемого вопроса.

Ключевые слова: конституция, постановление, независимость, музыкальная искусства, хореография.

Juristic aspects of development of art in Uzbekistan during independence years

Abstract. In this article, the formation of the legal framework for development in the field of art in the years of independence of the Republic of Uzbekistan is considered. Disclosure of the essence and significance of the adopted regulatory legal documents relating to the issue under consideration.

Keywords: constitution, decree, independence, musical art,

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng san’at sohasini rivojlantirishga katta e’tibor berildi. San’at sohasi davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim komponentlardan biridir. Chunki san’at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shakli bo‘lib, insonlarning madaniy, hamda ma’naviy dunyoqarashining yuksalishi, yosh avlodning estetik tarbiyasi, aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishi uchun xizmat qiladigan, insoniyatni ezgulikka, tinchlikka, halollikka, vatanparvarlikka, xalqparvarlikka, insonparvarlikka, taraqqiyotparvarlikka undaydigan sohadir. Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab mazkur sohani rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqdi. Bu borada amalga oshirilgan eng katta chora-tadbir — sohani qonuniy asosda rivojlantirishda uning huquqiy asoslarini yaratish bo‘ldi. Bu “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat va jamiyat hayoti uchun o‘ta muhim va dolzarb masalalarni o‘z ichiga olgan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy munosabatlarni tartibga soladigan eng oliy va mukammal qonunlar to‘plami, milliy qomusimizdir. Unda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan moddalar mavjud va ular madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 1-bo‘lim, 1-bob 4-moddasiga ko‘ra [1] O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili hisoblanadi. Mazkur moddaga ko‘ra mamlakatimiz nafaqat milliy tilimiz, qadriyatimiz, madaniyatimiz va san’atimizni, balki Respublikamizda istiqomat qiluvchi boshqa millat vakillarining tillari, urf-odatlarini, an’analari, shuningdek madaniyati va san’atini ham keng rivojlantirishini kafolatlaydi. Bu albatta millatlararo totuvlik, boshqa millat vakillariga g‘amxo‘rlik, tinchlik va mamlakatning ijtimoiy-madaniy sohalariga berilgan kuchli e’tibor.

Konstitutsiyamiz qabul qilingandan buyon yuqoridagi moddaga muvofiq juda ko‘p tadbirlar amalga oshirildi, chunonchi, 1992 yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi “Baynalmillat madaniyat” Markazi tashkil qilinib, unga milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko‘maklashish vazifasi yuklatildi, tub aholi bo‘lmagan xalqlar milliy an’analari, madaniyati, san’ati va boshqa o‘ziga xos jihatlarining rivojiga keng yo‘l ochib beruvchi milliy-madaniy markazlar tashkil etildi. Shunday milliy-madaniy markazlar

1989-yilda 12 tani tashkil etgan bo'lsa, ularning soni mustaqillikdan keyin ya'ni 1995-yilda 80 taga yetdi, 2008-yilga kelib esa 140 dan oshdi[2]. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish yetti tilda olib borilmoqda. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etadi. "O'zbekiston — umumiy uyimiz" shiori ostida do'stlik va madaniyat festivali 2017-yilda oltinchi bor o'tkazildi. 2017-yil 24-yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy madaniyat markazlarining bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqarildi.

Konstitutsiyamizning 2-bo'lim, 9-bob, 42-moddasiga ko'ra: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi". [3] Ushbu moddada mamlakatimizda fuqarolarning erkin ijod qilish, madaniyat yutuqlaridan unumli foydalanish ijtimoiy huquqi, madaniyat, ilm-fan soha rivojlantirilishi davlat tomonidan kafolatlanishi ko'zda tutilgan.

Konstitutsiyamizning 2-bo'lim, 11-bob, 49-moddasi: "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir" [4]. Demak ushbu moddaning mazmuni madaniyat va san'at, umuman milliy qadriyatimizni qayta tiklash, rivojlantirish bilan birgalikda ularni asrab-avaylash ham davlat va fuqarolarning eng muhim vazifasi ekanligini bildiradi.

Birinci Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov san'atni rivojlantirish masalasiga qaratilgan ko'plab Farmonlar chiqarib, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Birinci Prezidentimizning 1996 yil 31 dekabrda PF-1692-sonli "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi Farmoni yosh avlodni o'zbek madaniyati va san'ati an'analari, ilg'or jahon andozalari asosida bilim olishini ta'minlash hamda ushbu soha o'qituvchi, ilmiy-ijodiy xodimlari mehnatini rag'batlantirish, shuningdek, respublika madaniyat va san'at bilim yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida chiqarilgan edi [5]. Mazkur huquqiy hujjat asosida musiqiy ta'lim, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyati tartibga solindi, samaradorligi oshirildi va bu o'z navbatida mamlakatimizda madaniyat va san'atning rivojlanishiga xizmat qildi.

Milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, o'zbek raqs san'atining tarixiy an'analari va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona fazilatlarini, boy ma'naviyatiga monand raqslarni targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy raqs yo'nalishlari bo'yicha uzoq muddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash, raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik didiga zid bo'lgan yuzaki, no'rin tanqidga asoslangan xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish hamda bu soha tashkilotlarining moddiy negizini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8-yanvarda PF № 1695

sonli "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" Farmoni e'lon qilindi[6]. Mazkur farmon tufayli milliy raqs birlashmasi («O'zbekraqs») tashkil etildi, bugungi kunga kelib san'at sohasiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida milliy raqs va xoreografiya san'ati alohida o'rniga ega bo'ldi va bu san'at sohasi yildan yilga rivojlanib kelyapti. Prezidentimiz qo'llab-quvvatlashlari natijasida Milliy raqs san'atimiz xalqaro sahnalarga chiqarildi va butun jahon e'tiboriga tushdi.

Birinci Prezidentimizning 1995-yil 20-oktabrda qabul qilingan "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 1998-yil 26-martda imzolangan "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlari yurtimiz madaniy hayoti, teatr san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF № 1980-sonli "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida" Farmoni O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha-san'ati an'analari o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish, maxsus ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish maqsadida qabul qilingan edi[7]. Ushbu farmon mamlakatimiz teatr san'atini va san'at faoliyatini rivojlantirishda eng

muhim huquqiy asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF № 4956-sonli Farmoniga asosan yuqorida keltirilgan farmondagi ba'zi bandlar o'z kuchini yo'qotdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 5-mart PF 1419-sonli "O'zbeknavo gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida" Farmoni musiqa-raqs san'atini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash maqsadida e'lon qilingan edi. Bu farmon asosida musiqa san'atining estrada, maqom, milliy qo'shiqlar yo'nalishlari rivojlandi. 2017-yil 15 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF № 4956 sonli Farmoniga asosan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etilgani bois yuqorida keltirilgan farmonda o'z kuchini yo'qotdi[8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 29-aprelda "O'zbekkino davlat-aksiyadorlik kompaniyasini tuzish to'g'risida" qabul qilingan Farmoni mamlakatimizda kino san'atini rivojlantirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda va bu farmon asosida kino san'ati sohasi faoliyatida ko'plab ijobiy o'zgarishlar yuz berish natijasida kino san'ati rivojlandi[9].

Milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'alarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatish maqsadida 1997-yil 31 martda chiqarilgan PF № 1741-sonli "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni asosida: xonadon sharoitida yuksak badiiy buyumlar ishlab chiqaruvchi xalq hunarmandlari mahalliy xom ashyo, materiallar, asboblari va kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlandi, tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan do'konlar va kiosklar tarmog'ini tashkil qilindi, yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlari vujudga keltirildi, badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atning eng yaxshi namoyondalari xizmatlarini, ularning milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga va iste'dodli yoshlarni tayyorlashga qo'shgan hissasini rag'batlantirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Xalq ustasi» unvonini ta'sis etildi va ko'plab amaliy san'at ustalari shu unvon bilan taqdirlanib kelimoqda. Bundan tashqari xalq ustalarining, «Usto» birlashmasi va «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazining ushbu markaz huzurida xalq hunarmandlarining Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida bo'linmalarga ega bo'lgan «Hunarmand» uyushmasini tashkil etilib faoliyati yo'lga qo'yildi[10].

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan boshlangan buyuk ishlar bugungi kunda ham davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 15 fevralda madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholining keng qatlam o'rtasida ma'nan va axloqan komil inson bo'lishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishni rag'batlantirishga yo'naltirish maqsadida "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF № 4956-sonli Farmon chiqarildi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatiladi va uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi. Alohida ta'kidlash joizki, farmonga ko'ra, Madaniyatning ushbu sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha barcha jabhalarini qamrab oluvchi quyidagi asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilangan:

- milliy madaniy va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va boyitish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, aholining ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada oshirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirish;

- aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g'oyasiga, yuqori ma'naviyat va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ulari yanada chuqur ildiz otishi, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning o'sib kelayotgan

intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- badiiy ijodning rivojlanishini yanada rag'batlantirish, ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyati samaradorligini oshirish, ularning imkoniyatlaridan ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan va yuqori madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishlarida yanada to'laroq foydalanish.

Ta'kidlash joizki, farmonga binoan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etilgan. Ushbu muassasa o'zida 2,5 ming ijodiy jamoa va ijrochilarni birlashtiradi hamda musiqa, xoreografiya va estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish, O'zbekiston xalqining ma'naviyati, yorqin va o'ziga xos madaniyatini yorituvchi yuksak badiiy va sifatli asarlar yaratishga har tomonlama ko'maklashish imkonini beradi. Farmonga binoan "O'zbekkonsert" davlat muassasasi faoliyatini moliyalashtirish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu jumladan, ularni jihozlash va ta'mirlash, madaniyat va san'at arboblarning xalqaro festivallar va konkurslarda ishtirok etishini ta'minlash, Madaniyat vazirligi muassasalari kadrlari malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish uchun byudjetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tuzish nazarda tutilgan.

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi. Madaniyat vazirligiga tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda o'zbek raqsining boy tarixiy an'alarini qayta tiklash va asrab-avaylashga yo'naltirilgan O'zbekiston milliy raqsini yanada rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatli chora-tadbirlar dasturini, shuningdek, madaniyat muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, barcha madaniyat va aholi dam olish markazlarida kutubxonalar tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish yuzasidan berilgan topshiriq milliy madaniyatimizning kelgusi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega[11].

Mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar tahlili hukumatimizning bu soha taraqqiyotiga xizmat qiluvchi va xalqaro standartlar talabiga javob beruvchi huquqiy asos yaratishga katta e'tibor berilganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.; "O'zbekiston" 2014-y.
2. Jo'rayev N. "Mustaqil O'zbekiston tarixi" T.; G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2013-y. 272-275 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.; "O'zbekiston" 2014-y.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.; "O'zbekiston" 2014-y.
5. <http://mcs.uz/mcs/ministry-news-uz/1035-pf-1692-respublikada-musiqiy-talimni-madaniyat-va-sanat-oquv-yurtlari-faoliyatini-yaxshilash-togrisida.html>
6. <http://mcs.uz/mcs/ministry-news-uz/1036-pf-1695-ozbekistonda-milliy-raqs-va-xoreografiya-sanatini-rivojlantirish-togrisida.html>
7. <http://mcs.uz/mcs/ministry-news-uz/1043-pf-1980-ozbekiston-teatr-sanatini-rivojlantirish-togrisida.html>
8. http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=175384
9. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 4-сон, 8-10 бетлар.
10. <http://mcs.uz/mcs/ministry-news-uz/1053-pf-1741-xalq-badiiy-hunarmandchiliklari-va-amaliy-san'atni-yanada-rivojlantirishni-davlat-yoli-bilan-qollab-quvvatlash-chora-tadbirlari-togrisida.html>
11. <http://uza.uz/uz/documents/madaniyat-va-sport-sohasida-boshqaruv-tizimini-yanada-takomi-16-02-2017>

AXBOROT FALSAFASI PARADIGMASI

G.G'.G'affarova

*O'zbekiston milliy universiteti falsafa ilmiy markazi, yetakchi ilmiy xodim*E-mail: gulchehra_3@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi ilmiy yo'nalish bo'lgan axborot falsafasining mohiyati, unga oid yondashuvlarning falsafiy mohiyati yoritilgan. Ya'ni, axborot falsafasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar hamda hozirgi kunda olimlarning axborot falsafasiga qiziqishini oshirishda qanday omillar ko'maklashishi kabi masalalar falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot falsafasi, axborotli yondashuv, fanlararo yondashuv, dunyoqarash, tafakkur, axborot tizimi

Парадигма философии информации

Аннотация. В статье описывается сущность философии информации, которая является новой отрасли в науке и его отражение смысл философских подходов. То есть, анализированы философские проблемы философии информации, а также факторы способствующие повышению интереса к философскому анализу философии информации.

Ключевые слова: информация, философия информации, информационный подход, междисциплинарный подход, мировоззрение, мысль, системы информации.

Paradigm of philosophy of information

Abstract. In the article the meaning of philosophy of information is described. New researches in philosophy of information, new problems of methods, which help to improve researching are analyzed.

Keywords: information, philosophy of information, informational approach, mind, structure of information.

Zamonaviy fan rivojlanishining dolzarb falsafiy va ilmiy-metodologik muammolari tahlili ushbu muammolardan biri axborot falsafasining mohiyatini anglash ekanligini ko'rsatmoqda. Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, axborot bizni qurshab turgan olamdagi eng muhim ahamiyatli va shu bilan birga, jumboqli hodisadir. XX asrning o'rtalaridan boshlab bir necha o'n yilliklar davomida ko'plab olimlar ushbu hodisa mohiyatini anglab yetishga takror-takror uringanlar. Lekin hozirgi vaqtgacha ilmiy muhitda axborot falsafasining umumiy konseptual mohiyati to'g'risida kelishilgan tasavvur ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ushbu urinishlar bugungi kunda, ko'pincha axborot asri deb atalmish XXI asrning ikkinchi o'n yilligining boshida ham davom etmoqda.

Ma'lumki, XXI asrda olam tezkor o'zgarib bormoqda. Bunday tub va keng miqyosli o'zgarishlar jamiyatning aynan axborot sohasida sodir bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlar ilmiy-texnik inqilobning navbatdagi bosqichi emas, balki global sivilizatsion xarakterga ega jarayondir. O'z navbatida, XXI asrning o'rtalaridayoq sayyoramizda "sivilizatsiyaning umuman yangi turi – axborot (informatics) sivilizatsiyasi shakllanadi" [2; 3, B.112], deb bashorat qilinmoqda. Darhaqiqat, sivilizatsiyaning shakllanish jarayonida jamiyatning deyarli barcha sohalarida axborot va ilmiy bilimning ahamiyati jiddiy ravishda ortadi. Aynan shu hodisa falsafiy tadqiqotlarning yangi, axborot falsafasi deb nom olgan yo'nalish rivojlanishining asosiy sababi bo'lib xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda bir necha mamlakatlarda (jumladan, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy kabi) falsafiy tadqiqotlarda yangi yo'nalish – axborot falsafasi paydo bo'ldi. Jahon ilmiy jamoatchiligi doirasida ushbu falsafiy yo'nalishning mazmuni faol muhokama etilmoqda, bunda Rossiya va Xitoy olimlari peshqadamlik qilmoqda. Jumladan, rus, xitoy va ingliz tillarida qator ilmiy maqolalar va monografiyalar chop etildi, xalqaro konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan va nashr etilgan, Internet tarmoqlarida olimlarning ilmiy bahs-munozaralari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, 2011-yildan boshlab Rossiyada muntazam ravishda "Axborot to'g'risidagi fanlar ilmiy-metodologik muammolari" mavzudagi fanlararo ilmiy-metodologik seminar majlislari (yig'ilishlari) o'tkazilmoqda [12-14], unda turli mamlakatlarning axborot falsafasi sohasidagi natijalari tahlil qilinmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “axborot falsafasi” atamasi yaqinda paydo bo‘lib, undan xitoylik olim Lyu Gan o‘zining “Axborot falsafasi va bo‘lg‘usi Xitoy fan va texnika falsafasi asoslari” nomli maqolasida foydalangan. Unda “kiberfazoning paydo bo‘lishi va kiberdavrning boshlanishi” bilan birga paydo bo‘lgan axborot falsafasini falsafiy tadqiqotlar sohasidagi yangi fan sifatida tan olish taklif etiladi[11]. Umuman olganda muallif axborot falsafasining paydo bo‘lishini oxirgi o‘n yillikda o‘zini sezilarli darajada namoyish etayotgan jamiyat axborotlashuvi jarayonining rivojlanishi bilan shartlaydi. Uning ta’kidlanicha, ushbu jarayonning oqibatlaridan biri falsafadagi - “kompyuter bilan bog‘liq burilish” bo‘ldi, bunda jamiyatning keng miqyosli kompyuterlashtirilishidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni falsafiy anglash bo‘yicha urinishlar amalga oshirilmoqda. Bizning nazarimizda ushbu nuqtai-nazar juda tor, shuning uchun unga qisman, ya’ni falsafiy tadqiqotlar sohasida yangi fanning ajralib chiqishining maqsadga muvofiqligi masalasida qo‘shilish mumkin. Ushbu fanning mazmuniga kelganda, bizning fikrimizga ko‘ra, u sezilarli darajada keng bo‘lishi lozim.

Darhaqiqat, axborot falsafasi ilmiy maktabi Xitoyda 30 yildan buyon mavjud bo‘lib, uning asoschisi va ilmiy peshqadami professor U.Kundir. Hozirda u Sian Jiaotong universiteti qoshida 2011-yilda tashkil qilingan Axborot falsafasi xalqaro tadqiqot markaziga rahbarlik qilib kelmoqda. Ushbu Markazning Xalqaro akademik kengashi tarkibiga Avstriya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, AQSH, Rossiya va Fransiya olimlari kirgan. Markazning asosiy vazifalari maqsadli ilmiy-nashriyot faoliyati, axborot falsafasi muammolari bo‘yicha Internet tarmoqlarida munozaralar va xalqaro konferensiyalar o‘tkazish yo‘li bilan turli mamlakatlar kuchlarini birlashtirishdan iborat[26]. Shunday konferensiyalarning birinchisi Sianda 2013-yil oktabrda o‘tkazildi.

Ma’lumki, 1968-yilda A.D. Ursulning axborot tabiati bo‘yicha birinchi monografiyasi bosilib chiqqanda, “kiberfazo” (“kibermakon”) va “falsafada kompyuter bilan bog‘liq burilish” kabi tushunchalar ilmiy jamoa o‘rtasida hali tarqalmagan edi. Shunga qaramasdan, o‘sha vaqtlarda Rossiyada yangi ilmiy fan - axborot nazariyasining falsafiy jihatlarini faol muhokama qilingan, bu fan jadal rivojlana boshlagan va nafaqat texnik fanlarda, balki biologiya va lingvistikada keng foydalana boshlagan edi. Yuqorida keltirilgan monografiyada A.D. Ursul axborot falsafasi muammolari mazmunining keng tushunilishini rivojlantirdi va asoslab berdi. Uning nuqtai-nazariga ko‘ra[19], falsafaning ushbu yo‘nalishi yaqin kelajakda jamiyatning informatsion rivojlanishi jarayonining ilmiy asosiga aylanishi kerak. Bunda u mazkur jarayonni ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi sifatida emas, balki sivilizatsiya rivojlanishining sifat jihatdan yangi, yanada yuqori darajaga – noosferaning shakllanishiga o‘tishning boshlanishi deb bilgan. Ushbu strategik jihatdan muhim falsafiy g‘oya A.D. Ursulning “Noosfera yo‘li. Tirik qolishi va sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi konsepsiyasi” monografiyasida yetarli darajada batafsil asoslab berilgan. Bu asarda informatsion rivojlanish insoniyatning keyingi evolyutsiyasida, har holda XXI asr davomida, ustunlik qilishi kerakligi ko‘rsatilgan[20].

Axborot falsafasi tushunchasini ikki xil ma’noda, ya’ni keng ma’noda 1960-yillardan axborotni umumiy muammosini o‘rganish bilan bog‘liq faoliyat sifatida (R.F.Abdeev, Yu.F.Abramov, N.P.Vashekin, V.M.Glushkov, V.S.Gott, D.I.Dubrovskiy, V.S.Kogon, K.K.Kolin, V.V.Sanochkin, E.P.Semenyuk, A.V.Sokolov, A.D.Ursul, D.S.Chernavskiy, A.I.Chyorniy, Yu.A.Shreyder va boshqalar), tor ma’noda 1996-yildan boshlab falsafiy bilimlarda mustaqil soha (M.N.Sherbinin, A.V.Nesterov, S.M.Olenev, L.V.Skvorsov, V.I.Kashirin, O.V.Kashirina, K.K.Kolin, A.V.Sokolov, G.V.Xlebnikov, Yu.Yu.Chyorniy va boshqalar) sifatida tushunish mumkin.

A.V.Sokolov o‘z tadqiqotlarida axborot falsafasining ikki xil: pozitiv va metafizik jihatlarini ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, “metafizik axborot falsafasining vazifasi asl mohiyatini ochib berish, ya’ni semantik axborot, uni borliq bilan tushunish (ontologiyasi), uni tabiati (epistemologiyasi) qadriyati (aksiologiyasi) metodologik prinsiplarga asoslangan”[17, B.299]. Demak, axborot falsafasining metafizik jihatlarining tuzilishi quyidagilardan iborat: axborot epistemologiyasi (gnoseologiyasi), axborot ontologiyasi, axborotli yondashuv metodologiyasi, axborot aksiologiyasi, inson va axborot (antropologiya falsafasi), axborot fenomenologiyasi (turli fenomenlar mohiyati) hamda axborot etikasi.

Darhaqiqat, bugungi kunda axborot falsafasi predmeti oxirigacha aniqlanmagan. Rossiya axborot falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, u bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik muammolariga, boshqa tomondan axborotning antropologiya va etikasiga oid qiziqishlarning

oshganligidir. Shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham axborot falsafasiga oid ilmiy tadqiqotlar mavjud [8-10; 25]. Ushbu tadqiqotlarda axborot tushunchasining falsafiy muammolari, axborotning ontologik, epistemologik, gnoseologik hamda sinergetik tahlili, axborot fenomeni yoritilmoqda. Masalan, Sh.S.Qo'shoqovning ilmiy tadqiqoti «axborot» tushunchasi va uni turlarining falsafiy-metodologik tahliliga bag'ishlangan [9].

Umuman olganda, bugungi kunda axborotga ega bo'lish hamda undan asosiy manba va sivilizatsiya rivojlanishining ustuvor omili sifatida keng foydalanish insoniyatni tizimli tanglikdan chiqish va hozirgi davrning aksariyat global muammolarini, shuningdek kelajakda vujudga keladigan muammolarni hal qilishga umidvor qiladi. Xo'sh, axborotga ega bo'lish talabi nimani bildiradi? Avvalo, bu uning tabiatini, ya'ni konseptual falsafiy mohiyatini adekvat tarzda tushunish zaruriyatidir [5]. Keyingi talab tabiat va jamiyat, shuningdek inson evolyutsiyasi jarayonlaridagi axborot ahamiyatini tushunish zaruriyatidan iborat. Tadqiqot natijalari ko'rsatib turganidek, "axborot va informatsion o'zaro ta'sir jarayonlari muhim o'rin egallagan hozirgi zamon olam manzarasi faqat shu asosda qurilishi mumkin"[4, B.12]. Aynan shuning uchun axborot tabiatini falsafiy anglash dolzarb va strategik jihatdan muhim ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda olimlarning axborot falsafasiga qiziqishini oshirishga qanday omillar ko'maklashadi? Bunda birinchi navbatda zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb muammosini ko'rsatish joiz, unda informatsion jihatlar insonning informatsion yashash muhiti va faoliyatining shiddatli rivojlanishi tufayli muhim bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "bugungi kunda bunday dunyoqarash nafaqat olimlar, balki davlat arboblari, siyosatshunoslar, pedagoglar, har bir o'qimishli odam uchun kerak"[6, 84].

Ikkinchi omil sifatida axborot fanining fanlararo ahamiyatini ko'rsatish mumkin, uning konsepsiya va usullari tabiat, jamiyat va insonni ilmiy tadqiq qilishning turli yo'nalishlarida tobora keng foydalanilmoqda. Rossiya va chet el olimlarining tadqiqotlari ko'rsatganidek, har qanday tirik organizm, o'z mohiyatiga ko'ra, juda murakkab axborot tizimidir, uni o'rganish uchun axborot to'g'risidagi fanning fundamental qonuniyatlarini, shuningdek ushbu hodisaning turli informatsion muhitlarda namoyon bo'lishi ajoyib xilma-xilligini bilish va ulardan foydalanish zarur[18].

Xulosa qilib aytganda yuqorida sanab o'tilgan omillarning ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ortib boradi. Aynan bu hol axborot falsafasi rivojlanishini va uning yutuqlariga asoslangan ilmiy dunyoqarashni zamonaviy fanning keyingi rivojlanishidagi g'oyat dolzarb va strategik jihatdan muhim muammoga aylantiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda axborot falsafasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, buning sababi bir tomondan axborotning ontologik va gnoseologik mohiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan axborotning etik va antropologik xususiyatlaridir. Shu bilan birga, bugungi kunda axborotga oid fanlarning falsafiy va ilmiy-metodologik jihatlarini o'rganish sohasida ba'zi istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek fanlararo tadqiqotlar va fanlar integratsiyasini rivojlantirish uchun ularning ahamiyati ko'rib chiqilmoqda. Bizning nazarimizda, fan integratsiyasi maqsadida qilinishi kerak bo'lgan qadamlardan biri bu – axborot falsafasi sohasini rivojlantirish va u qo'lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanish hamda axborot fanlarini rivojlantirishdir. Shuning uchun axborot falsafasining asosiy konsepsiyalaridan, shuningdek axborot fanlari usullaridan fanning boshqa sohalarda foydalanish ushbu sohalarda yangi natijalarga erishish hamda fanning o'zini integratsiyasiga yordam beradi.

Adabiyotlar

- 1.Каширин В.И., Каширина О.В. Философия информации: союз философии и компьютерной культуры // Вестник Ставропольский государственный ун-та: научный журнал. – Ставрополь, 2006. Вып.44. – С.157-161.
2. Колин К. К. Информационная цивилизация, какой она будет? // Библиотекосведение, 2001. № 5. -С.32-38.
3. Колин К.К. Информационная цивилизация. - М.: ИПИ РАН, 2002. –С.112.
4. Колин К. К. Овладение информацией - стратегическая проблема развития цивилизации в XXI веке. //Межотраслевая информационная служба, 2013, № 2. С. 5-15.
5. Колин К. К. Сущность информации и философские основы информатики // Информационные технологии. 2005. № 5. С. 63-70.

6. Колин К. К. Человек в изменяющемся мире и проблема научного просвещения // Информация и научное мировоззрение: сборник статей. - М.: Русская школьная библиотечная ассоциация, 2013. - С.81-98.
7. Колин К.К. Философия информации и фундаментальные проблемы информатики // Информационные ресурсы России: научно-практический журнал. - М., 2010. №1(113), -С.25-28.
8. Кушаков Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки). Новая серия. Вып. № 340. - Самарканд: СамГУ, 1976. -С.55-76.
9. Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты): Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. - Ташкент, 1978. - 24 с.
10. Ланцева О. Информационные аспекты развития (философско-методологический анализ): Дисс. ... канд. филос. наук. - Ташкент, 1995. - 125 с.
11. Лю Ган. Философия информации и основы новой китайской философии науки и техники // Вопросы философии. 2007. № 5. -С.45-57.
12. Методологические проблемы наук об информации: материалы 10-м заседании семинара. - М: ИНИОН РАН, 7 февраля 2013. <http://www.inion.ru/seminars.mpni>
13. Методологические проблемы наук об информации: материалы 11-м заседании семинара. - М: ИНИОН РАН, 15 марта 2013. <http://www.inion.ru/seminars.mpni>
14. Методологические проблемы наук об информации: материалы 17-м заседании семинара. - М: ИНИОН РАН, 24 апреля 2014. <http://www.inion.ru/seminars.mpni>
15. Нестеров А.В. Философия информации // Научно-техническая информация. Сер.1. - М., 2000. №2, -С.1-9.
16. Скворцов Л.В. Философия информации или информационная культура // Человек: образ и сущность. Слово и культура. Ежегодник. - М., 2003. - С.53-80.
17. Соколов А.В. Философия информации: проф.-мировоззрение. Учебное пособие. - СПб: СПбГУКИ, 2010. - 368 с.
18. Судаков К. В. Информационный феномен жизнедеятельности. М.: РМАПО.1999. - 380 с.
19. Урсул А. Д. Природа информации. Философский очерк. - М.: Политиздат, 1968. - 288 с.
20. Урсул А. Д. Путь в ноосферу. Концепция выживания и устойчивого развития цивилизации. - М.: Луч, 1993. 275 с.
21. Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. - М.: Наука. 1971. -295 с.
22. Урсул А.Д. Природа информации: философский очерк. 2-е изд. - Челябинск, 2010. - 231 с.
23. Щербинин М.Н. Философия информации // Информатизация Москвы, России, мира, Вселенной. - М., 1996. №3(4).
24. Щербинин М.Н. Философия информации // Прикладная философия и социология: труды международной конференции. - Ульяновск: УлГТУ, 2001. Т.1. -С.99.
25. Гаффарова Г.Ф. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари: Дисс. фалс.ф.н. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. - 160 б.
26. Wu Kun. Thirty years of research of Information Philosophy in Cina // Открытое образование. № 5. С. 28-49.

UDK: 1:008

**GLOBALLASHUV VA UNING IJTIMOIIY HAYOTDAGI “OMMAVIY
MADANIYAT”GA TA’SIRI
Sh.J Xoshimov, S.X.Xoshimova
Samarqand davlat universiteti**

Annotatsiya. Maqolada globallashuv jarayonlari va uning ijtimoiy hayotdagi “ommaviy madaniyat”ga ta’siri masalalari tahlil qilingan. Hozirgi davrdagi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jamiyat hayotiga “ommaviy madaniyat” ta’sirining kuchayishiga, ma’naviy hayot

sohasidagi globallashuv jarayonlarining kengayib borishiga olib kelmoqda. “Ommaviy madaniyat” esa jamiyat hayoti va shaxs tarbiyasi masalalariga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Maqolada ushbu jarayondagi oʻzaro bogʻliqlik, aloqadorlik va qonuniyatli rivojlanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Globallashuv, axborot kommunikatsiya, axborotlashgan jamiyat, sivilizatsiya, ijtimoiy hayot, “ommaviy madaniyat”, maʼnaviy globallashuv.

Влияние “массовой культуры” на общественную жизнь в условиях глобализации.

Аннотация. В статье анализируется влияние глобализационных процессов на “массовую культуру” в общественной жизни. Информационные процессы современности усиливают влияние “массовой культуры” на общественную жизнь, и расширению глобализационных процессов в духовной жизни общества. С другой стороны “массовая культура” влияет на общественную жизнь и воспитание личности, анализируется взаимосвязь, взаимодействие и закономерное развитие этих процессов.

Ключевые слова: Глобализация, информационная коммуникация, информационное общество, цивилизация, общественная жизнь, “массовая культура”, духовная глобализация.

Globalization and its influence to “Mass Culture” in social life

Abstract. In the article the processes of globalization and its influence to “mass culture” in social life are analyzed. Nowadays the process of globalization and information lead to increase the influence of “mass culture” to life of society and to enlarge the process of globalization in the sphere of spiritual life. “Mass culture” influences to the issues of persons’ behavior and social life. The issues of relationships, links and development are analyzed.

Keywords: globalization, informational – communication, informational society, civilization, social life, “mass culture”, spiritual globalization.

Hozirgi davr jahon miqyosida globallashuv jarayoni kuchayayotgan, insoniyatning axborotlashgan jamiyat bosqichiga oʻtishi tobora chuqurlashib borayotgan davrdir. Tezkor axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida dunyodagi turli xalq va elatlar orasida globallashuv jarayonlari sodir boʻlayotgan vaqtda butun insoniyat, jumladan xalqimiz ham maʼnaviyatga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan turli mafkuraviy tahdidlar ostida yashamoqda.

Bugungi kunda globallashuv insoniyat jamiyati taraqqiyoti va ijtimoiy jarayonlarning jahon miqyosida integratsiyalashib, olamshumul ahamiyat kasb etib borishini oʻzida ifodalovchi tushuncha boʻlib, globallashuv kommunikatsiya vositalaridagi tub oʻzgarishlar, investitsiyalardagi yangi jarayonlar, dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishida namoyon boʻladi. Globallashuv muayyan hodisa, jarayonning koʻplab mintaqalar, davlatlar va butun yer yuzini qamrab olganini hamda ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanligini anglatuvchi tushunchadir.

Shu bilan birgalikda, ayni paytda globallashuv zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining muhim xususiyatini oʻzida ifodalab, u jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy-mafkuraviy sohalarini qamrab oladi. Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini ifodalovchi texnologik globallashuv, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni oʻzida ifodalovchi siyosiy globallashuv, fan, madaniyat, taʼlim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv jarayonlari sodir boʻlmoqda.

Globallashuv jarayonining yana bir oʻziga xos jihati uning mafkuraviy taʼsir oʻtkazish vositasi sifatida gʻoyaviy jarayonlarga taʼsir koʻrsatishidir.

Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga taʼsir koʻrsatib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiyati bilan bogʻlaydi. Bugungi kunda globallashuv jamiyat taraqqiyotidagi qonuniy tarixiy jarayon boʻlib, globallashuv jarayoni insoniyat jamiyati yangi sivilizatsiyaviy sifat oʻzgarishini oʻzida ifodalamoqda. Jamiyat hayotidagi bu yangi sifat darajasi axborot-texnikaviy yoki axborot-kompyuter sivilizatsiyasi sifatida eʼtirof etilmoqda. Axborot texnologiyasi iqtisodiyot rivojlanishi, qishloq xoʻjaligi, sanoat, xizmat koʻrsatish sohalaridan keyingi oʻrinni egallaydi.

Globallashuv va axborotlashuv barcha mamlakatlarning iqtisodiyoti, siyosati va maʼnaviy hayotiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar bilan bogʻliq boʻlib, axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi

matbuot, radio, televidenie kabi hodisalarni o'zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Radio, televidenie, Internet eng so'nggi ilmiy yangiliklarni qisqa vaqtda butun dunyoga ma'lum qilishga, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at yutuqlaridan har bir odam foydalana olishiga zamin yaratmoqda. Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylanib, bugungi kunda Internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki boshqa sohalarda ham foydalanilmoqda.

Ma'naviy hayotdagi globallashuv jarayonlari, ommaviy axborot vositalari, Internet, radio, televidenie, uyali aloqa vositalari orqali axborotni yetkazishning faollashuvi ham ijobiy ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarib, bir tomondan ma'naviy globallashuv natijasida ma'naviy hayotimizga kirib kelayotgan ilm-fan, madaniyat va san'at, ma'naviy meros ijobiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan turli zararli g'oyalar hamda mafkuralarning jamiyatimiz ma'naviy hayotiga kirib kelishi barkamol avlodni tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash vazifasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Shuning uchun ham bugungi kunda ommaviy axborot vositalari hamda yangi texnologik vositalar asosida xalqimiz hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarning qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritish, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyilini ijtimoiy hayotga keng tatbiq qilish har qachongidan ham dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda.

"Ommaviy madaniyat" bu – bir guruh shaxslar tomonidan o'ylab topilgan va ongli ravishda targ'ib qilinadigan, biror millat madaniyatiga dahli bo'lmagan g'oyalar va udumlar yig'indisidan iboratdir. Ommaviy madaniyat bir o'lchamli hodisa bo'lmay, u o'ziga xos tur va darajaga egadir. Hozirgi zamon madaniyatshunosligida ommaviy madaniyatning 1. Kich, 2. Mid, 3. Art madaniyatlaridan iborat uchta asosiy darajasi ko'rsatiladi. Kich – madaniyat, bu past darajadagi vulgar, behayolar madaniyati, Mid – madaniyat, bu "o'rtamiyona" madaniyat, Art – madaniyat, bu ma'lum badiiy mazmun va estetik qiymatga ega bo'lgan madaniyatdir. "Kich" so'zi nemislarning "kitchen" so'zidan hosil bo'lgan va saviyasi past, arzon va jo'n asar yaratib, sotishni bildiradi. Mid – madaniyatning qamrovi keng va darajasi ancha baland bo'lib, u an'anaviy madaniyatning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa ham, ommaviy madaniyatga bevosita taalluqlidir. Art madaniyati odatda, aholining bilimli qismiga mo'ljallangan ommaviy madaniyatdir.

"Ommaviy madaniyat" bozordagi tovarga aylanib, muayyan xususiyatlar kasb etdi. Chunki, talab, taklif, raqobat kurashiga asoslangan iqtisodiy munosabatlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni xaridorga taklif qilish jarayonida uning go'zalligi, ixchamligi, xaridorning talab, ehtiyojiga to'g'ri kelishini hisobga olish, mahsulotning dizayni va reklamasiga e'tiborni qaratish "ommaviy madaniyat"dan tijorat sohasida foydalanish imkoniyatini yaratdi. Chunki turli rasmlar, buyumlar, san'at turlari va namunalarida ham "ommaviy madaniyat"ga tayanilmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilish, tarqatish imkoniyatlari nihoyatda kengayib ketdi. "Ommaviy madaniyat"ning tub zamirida tijorat, moddiy manfaatdorlik mavjud bo'lib, asosiy maqsad foyda olishga qaratilganidan so'ng odob, axloq, ta'lim, tarbiya, insoniylik degan tushunchalarga qarama-qarshi ravishda axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm g'oyalari ham keng miqyosda targ'ib tashviq qilina boshlandi.

XX asrning o'rtalaridan "ommaviy madaniyat"ga ommaviy axborot vositalari kuchli ta'sir o'tkaza boshlagan bo'lsa, asr oxiriga kelib va XXI asrning boshlarida bu ta'sir yanada kuchaydi. "Ommaviy madaniyat" yoki G'arbda aytilganidek "populyar kultura" bugungi kunda xalq va millatlarning mumtoz madaniyatiga, san'atiga, uning boyliklariga qarshi kurashib, uning yutuqlarini inkor qilib kelyapdi.

Shuning uchun bugungi kunda "ommaviy madaniyat"ning ma'naviy-axloqiy tubanliklaridan davlatimiz fuqarolari, eng avvalo, yoshlarni asrab avaylash, ularni ogohlikka da'vat etish, o'sib kelayotgan yosh avlodimizning dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlar yo'nalishidagi kurashlarning xatarli ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi. Inson ongi va qalbi uchun kurash esa, eng avvalo, axborot orqali, g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali olib boriladi. Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim, - degan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov, - Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq

normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzulqilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalari tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. [1, 117]

Globallashuv sharoitida jahondagi ko'pgina rivojlangan davlatlarning geopolitik maqsadlari va manfaatlarini muayyan geografik hududlar bilan chegaralanib, kuchli axborot texnologiyalariga ega bo'lgan davlatlar o'zlari ishlab chiqqan axborotni tarqatish yo'li bilan muayyan hududlar, davlatlar, mamlakatlar ustidan avval g'oyaviy, keyin esa siyosiy, iqtisodiy va madaniy hukmronlik qilishga harakat qilib kelmoqdalar. Axborot ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda internet orqali keng ko'lamda tarqatilmoqda va targ'ib qilinmoqda. Turli ommaviy axborot vositalari, televidenie, radio, davriy matbuot o'ziga xos psixologik ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, Internetning paydo bo'lishi bilan ommaviy kommunikatsiya, axborot yetkazish imkoniyatlari nihoyatda kuchayib ketdi. Hozirgi davrda globallashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir sharoitda milliy ma'naviyat, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tiklanish, ma'naviy yuksalish jarayonlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida jadid ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlarini keltiradi. "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi. [2, 3] "Ommaviy madaniyat" ham taalluqli bo'lgan turli zararli g'oyalar va mafkuralarga qarshi kurash masalasi Prezident Sh.Mirziyoyevning boshqa nutq va ma'ruzalarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida quyidagi fikrlar bayon qilingan edi: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rishimiz shart [3, 2].

Mustaqillikdan keyingi o'tgan davr mobaynida O'zbekiston mustaqilligining huquqiy me'yoriy asoslari yaratildi, asosiy qonun – Konstitutsiya qabul qilindi. Milliy davlat tizimi an'anaviy davlatchilik g'oyalari va jahon davlatchiligi ilg'or tajribalarining sintezi shaklida barpo etildi. Boshqaruvda yangi usullar qaror topdi. Mahalliy davlat hokimiyati tizimi tubdan o'zgarib, nodavlat – notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi. O'zbekistonda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili amalga oshirila boshlandi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar hamda globallashuv sharoitida jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlari ko'rib o'tiladigan bo'lsa, eng avvalo O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllantirildi, jamiyat hayotida sog'lom demokratik jarayonlar muhiti vujudga keltirildi. Inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy asoslari vujudga keltirilib, sud hokimiyati hozirgi zamon xalqaro huquq tamoyillari negizida tubdan isloh qilindi. Milliy xavfsizlik konsepsiyasi ishlab chiqilib, mamlakat hududiy yaxlitligini va tinchligini ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy qurolli kuchlar tizimi yaratildi. Shuning uchun bugungi kunda ijtimoiy hayotdagi yangilanish jarayonlari iqtisodiyotni ham, boshqarishni ham, ma'naviy hayotni ham, sud-huquq tizimini ham, mamlakat mudofaasi, qurolli kuchlarini ham qamrab olgan keng qamrovli jarayondir.

O'zbekistonda jamiyat hayotini modernizatsiya va isloh etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Respublikada xususiy mulkka

UDK: 316:37

**PARLAMENTLARARO HAMKORLIK SOHASIDAGI TASHKILOTLAR FAOLIYATINING
INSTITUTSIONAL JIHLTLARI****O.M.Nayimov***Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

Annotasiya. Ushbu maqolada zamonaviy parlamentlararo hamkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan xalqaro parlament tashkilotlari faoliyatining institutsional jihatlari tahlil qilingan. Jumladan, parlamentlararo uyushmalarning dunyo bo'ylab vakillik demokratiyasini rivojlantirish, siyosiy muloqot va parlamentarizm an'alarini qo'llab-quvvatlashdagi sa'y-harakatlari hamda qudratli xalqaro tashkilotlar faoliyatini demokratik andozalar asosida nazorat va monitoring qilib kelayotganligi ochib berilgan. Muallif, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tarkibida faoliyat olib borayotgan parlament assambleyalarining o'ri va rolini tadqiq etgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro parlament institutlari, parlament assambleyasi, parlamentarizm, Parlamentlararo Ittifoq, parlamentlararo hamkorlik, vakillik demokratiyasi, siyosiy muloqot, samarali boshqaruv, parlament diplomatiyasi.

**Институциональные аспекты деятельности организаций в сфере
межпарламентского сотрудничества**

Аннотация. В данной статье анализируются институциональные аспекты международных парламентских институтов, которые являются основной движущей силой современных межпарламентских контактов. В ней исследуются роль межпарламентских институтов в развитии представительской демократии, в поддержании политического диалога и идеи парламентаризма, а также их усилия в осуществлении парламентского контроля и мониторинга деятельности влиятельных международных организаций. Автор также раскрывает место и роль парламентских ассамблей функционирующих в составе международных организаций.

Ключевые слова: Международные парламентские институты, парламентская ассамблея, парламентаризм, Межпарламентский Союз, межпарламентское сотрудничество, представительная демократия, политический диалог, эффективное управление, парламентская дипломатия.

**The institutional aspects of the work of organizations in the field of inter-parliamentary
cooperation**

Abstract. In this article institutional aspects of the activities of international parliamentary institutions that are the major moving force of global parliamentary cooperation are analyzed. The focus is given to the role of inter-parliamentary structures in the development of representative democracy, the support of political dialogue and the ideals of parliamentarism, as well as their efforts in conducting parliamentary control and monitoring of the works of influential international organizations.

Keywords: International parliamentary institutions, parliamentary assembly, parliamentarism, Inter-parliamentary Union, inter-parliamentary cooperation, representative democracy, political dialogue, good governance, parliamentary diplomacy.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar, bir tomondan, murakkabligi, ziddiyatlarga boyligi va noaniqligi bilan, ikkinchi tomondan esa dunyo xalqlari taqdirining chambarchas aloqadorligi bilan xarakterlanadi. Bugungi globallashuv davrida xalqaro aloqalar ko'lami va darajasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda; mazkur jarayonda ishtirok etuvchi subyektlar soni va sifati tobora yuksalib, an'anaviy aktorlar (milliy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va h.k.) bilan bir qatorda ulkan resurs va ta'sir kuchiga ega bo'lgan noan'anaviy kuch markazlari (transmilliy korporatsiyalar, xalqaro va nohukumat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar, ekologik tashkilotlar, media kompaniyalari, lobbi guruhlari) ham faol ishtirok etmoqda. "Zamonaviy dunyo tartibotida kuch-qudrat, deya ta'kidlagan edi AQShning Xalqaro Aloqalar Kengashi Prezidenti Richard Xaas, biror bir markazda jamlanmaganligi, aksincha tarqoqligi (dispersal of power) bilan ajralib turadi".

Ta'kidlash joizki, jahon siyosatida nisbatan yangi kuch sifatida ko'rilayotgan xalqaro parlament institutlarining shakllanishi va dinamik taraqqiyoti XX asr xalqaro munosabatlarining fenomenal hodisasi hisoblanadi. Boshqa ko'plab hukumatlararo tashkilotlardan ayrim xususiyatlariga ko'ra farq qiluvchi parlamentlararo institutlar umume'tirof etilgan xalqaro prinsip va normalar asosida demokratik, adolatli va vakillik tipidagi xalqaro munosabatlar tizimini barpo etishni o'zining pirovard maqsadi deb hisoblaydi.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari parlamentlarining dastlabki xalqaro instituti – Parlamentlararo Ittifoqqa 1889-yilda asos solingan bo'lib, bu sana xalqaro munosabatlarda parlamentlararo institutlarning soni va faoliyat doirasi kengayib, umumjahon parlament harakatining ta'sirchan kuchga aylanib borishi kabi ulkan o'zgarishlarning debochasi bo'ldi. Dastavval faoliyat ko'lami va jug'rofiyasi ancha cheklangan mazkur tashkilotlar, bugungi kunga kelib 'ochiq, demokratik va shaffof xalqaro tizimni yaratishdek tom ma'nodagi global maqsadga erishishga intilib kelmoqda.

XX asr siyosiy tafakkurining yirik vakili Robert Putnam 'institutlar siyosatni, tarix esa o'z navbatida, institutlarni shakllantiradi, deya ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, xalqaro parlament institutlarining evolyutsion taraqqiyotida muayyan tarixiy davrlar va shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, bu davrlar umumjahon demokratlashtirish va parlamentarizm g'oyalarining keng tarqalishi kontekstida yuzaga kelganligini alohida qayd etish o'rnlidir.

Ma'lumki, xalqaro parlament institutlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ilk markazi Yevropa qit'asi bo'lsa-da, XX asrning 60 yy.dan boshlab ushbu tendensiya global ahamiyat kasb etib, dunyoning boshqa mintaqalariga ham keng yoyila boshladi. Bunga xalqaro aloqalarning jadal rivojlanishi, mislsiz ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, mintaqaviy integratsion jarayonlarning chuqurlashuvi, parlamentarizm ideallarining ommalashuvi hamda eng muhimi, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarida mustamlakachilik tizimining yemirilishi kabi ulkan transformatsion o'zgarishlar sabab bo'ldi. Vujudga kelgan qulay global muhit natijasi o'laroq xalqaro aloqalarda davlatlar bilan bir qatorda, qator nohukumat tashkilotlari, transmilliy korporatsiyalar, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik harakatlari va fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi kuzatila boshladi.

Jahon siyosatida parlamentlararo institutlar soni va sifatining yuksalib borishi, o'z navbatida, parlamentlararo hamkorlikni xalqaro munosabatlarning jadallik bilan rivojlanib borayotgan jabhasiga aylantirdi. Parlamentlararo hamkorlik sohasida institutsional uyushmalar sonining ortib borish tendensiyasi hozirgi kunga qadar davom etmoqda. So'nggi paytlarda, ayniqsa, xalqaro aloqalar sohasida faol ishtirok etayotgan milliy va transmilliy parlamentlararo uyushmalarning soni ortib bormoqda. Bu jahon siyosatida o'ziga xos yangicha voqyelik bo'lib, ushbu tendensiya, o'z navbatida, xalqaro parlament diplomatiyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining sobiq prezidenti va parlamentshunos olim Luis Mariya de Puig parlamentarizm paydo bo'lishi va rivojlanishining eng muhim bosqichlarini to'rt davrga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Bunga parlamentlararo assambleyalar paydo bo'la boshlagan ilk davrdan tashqari Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr, geosiyosiy bloklarga asoslangan sovuq urush yillari, 1989-yilda Berlin devori qulagandan keyingi davr hamda parlament institutlari faoliyatining butun dunyoni qamrab olgan hozirgi zamonaviy davri kiradi.

Ma'lumki, mintaqaviy va xalqaro darajadagi parlament institutlaridan tashqari bugungi kunda dunyoning ko'plab nufuzli tashkilotlari tarkibida ham parlament assambleyalari mavjud bo'lib, ular ushbu tashkilotlarning xalqaro faoliyati ustidan parlament nazorati va monitoringini olib bormoqda. Bu kabi tashkilotlar qoshida tashkil etilayotgan parlament assambleyalari sonining oshib borish tendensiyasini ayrim olimlar 'xalqaro tashkilotlarning parlamentlashuvi' deya ta'rif beradi. Parlament assambleyalarining asosiy funksiyalari sifatida xalqaro masalalarda qudratli ta'sir kuchiga ega bo'lgan davlatlar va xalqaro institutlar tomonidan tuziladigan bitim va shartnomalarning demokratik va vakillik mezonlariga qay darajada muvofiqligini muntazam ravishda tekshirib borishni qayd etish mumkin. Bugungi kunda, agar, biror bir nufuzli tashkilot tarkibida parlament assambleyasi mavjud bo'lmasa, bunday tashkilot faoliyatining demokratik xarakteriga oid tanqidlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki kabi qudratli moliya tashkilotlarining dunyo xalqlari taqdiriga daxldor bo'lgan kelishuv va bitimlarini demokratik andozalar asosida doimiy monitoring qilib borish masalasini dunyo parlamentariylari turli darajadagi

xalqaro minbarlardan bot-bot takrorlab kelmoqda. Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan tashkilotlar ish-faoliyati ustidan bevosita parlament nazoratini joriy etish maqsadida mazkur tashkilotlar qoshida parlament assambleyalarini tashkil etishga qaratilgan global chaqiriqlar yil sayin kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Parlamentning an'anaviy qonun ijodkorligi va ular ustidan nazorat, o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlash kabi asosiy funksiyalarini o'z siyosiy ta'limotlarida ilmiy asoslab bergan olimlarning qarashlarini ba'zan noto'g'ri talqin qilish hollari uchrab turadi. Jumladan, siyosiy fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Jon Lokk va Aleksis de Tokvil singari mutafakkirlarning parlament nazorati funksiyalarining asosan ichki siyosatga nisbatan joriy etilishi borasidagi nazariyalarini ro'kach qilib, tashqi siyosat, xavfsizlik va mudofaa masalalari parlament nazorati tatbiq etiladigan sohalar sifatida qaralmasligi kerak, qabilidagi ilmiy tortishuvlar mavjud. Shunga qaramay, bugungi kunda tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari ustidan ham xuddi ichki siyosiy jarayonlarda bo'lgani singari parlament nazorati va monitoringini olib borishga to'siq bo'ladigan hech qanday prinsipial tartib-taomillar yo'q degan qarashlar ustuvorlik qilmoqda.

Parlamentlararo tashkilotlar soni va ta'sirining oshib borishi, parlament diplomatiyasi va xalqaro parlamentlararo hamkorlikning rivojlanishi har doim ham silliq kechmaganligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, XX asrning o'rtalariga qadar xalqaro parlament institutlari sonining kamligi, ular faoliyat doirasining cheklanganligi hamda parlamentariylarning tashqi siyosiy jarayonlardagi maqsad va vazifalarining ancha mavhumligi xalqaro parlamentlararo hamkorlik rivojiga g'ov bo'lganligini qayd etish joiz. Shu bilan birga, siyosiy keskinliklar, o'zaro urush va nizolar oqibatida demokratik va umuminsoniy qadriyatlardan chekinish hollari ro'y beradiki, bu parlamentlararo hamkorlik istiqbollari ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

E'tirof etish kerakki, bugungi kunda xalqaro parlament institutlarining ta'siri va nufuzi yuksalib borishi zahirida mazkur tashkilotlarni global va mintaqaviy ahamiyatga molik bo'lgan umumbashariy muammolarni hal etish ishiga ko'proq jalb etilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ularning faoliyat ko'lami barqaror ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv (good governance), inson huquqlarini himoya qilish, tamaddunlararo va dinlararo muloqot, atrof-muhitni muhofaza qilish, demografik masalalar, urush va tinchlik muammolari, yadroviy qurolsizlanish va ommaviy qirg'in qurollarini nazorat qilish, xalqaro terrorizmga qarshi kurash kabi rang-barang sohalarni qamrab olgan.

Ayni jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan Parlamentlararo Ittifoq hozirgi davrda global parlament hamkorligining episentri hisoblanadi. O'z davrida mazkur tashkilot ilk, doimiy, ikki tomonlama va ko'p tomonlama siyosiy muloqot forumi sifatida mojarolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish hamda xalqaro tinchlikni ta'minlashni maqsad qilib olgandi. O'tgan yillar mobaynida xalqaro aloqalarning rivojlanishi, demokratik prinsiplarning jahon mamlakatlari siyosiy tizimlaridan keng o'rin olishi, integratsion jarayonlarning chuqurlashuvi kabi ulkan o'zgarishlar negizida Parlamentlararo Ittifoqning faoliyat ko'lami ham kengayib, umumjahon parlament harakatini qo'llab-quvvatlash, xalqaro parlamentlararo munosabatlarni kengaytirish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalarida milliy parlamentlarni o'zaro yaqinlashtirish, ekologik vaziyatni yaxshilash, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini nazorat qilish hamda insoniyatni tashvishga solib turgan boshqa ko'plab global muammolarni ochiq muhokama etishning o'ziga xos xalqaro forumiga aylandi. Bundan tashqari, Parlamentlararo Ittifoq doirasida parlamentariylar umumbashariy muammolarni bartaraf etish uchun milliy hukumatlar va xalqaro tashkilotlarga zarur ekspert ko'magi, aniq siyosiy taklif va tavsiyalarni berib kelayotganligini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Turli davlatlarning konstitusiyaviy tizimlari bir-biridan farq qilsa-da, parlamentlar butun dunyoda demokratiyaning markaziy instituti hisoblanadi. Qayd etish kerakki, so'nggi paytlarda BMT Parlamentlararo Ittifoq yordamida milliy parlamentlar bilan hamkorlikni izchil yo'lga qo'yib, o'zining faoliyatida parlament omilini kuchaytirishga harakat qilayotganligini ko'rish mumkin. Parlamentlararo Ittifoqning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida milliy parlamentlarni yaqinlashtirishdagi sa'y-harakatlari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yuqori baholandi. Shuningdek, "BMTning Mingyillik Deklaratsiya"sida milliy parlamentlar bilan uzviy hamkorlikni yanada jonlantirish hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, xalqaro huquq, demokratiya va gumanitar masalalarda Parlamentlararo Ittifoq bilan hamjihatlikda ish yuritish dolzarbligi bayon etilgan.

Qayd etish kerakki, so'nggi paytlarda ushbu ikki nufuzli tashkilotning rivojlanib borayotgan izchil global hamkorligi kontekstida BMT faoliyatida parlament o'lchamini yanada kengaytirish, Parlamentlararo Ittifoqni BMT tarkibida "ikkinchi assambleyasi" sifatida qayta tuzish ehtimollari turli darajalarda muhokama qilinmoqda. Garchi, hozirda ushbu g'oyaning ko'plab tarafdorlari topilsa-da, uni amalga oshirish vaqti hali kelmaganligi qayd etilmoqda.

Bugungi kunga kelib parlamentlararo assambleyalar xalqaro tashkilotlar institutsional arxitekturasining muhim va ajralmas qismiga aylandi. NATO Parlament assambleyasi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasi kabi parlamentlararo uyushmalar, hatto hukumatlararo harbiy siyosiy va xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro institutlar tarkibida ham faoliyat olib bormoqda. Garchi, NATOga a'zo davlatlar rasmiylari aksariyat hollarda mudofaa va xavfsizlikka oid muzokara va kelishuvlar jarayoniga parlamentariylarning aralashuvini unchalik istashmasa-da, mazkur institutlar qoshidagi parlament assambleyalari a'zo mamlakatlar parlamentariylarini umumxavfsizlik borasidagi diqqatga sazovor masalalar bilan imkon qadar yaqinroq tanishtirib, xabardor qilib bormoqda. Parlament assambleyalari, shuningdek, keng ommaning taqdiriga daxldor bo'lgan xavfsizlik sohasidagi qarorlar qabul qilish jarayonlarini demokratiyaning umume'tirof etilgan prinsiplariga tayangan holda ochiq va shaffof tarzda olib borishga da'vat etib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, parlamentariylar va xalqaro jamoatchilik harakatining NATO, YeXHT, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Jahon savdo tashkiloti kabi xalqaro institutlarning faoliyatini demokratik andozalar asosida muntazam tekshirib borishga bo'lgan intilishlari natijasida mazkur tashkilotlarning global sa'y-harakatlarida parlament omili va o'lchami tobora yuksalib bormoqda.

Ma'mumki, parlamentariylar o'z faoliyati davomida keskin muammolarni bartaraf etish maqsadida tamaddunlararo muloqot va diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlaydi. Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda xalqaro parlament institutlarining ixtisoslashuv tendensiyalari kuchayib borishi zahirida gumanizm g'oyalari, diniy muloqot va bag'rikenglikni rag'barlantiradigan hamda hozirgi qarama-qarshiliklarga va ziddiyatlarga boy davrda dinlararo munosabatlarni mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan Pravoslav mamlakatlari parlamentlararo assambleyasi, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Parlamentlararo Ittifoqi kabi diniy yo'nalishdagi parlament assambleyalari ham faoliyat yuritmoqda.

Shunday bo'lsa-da, xalqaro munosabatlarda parlamentlararo institutlar sonining ortib borishi va faoliyat doirasining kengayishi mazkur tashkilotlarning tashqi siyosat va xalqaro masalalarda samarali instrumentga aylanib ulgurdi, deb xulosa chiqarishga haligacha yetarli asoslar mavjud emas. Xalqaro parlament institutlarining jahon siyosatidagi o'rni va ahamiyati borasida qarama-qarshi fikrlar, tanqidiy va ishonchsizlik ruhida qarashlar ancha keng tarqalgan ilmiy hodisadir. Fikrimizcha, ushbu institutlarning faoliyatiga daxldor bu kabi munosabatlar va ilmiy tortishuvlarning xususiyatlari va mohiyatini umumlashtirib, shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh xalqaro tashkilotlarning zamonaviy siyosiy jarayonlardagi o'rni va roliga oid umumiy tanqidiy fikrlar, skeptik qarashlar hamda xalqaro institutsiyaviy hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollarga ishonchsizlik ruhida ilmiy nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ko'plab xalqaro tashkilotlarning samarali ish yuritib, global siyosatning ta'sirchan instrumentiga aylanishiga ko'p hollarda moliyaviy mablag'larning yetishmasligi, ma'muriy-tashkiliy xaxiralarning cheklanganligi, dunyo mamlakatlari o'zaro aloqalarda hukumatlararo munosabatlarga asosiy urg'u berayotganligi kabi omillar bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqdaki, bular xalqaro parlament institutlarining kundalik ish faoliyatini ham chetlab o'tgani yo'q.

Ma'lumki, siyosatshunoslikning institutsionalizm oqimi namoyandalari (Robert Keoxeyn, Endryu Moravchik, Devid Bolduin va h.k.) xalqaro tashkilotlar yetakchiligida yangicha dunyo tartibotini yuzaga kelish ehtimollarini yuqori baholashadi hamda hozirgi globallashuv davrida xalqlararo aloqalar sur'atining jadallashuvi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining mislsiz taraqqiyoti va umumjahon fuqarolik jamiyati harakatining kuchayib borishi kontekstida xalqaro tashkilotlar katta siyosat sahnasida o'zining munosib o'rnini egallaydi, degan ilmiy prognozlarni ilgari surishadi. Masalan, mazkur oqimning atoqli vakili R.Keoxeyn "sovuq urushdan keyingi o'n yilliklarda Yevropada harbiy to'qnashuvlarning oldini olish izchil institutsional hamkorlik arxitekturasining yaratilishiga bog'liq", deb hisoblasa, an'anaviy kuchlar muvozanati nazariyasining qat'iy tarafdorlari bo'lgan siyosiy realistlar "har qanday institutsional xalqaro tartibotning yuzaga kelish yoki kelmasligi

davlatlarga bog'liq bo'lib qolaveradi, degan qarama-qarshi ilmiy mulohazani o'rtaga tashlaydi. Chunonchi, siyosiy realizm yo'nalishi tarafdorlari (Gans Morgentau, Kennet Uolts, Jon Mirshaymer, Jon Aykenberri, Stiven Uolt va h.k.) bundan keyingi dunyoda ham xalqaro siyosatning eng asosiy aktorlari davlatlar bo'lib qolishini ta'kidlab, institutsional prinsip va ta'limotlarga asoslangan yangicha dunyo tartibotini yaratish urinishlari faqatgina utopik kayfiyat va xohish-istaklarni aks ettirishi va shu bois, hech qanday ilmiy va amaliy asoslarga ega emasligiga qat'iy ishonadilar.

Ikkinchi guruhda xalqaro tashkilotlar tizimida bevosita parlamentlararo institutlarning tutgan o'rni, ahamiyati va faoliyatiga oid tanqidiy qarashlarning xususiyatlari va sabablarini tahlil etish o'rirlidir. Bugungi kunda xalqaro parlament institutlariga oid ilmiy adabiyotlarda tez-tez uchrab turadigan bahs-munozalar va tanqidlarning mazmun-mohiyatini ushbu tashkilotlarning xalqaro ahamiyatga molik kelishuvlarda hanuzgacha ta'sir kuchi sezilmayotganligi, ularning sa'y-harakatlari OAV va keng jamoatchilikning e'tiboridan chetda qolayotganligi, an'anaviy "hukumat va hukumat" o'rtasidagi hamkorlik xalqaro siyosatning dominant bo'g'ini bo'lib qolayotganligi, aksariyat hollarda, ijroiya hokimiyati vakillarining parlamentariylarga real imtiyoz va vakolatlarni berishga unchalik ishtiyoqmand emasligi kabi omillar bilan izohlash mumkin.

Bundan tashqari, o'z mahalliy elektorati tomonidan parlamentariylarning muayyan muddatga saylanishi xalqaro parlament institutlari faoliyatida tizimlilik va izchillikning buzilishi, delegatlar siyosiy mandat va vakolatlarining turfa xilligi, asosiy ustuvor vazifalar va kun tartibining tez-tez o'zgarib turishi kabi holatlar mazkur institutlar oldida turgan uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shuningdek, xalqaro hukumatlararo tashkilotlardagi muzokaralar, bitim va shartnomalar tuzish kabi muhim jarayonlarda parlamentariylar ishtirokining cheklanganligi, parlamentlararo uyushmalarda izmolangan kelishuv va qarorlarning amaliy hayotda joriy etishdagi murakkabliklar ham parlamentlararo institutlarning samarali ish yuritishiga xalaqit qilmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, XX asrda o'zining jadal taraqqiyot yo'lini boshlagan xalqaro parlamentlararo institutlari bugungi kunga kelib zamonaviy xalqaro munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu tashkilotlarning tashqi siyosat, diplomatiya va xalqaro munosabatlar kabi sohalardagi o'rni va rolining o'sib borishi, parlament diplomatiyasi va parlamentlararo hamkorlik dinamikasining kuchayib borayotganligini nazarda tutib, parlamentlararo tuzilmalarning mazmun-mohiyati, shakllari, siyosiy ahamiyati kabi serqirra sohalarda kompleks tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Garchi parlamentlararo institutlarning xalqaro aloqalar tizimida tutgan o'rni ko'plab tanqidlarga sabab bo'lsa-da, mazkur tuzilmalar soni va faoliyat ko'lamining so'nggi o'n yilliklarda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi va ular jahon siyosatining muhim aktoriga aylanib ulgurganligini inkor etib bo'lmaydi. Fikrimizcha, zamonaviy parlamentlararo hamkorlik taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan xalqaro parlament institutlarining umumjahon sa'y-harakatlarini, faoliyat turlari va shakllarini, rivojlanish tendensiyalari va asosiy xususiyatlarini muntazam ravishda o'rganib borish, monitoring qilish va bu borada zarur ilmiy-amaliy tavsiya va takliflarni ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy maqsad va vazifalariga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro maydonda milliy manfaatlarni ilgari surish va amalga oshirish kontekstida parlament diplomatiyasidan unumli foydalanish yo'llarini izlash, ushbu yo'nalishda tizimli tadqiqotlar olib borish, parlamentning tashqi siyosat instrumenti sifatidagi maqsad va vazifalari, parlamentlararo hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollari doimiy tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki yuksak amaliy ahamiyatga ham egadir.

Adabiyotlar

1. Haass N.Richard. The Age of Nonpolarity. What Will Follow U.S. Dominance.//Foreign Affairs Magazine. Vol.87, No3, May/June 2008. –P.46.
2. Sabic Z. Building Democratic and Responsible Global Governance: The Role of International Parliamentary Institutions. //Parliamentary Affairs. Oxford University Press. Vol. 61, №2, 2008. –Pp. 255-271.
3. Putnam D. Robert. Making Democracy Work. Civic Traditions in Modern Italy. Princeton University Press. 1993, –Pp. 7-9.
4. Stavridis S. Parliamentary Diplomacy: Any Lessons for Regional Parliaments? P.3. Available at:

http://www.unizar.es/union_europea/files/document/conferencia%2010.2006/SteliosStavridis_english_final.pdf.

5. De Puig L. Maria. International Parliamentarism: An Introduction to its History.//Parliaments, Estates and Representation. Vol.24, Issue 1, 2004. –Pp. 13-62.
6. Rocabert J., Schimmelfennig F., Winzer T. The Rise of International Parliamentary Institution? Conceptualization and first Empirical Illustrations. ECPR Joint Sessions, 2014. For further information please refer: http://www.agora-parl.org/sites/default/files/rise_of_ipis.pdf.
7. Peters D., Wagner W., Deitelhoff N. Parliaments and European Security Policy. Mapping the Parliamentary field. European Integration Papers. Vol.14, art.12, 2010.
8. Stie E. Anne. Decision-Making Void of Democratic Qualities? An Evaluation of the EU's Foreign and Security Policy. Centre for European Studies, 2008. See: http://www.sv.uio.no/arena/english/research/publications/arena-working-papers/2001-2010/2008/WP08_24.pdf.
9. Versnick G. Report on the Nature of the Relationship between the United Nations and the World of Parliaments. Policy paper approved by the 117th IPU Assemble. Geneva, 2007. See: www.ipu.org/conf-e/117/117-un-rel.htm.
10. Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира. Справочник. (Парламентское измерение международных организаций). – Москва, Международные отношения. - 2004. - С.50-
11. United Nations Millennium Declaration. Article-30, September, 2000. For further information please visit: <http://www.un.org/millennium/declaration/ares552e.htm>.
12. De Puig L. Maria. International Parliaments. Council of Europe Publishing, 2008. –Pp. 39-4
13. Marschall S. European parliaments in transnational organizations: Parliamentary cooperation beyond the European Union. Paper was prepared for the conference “Fifty years of interparliamentary cooperation”, Bundesrat, Berlin, 2007. See: http://www.swp-berlin.org/fileadmin/contents/products/projekt_papiere/070829marschall_ks.pdf.
14. Keohane O.Robert. “The Diplomacy of Structural Change: Multilateral Institutions and State Strategies,” in Helda Haftendorn and Christian Tuschhoff, eds., America and Europe in an Era of Change. Westview Press, 1993. –Pp. 53-54.
15. Waltz N. Kenneth. “Structural Realism after the Cold War,” in John Ikenberry ed., “America Unrivaled. The Future of the Balance of Power”. Conrell University Press, 2002. – Pp. 29-67 See also: Mearsheimer J. John. The False Promise of International Institutions.//International security, Winter 1994/95, Vol.19, No3. –P. 5-9.

UDK: 32/S-12

FUQAROLIK JAMIYATI OCHIQLIGINI TA'MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O'RNI

A.Saitqosimov

Jizzax davlat pedagogika instituti

E-mail: asaitkasimov@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati ochiqligini ta'minlash muhim jarayon ekanligi ta'kidlanadi. Ilmiy maqolada fuqarolik jamiyatini ochiqligini ta'minlashda nodavlat tashkilotlarining roli, jamoatchilik nazoratini ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, bu jarayonda shaxs-jamiyat-davlat munosabatlari uzviyligining muhim o'rin tutishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, shaxs, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati ochiqligi, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy tartibot, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy sherikchilik, ijtimoiy institutlar, jamoatchilik fikri, harakatlar strategiyasi.

Роль общественного контроля в обеспечении открытости гражданского общества.

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные проблемы обеспечения открытости гражданского общества, роль неправительственных организаций в развитии гражданского

общества, обеспечения общественного контроля как важного условия гражданского общества, вопросы становления социальной справедливости.

Ключевые слова: общество, личность, гражданское общество, открытость гражданского общества, общественный контроль, социальный порядок, социальный контроль, социальные институты, общественное мнение, стратегия действий.

The role of public control in the providing of open civil society

Abstract. In the current article actual problems of providing the open civil society, the role of non-governmental organizations in the development of civil society, the providing of public control as an important condition of citizen society, social justice are discussed.

Keywords: society, person, civil society, open civil society, public control, social propaganda, social control, social institutions, public opinion, strategy of actions.

Fuqarolik jamiyati ochiqqligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining funksiyasi salmoqlidir. Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat qaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Agar jamiyat nazoratini tashkil etolmasak, ya'ni joylarda davlat idoralari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga erisholmasak, bunday noxush holatlarni tag-tomiri bilan tugatishning imkoni bo'lmaydi".(1)

Jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvida ustuvor o'rin tutadi. Jamiyatimizda demokratik an'analar rivojlana borib, davlat hokimiyatini faoliyatini amalga oshirish amaliyotida fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Bu borada davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilab olish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Bu borada "o'zaro tiyib turish", "manfaatlar muvozanati", ijtimoiy sherikchilik", "boshqaruvda ijtimoiy nazorat" kabi ijtimoiy-siyosiy kategoriyalar paydo bo'ldi-ki, bu voqelikning amaliyotini kuchaytirish borasida jamiyatda muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati, avvalambor, jamoatchilik, nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Binobarin, hokimiyat organlarining jamoat tashkilotlari orqali xalq bilan muloqoti demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyatda butun ijtimoiy-siyosiy turmush oshkora, jamoatchilik ko'z o'ngida va uning faol ishtiroki hamda aralashuvida ro'y berishi nazarda tutiladi. Shu bois qonunlar ijrosini ta'minlash va ularning hayotiyiligini ta'minlashda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim jarayondir. Bu esa, o'z navbatida olib borilayotgan islohotlarni ochiqqligini ta'minlaydi, demokratik tamoyillar amaliyotiga yangicha mazmun beradi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, «Fuqarolik institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda», deb ta'kidlagandi.(2)

Jamiyatda nodavlat va notijorat tashkilotlarining faolligini oshirish ijtimoiy faoliyat va fuqarolar hayoti sohalariga davlat aralashuvini kamaytirish, qonun vositasida cheklash bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda jamoatchilik nazorati muhim rol o'ynaydi. Siyosatshunos olim I.Ergashev ta'kidlaganidek, "Davlat hokimiyati organlari ustidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi - fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi".(3)

Jamoatchilik nazoratining mazmun va mohiyatini quyidagi yo'nalishlar asosida tavsiflash mumkin:

1. Hokimiyat organlari faoliyatining doimiy tizimli monitoringini olib borish.
2. Ijtimoiy muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilikning ishtiroki.

3. Hokimiyat organlari huzurida jamoatchilik komissiyalari, jamoatchilik kengashlarining tashkil etilishi va boshqalar.

Jamoatchilik nazorati jamiyatdagi kishilar, turli guruh, tuzilmalar va tashkilotlar tomonidan davlat boshqaruvi tuzilmalarining faoliyati ustidan jamoat nazoratini ta'minlash va ijtimoiy voqelikdagi fakt va hodisalarga yashirin yoki ochiq suratdagi munosabatini anglatuvchi ijtimoiy jarayondir. Jamoatchilik nazorati jamiyatda nazorat qiluvchi, maslahat beruvchi yoki majbur etuvchilik funksiyalarini bajarib, ijtimoiy hayotning u yoki bu masalalari, muammolari bo'yicha fikr-mulohazalar bildiradi, hukm chiqaradi. Chiqargan hukmlariga nisbatan jamoatchilik fikri baholash, tahlil qilish, amaliy tartibga solish funksiyalarini bajaradi va ijtimoiy munosabatlarning muayyan normalarini joriy qiladi.

Jamoatchilik nazorati jamiyat hayotining ko'plab sohalarini qamrab oladi va ko'lami kengayib, o'sib boradi. Ya'ni, jamoatchilik nazorati ijtimoiy hayotdagi kichik bir masaladan tortib, butun jamiyat uchun taalluqli bo'lgan juda keng miqyosdagi masala va muammolarni ham qamrab olishi mumkin. Shu bilan birlikda, jamoatchilik nazorati har qanday masala yuzasidan ham ko'tarilavermasdan, balki hayotda ijtimoiy muhim va zarur masalalarni tanlab oladi.

Jamoatchilik nazorati - muayyan ijtimoiy masalalarni ma'qullash yoki qoralashda namoyon bo'ladi, individlar, ijtimoiy guruhlar xatti-harakatini va ijtimoiy munosabatlarda muayyan me'yorlarni belgilaydi; umuman jamiyat doirasida ham, turli ijtimoiy guruhlar doirasida ham amal qiladi.

Jamoatchilik nazoratining faolligi va ahamiyati jamiyatning strukturaviy xarakteri, ishlab chiqaruvchi kuchlarning, madaniyatning, demokratik huquqiy me'yorlar va erkinliklarning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Jamoatchilik nazorati hokimiyat organlarini saylashda, ommaviy kommunikatsiya vositalarida, aholi so'rovlari va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Shu nuqtai nazardan, bugun bizning respublikamizda ham jamoatchilik nazoratini shakllanishini o'rganishni davlat darajasida tashkil etish va ushbu jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmi yuzaga kelmoqda.

Jamoatchilik nazoratining mohiyati va mazmuni bizga quyidagicha izohlarni berish imkonini beradi:

- Jamoatchilik nazorati ma'lum bir kishilar jamoasining hayotiy faoliyatlarida uchraydigan muammolarga nisbatan aniq bir hatti-harakatidir.

- Jamoatchilik nazoratining shakllanishining kriteriyasi sifatida jamoaviy talab va manfaatlar xizmat qiladi. Jamoatchilik diqqatini jalb etadigan, umumiy muhokamada ishtirok etiladigan, ishtirok orqali beriladigan xulosalardan kelib chiqadigan faktlar, tushunchalar jamoatchilik nazoratining ob'ekti bo'lishi mumkin.

- Ommaviy xulosa turlicha reallikni o'zida aks ettirishi mumkin. Bundan shu holat kelib chiqadiki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy harakatlar va qarashlar negizida ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish tizimiga ham muhim xizmatlar qiladi.

- Jamoatchilik nazorati fikrini inson xulq-atvori, amaliy faoliyatini yo'naltirib turuvchi maxsus ta'sir kuchi sifatida ham tushunish mumkin.

Jamoatchilik nazorati o'zida insonlar o'zaro faoliyatlari natijasi, alohida jarayonlar yig'indisini aks ettiradi. Biz adolatli, demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz, jamoatchilikning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishimiz, loqaydlikni bartaraf etmog'imiz zarur. Sobiq Ittifoq davrida hamma sohalarning markazlashgan tarzda davlat tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalar orqali boshqarilishi jamiyatda beparvolik, ma'suliyatsizlik kabi salbiy illatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Biz bu kabi salbiy illatlarni yo'qotmay turib, o'z fikriga ega bo'lgan, erkin fikrlovchi yoshlarni tarbiyalamay turib taraqqiyotga erisha olmaymiz.

Shu sababli hozirgi kunda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, ta'lim tizimini isloh qilishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Bo'lib o'tgan saylovlarda keng jamoatchilikning faol ishtirok etishi, mamlakatning kelajagi kimlarning qo'lga topshirilishini anglagan holda o'z nomzodlarini ko'rsatishlari O'zbekistonning kelgusidagi taraqqiyoti, jamiyat a'zolarining manfaatlarini nechog'li qondirilishi, huquqiy davlatchilik asoslarini yaratilishi ana shunga va yana bir bor jamoatchilikning ongli ishtirokiga bog'liqdir.

Yurtimizda istiqbolning dastlabki yillaridanoq kuchli fuqarolik jamiyati va adolatli demokratik davlat barpo etish maqsadida jamoatchilik nazorati sohasini huquqiy asosini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganini aytib o'tish joiz. Zero, davlat hokimiyati va boshqaruvi

organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli, samarali huquqiy mexanizmi yaratilmoqda. Jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va sub'ektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlarini, shuningdek, mazkur sohada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish ko'zda tutilmoqda.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, mahalla imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan aniq vazifalar belgilanmoqda. Bugungi kunda mahalla ozod va obod Vatan barpo etish, aholi farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni amalga oshirishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Binobarin, uning jamoatchilik nazoratini olib borishdagi imkoniyatini kuchaytirish, shunga mos ravishda qonunchilik asosini yanada takomillashtirish kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.(6)

Umuman olib qaraganda, jamoatchilik nazorati orqali kishilar siyosiy ongini, ijtimoiy qarashlarini shakllantirib borish quyidagi muammo va masalalarni hal etish jarayonlarida amalga oshiriladi:

1. Jamoatchilik siyosiy ongini, ijtimoiy qarashlarini davlat nuqtai-nazariga muvofiq milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shakllantirishi uchun ommaviy axborot va targ'ibot hamda ijtimoiy ta'sir vositalarining kompleks qo'llanishini ta'minlash;

2. Davlat va ijtimoiy boshqaruv ishlarida ommaning real ishtirokini ta'minlashga erishish, jamoat va o'z-o'zini boshqarish organlarida aholi turli qatlamlari vakillarining ishtirokini faollashtirish, kishilarning ijtimoiy ta'sir doirasidan chetda, vakuum holatida qolib ketishlariga yo'l qo'ymaslik;

3. Xalqimizga xos bo'lgan kattaga hurmat ko'rsatish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy dolzarb vazifalarda obro'-e'tiborli shaxslar ko'magida murojaat qilish, ularning kishilar orasidagi yuksak ijtimoiy mavqe-martabasini davlat va xalq manfaatlariga samaraliroq xizmat qildirishga erishish maqsadga muvofiqdir.

2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish; nazarda tutilgan.(7)

Shunday qilib, jamoatchilik nazorati deganda, umuman, jamiyatdagi kattayu kichik rahbaru xodim, aholi, barchaning sodir bo'layotgan ijtimoiy siyosiy hodisalardagi ishtiroki, xatti-harakatlari va sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan berayotgan bahosi tushuniladi. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, jamoatchilik nazorati jamiyat taraqqiyoti, islohotlar rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tayanch kuchdir.

Adabiyotlar

1. I.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -Toshkent: "O'zbekiston", 1998. -B. 244-245.
2. I.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. – T.: O'zbekiston, 2010. – B.42.
3. I.Ergashev. Kuchli fuqarolik jamiyati yo'lida. -Toshkent: "Ma'naviyat", 2011. -B.10.
4. A.Tashanov. Boshqaruv islohotlari va rahbar kompetentligi. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2011. –B.28.
5. I.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent - «O'zbekiston», 2015. –B.17.
6. Z.Mansurov. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda mahalla imkoniyatlarini kengaytirish. Xalq so'zi, 26 aprel, 2012 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

UDK: 301.085:392

IJTIMOIY HAMJIHATLIKNI ANGLASHDA SOTSIAL YONDASHUVLAR

G.G.Tagiyeva

Samarqand Davlat universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada inson o'z manfaatlarini boshqalarning manfaatlari bilan qanchalik tenglashtira olish masalalari tadqiq etildi. Shuningdek, xorij olimlarining tadqiqotlari o'rganilib, uning dolzarb masalalari aniqlandi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy hamjihatlik, shaxs erkinligi, jamiyat, madaniyat, muammo, axloqiy baholash, aqliy rivojlanish, ijtimoiy iroda, umumiy qadriyatlar.

Социальные подходы в сознании социальной солидарности

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы личных интересов человека и сравнение их интересами других людей. А также изучены и определены актуальные вопросы исследования зарубежных ученых.

Ключевые слова: социальная солидарность, свобода личности, общество, культура, проблемы, нравственная оценка, умственное развитие, общественная воля, общечеловеческие ценности.

Social approaches in understanding of social solidarity

Abstract. This article considers the issues of human comparison, how their interests are with the interests of others. As well studied and identified relevant research questions of foreign scientists.

Keywords: social solidarity, the liberty to personalities, society, culture, problems, moral estimation, mental development, public will, humanity value.

сморкание соскучившихся певчих» («Анна Каренина»). *Клирос* – часть внутреннего устройства храма, место для чтецов и певчих на возвышении перед алтарем по правую и левую стороны от Царских врат. «Дьякон вышел на *амвон*, выправил ... длинные волосы из-под стихаря и, положив на груди крест, громко и торжественно стал читать слова молитвы» («Война и мир»). *Амвон* – полукруглая возвышенная площадка перед Царскими вратами православного храма, ведущими в *алтарь*. *Алтарь* – главная (восточная возвышенная) часть храма, отделенная от центральной части *иконостасом*. *Иконостас* – часть внутреннего устройства храма – перегородка, составленная из одного или нескольких родов икон, отделяющая алтарь от средней части храма. *Аналой* – часть внутреннего устройства, высокий домик с наклонным верхом в центре храма, на который кладутся иконы и богослужебные книги. *Царские врата* – главный вход в алтарь. *Храм* – здание, предназначенное для совершения богослужений и церковных обрядов. *Церковь* – здание, в котором происходит христианское богослужение, храм. *Часовня* – небольшое церковное строение для молитвы с иконами, лампадой, но в отличие от церкви, без алтаря. *Собор* – главная церковь в монастыре, в городе или в одной из его частей, где служба обычно совершается несколькими священнослужителями (соборна). *Приход* – церковь, которую постоянно посещают жители определенной местности (прихожане).

4) Божества, имена святых, почитаемых православной церковью: «Молитесь *Богу* и просите его. Даже святые отцы имели сомнения и просили *Бога* об утверждении своей веры» («Анна Каренина»). *Бог* – Властитель и Творец мира (вселенной) и всех живых существ, в том числе и человека. Всевышний. «Там (во ржи) я стал на колени, сложил руки, поблагодарил *Отца Небесного* за свое спасение и с покойным чувством заснул» («Детство. Отрочество. Юность»). «*Христос* никогда бы не сказал этих слов, если бы знал, как будут злоупотреблять ими. Из всего Евангелия только и помнят эти слова» («Анна Каренина»). *Христос, Иисус Христос* – согласно христианскому вероучению: Сын Божий, рожденный Девой Марией, принявший страдания и смерть на кресте во искупление человеческих грехов, воскресший и вознесшийся на небо; глава христианской церкви. «Денисов одевался в чекмень, носил бороду и на груди образ *Николая Чудотворца*...» («Война и мир»). «Пьеру было открыто одним из братьев-масонов следующее, выведенное из Апокалипсиса *Иоанна Богослова*, пророчество относительно Наполеона» («Война и мир»). *Иоанн Богослов* – один из 12-ти апостолов, автор Евангелия от Иоанна, книги Откровения (Апокалипсиса) и трех посланий, вошедших в Новый Завет.

Сравните без контекста: *Троица* – Бог Отец, Бог Сын и Бог Дух Святой – Единый Бог в трех Лицах, или Ипостасях. *Господь* – именование Бога, обозначающего Его как Владыку. *Спаситель* – именование Иисуса Христа как искупителя грехов человечества. *Царица Небесная, Пречистая Дева* – именования *Богородицы, Матери Господа Иисуса Христа, Богоматерь*. *Мария Магдалина* – христианская святая, мироносица, которая следовала за Христом и присутствовала при распятии. *Илья Пророк* – библейский пророк Илия, один из наиболее чтимых на Руси святых, прославившийся многими чудесами. *Иоанн Креститель (Иоанн Предтеча)* – ближайший предшественник Иисуса Христа, предсказавший пришествие Мессии. Крестил в водах Иордана Иисуса Христа, был обезглавлен царем Иродом по желанию иудейской царевны Иродиады и ее дочери Саломеи.

5) Звания и титулы церковнослужителей: «Навстречу им (Пьеру и Анне Михайловне) вышли на цыпочках, не обращая внимания, слуга и *причетник* с кадилом» («Война и мир»). *Причетник* (псаломщик, дьячок) – младший чин церковного причта. «Поп у нас прекрасный, служит прилично, так это благородно, и *дьякон* тоже» («Война и мир»). *Дьякон, диакон* – священнослужитель низшей (первой) степени святости, помощник священника при богослужении и совершении церковных обрядов. «В конце третьего года был пострижен в *иеромонахи*: с именем Сергея» («Отец Сергей»). *Иеромонах* – монах, имеющий сан священника (имеет право совершать церковные таинства. «Великий соблазн для Сергия состоял в том, что *игумен* этого (столичного) монастыря, светский, ловкий человек, делавший духовную карьеру, был в высшей степени антипатичен» («Отец Сергей»). «В то время как Нехлюдов вошел в его приемную, Топоров в кабинете своем беседовал с монахиней *игуменьей*...» («Воскресение»).

Без контекста: *Благочинный* – священник, помощник епископа, осуществляющий надзор за храмами и духовенством в нескольких приходах. *Духовник* – священник, принимающий у

кого-либо исповедь постоянно; духовный отец. *Духовное лицо* – священнослужитель, представитель духовенства. *Духовенство* – служители Церкви, поставляемые в духовный сан через рукоположение, дающее право и благодать совершать богослужения и Таинства Церкви. *Братия* – монахи одного монастыря, одной общины.

6) Названия церковных праздников: «На третий день *Рождества* Николай обедал дома, что в последнее время редко случалось с ним» («Война и мир»). *Рождество Христово* – один из самых главных двенадцати церковных праздников, который празднуют 7 января в память о рождении на земле Иисуса Христа. «Была весна, канун праздника *Преполовления*. Отец Сергей служил всенощную в своей пещерной церкви» («Отец Сергей»). *Преполовление* – церковный праздник, совершаемый в среду четвертой недели после Пасхи; *Преполовление Господне*; *Преполовление Пятидесятницы*. «Настал *сочельник*. Елку убрали...» («Детство Никиты»). *Сочельник* – название дня накануне церковных праздников Рождества Христова и *Крещения*, когда соблюдается пост до вечера, а потом едят *сочиво*. *Крещение* – одно из семи церковных Таинств, обряд, совершаемый над людьми. Принимающими христианство, заключающийся в троекратном погружении с головой в купель со святой водой. *Сочиво* – размоченные или вареные зерна пшеницы, ржи, овса или других злаков с добавлением меда.

7) Посты и их названия: «Княгиня Щербицкая находила, что сделать свадьбу до *поста*, до которого оставалось пять недель, было невозможно» («Анна Каренина»). *Пост* – воздержание от скоромной пищи, установленное церковными правилами. Посты бывают однодневными: по средам и пятницам, и многодневными: Великий, Петровский, Успенский и Рождественский. «В конце *Петровского поста* Аграфена Ивановна Белова ... приехала в Москву поклониться московским угодникам» («Война и мир»). *Петровский пост* – начинается через неделю после *Пятидесятницы* и продолжается до *Петрова дня*. *Петров день* – название одного из церковных праздников в честь апостола Петра и Павла, с которого на селе традиционно начинались покосы. *Пятидесятница* – то же, что и День Святой Троицы.

8) Названия богословских сочинений, религиозной литературы: «К ночи кругом гроба горели свечи, на гробу был покров... а в углу сидел дьячок, читая *Псалтырь*». («Война и мир»). *Псалтырь (Псалтирь)* – богослужебная книга, входящая в Ветхий Завет, состоящая из 151 *псалма*; *псалом* – религиозное песнопение, входящее в состав Псалтыри. «Урок состоял в выучении наизусть нескольких стихов из Евангелия и повторения начал *Ветхого Завета*» («Анна Каренина»). *Ветхий Завет* – первая, древнейшая из двух (наряду с Новым Заветом) часть христианской Библии. «*Библейское* предание говорит, что отсутствие труда – праздность – было условием блаженства первого человека до его падения» («Война и мир»). *Библейский* – входящий в состав *Библии*. *Библия* – собрание священных книг иудейской и христианской религий, состоящее из Ветхого Завета (признаваемого каждым из этих вероучений) и Нового Завета (признаваемого только христианством). «... возразил Сергей Иванович ... приводя то самое место из *Евангелия*, которое всегда более всего смущало Левина» («Анна Каренина»). *Евангелие* – часть Библии, состоящая из четырех книг Нового Завета, повествующая о земной жизни Иисуса Христа и излагающая учение о Царстве Божием. «Старичок священник, с редкою полуседою бородой, с усталыми добрыми глазами, стоял у аналоя и перелистывал *требник*» («Анна Каренина»). *Требник* – богослужебная книга, по которой совершаются *требы*; *требы* – богослужебный обряд (панихида, отпевание, погребение, освещение дома и т.п.) или таинство (крещение, исповедь, причастие на дому, венчание), совершаемый священнослужителями по просьбе верующих.

9) Молитвы, слова и выражения из них, формулы речевого этикета, пожелания, выражения надежды, упрека, просьбы и т.п.: «... дьячок вынес скамеечку, ту самую, на которой читались *коленопреклонные молитвы* в Троицын день, и поставил ее перед Царскими дверьми» («Война и мир»). *Коленопреклонная молитва* – молитва с прошением о милости Божией, о ниспослании Духа Святого, об успокоении умерших, которую священник читает на вечерне в день Троицы, стоя на коленях в Царских вратах, обратившись лицом к верующим. «Пока священник читал *отходную*, умирающий не показывал никаких признаков жизни; глаза были закрыты» («Анна Каренина»). *Отходная* – молитва, читаемая умирающему на исход души. «Когда кончился *молебен*, Кутузов подошел к иконе, тяжело опустил на колени...» («Война и

мир»). *Молебен* – просительное или благодарственное моление (по поводу значительных событий общественной или частной жизни). *Молитва* – хвалебное, просительное или благодарственное обращение человека к Богу, Богородице или святым. «Сначала или похвалы, которые кончались словами: «помилуй мя», а потом шли новые похвалы, кончавшиеся словами: «аллилуйя» («Воскресение»). *Аллилуйя* – хвалебный возглас, славословие Бога: «Хвалите Господа!» «... Яко милостивый и человеколюбец Бог еси, и тебе славу воссылаем, Отцу и Сыну, и Святому Духу, ныне и присно и во веки веков. – «А-аминь» - опять разлился в воздух невидимый хор» («Анна Каренина»). *Аминь* – истинно, верно, да будет так (слово, употребляющееся в конце христианских молитв и проповедей). «... и Тебе славу воссылаем, Отцу и Сыну и Святому Духу и ныне, и присно, и во веки веков» («Война и мир»). *Присно* – всегда, вечно. *Ныне, и присно, и во веки веков* – слова, которыми завершаются молитвы. «Поезжай завтра утром, классически, делать предложение, и да благословит тебя Бог» («Анна Каренина»). *Да (пусть) благословит тебя Бог* – традиционное пожелание успеха, благополучия.

Без контекста: *Царствие небесное* – место пребывания Бога и душ праведных людей, рай; по обычаю православных эти слова сопровождают упоминание об умершем. *Вечная память* – молитва, которая трижды поется на панихиде об усопшем; пожелание, чтобы всегда помнили кого-либо умершего. *С Богом!* – пожелание успеха, благополучия. *Бог милостив* – выражение надежды на лучшее.

10) Названия церковных обрядов и Таинств: «На другой день больного *причастили* и *соборовали*» («Анна Каренина»). *Причащение* – одно из семи церковных Таинств, в котором верующие, вкушая под видом хлеба и вина Тело и Кровь Христовы, становятся причастниками Божественного естества и вечной жизни и получают благодатные силы к совершению добродетелей. «Доктора объявили, что надежды к выздоровлению нет; больному дана была глухая исповедь и причастие, делали приготовления для *соборования*...». *Соборование (елеосвящение)* – одно из семи церковных Таинств, которое состоит в том, что при помазании больного (умирающего) освященным елеем (освященное оливковое масло) священник испрашивает для него благодать Божию, исцеление души и телесной немощи. «Его (князя Андрея) *исповедали*, причастили; все приходили к нему прощаться» («Война и мир»). *Исповедь* – одно из семи церковных Таинств: признание во всех грехах перед священником, который прощает кающемуся все грехи от имени Бога. «...Наташа хотела бежать в отсутствии своего отца, с тем, чтобы тайно *обвенчаться*» («Война и мир»). *Венчание* – одно из семи церковных Таинств, в котором церковь благословляет супружеский союз и испрашивает венчающимся помощь Божественной благодати в совместной благочестивой жизни.

Попутно заметим, что сверхсловные единицы с религиозной окрашенностью в течение длительного употребления приобрели характер устойчивых словесных комплексов. Среди них выделяются такие фразеологизмы, которые, выйдя за пределы религиозной сферы жизни, приобрели разговорную окраску и крылатость: *Христа ради*; *Боже, спаси и сохрани*; *как на грех*; *Господи помилуй*; *блудный сын*; *Бог знает*; *Бог наказал*; *Бог не обидел*; *Бог тебе (вам) судья*; *Бога гневить*; *Богом обиженный*; *Богу (было) угодно*; *отдать Богу душу*; *ради Бога*; *Божий суд*; *Божий свет*; *не приведи Господь (Господи)*; *греха нечего таить*; *как на духу*; *Христом Богом просить (молить)*; *ставить (поставить) крест (на ком-либо, чем-либо)*; *дать обет*; *отпустить душу на покаяние* и прочие; другие устойчивые словесные комплексы пополнили фразеологический фонд устного народного творчества: *геена огненная*, *нечистая сила*, *нечистый дух*, *злой дух (сатана)*, *быть (оказаться) в преисподней* и др.; однако основная масса устойчивых сочетаний слов осталась в пределах православной фразеологии: *Вербная суббота*, *Вербное воскресенье*, *Иверская икона Божьей Матери*, *Воскресение Христово*, *глухая исповедь*, *ранняя литургия* и мн.др.

Рассматривая православную лексику и фразеологию с точки зрения происхождения, замечаем, что в основном эти слова и выражения исконно русского происхождения, а также заимствования из греческого (в большинстве своем), латинского, древнееврейского и старославянского языков. Сравните иноязычную лексику и фразеологию: *аналой* (греч. «подставка для книг»); *кафизма* (греч. «сидение») – каждый из двадцати отделов Псалтыри, читаемый в церкви; *келья* (греч. «комната, чулан») – отдельная комната монаха, (монахини) в

монастыре; *кулич* (греч. «хлеб круглой или овальной формы») – сдобный хлеб, предназначенный для пасхального праздничного стола; *монах* (греч. «одинокий») – человек, посвятивший себя Богу, живущий в монастыре; *осанна* (греч. «спасение!», «помощь!») – молитвенный возглас, которым народ встречал Иисуса Христа при его входе в Иерусалим и др.; *геена огненная* (старослав.) – то же, что и ад, преисподняя; *консистория* (лат. «место сбора») – в России до 1917 г. учреждение с административными функциями по церковным делам при архиерее; *алтарь* (лат. «высокий») – главная (восточная) возвышенная часть храма и др.; *аллилуйя* (др.-евр. «Слава Тебе, Боже!») – хвалебный возглас, славословие Бога; *аминь* (др.-евр. «истинный, верный») – истинно, верно, да будет так; *мессия* (др.-евр. «помазанник») – то же, что и по-гречески «Христос» – именование Иисуса Христа как посланника, помазанника Божиего, царя мира; *пасха* (др.-евр. «переход») – так назывался иудейский праздник освобождения израильского народа от египетского рабства; название главного у православных христиан церковного праздника, который отмечается в память о чудесном воскрешении Иисуса Христа и нек.др.

Сравните примеры древнерусского и собственно русского происхождения: *присно* (др.русс. «всегда») – всегда, вечно; «*Ныне, и присно, и во веки веков*» – устойчивое выражение, которым завершаются молитвы; *успение* (др.русс. «смерть, кончина») – то же, что и Успение Пресвятой Богородицы; *мытарства* – истязания души по выходе ее из тела духами злобы (обличение грехов) в воздушном пространстве, прежде суда Божия; *мясоед* – период времени между постами, в который разрешено употребление мясной пищи; *Богородица* – мать Божия; *богобоязненный* – любящий Бога и строго соблюдающий церковные правила; *молить Бога, гневить Бога, ради Бога, Богу угодно, Бог наказал; отходная молитва, Сын Божий, Троица, угодник, Яблочный Спас, Вербное Воскресенье* и мн.др.

В процессе функционирования православной лексики и фразеологии в русском церковном обиходе происходит различного рода освоение: отдельные слова и устойчивые выражения представляют собой соединение элементов или компонентов с заимствованиями. Сравните: *подрясник, подлампадник* (ряса – греч. «монашеское облачение», *лампада* – греч. «небольшой сосуд с фитилем, наполняемый растительным маслом и зажигаемый перед иконой; светильник»); *под* – русский предлог, *ник* – русский суффикс и т.п. *Николай Чудотворец* (Николай – греч. «победа + народ», Чудотворец – рус.); *день Ангела* (ангел – греч. «вестник», день – рус.).

Введенные Толстым церковно-книжные слова и выражения в стилистическую ткань своих произведений, выполняющих номинативные и оценочно-характеристические функции, способствовали также закреплению их в составе лексико-фразеологического фонда русского литературного языка.

Литература

1. Г.И.Егоренкова. Структура характеров в романе «Анна Каренина». – Л.Толстой. Статьи и материалы. VI изд. Горьковского госуниверситета им.Н.И.Лобачевского, Горький, 1966, с.239
2. И.В.Андреева, Н.В.Баско. Словарь православной лексики. М., 2015
3. Л.Н.Толстой. «Собрание сочинений в 12-ти томах». Госиздат «Художественная литература», М., 1958

UDK:512.2

SHATRANJIY SAMARQANDIY IJODIYOTIDA QIT'A JANRINING TUTGAN O'RNI

D.Axmedova

Samarqand Davlat universiteti

E-mail: dilorom.axmedova333@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XII asr fors-tojik mumtoz adabiyotining yorqin shoiri Dehqon Ali Shatranjiy Samarqandiy ijodiyotida qit'a janrining tutgan o'rni, mazmuni, mavzular rang-barangligi va janriy xususiyatlari aniq dalillar asosida yoritilgan.

Kalit soʻzlar: qitʼa janri, mazmuni, mavzular rang-barangligi, shahar adabiyoti poetik xususiyatlari.

Место жанра «Китъа» в творчестве Шатранжий Самарканди

Аннотация: В данной статье на основе конкретных материалов освещается значение жанра «китъа», контекст и разнообразность темы, свойства жанра поэта XII века таджикского-персидской классической литературы, Дехкан Али Шатранжи Самарканди.

Ключевые слова: Жанр «китъа», значение, разнообразность темы, поэтические свойства урбанистической литературы.

Importance of genre “Qit’a” in Shatranjiy Samarkandi’s literary work

Abstract: In the current article significance of the genre «Qita», its context and variety of the subject, genre properties of the poet of XII century of Tajik-Persian classical literature, Dehkon Ali Shatranjiy Samarkandi is described based on exact facts.

Keywords: Genre «Qita», context, variety of the subject poetic of urban literature.

Shatranjiy Samarqandiy Movarounnahrning XII asrda ijod etgan koʻzga koʻringan shoirlaridan boʻlib, hayot va ijodiy faoliyatini tugʻilgan shahri Samarqandda oʻtkazgan. Oʻsha davrda Samarqand Movarounnahr xoniya yo ilekxoniya davlatining ilmiy-adabiy markazi hisoblangan.

Shatranjiy Rashidiy Samarqandiy, Amʼaq Buxoroiy, Soʻzaniy Samarqandiy, “Sindbodnoma” asari muallifi Zahiriyy Samarqandiy, “Chahor maqola” (“Toʻrt maqola”) kitobi sohibi Nizomiy Aroʻziy Samarqandiy va boshqa bir qator taniqli shoir va yozuvchilar qatorida Movarounnahr adabiy hayotida faol qatnashgan va shunga koʻra mazkur davr adabiy muhitiga doir tadqiqotlar, fors-tojik adabiyoti tarixi kitoblarida ushbu shoir haqida oz boʻlsada maʼlumot berilgan. Jumladan qadimgi davr (X-XII asrlar) fors-tojik shoirlari tazkirasi “Lubob-ul-albob” muallifi Muhammad Avfiy Buxoroiy (1228 yilda yozilgan) Shatranjiyni Movarounnahrning koʻzga koʻringan soʻz ustasi deya taʼriflab ijodidan anchagina namunalar keltirgan.

Nizomiy Aroʻziy Samarqandiy esa “Chahor maqola” (“Toʻrt maqola”) asarida Shatranjiy nomini “Oli hoqon” (“xoqon xonadoni”) yaʼni XI- XII asrlar Movarounnahr hukumdorlarini madh (taʼrif-tavsif) etgan shoirlar roʻyxati nihoyasida zikr etgan.¹ XI asr nihoyasi va XII asr boshlarida ijod etgan bu shoirlar “xoqon xonadoni” hukumdorlari darbori bilan aloqador boʻlgan. Haqiqatan buni S.Saʼdiyev tadqiqotlaridan ham bilib olsa boʻladi. Olim Nizomiy Aroʻziy maʼlumotiga asoslangan holda ushbu davr Movarounnahrda adabiy hayot saroy doirasida rivojlangani va tilga olingan shoirlar saroy adabiy doirasining namoyandalari ekanligini qayd etadi. Ehtimol saroy xizmatiga olingan Shatranjiy oʻsha davrda hali yosh boʻlgan.

Biroq keyinchalik, XII asrning 30-yillarida shoir ijodiy kamolotga yetgan davrda “Oli xoqon” davlati zaiflashgani va pirovard natijada saroy muhitining oldingi shukuh-dabdabasini yuqotgani bois undagi adabiy doira ham inqirozga uchrab, tarqalib ketgan. Shundan keyin Shatranjiy va unga oʻxshagan saroy shoirlari oʻz faoliyatini shahar muhitida davom ettirib, shahar doiralari bilan bogʻliq boʻlganlar. Bu fikrni Avfiyning Shatranjiy haqidagi axborotida shoir hukumdorlar saroyi bilan aloqasi haqida hech narsa demay, uni shahar adabiy muhitini bir qitʼanavis shoiri sifatida taʼriflagani tasdiqlaydi. Avfiyning Shatranjiy ijodiyotiga doir axborotidan shu narsa maʼlum boʻladiki, shoirning podsho saroyidan chetda qolib oʻz adabiy faoliyatini shahar muhitida davom ettirgani uning ijodiyotida burilish yasagan, yaʼni uni saroy qasidanavisidan shahar muhitining erkin shoiriga aylantirgan. Shatranjiyning ushbu muhitda yangicha yoʻnalishda ijod etgan, qasidanavislikdan qitʼanavislikka oʻtgan. Uning ushbu yangi ijodiy yoʻnalishiga doir Avfiyning yozganlari diqqatga sazovordir. “Uning barcha sheʼrlari hikmat va vaʼzga doir qitʼalardir, undan sheʼr (qasida-D.A.) kam rivoyat qilganlar”.⁴

Avfiy Shatranjiy haqidagi maʼlumotida shoir ijodiyotining ikki juda muhim xususiyatini uqtirgan. Biri shoir ijodiyotining qitʼa janriga ixtisoslashgani, ikkinchisi bu qitʼalarning hikmat va vaʼz mavzusiga doir ekanligidir. Shatranjiy ijodiyoti bu ikki xususiyatiga koʻra, oʻsha davrlar adabiyotida juda muhim ahamiyatga molik ekanligi tufayli alohida diqqatga sazovordir.

Shatranjiydan oldingi davrlar sheʼriyatida qitʼa janri maʼlum mavqega ega va shorlarning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosida ushbu janr tez-tez koʻzga tashlansa-da, biroq qitʼanavislikni oʻz ijodiyotining yagona yoʻnashiga sifatida tanlagan shoir maydonga kelmagan edi. Bunday

shoir faqat XII asrda, S.Sa'diyev kashf etgan juda muhim hodisa – shaharlar madaniy taraqqiyoti munosabati bilan Movarounnahr adabiy hayotining hukumdorlar saroyidan chiqib, keng shahar muhitida yoyilishi natijasida⁵ maydonga kelishi mumkin edi.

Ushbu adabiy hodisa shoirlarni saroy muhiti va hukumdorlar ta'siridan chiqarib, ular uchun ijodiy erkinlik yaratgan edi. Ana shu ijodiy erkinlik tufayli adabiy faoliyati shahar muhiti bilan bog'liq shoirlar g'oyaviy mazmun jihatidan ham, janr jihatidan ham turlicha bo'lgan ijodiy tamoyillarni tanlagan edilar⁶. Bir qator shoirlar hajvnavislik, marsiyago'ylik, tavhidiy va boshqa "jiddiy" qasidalar yozish bilan shug'ullangan bo'lsalar, boshqa guruh ko'pincha ruboiy, qit'adek madehaviy qasida bilan bog'liq bo'lmagan boshqa janrlarda ijod qilgan. Shatranjiy ijodiyotida sifat va mohiyat jihatidan yangi shahar adabiyoti janr erkinligini yo'zaga keltirgan. Boshqacha qilib aytganda, bu shoirning qit'anavislikni qasidanavislik o'rnida o'z ijodiga asos qilib olganligi janr erkinligining yorqin bir misolidirki, bu davr shahar adabiyoti vakillari ijodiyotida namoyon bo'ladi.

Eng muhimi shundaki, Shatranjiy qit'alari shoirlar ijodida asosiy o'rin olgan va mazmun jihatidan voqeiy hayotdan yiroq bo'lgan madehaviy qasidalarga qarama-qarshi hayotiy mazmunlarga to'lib toshgan. Bu she'rlar avvalambor shahar hayoti bilan bog'liq bo'lib, uning real voqeyani aks etadilar. Shoir qit'alari o'z hayotiy mazmunlari, ayniqsa hikmat va pand-nasihatga doir mavzularini binoan shahar doiralari talab va zavqiga muvofiq edi. Ularning Avfiy istilohida "hikmat va va'z"ga doir barcha hakimona, pandomo'z mazmunlari amaliy hikmat, ya'ni inson voqeiy hayotiga taalluqlidir. Avvallari davlatdorlar ta'rif-tavsifi bilan shug'ullanib kelgan qasidago'y shoir endilikda shahar doiralari hayoti taqozosiga binoan hikmat va pand-nasihatgo'y shoir, jiddiy qalamkashga aylangan edi. Binobarin Avfiy Shatranjiyni "Jamol-ul-hukamo" ("Hakim-donishmandlar ko'rki") sifat-unvoni bilan tilga oladi. Hakim shoir diqqat-e'tiborini davr voqeiy hayotining turli tuman muammolari o'ziga tortgan. Ushbu muammolarni o'zicha, shoirona tarzda qalamga olib, juda ibratli va hakimona nuktalar bayon etgan. Bu borada u shoirlar ustozlari Abu Abdullo Ro'dakiy va uning zamondoshlari ijodining norasmiy tomoni bilan bog'liq qit'a she'rlarida o'z aksini topgan dunyo va insonga doir hakimona andeshalar, davr hayoti illatlariga nisbatan norozilik va e'tiroz bildirish an'anasini tiklagan va davom ettirgan. Haqiqatan ham olamu odam va hayot muammolarining aks ettirilishida Shatranjiy qit'alari va X asr shoirlari qit'alari orasida ko'p umumiyat, o'xshashliklar ko'zga tashlanadi. Ammo Shatranjiy qit'alarining salaf shoirlar qit'alaridan farqi ham bor. Uning ijodiyotida qit'a asosiy janrga aylangani holda, oldingi davrlar qasidaguy shoirlari ijodiyotida norasmiy va ikkinchi darajali she'riy janr hisoblangan.

Shatranjiy qit'alarida shuningdek mazmun boyligi va mavzular rang-barangligi kuzatiladi. Avfiy shoir qit'alari mavzu-mazmunini faqat "hikmat va va'z"ga tegishli bilib, chegaralaganiga qaramay, bu she'rlarda tilga olingan asosiy mavzudan tashqari yana hajv-mutoyiba, tanqid-tamashxur, shikoyat-e'tiroz, ta'rif-tavsif va hokazolarni ko'rish mumkin. Shatranjiy qit'alaridagi mavzular rang-barangligi va mazmun boyligi hamon janr erkinligining samarasidir.

Adabiyotlar

1. Nizomiy Aro'ziy Samarqandiy. Chahor maqola. Tuzuvchi so'zboshi muallifi va nashrga tayyorlovchilar X. Sharipov, U. Toirov. -Dushanbe: Irfon, 1986, 52-53 betlar.
2. Sa'diev Sadri. So'zaniy va XII asr Samarqand adabiy muhiti Dushanbe: Donish, 1973, 140b.
3. O'sha asar, 13 bet.
4. Muhammad Avfiy Buxoroiy. Lubob-ul-albob, 11 jild: Leyden, 1909, 199 bet.
5. Sa'diev Sadri. So'zaniy va XII asr Samarqand adabiy muhiti, 31 bet.
6. O'sha asar. 22-37 betlar.

UDK: 891.709

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA MAKON VA ZAMON TASVIRI

D.B.Xursanov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xronotop masalasi ilk bora she'riyat misolida yoritib berilgan. Unda makon va zamon poetikasi shoir Shavkat Rahmon ijodi asosida keng tahlil etilgan. Shoir she'riyatida vaqt va joy tasviri orqali ifodalangan badiiy-estetik manzaralar ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: Sheʼriyat, badiiy tasvir, Shavkat Rahmon ijodi, ramziy ifoda, xronotop, lirik qahramon, makon turlari, hissiyot, talqin.

Изображение пространства и времени в поэзии Шавката Рахмона

Аннотация: В данной статье впервые освещается проблема хронотопа в поэзии. В нём широко анализируется поэтика места и пространства на основе творчества Шавката Рахмона. В лирике поэта раскрываются художественно-эстетические пейзажи, освещённые через изображение места и пространства.

Ключевые слова: поэзия, художественное изображение, творчество Шавката Рахмона, символическое выражение, хронотоп, лирический герой, виды места, эмоция, интерпретация.

Image of space and time in the poetry of Shavkat Rakhmon

Abstract. In this article the problem of the chronotope in poetry is covered for the first time. The poetics of space and time is widely analyzed on the basis of creativity of Shavkat Rakhmon. The poet's poetry reveals artistic and aesthetic landscapes, illuminated through the image of space and time.

Keywords: poetry, artistic image, creativity of Shavkat Rakhmon, symbolic image, chronotope, lyric hero, types of spaces, emotion, interpretation.

Makon va zamon tushunchalarini adabiy turlar miqyosida oʻrganilishiga eʼtibor qaratilsa, bunda epik va dramatik turdagi asarlarning nazariy taftish qilinganligi koʻrinadi. Boshqa adabiy turlar, jumladan, lirik turda mazkur tushuncha talqini oʻzbek adabiyotshunosligida oʻzining ilmiy bahosini olgan emas. Maʼlumki, lirik turda voqelik keng koʻlamda tasvirlanmasa-da, undan hosil boʻlgan his-tuygʻular tasvir etiladi. Voqeband sheʼrlar bundan mustasno. Ular epik va lirik turning bir-biriga uygʻunlashuvidan vujudga keladi. Bunday sheʼrlarda har ikkala turning xususiyatlari mushtarak boʻladi. Lirik turda ham makon va zamon tushunchalari boshqa turlardagidek oʻziga xos poetik yuk tashiydi, asarning hayotiyiligini taʼminlashda bosh mezon sanaladi. M.Baxtin fikriga koʻra, badiiy xronotopdagi fikriy va konkret butunlikda makoniy va zamoniylarining birliklarning qoʻshilishi oʻz oʻrniga ega. Zamon bu yerda oʻzgaruvchan, badiiy koʻrinuvchan boʻla beradi. Makon esa jadallashadi. Zamon, voqea, sujet harakatida choʻziladi. Zamon xususiyatlari makonda namoyon boʻladi va makon zamonda oʻlchanadi, idrok etiladi (1, 234). Makon va zamonning oʻlchamlari shartli tarzda oʻzgarib turadi, zamon siqilishi, uzayishi, toʻxtashi va orqaga ketishi mumkin (2. 85). Badiiy asarda xronotop oʻz tasvir mohiyatiga ega boʻlish uchun sujet rivoji boʻlishi talab etiladi. Zero, sujetsiz asar boʻlmaydi. Lirikada maʼlum sujet oqimlarini bir-biriga kontrast qoʻyish, qiyoslash, dalillash orqali tuygʻular harakatga keladi. Adabiyotshunolikda badiiy makon va badiiy zamon muammosiga murojaat XX asrning birinchi yarmida boshlandi. Hozirgi kunda bu mavzudagi asarlarning salmogʻi ancha koʻpchilikni tashkil qiladi. Makon va zamon kategoriyalarining sanʼat turlari miqyosida chuqurlashtirilib oʻrganilishidan shu narsa maʼlum boʻladiki, miqdor oʻzgarishlari vaqt oʻtib sifat oʻzgarishlariga olib kelishi mumkin. Aslida bu bilish taraqqiyotidagi qonuniy yuksalishning nishonasi hisoblanadi. Rus akademigi D. Lixachev: “zamon kategoriyasi olamni tushunishning va bu olamni sanʼatda aks ettirishning hozirgi bosqichida tobora koʻproq ahamiyat kasb etib bormoqda” (3. 113-114) – deb taʼkidlab oʻtadi. Shu maʼnoda yozuvchi olamning zamoniylar va makoniy chegaralarini anglash uchun uning alohida asarlarida aks ettirilgan makoniy, zamoniylar chegaralarni bir joyga jamlash va umumlashtirish, ularning bir-biri bilan bogʻliq tomonlarini oʻrganish va yaxlit bir olam sifatida tasavvur etishi kerak. Chunki, makon va zamonning oʻzi ijodkor yaratgan butun bir badiiy olamning turli jihatlarini aks ettiradi. Bu esa badiiy xronotopning xususiyatlarini lirik tur miqyosida ham koʻrib oʻtishga imkon yaratadi. Misol uchun buni keyingi yillar oʻzbek sheʼriyatining yorqin namoyondalaridan biri Shavkat Rahmon sheʼrlari misolida ham koʻrsak boʻladi. Shoir sheʼriyatida murakkab taxayyul mahsuli boʻlgan “oy gulladi”, “osmon toqiga”, “sharq uyqudan” kabi makoniy ifodalar borki, ular badiiy xronotopning xayoliy modeliga yorqin misoldir. Shavkat Rahmon sheʼrlarining makoniy va zamoniylar chegaralari ona Vatan hamda unga aloqador boʻlgan moddiy olamlarga borib taqaladi:

Hamal – bol nafasli,
tonglari – pushti,

quyosh qahrabo may to'la kosadir.

Gullagan o'riklar

jon o'rtaguvchi –

oq hijob yopingan sho'x raqqosalar. (4. 171)

Ushbu she'r tabiat tasviri bilan boshlanib, "gullagan o'riklar", "oq hijob yopingan sho'x raqqosalar", "kapalaklar kabi qizg'ish tabassum" kabi metaforik tasvirlarni kiritish bilan birga badiiy vaqtni aniqlashtiradi. Makon esa lirik qahramon turgan joy. Hayot hodisalarining, ona diyorning barcha puchmoqlari: qadrdon tog'lar, vodiylar, keng maydonlar, daryo va o'rmonlaru tug'ilgan xonadonga uzviy bog'langanida ko'rinadi. Hayot va voqelik bobolar, otalar yashagan, bolalar va nabiralalar ham yashaydigan makondan ayri holatda mavjud bo'lolmaydi. Ushbu makon dunyocho chegaralangan va mahdud. O'zga dunyo yoki begona manzillar bilan mutlaqo bog'liq emas. Lirik turda makon va zamon masalasi boshqa turlarga nisbatan farqliroqdir. Chunki she'rda voqea emas, balki qahramonning oniy kayfiyati tasvir etiladi. Bundan ko'rinadiki, lirik ifodada birlamchi va ikkilamchi makon mavjudligi oydinlashadi. Birlamchi makon iztirob, tuyg'u, kechinma sodir bo'ladigan qalb bo'lsa, qalb egasining mana shu olamda mavjudligi esa ikkilamchi makonni anglatadi. Lirik zamon ham juda katta ijtimoiy davr yoki bir onni qamrab olishi mumkin.

Sadlari oq, moviy ranga bo'yalgan,

hovlilar ustidan toshgan bulutlar.

Go'yo sen shirakayf turk sultoniday,
tagingda o'ynoqlar chaqmoqday tulpor.

O'tasan go'yoki afsonalardan,

nim qarab tor ko'cha go'zallariga,

lablaring cho'zilar

dudoqlarida

g'unchaday yashringan bo'salariga. (4. 171)

Ijodkor ongida tug'ilgan fikr tasavvur orqali o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantiriladi. Birgina "go'yo" so'zi orqali makon shoirning ongiga ko'chadi. "Turk sultoniday", "chaqmoqday tulpor", "afsonalardan", "tor ko'cha go'zallariga" ramziy jummalari lirik holatni ifodalaydi. Bu yerda bahor fasli real zamon bo'lib kelmoqda.

Hamal o't nafasli milyonta qizlar,

gullagan o'riklar kabi tizilgan.

Kapalaklar kabi qizg'ish tabassum

tinmay qo'naverar

rangpar yuzinga...

Shoir oddiygina "tor ko'chalarda"gi bahor faslini tasvirlaydi. "Milyonta qizlar", "gullagan o'riklar", "qizg'ish tabassum" kabi lirik komponentlar asotsiativ tasvirda badiiy xronotopni aks ettirishga xizmat qiladi. Real vaqt, ya'ni bahor faslining ajoyib tarovati, go'zalligi lirik qahramon ongi orqali tasvirlab beriladi. Ushbu tasviriylilik shoir ijodini o'ziga xos yo'nalishi hisoblanib, kitobxon tasavvurini ham boyitadi. Xronikal tasvirga asoslangan she'rlar boshqa tur she'rlaridan u qadar farq qilmasa-da, o'ziga xos obrazlar olami va g'oyaviy nuqtai nazar bilan ajralib turadi. Muhimi, zamon va makon omillari asar loyihasidagi o'rnini yo'qotmasa bas (5. 55).

Shavkat Rahmonning "Qiyos" she'ridagi xronikal tasvirda tabiiy jarayonlar (sahar, tun, bog', anhor) tasvirga tortilib, unda lirik qahramonning o'y-kechinmalari o'z aksini topadi. She'r sujetidagi ma'lum vaqt va makon lirik qahramon tuyg'ularining harakatga kelgan aniq holatini o'zida mujassam etadi.

Kuzatdim –

har olma rangin sayyora,

sollanib turar hur shabbodalarda,

limillagan anhor eshilib oqar –

shamolda tebrangan

shalabbo parda.

Tun kelar,

qadimiy osoyishta tun,

oy haydar bulutlar –

tevalarini,
sanoqsiz qoramtir qalqonlar bilan
daraxtlar yashirar mevalarini.
Yerdagi koinot parchasi – bog'da,
buzila boshlaydi to'satdan sukun,
tinimsiz to'pillar...

Saharga qadar

rangin olmalarni o'ynab otar tun. (4. 172)

Asarning shom, tun, sahar kabi motivlari o'z o'rinda sujet chizig'idagi vaqtni belgilaydi. Aynan u mana shu she'r g'oyasini ochishga yordam beradi. Bu yerda oddiygina tabiat tasviri emas, balki shoir his-tuyg'ularini junbushga keltirgan manzara shakllanadi. Badiiy matndagi vaqt (zamon) faqat yillar bilangina kifoyalanmaydi. Fasl, oy, hafta, kun-tun hatto daqiqa va soniyalar ham matnda o'z badiiy vazifasiga ega (6. 33). Shom payti boshlangan tasavvur asta-sekin tunga o'tadi. Keyin esa saharga. Shoir nekin tuyg'ular bilan sug'orilgan maqsadini birdan aytmaydi. U avval xronikal tasvirga asoslangan badiiy xronotopni kitobxon tasavvurida jonlantiradi va shundan she'r yozilgan vaqt reallashadi, hissiy kechinmalarni xarakatga keltiradi. Tasvir bilan bog'liq barcha tavsilotlar "rangin olmalarni o'ynab otar tun" manzarasini hosil qiladi. Shoir tabiat obrazlarini birin-ketin tasvirga kiritar ekan, ularni shunchaki sanab o'tmaydi. Barcha sanalgan obrazlar (sahar, tun, oy) birlashib, yaxlit tarzda kompozitsion tizimni tashkil etadi. Muallif ilgari surgan g'oya – inson ruhiy olamini ochib berishga yo'naltiriladi. Lirik qahramonning bedorligi sababi shuki, u "bog'dagi" voqelikni jonli tarzda anglaydi. Shuning uchun ham lirik zamon sifatida tun tanlanadi. Agar yulduzlarga to'la charog'on iliq kecha lirik zamon darajasiga ko'tarilganda edi she'rdagi umumiy mantiqqa putur yetgan bo'lar edi. Xronikal tasvirdagi mazkur she'rda mahzunlik, tuyg'ularga mubtalolik tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda qalamga olingan. She'rning birinchi bandi o'z-o'zidan uning muqaddimasi hisoblanadi. Ammo bu muqaddima boshqa she'rlarning muqaddimasidan tubdan farq qiladi. Bunda tuyg'u va kechinmalar musavviri bo'lgan shoir o'z asarining hayotiyliigi va mantiqiyiligini ta'minlash maqsadida o'ziga xos badiiy olamni yaratadi. Tuyg'ularning qanday xarakter kasb etishiga qarab, tabiatni (shu bilan birga lirik qahramonning mazkur holatini ham) "tun o'sha olmalarni ermak qilib otishi" kabi xronikal tasvirdan foydalanadi. Bu orqali she'rxon tuyg'ular asiri bo'lgan lirik qahramonning mo'jaz olamiga kirib boradi.

Xullas, shoir asarlarini ma'lum bir tasvir usuliga bo'ysindirmagan, balki uning asarlarida uchraydigan umumiy xususiyatlar orqali tasvir usullarini aniqlash mumkin. Lirik xronotopni maxsus leksik birliklar bilan asarda aniq ifoda etmagan. Shuning uchun ham Shavkat Rahmon she'rlarining lirik xronotopi asarning barcha poetik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: "Художественная литература", 1975. 504 – стр.
2. Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. –Тошкент: "Фан", 2005. 285 – б.
3. Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – М.: Наука, 1979. 360 – стр.
4. Шавкат Раҳмон. Абдиат оралаб. –Тошкент: "Мовароуннахр", 2012. 383 – б.
5. Мамарасулова Г. Икки эшик ораси романида замон ва макон. // "Ўзбек тили ва адабиёти" журналы. 2009 йил, 2-сон, 54-57 б.
6. Тўйчиев А. Хикояда макон ва замон тасвири. // "Тил ва адабиёт таълими" журналы. 2009 йил, 11 сон, 33-35 б.

UDK: 491.5

AMIR XUSRAV DEHLAVIY G'AZALLARIDA «GUL» TIMSOLINING BADIY VA SEMANTIK SHARHI

Sh.J.Yarashov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada fors-tojik tilidagi lug'atlar va o'zbek klassik tilining leksik manbalari hamda Xusrav Dehlaviy g'azallarida «gul» istilohining timsollari, badiiy va leksik talqini,

irfoniy ma'nolar silsilasi, tarixiy shakllanishi, tuzilishi, lug'aviy izohi hamda semantik xususiyatlarining lingvopoetik talqini alohida masala sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: etimologiya, semantika, gul, g'azal, ramz, timsol, obraz, tasavvuf, majoz.

Художественно-семантическая интерпретация символа «цветка» в газелях Амира Хусрава Дехлеви

Аннотация. В статье исследованы вопросы изучения словарей ирано-таджикского языка и лексических источников классического узбекского языка, художественно-семантическая интерпретация образа-символа «цветка» в газелях Хусрава Дехлеви, а также системы суфийских концептов, исторического формирования, лексикографических комментариев и лингвопоэтического анализа его семантических особенностей.

Ключевые слова: этимология, семантика, цветок, газель, символ, знак, образ, суфизм, образность.

Fictional – semantic interpretation of the symbol “flower” in Amir Husrav Dehlavi’s poetry

Abstract. The article includes questions of investigation dictionaries with definitions in Iranian – tajik languages their lexical sources in Uzbek classic language, fictional semantic interpretation of image symbol “flower” in poets of Husrav Dehlavi and system of sufistic concepts of historical formation, lexicographic commentaries and lingo-poetic analysis of its semantic peculiarities.

Keywords: semantics, flower, poetry, symbol, sign, image, Sufism, imaginal, etymology.

“Gul” so‘zi fors-tojik tillarida qadimgi zamonlardan hozirga qadar betakror tabiat va beg‘ubor bahorning chinakam go‘zal husni va tarovatini o‘ziga aks ettiruvchi vosita sanaladi. Shu sababdan gul bahor belgisi va tabiat uyg‘onishi manbai hisoblanadi.

“Gul” so‘zi Xusrav Dehlaviy g‘azaliyotida o‘zining asl va leksik ma'nolaridan ko'ra turli xil so'z birliklari yordamida ramziy va majoziy hamda irfoniy-tasavvufiy ma'nolarda ko'p bora ishlatilgan. Bizning fikrimizcha, aynan mana shu xususiyat «gul» so'zining badiiy timsol darajasiga ko'tarilishiga va tasaavvufiy-irfoniy hamda majoziy xarakter kasb etishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari she'riy timsol sifatida shoirning turli xil dolzarb va o'ta muhim g'oya va qarashlarini o'zida aks ettirgan. Bu esa o'z navbatida Amir Xusrav g'azaliyotida «gul» so'zining badiiy timsol darajasiga ko'tarilishiga va tasaavvufiy-irfoniy hamda majoziy xarakter kasb etishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Albatta bu holat shoirning yuksak mahorat egasi va badiiy so'z dahosi ekanligidan dalolatdir.

Amir Xusrav va boshqa mumtoz shoirlar ijodida ushbu so'zga oddiy so'z yoki ibora sifatida qarash xatodir. Zero ular poeziyasida mazkur istiloh badiiy timsol va murakkab tushuncha sifatida turli ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan. “Gul” so'zi shoir g'azaliyotida badiiy tasvir vositasi sifatida ibora va so'z birlikmalari shaklida ham ko'p marotaba ishlatilgan. Xusrav Dehlaviy ijodida “gul” istilohi faqatgina bir ma'noda ishlatilmagan bo'lib, balki har bir tasvirda badiiy timsol sifatida o'ziga xos yangicha ma'no kasb etgan. Shu jumladan Xusrav Dehlaviy she'riyatda mazkur istiloh yordamida shoirning turli xil maqsadlari mazmun va mohiyati yechib berilgan hamda insonning ijtimoiy munosabat va maqsadlari, shoirning umuminsoniy g'oyalari va leksik ma'nolar ifodalovchisi sifatida ham ishlatilgan. Quyida “gul” so'zining badiiy obraz sifatida leksik, majoziy va irfoniy ma'nolarni o'zida aks etgan baytlarning tahlilini keltiramiz:

Do'sh bo'yi gul maro az oshnoe yod dod,
Jon girebon pora kard u xeshro barbod dod.[7,176]
(Kecha gul ifori oshnodin keltirdi yod,
Jon yoqa yirtib o'zini ayladi barbod.)

Baytda “gul” so‘zi leksik jihatdan g‘unchaning ochilish jarayoni va gullashi sifatida ishlatilgan. Zero bu gul oddiy va tabiiy gul bo‘lib, muattar va xushbo‘y hid ramzidir. Birinchi misrada keltirilgan “gul isi” iborasi g‘unchaning ochilishidan keyin taraladigan tabiiy nozik va xushbo‘y ifor hisoblanadi. Shuning uchun “gul isi” iborasi va “jonning yoqa yirtishi” so‘z birikmalari ma'no jihatdan bir-biriga

bog‘liq hisoblanadi. “Gul” istilohining bu ma‘noni ifodalashi “Farhangi zaboni tojikī”da ham keltirilgan: “gul – daraxt va giyohlarning ochilgan g‘unchasi, ochilgan gul”. Bu zohiriy ma‘no. Baytda “gul” so‘zining majoziy ma‘nosi sir va asrordir. Zero “g‘uncha” so‘zi ham mantiq jihatdan shu maqsadda ishlatilgan. Shu boisdan ham “gul” so‘zi badiiy timsol sifatida yashirin va aytilmagan sir manbaidir. Ma‘lumki yashirin sir hech qachon o‘z-o‘zidan oshkor bo‘lmaydi, shu jihatdan baytda “g‘uncha” so‘zi ishlatilgan hamda ramziy jihatdan g‘unchani ochilish jarayoni inson qalbinin sir asrorlarining fosh bo‘lishiga qiyoslangan. Bu holat shoirning o‘ziga xos poetik mahoratidan darak beruvchi holatdir. Ammo bu mumtoz poeziyada yangilik emas, aksincha, an‘anaviy uslub hisoblanadi.

Irfoniy va tasavvufiy istiloh sifatida “gul” so‘zi solik va Olloh o‘rtasidagi yashirin ilohiy asror hamda ular o‘rtasidagi ramziy parda hisoblanadi. G‘unchaning ochilishi bu sirni oshkor bo‘lishi va pardani oradan ko‘tarilishi demakdir.

Shud sabo zinda ba bo‘i gul, vale man chun ziyam,
K-az gulam bo‘i digar meoyadu jon meravad.[7, 277]
(*Gul isidin tirildi sabo, lek men qanday yashay,*
Ul gulimdan o‘zga isi kelibon jon chiqadi.)

Birinchi misrada keltirilgan «gul» bu tabiiy o‘sgan oddiy va xushbo‘y gul bo‘lib, uning muattar ifori subhidamda atrofga taralgan. Birinchi va ikkinchi misralardagi «gul» so‘zlari ma‘no jihatdan bir-birlari bilan omonim so‘zlar sanaladi. Zero birinchi misrada ishlatilgan «gul» so‘zi oddiy xushbo‘y tong guli manbai bo‘lib, ikkinchi misrada keltirilgan «gul» mahbuba, ma‘shuqa, yor, munis, sadoqatli do‘st, ishonch va umid ramzidir. Ammo bu gul riyokor va ahdsiz ma‘shuqa timsoli sifatida talqin etilgan bo‘lib, mag‘rur, mutakabbir, kalondimog‘, oqibatsiz, itoatsiz, vafosiz va xiyonatkor mahbuba hisoblanadi. Ya‘ni ma‘no jihatdan azobu mashaqqat va ozor manbai hamdir. Boshqa jihatdan ikki misrada ishlatilgan “gul” so‘zlari ma‘no jihatdan o‘zaro antonim so‘zlar sanaladi. Zero birinchi “gul” oddiy tong guli bo‘lib, sabo (subhidam)ga jon va hayot ato etsa, ikkinchi “gul” uning aksi, ya‘ni riyokor ma‘shuqa sanalib, oshiq joniga qasd qiluvchi va hayotini barbod etguvchi manba sifatida ishlatilgan.

“Gul” so‘zining mahbuba ma‘nosining ifodalanishi «G‘iyos-ul-lug‘ot»da keltirilmagan. Ammo “Farhangi zaboni tojikī”da “gul” so‘zining bu ma‘noni bildirishi yaqqol misollarda o‘z ifodasini topgan. Majoziy jihatdan hayotbaxsh va jon ato etguvchi manba hisoblanadi.

Irfoniy va tasavvufiy jihatdan vara' (parhez, taqvo) va umidvorlik ma‘nolarini bildiradi. Ya‘ni oshiqning ilohiy ma‘shuqa vaslidan umid uzolmasligining belgisidir. Bu ilohiy mahbuba timsoli bo‘lib, tariqat yo‘lidagi solikka faqatgina azob ulashadi xalos.

Dar dahr yake yori vafodor nayobi,
Dar bog‘i jahon yak guli bexor nayobi.[7,467]
(*Dahrda bir yori vafodor tobmagaysan,*
Bu olam bog‘idin tikonsiz bir gul tobmagaysan.)

Mazkur baytda “gul” so‘zining leksik ma‘nosi “tikonsiz gul”, toza va haddan ziyod chiroyli guldur. Birinchi misrada keltirgan “vafoli yor” va “tikonsiz gul” birikmalari ma‘no jihatdan bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ikkinchi jihatdan bir-biriga zid va teskari keltirilgan. Chunki gul tikonsiz bo‘lmaganidek, yor (ma‘shuqa) vafodor bo‘lmaydi. Bizning fikrimizcha, shoirning poeziyasida bu kabi tasvirlarning vujudga kelishi uning xalq ijodiyotiga befarq emasligidan darakdir.

“Gul” istilohining majoziy ma‘nosi birinchidan beozor, rahmdil, mehribon va mushfiq mahbuba hisoblansa, ikkinchidan yashirin va aytilmagan sir, haq va haqiqatdir. Uchunchidan go‘zallik va nafosat ramzidir. To‘rtinchidan aybsizlik, poklik, gunohsizlik va komillik manbaidir. “Tikonsiz gul” va “vafodor yor” iboralarining ma‘no jihatdan bir-biriga yaqinligi shuni taqazo etadiki, har bir gulning o‘ziga xos tikoni borligi kabi yor, ma‘shuqa, ishq va oshiq bor joyda vafodir va vafosizlik fazilatlarining bo‘lishi tabiiy hol sanaladi.

Sar base bar daru devor zadam hamchu sabo,
Ki guzasht on guli xandoni manu bo‘y bimond.[7,258]
(*Sabo misol urdim boshni devorlarga,*
O‘tdi xandon gulimu isi qoldi.)

Bu baytda “xandon gul” iborasining leksik ma‘nosi sho‘xlik, beboshlik, tannozlik, go‘zallik va g‘amsizlik sanaladi. Gul so‘zi shaddod va sho‘x ma‘shuqa ramzi bo‘lib, oshiq holiga umuman befarq va beparvo sifatida ishlatilgan. Ya‘ni gul so‘zi baytda shaxsning ifodasidir.

Gul soʻzining tasavvufiy-irfoniy maʼnosi oshiqning pokiza va qoʻl yetmas ilohiy maʼshuqning orzusida ekanligidir. “Xandon gul” iborasi “Tojik tili lugʻati”da “ochilgan gul va mahbuba ramzi” maʼnosida keltirilgan [4, 281], lekin “Gʻiyos-ul-lugʻot”-da mazkur iboraning sharhi keltirilmagan.

Boʻston jilva dargirift inak,
Gul zi rux parda bargirift inak.[7,322]
(*Guliston mana endi jilvalandi,*
Gul oʻz chehrasidan pardani ochdi.)

Bu baytda «gul» timsolining leksik maʼnosi ochilgan gul va gʻunchaning ochilish jarayoni hisoblanadi. Uning nishonasi chamannning jilvalanishi va gullanishidir. Zero chamanning uygʻonishi bu bahordan darak boʻlib, bahor faslida gullarning oʻsishi, ochilishi, rivojlanishi tabiiy hol sanaladi.

Majoziy maʼno jihatdan sodiq va vafodor yor sifatida ishlatilgan boʻlib, u oʻz oshiqiga chin doʻst va mehribon hamdarddir. Munis, mehribon va mushfiq yor ramzi boʻlib, ishq yoʻlida oʻz oshiqini balo qazolardan avaylab asraydi.

«Gul» soʻzining tasavvufiy-irfoniy maʼnosi Olloh diydorining koʻrinishidir. Sir va asror pardasining oʻrtadan olinishi hamda solikning mashaqqatlardan soʻng oʻz maqsadiga yetishining belgisidir.

Natavonamash, ki binam ba raqibi nomuvofiq,
Chi xush ast gul valekin chi kunam, ki xor dorad.[7,151]
(*Chidolmasmaman uni raqib birla koʻrsam,*
Yaxshi gulning ham netay tikoni bor.)

Bu baytda «gul» badiiy timsoli leksik jihatdan tikonli tabiiy oddiy goʻzal gul maʼnosida ishlatilgan. Bizning fikrimizcha, «raqib» (dushman) va «tikon» soʻzlari maʼno jihatdan bir-biriga yaqin boʻlib, «gul» istilohining badiiy mohiyatini yanada aniqroq sharhlash maqsadida keltirilgan.

«Gul» soʻzining tasavvufiy-irfoniy maʼnosi ilohiy maʼshuqning tengsiz va qiyosi yoʻq chiroyi boʻlib, oshiq osonlikcha uning vasliga muyassar boʻlolmaydi. Aksincha uzoq muddat davomida dunyoning naqd neʼmatlari hamda ayshu ishratlaridan parhez qilish natijasida unga sazovor boʻlishi mumkin. Yaʼni unga yetish uchun turli xil sinovlardan sabr ila oʻtish kerak.

Qimati gul nashinosad magar on murgʻi asir,
Ki xazondida buvad, pas ba bahore birasad.[7,276]
(*Gul qadrini bilmasa gar qafas qushi,*
Xazon faslini koʻrib soʻng bahor koʻrgan.)

«Gul» soʻzi leksik jihatdan xazon faslidan sung oʻsish va ochilish avjida boʻlgan tabiiy gul maʼnosini bildiradi. Zero uning nishonasi «asrga tushgan qush» iborasi va «bahor» va «xazon koʻrgan» soʻz birlikmalari hisoblanadi. «Gul qadrini bilmaslik» bu yoshlik va uning betakror lahzalarini qadrlamaslik hamda umrni behuda oʻtkazish demakdir. Haqiqatdan ham umrning yoshlik ayyomi va uning har bir oni gʻanimat va oltin davr sanaladi, ammo buni hamma ham his etolmaydi. Shoir nazarida buni faqat hayotning dard alamlarini taʼmini totib koʻrgan kishi his eta oladi xalos. Baytdagi «xazonga qolgan gul» iborasi aynan shu maqsadda ishlatilgan.

«Gul» soʻzining tasavvufiy-irfoniy maʼnosi hayotning oʻtkinchi va gʻanimat ekanligi, unga tom maʼnoda koʻngil qoʻymaslik va dunyoning abadiy va haqiqiy emasligi hisoblanadi. “Asrga tushgan qush” tariqat yoʻlini tanlagan yangi solik maʼnosida keltirilgan. Gul soʻzi ilohiy diydor ramzi boʻlib, u bir lahzagina solikka koʻrinadi xolos. Xazon soʻzi tariqat yoʻlining mashaqqat va riyozatlari nishonasidir. Bahor bu haqiqiy dunyo va jannat manbai hisoblanadi.

Xusrav Dehlavining gʻazaliyotini oʻrganish va unda “gul” soʻzining qanday maqsadlar bilan ishlatilishi hamda maʼnosini misollar orqali taqqoslash va lugʻatlar asosida tahlil etish shoir ijodida “gul” soʻzining lugʻaviy maʼnosidan oʻzga, yaʼni “hayot va uning begʻubor damlari, yashirin va aytilmagan sir, haq va haqiqat, aybsizlik va poklik, gunohsizlik va komillik, ilohiy diydor, oʻtkinchi va qisqa umr, betakror va begʻubor xotira, yoshlik va beboshlik, muattar ifor manbai” maʼnolarida ishlatilishini aniqlash imkonini berdi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmon Buxorizoda. Sarguzashti kalimaho. –Dushanbe: Donish, 2005.
2. Joʻraev R. Etimologiyai 100 kalima. – Dushanbe: Maorif, 1985.
3. Muhammad Gʻiyosuddin. Gʻiyos-ul-lugʻot, jildi-2. –Dushanbe: Adib, 1988.

4. Miroti Ushshiq. Fishurdaho az ejodiyoti ahli tasavvuf. –Angren, 2009.
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. -Toshkent: Movarounna?r- O‘zbekiston, 2009.
6. Farhangi zaboni tojik. Jildi 1 – Moskva: 1969.
7. Xusravi Dehlaviy. Muntaxabot. – Dushanbe: Nashrdavtoj, 1960.
8. Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent: Fan, 2008.

UDK: 891.709

SAYID RIZO ALIZODA: MARIFATPARVAR, TARJIMON VA JURNALIST

M.Yo‘ldoshev, Sh.Mahmatmurodov, U.Qurbonov

3) ЧАРЫ: чаровать, чароваться, чарование, чаровник, чаровница, чарующий, чарующе, зачаровать, зачаровывать, зачаровываться, зачаровывание, зачарованный, зачарованно, зачарованность, очаровать, очароваться, очаровывать, очарование, очаровывание, очарователь, очаровательница, очаровательный, очаровательно, очаровательность, преочаровательный, очарованный, очарованно, очарованность, разочаровать, разочароваться, разочаровываться, разочаровывать, разочарование, разочарователь, разочарованный, разочарованно, разочарованность, причаровать, причаровывать, чародей, чародейка, чародейство, чародейственный, чародействовать, чародейский, чародейный, чародеяние.

4) КЛЯСТЬ: клятый, треклятый, клятой, заклясть, заклясться, заклиняться, заклинять, заклиняться, заклинение, заклинитель, заклинительница, заклятие, заклятый, проклясть, проклинать, проклинание, проклятие, проклятый, проклятая, проклятуший, проклятик, распроклятый.

5) ГЛАЗ: сглазить, сглаз.

6) ВОЛШЕБНЫЙ: волшебю, волшебство, волшебствовать, волшебник, волшебница, волшебничать, волшба (устар.).

7) ВОЛХВ: волхвовать, волхвование.

8) КУДЕСИТЬ: кудесник, кудесница, кудесничать, кудесничество, накудесить.

9) ВОРОЖИТЬ: ворожение, ворожба, ворожей, ворожейка, ворожея, ворожка, заморожить1 (начать ворожить), заморожить; 2. (заколдовать), замораживаться, замораживать, замораживание, замороженный, заморожено, наморожить, намораживать, обморозить, обморозиться, обмораживаться, обмораживать, обмораживание, обморозать, обморозитель, обморозительница, обморозительный, обморозительно, обморозительность, отморозить, отмораживать, поворожить, проворозить, приворожить, привораживать, привораживаться, привораживание.

10) ВЕДЬМА: ведьмак, ведьмин, ведьмовский, ведьмовской.

11) ВЕДАТЬ: ведун, ведунья.

12) ЧУДО: чудеса, чудесный, чудесное, чудесник, чудесница, чудодей, чудодейка, чудодействовать, чудодействие, чудодейственный, чудодействовать, чудодейный, чудотворство, чудотворение, чудотвор, чудотворец, чудотворный, чудотворно.

13) ЧЕРНЫЙ: чернокнижие, чернокнижец, чернокнижник, чернокнижничество, чернокнижный.

К ближайшему лексическому окружению основного и малых концептов также относятся: баба-яга, ведьмака, ведьмачка, вещун, гадалка, гадание, гадатель, заговаривание, заговор, знахарка, знахарство, знахарь, кабалистика, кобь (у Даля гадание по приметам и встречам), лешачиха, мара, морока, наговор, обаяние, отговор, порча, предсказание, предсказатель, приворот, присуха, прорицание, прорицатель, шабаш, шаман, ведьминский, волхвовать, волшить, ворожить, ворожиться, выворожить, гадать заговаривать, заговариваться, заговорить, знахарить, знахарский, извести, каббалистический, колдунья, навораживать, нашаманить, нашептывать, околдованный, отколдовать, отчитывать, погадать, приворожить, приворотный, присушить, чаровальный, чернокнижничать, шептать.

Смысловая парадигма концепта «волшебство» представлена в «Русском идеографическом словаре» [2, с.35-44] следующими значениями:

1) **смысл бытия** в разных фазах его существования:

Существовали, в представлениях многих существуют и сейчас волшебники, колдуны, чародеи, ведьмы. В сказках ведьмы, колдуньи, волшебники присутствуют как «реальные, живые люди». И сейчас есть колдуньи, знахари и знахарки, знающие силу целебных трав и растений.

2) смысл сущностного всегда определенного, неотъемлемого признака волшебство, магия таинственны и непонятны. Ведьма зла и опасна, она не умрет, пока свое демоническое искусство не передает другой.

3) смысл непосредственно воспринимаемого, приписываемого признака. Волшебное превращение, волшебное зеркальце, колдовские травы, магический круг, черная магия.

4) смысл принадлежности кому-, чему-нибудь, чары волшебника, мага. Предсказатель вохва, кудесника: ведьмы хвост. Магия чародея.

5) смыслы, означаемые такими глаголами, как действовать, поступать, совершать, испытывать состояние, находиться в состоянии, воспринимать от кого, извне, со стороны, принимать себе, для себя или иметь отношение к кому-, чему-нибудь. Ворожить, ворожить – заговаривать, пускать на кого заговор, порчу; разгадывать неизвестное или будущее средствами и приемами, гадать, знахарить, шептать, колдовать, волхвовать, волшебничать, чернокнижничать (Даль).

6) смысл состояния необходимости, возможности или невозможности следования (долженствования), т.е. модального состояния.

Колдовством можно считать (некоторые считают) умение знахаря, народного целителя. Ведьма может приворожить парня к девочке.

7) смысл искомого или приписываемого состояния.

Колдовству учатся, это не просто. Передать ведьмонское умение сложно, это может не всякая ведьма.

8) смысл «каким образом каким способом, при каких обстоятельствах».

Ворожить на воде, на корешках на приворожном зелье, на бобах колдовскими чарами навести (или снять) порчу. Ворожкой снять дурной глаз с кого-н.

9) смысл количества: сколько, как много, в каком количестве.

Сборщица ведьм.

10) смысл меры- свойственно меры, сопоставления по мере или сравнения в качестве мерила чего-нибудь.

11) смысл отнесенности к ряду подобного, к счету, к положению в ряду сходного или исчисляемого. Уверяют, что в этой деревне чуть ли не каждая вторая старуха- колдунья.

12) смысл отнесенности к месту в пространстве, локализации (где, в каком месте) .

Ведьминский шабаш на Лысой горе. Под лунным светом колдовски сверкают снега.

13) смысл направления в пространстве.

Ведьмы слетелись на свой шабаш. В могилу колдуна вбивали осиновый кол. Сказки уводят слушателя в волшебную колдовскую страну, в край чудес.

14) смысл движения в пространстве.

Из дальних мест явился чародей, напроорочил страшное будущее. До деревни дошли слухи о закрытых в заколдованном месте колдовскихкладах.

15) смысл отношения ко времени.

Волшебство, колдовство известны очень давно. Ночью волшебным светом светила луна.

16) Смысл предела во времени.

Ворожба, колдовство повелись со времен язычества. До сих пор люди верят в колдунов, ходят к ворожеям, гадалкам.

17) смысл цели, назначения, предназначенности.

Ворожеи, ведуньи нередко имели целью запугать человека. Любовная магия часто направлена на то, чтобы приворожить того, кто избран, желаем.

18) смысл причины. Суеверные люди верят в колдовство потому, что ищут для себя объяснения непонятному для них, необъяснимому.

Таким образом, в основной концепт «Волшебство» входят малые концепты, которые позволяют расширить смысловое содержание основного концепта. Малые концепты в словообразовательном гнезде (СГ) с исходным многозначным словом могут входить в семантический вариант СГ, соотносящийся по смыслу с значением основного концепта. Например, в СГ с исходным многозначным существительным Чудо (6 значений) производные, относящиеся к концепту «Волшебство», соотносятся лишь с вторым значением («нечто небывалое, сверхъестественное, фантастическое»). Кроме того, в круг малых концептов могут входить полисемантические образования, связанные с основным концептом одним из значений.

Смысловая парадигма концепта включает различные значения, с помощью которых раскрывается смысл концепта с различных сторон.

Литература:

1. Попова З.Д., Стернин И.А. Основные черты семантико- когнитивного подхода к языку // Антология концепта. –Волгоград: Парадигма, 2005, т. 1. С.10-11.
2. Русский идеографический словарь: Мир человека и человек в изменяющемся мире. – М., 2011. -1032 с.
3. Толковый словарь русского языка. Под редакцией проф. Д.Н. Ушакова. Т. 1 – 4.- М., 1935 -1940.
4. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Изд. 2-е исправл. и допол. М., 2001.
5. См. Новиков Л.А. Семантическое поле // Русский язык: Энциклопедия. –М., 1977. с. 458 – 459 ; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. –М., 1976. С. 23-34 ; Щур Г.С. Теория поля в лингвистике. –М., 1974.
6. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. Под ред. Е.И. Дибровой, ч.1. –М., 2009, с.238.
7. Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка: В 2-х т. – М.: Рус.яз., 1985.

UDK:7(09)

TASHXIS VA JONLANTIRISH SAN'ATINING TARIXI VA NAZARIY MASALALARI

N.Kayumov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Tashxis va jonlantirish san'ati badiiy san'atlar ichida go'zal va diqqatga sazovor san'at turlaridan bo'lib, badiiy so'z san'atlarining ma'naviy guruhiga kiradi. Tashxis va jonlantirish san'ati jahon adabiyotining ilk badiiy san'at namunalaridan bo'lib, uning vujudga kelishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu badiiy san'at turining vujudga kelishi, ibtidoiy zamon odamlarining paydo bo'lishi va ularning ibtidoiy ongi rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Tashxis va jonlantirish san'ati jahon adabiyotshunosligida to'liq tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada tashxis va jonlantirish san'atining

tarixi, nazariy masalalari, boshqa badiiy san'atlardan mustaqilligi va mumtoz adabiyotda tutgan o'rni aniq dalillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashxis, jonlantirish, san'at, poeziya, tarix, poetik, shakl, mazmuni.

История и теория одушевления и искусство анимации

Аннотация. Искусство одушевления и восстановления представлено в виде анимационного искусства, художественного выражение искусства духовной группы. Одушевление и возродительное искусство в мировой литературе впервые было представлено в качестве примера его искусства, который имеет долгую историю. Одушевление не полное расследование и возродить искусство мировой литературы оно не может. В данной статье рассматривается одушевление и история искусства анимации, теоретические вопросы.

Ключевые слова: одушевление и восстановление особенность истории искусства, искусство диагностики, поэтической формы и содержания, поэзия, миф.

History and theory of animation and the art of animation

Abstract. The art of animating and restoring is presented in the form of an animated art, an artistic expression of the art of a spiritual group. Animation and the regenerative art in world literature was first presented as an example of his art, which has a long history. In this article we consider the animation and history of the art of animation.

Keywords: animation and recovery feature of the history of art, the art of diagnosis, poetic form and content, poetry, myth.

Jahon adabiyoti yuksak badiiy asarlar, turli xildagi janrlar, uslubiy tasvirlar va badiiy san'atlarga boydir. Shuni aytish lozimki, adabiy durdonalarning yaratilishida, badiiy kalom san'atlarining ahamiyati beqiyos. Xalq og'zaki ijodining rivojlanishi, tarixiy voqea va hodisalarni tasvirlash jarayonida, dunyoni mifologik tarzda qabul qilish va anglash asosida, qadimgi zamon ijodkorlari turli badiiy san'atlarning yaratilishida xizmat qilganlar. Qadimgi zamon ijodkorlari tabiat va undagi yuz beradigan hodisalarga munosabatini badiiy san'atlar orqali ifoda etganlar. Xalq og'zaki ijodi insoniyat badiiy ijodiyotining ilk namunalari sanalib, dastlabki badiiy san'at turlari ham shu qadimgi qo'shiqlar, mif va asotirlar asosida vujudga kelgan. Qadimgi adabiy namunalarda badiiy san'at turlaridan dastlab mubolag'a, tashbih, istiora va tashxis yuksak mahorat ila qo'llanib kelingan. Yuqorida keltirilgan badiiy san'at turlaridan ibtidoiy davr odamlari tabiatda bo'ladigan holat va voqelikni tasvirlab qolmay, ular orqali o'zlarining olam va muhitda bo'layotgan hodisalarga munosabatlarini ham ifoda etishgan. Shu badiiy san'at turlaridan biri jonlantirish va tashxis san'atidir. Bu san'at turi qadimgi va mumtoz adabiyot va yangi davr adabiyotida ham ko'p qo'llanilgan san'at turlaridan hisoblanadi. Maqolada jahon va Sharq adabiyotshunos olimlarining ilmiy qarashlari va o'zimizning bu boradagi ilmiy izlanishlarimizga asoslanib, tashxis va jonlantirish san'atining vujudga kelishi hamda bu hodisaga bog'liq nazariy masalalarni, uning adabiyotda shakllanish holati, poetik xususiyatlari, boshqa badiiy san'at turlari bilan uzviy bog'liqligi to'g'risida fikr mulohazalar bayon etiladi.

Tashxis va jonlantirish san'ati badiiy san'atlar ichida eng go'zal va diqqatga sazovor san'at turlaridan bo'lib, badiiy san'at namunalarining ma'naviy san'atlar turkumiga kiradi. Tashxis va jonlantirish san'ati badiiy asarning yanada qiziqarli, jozibali va voqelikni yaqqol ko'rsatishda xizmat qiladi.

Tarixiy kitoblar va ilmiy qo'lyozmalarda tashxis va jonlantirish san'at turi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Biz shu asarlarga asoslanib, yaratilgan badiiy asarlarning bevosita tahlili asosida, mazkur san'atning poetik xususiyatlarini ochishga harakat qilamiz.

Tashxis va jonlantirish san'ati adabiyotning stilistik tasvirlash uslublaridan bo'lib, ilk marotaba xalq og'zaki ijodida ko'zga tashlanadi. Tojik adabiyotining taniqli adabiyotshunoslaridan biri To'raqul Zehniy o'zining «San'ati suxan» (So'z san'ati) kitobida tashxis san'atiga quyidagicha izoh beradi: «Tashxis adabiyotda jonlantirish ma'nosida, jonsiz va tabiat hodisalariga jon ato etib, ularni odam ko'rinishida namoyon etishi, turli xildagi hasharot va parrandalarni inson tilida gapirtirishdir. Shoir tashxis san'ati bilan jonsiz narsalarga jon bag'ishlab, ularni odam ko'rinishida namoyon etadi» [2:102].

Tashxis va jonlantirish san'ati jahon adabiyotining ilk badiiy san'at namunalaridan bo'lib, uning vujudga kelishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu badiiy san'at turining vujudga kelishi, ibtidoiy zamon odamlarining paydo bo'lishi va ularning ibtidoiy ongi rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuni aytish kerakki, ibtidoiy davr odamlarining qarashlarida tabiatda yuz beradigan har bir voqea, hodisa jonli tarzda namoyon bo'ladi. Ibtidoiy zamon odamlari dunyoni yaratilishi va tabiatning tarkibiy unsurlari to'g'risida bilimga ega emas edilar va bu esa ularning tabiatda yuz beradigan voqea va hodisalarning asl mohiyatini anglashga xalaqit berar edi. Shuning natijasida, ular tabiatdagi voqelik va hodisalar to'g'risida turli mifologik va afsonaviy xulosalar chiqarib, ularni eng qadimgi va badiiy adabiyotning dastlabki namunalari afsona va qadimiy mifologik dostonlarda aks ettirishgan. Tashxis va jonlantirish san'atining ilk namunalari xalq og'zaki ijodiyotida ifoda etilishi to'g'risida bulg'or olim Mixail Arnaudov o'zining «Psixologiya literaturnogo tvorchestva» kitobida quyidagicha fikr bildiradi: «O'lik tabiatni jonlantirish adabiyotning qadimgi tasvirlash turlaridan hisoblanadi. Uning rivojlanishini biz bolalar ruhiyatida, past saviyadagi ibtidoiy odamlar va qabilalar misolida ko'rishimiz mumkin. Tabiatni sodda tushunishning analogiyasiga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, ibtidoiy odamlarning yashash tarzi bu xulosani chiqarishimizga asosdir. Qadimgi zamon odamlari atrofdagi ashyo va jismlarga jonli narsaga munosabatda bo'lganday munosabat qilardilar. Ularni o'z qarashlarida jonli va ma'lum quvvatga ega deb hisoblab, ulardan ma'lum darajada hayiqardilar» [1:232-233]. Yuqorida keltirilgan tarifdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tashxis ibtidoiy insoniyatning mifologik tasavvurlari va qarashlaridan vujudga kelgan. M. Arnaudov bu borada quyidagicha fikrini davom etiradi: «Jonsiz narsalarining jonlanish holatlari tirik qolish uchun kurashdir. Jonsiz narsalar, badiiy ijodiyot imkoniyati bilan jon olib, inson harakatlarini bajaradi va jonlantirish san'at shaklida namoyon bo'ladi» [1:232-233].

Xalq og'zaki ijodiyotida tashxis ko'p ko'zga tashlanishining yana bir omili, ibtidoiy odamlarning diniy va falsafiy aqidalariga bog'liqdir. Qadimgi davr xalq og'zaki ijodiyoti matnlari va diniy mazmunlarga asoslangan asotir-miflarda tashxis va jonlantirish san'ati katta o'rin egallagan. Ibtidoiy davr odamlarining tabiat va uning hodisalariga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan asotir va miflar o'z navbatida tashxis va jonlantirish san'atiga boydirlar.

Qadimgi zamonda, insoniyat hali chuqur bilimga ega bo'lmagan davrda, tabiatning har bir ashyo va narsalarini jonli deb tasavvur etardi. Aksar holatda ibtidoiy davr vakillari ba'zi bir jonsiz narsalarni jonlantirib, ularni hatto xudolik darajasiga yetkazishganlar. Bu shuni ko'rsatadiki, ibtidoiy davr insonlarining tabiat va undagi mavjudotlar to'g'risidagi munosabatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib ideallashtirgan. Masalan, Oriylarning birinchi xudosi sof osmon va muhit bo'lgan. Ba'zi paytda, joylarda uning nomi «Nana» deb atalgan. Hindlarning muqaddas kitobi «Varuna»da, «Diyauq», keyinroq «Dev» nomi bilan keltirilgan [4:18]. Agar bu masalaning vujudga kelishiga nazar solsak, avvalo qadimgi zamon odamlari osmon jismlarini jonli deb hisoblashgan. Ularning nazarida osmondagilar ular uchun rizq va ozuqa jo'natishadi va agar jahllari chiqsa, to'fon, qor, shamol va turli ofatlarni yuborishadi. Keyinroq ular bu masalada ildamlashib, osmonning jonli ekanligiga ishonib, uni insonlarga ta'sir eta oladi deb o'ylab, Voruna eng birinchi Xudo deb tan olishadi. Osmonni dastavval jonli tarzda tushunib, keyinroq Xudo sifatida e'tirof etishlarini adabiyotshunos olim Xoliq Mirzozoda quyidagicha ta'riflaydi: «Qadimgi falsafiy, ijtimoiy va diniy fikrlardan ma'lumki, qadimgi zamon odamlari shuurining pastligi, tajriba va bilimning, ishlab chiqarish asboblarining kamligi va mehnat samarasining ko'rsatkichi pastligi tufayli, tabiat qonunlarini tushunishda o'jizlik qilganlar va voqea-hodisalarning asl mohiyatini tushunmasdan, yashash tarzini soddalashtirish uchungina turli ertak va fantastikalarni to'qishgan» [4:46].

Oriyoniy xalqlar miflarida Quyosh Vorunaning ko'zi, ya'ni Osmonning ko'zi sanalgan. Momoqaldiroqni uning o'g'li, yulduz va sayyoralarni Vorunaning jilodor kiyimi sanashgan. Shundan ma'lum bo'ladiki, tabiatning moddiy unsurlari qadimgi zamon asotir va miflarida o'zlarida jonlantirish xislatini ifoda etib, er yuzidagi insonlar xarakteriga ega bo'lganlar.

Tashxis yo jonlantirish san'ati tasvirlashda keng imkoniyatga ega bo'lib, moddiy va ma'naviy unsurlarni jonlantirishda ko'p qo'llaniladi. Tabiatdagi vahshiy hayvonlar va qushlarni tasvirlashda bu badiiy san'at turi o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Fors-tojik mumtoz adabiyoti tarixida turli hayvonlar va qushlarni, jumladan, tulki, sher, sigir, tovuq, to'ti, bo'ri, fil, ot, qoplon, chumoli, qarg'a, it, mushuk va boshqa jonivorlarning badiiy adabiyotda insonga xos sifatlarini o'zida gavdalantirib, odamlardagi xarakter va sifatlarini olganini ko'rishimiz mumkin. Mumtoz she'riyatda tabiatdagi hayvonlar va

qushlar kundalik yumushlarida odamlarga xos harakatlarni qabul qilgan holda turli amallarni bajarib, o'zlarining munosabatlarini bayon etadilar.

Biz oldimizga qo'ygan ilmiy ishimizni mukammal o'rganishimiz uchun, tamsil va tashxis badiiy san'atlarini o'zaro bog'lagan holda o'rganishimiz kerak bo'ladi. Tamsil yoki masal adabiyotda turli hayvon va qushlarga odamlarga xos xarakterni berishdan iborat. Buning natijasida turli hayvonlar va qushlar odamlar singari harakatlanib, so'zlaydilar, maqsadlarini ifoda etadilar. Haqiqatan masal yoki tamsil san'ati turli nabotot va hayvonlarga insonlarning quyidagi sifatleri so'zlash, fikrlash, kulish, qayg'urish, qo'rqish, yig'lash va boshqalarni berish orqali vujudga keladi. Bu san'at turi tashxis va jonlantirishning bir turi bo'lib, tamsil tashxisning asosiy tamoyillari asosida shakllangan. Bu san'at turlarining o'zaro farqi, ularning nazariy xususiyatlari va shaklida namoyon bo'ladi. Tamsil, tashxis va jonlantirishning bir shakli bo'lib, badiiy ijodiyotda turli qushlar va hayvonlarga ixtisoslashtirilgandir. Unda turli qushlar va hayvonlar insonga xos xarakterga ega bo'lib, inson singari muomala qiladilar. Mazkur san'at turida, faqat qushlar va hayvonlar odamlar singari jonlantiriladi. Boshqa jonsiz moddiy jismlar bundan mustasnodir. Biz masalning eng yaxshi namunalarini Rudakiy Samarqandiyning «Modari may» (May onasi) qasidasida, Manuchehriy Domg'oniyning musammatlarida, «Kalila va Dimna» asarida, Nizomiy Ganjaviyning «Maxzanul-asror» masnaviysida, Jaloliddin Balxiyning «Masnaviy ma'naviy» asarida, Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang» dostonida, Sayido Nasafiyning «Bahoriyot»-ida, So'fiyning «Dostoni Mevaho» (Mevalar dostoni) va boshqa asarlarda ko'rishimiz mumkin.

Har bir badiiy san'at turi o'zining shakl va mazmunidan kelib chiqib, guruh va turlarga bo'linadi. Tashxis san'ati ham o'zining qamrab oladigan hajmiga qarab ikki guruhga bo'linadi. Bu to'g'risida adabiyotshunos olim, professor Sadri Sa'diev o'zining «Odamushshuaro Rudakiy va Bashshori Marvaziyning «May onasi» qasidalarining poetikasi» maqolasida quyidagicha fikr bayon etadilar: «Tashxis san'ati badiiy kalomning eng go'zal san'atlaridan bo'lib, u o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

1. Mufasssal tashxislar
2. Muxtasar tashxislar». [7:7].

Batafsil tashxisda tashxis san'atining ko'lami keng bo'lib, hikoya boshdan oxirigacha shu san'atdan tarkib topadi va uning turli tomonlari o'quvchiga namoyon bo'ladi, biz bu tashxis turining eng yaxshi namunalarini zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ning «Yasna» qismi 9, 10, 12-gotlarida, Rudakiyning «Modari may» (May onasi) qasidasi, Manuchehriy Domg'oniyning «Duxtaroni raz» (Uzum qizlari) musammatlarida va Sayido Nasafiyning «Bahoriyot» asari hamda boshqa doston va masnaviylarda ko'rishimiz mumkin. Masalan: XI asrning yetuk shoirlaridan biri shoir Farruxiy Siistoniyning quyidagi g'azalida tashxis va jonlantirish san'atining mufasssal tashxis turi qo'llanilgan bo'lib, oshiq yuragini ma'shuqaga tortiq qilishi tasvirlanadi. Shoir yurakka ma'shuqa oldiga borib, dunyo lazzatlari va xushbaxtligidan bahramand bo'lishni buyuradi. Yurak esa oshiqdan uni ma'shuqaning oldiga yubormasligini so'raydi va oshiqqa qarab «hech ko'rganmisan, biron kishi o'z yuragini birovga tortiq qilganini deb savol bilan murojaat qiladi» Shoir unga javoban, «sen ma'shuqaning oldiga borib, dunyo go'zalliklaridan bahramand bo'l, shodlik qilg'ilkim, bu dunyodagi eng ulug' baxtdir» deb javob beradi:

*Ey dili man, turo bashorat dod,
Ki turo man ba do'st xoham dod.
Tu bo o' shodmonivu ba jahon,
Shod bod, on ki badu shod.
To nago'i, ki mar- maro nafrist,
Ki na kas dil ba do'st bifristod.
Do'st az man turo hametalabad, [6:75].*

Muxtasar tashxis turi badiiy adabiyotda boshqa so'z san'atlari bilan birgalikda kelib, o'zining badiiy xususiyatlarini saqlab qoladi va tarkibiy unsurlarini mo'jaz tarzda namoyon etib, she'rda jonlantirishni aks ettiradi.

Masalan, Shoir Abulqosim Lohutiyning quyidagi ruboiysida shoir yuragiga muhabbatning dardu alamlari to'g'risida savollar beradi va o'z navbatida qalbi unga javob beradi:

*Biguftam: «Joni bemori maro ki mekunad darmon?»
Bixandidu guft: «Ey benavo jononae chun man».*

Biguftam: «Loiqi ganjinai ishqam kujo boshad?»

Dilam junbidu gufto: «Xonai vayronae chun man». [3:113].

Muxtasar tashxis fors-tojik mumtoz adabiyoti she'riyatida tashbih, istiora va boshqa badiiy san'at turlari qatorida ko'p qo'llanilgan. Biroq, oldingi zamon she'rshunosligi uni tashbih va istioradan ajratmasdan, ularni bir toifaga kirgizgan. Haqiqatdan tashxis va jonlantirish san'ati shakl jihatidan istiora san'atiga o'xshab ketadi. Masalan Kamoli Xujandiyning quyidagi baytida:

Ba ro'yat da'vii xubi chu domangir shud gulro,

Bad-in ma'ni namedorad sabo dast az girebonash.[8:241].

Badiiy tasvir to'laonli tashxis va jonlantirishga asoslangandir. She'rda gul go'zallikda o'zini yor yuzi bilan tenglashtiradi, biroq uning bu iddaosi saboga ma'qul bo'lmay, u bilan kurashga shaylandi. Bu baytda sabo va gul jonlantirilib, inson singari harakatlanadilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, tashxis va jonlantirish san'ati badiiy adabiyotning ilk san'atlaridan hisoblanib, adabiy durdonalarning yaratilishida ahamiyati beqiyos. Tashxis va jonlantirish san'ati dunyo xalqlari, mumtoz va yangi adabiyotning poetikasida eng ko'p murojati etiladigan badiiy san'atlardan hisoblanadi. Ammo jahon adabiyotshunosligida mazkur san'at atroflicha to'liq tadqiq etilmagan va tashbih, istiora san'atlari tarkibiga kiritilgan. Mazkur san'at shakl, mazmun va hajm jihatidan mustaqil bo'lib, tashbih va istiora san'atlari doirasiga sig'maydi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda tashxis va jonlantirish san'atining nazariy masalalarini, badiiy adabiyotda tutgan o'rni haqida mufassal to'xtalib o'tamiz.

Adabiyotlar

1. Arnaudov M. «Psixologiya literaturnogo tvorchestva». – Moskva: Progress, 1985, 232-233 betlar
2. Zehniy T. San'ati suxan. – Dushanbe: Irfon, 1967, 102 bet
3. Lohutiy A. Kulliyot. 1jild. – Dushanbe: Donish, 1987, 113 bet
4. Mirzozoda X. Ta'rixi adabiyoti tojik. Birinchi kitob (1). – Dushanbe: Maorif, 1987, -18-46 betlar
5. R. Hodizoda., M. SHukurov, T. Abdujabborov. Farhangi istilohoti adabiyotshinosi. – Dushanbe: Irfon, 1966, 49 bet
6. Sabaqi Rudaki. –Dushanbe: Irfon, 1984, 75 bet
7. Sadri Sa'diev «Odamushshuaro Rudakiy va Bashshori Marvaziyning «May onasi» qasidalarining poetikasi», 7 bet
8. Kamoli Xo'jandi. Devon. 2 jild. – Dushanbe: Irfon, 1984, 241 bet

УДК: 491.7

РАЗВИТИЕ ДИАЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ЯЗЫКОВОГО ВУЗА: МЕТОДИКА И ПРАКТИКА ОБУЧЕНИЯ

З.И. Салиева

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация. В данной статье речь идет об обучении навыков говорения с активным использованием диалогической речи у студентов языкового вуза. Рассматривается роль диалога в преподавании английского языка. Автор предлагает систему упражнений для развития диалогических умений, которые стимулируют речевую деятельность студентов на самостоятельном уровне обучения (B2+).

Ключевые слова: английский язык, развитие навыка говорения, метод диалога, устно-речевые упражнения.

Talabalarda dialogik ko'nikmalarni rivojlantirish: o'qitish metodikasi va amaliyoti

Annotatsiya. Ushbu maqola filologiya yo'nalishi talabalariga gapirish ko'nikmalarini dialogik nutq yordamida rivojlantirishga qaratilgan usullarga bag'ishlangan. Ingliz tilini o'qitishda dialog usulining ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan gapirish ko'nikmalarini rag'batlantiruvchi mashqlar tizimi taklif etilgan (V2+ darajasi uchun).

Kalit soʻzlar: ingliz tili, gapirish koʻnikmalarini rivojlantirish, dialog usuli, ogʻzaki nutq mashqlari.

Developing speaking skills for students of philological profile: methodology and practice

Abstract. This article devoted to the teaching of speaking skills with the active use of dialogical speech among students of philological discipline. The role of dialogue in the teaching of English is considered. The author offers a system of exercises for the development of dialogic skills that stimulate students' speech activity at intermediate level (B2+).

Keywords: english, development of speaking skills, method of dialogue, oral-speech exercises.

В современном мире уже давно знание иностранного языка является необходимой частью личной и профессиональной жизни человека. Владение иностранным языком предполагает в свободной и непринуждённой форме экспромтно, спонтанно реагировать на всевозможные ситуации реальной действительности. Положительной тенденцией стало выдвижение в качестве цели обучения развитие умений общаться на иностранном языке. Как показывает практика и личностный опыт преподавания, основной причиной, препятствующей полноценному общению, является недостаточно высокий уровень владения навыком говорения (Speaking skills). Язык является средством живого общения, который предполагает диалог культур. Введение данного диалога возможно лишь, при условии успешного овладения навыками и умениями иноязычного общения, что в свою очередь, зависит от разнообразия и эффективности методов и приемов обучения [1, С.49]. В связи с этим, рассмотрение способов обучения навыку говорения на английском языке представляется актуальным.

Вопросам развития навыка говорения на иностранном языке уделяется достаточно много внимания в методической литературе. Говорение определяется как продуктивный вид речевой деятельности (активная форма коммуникации, речевого взаимодействия), посредством которого осуществляется устно-речевое общение. Необходимость передать информацию (мотивация), способность само выражаться являются основными параметрами навыка говорения. По мнению Н.И. Геза целью обучения говорению является развитие у учащихся, в соответствии с их реальными потребностями и интересами, способности осуществлять устное речевое общение в разнообразных, социально детерминированных ситуациях[2]. В этом плане задачей преподавателя является создание соответствующих условий, которые способствуют общению студентов в любой речевой ситуации. Как отмечает А.А. Миролубов, если есть цель и мотив, учтены характерные особенности студентов, их уровень развития и т.д., то безусловно в рамках какой либо речевой ситуации состоится акт общения [2, С.95]. Рассматривая иностранный язык как средство коммуникации, следует обращать особое внимание на развитие учебно-коммуникативных упражнений, которые стимулируют речевую деятельность студентов.

Одним из плодотворных и эффективных таких способов обучения неподготовленной и спонтанной речи является использование метода учебного диалога. Многие методисты определяют диалогическую речь как сложную речевую деятельность, в которой речь одного из участников зависит от речевого поведения другого участника. Обучение диалогу подразумевает накопление опыта в разных речевых ситуациях, тренировку типичных речевых действий, побуждающих к выражению эмоциональной оценки, которые развивают у студентов творческие способности освоения речевого этикета. В диалогических упражнениях студенты информируют друг друга о чем либо, запрашивают информацию, выражают отношение к вопросу, ставят проблему, реагируют на реплику участника диалога, тем самым выступают в качестве слушателя и говорящего на иностранном языке.

В отечественной методике преподавания, начиная дошкольным и заканчивая послевузовским обучением, роль диалога в изучении иностранного языка имеет большую значимость. Согласно постановлению первого президента РУз И.А. Каримова «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» установлен новый стандарт образования CEFR. В этом стандарте особое значение представляет формирование иноязычной коммуникативной компетенции обучающихся, которая предусматривает способность и реальную готовность осуществлять иноязычное общение. Исходя из этого, в

системе народного образования, на разных этапах обучения имеются свои дескрипторы(can do) – требования к уровню подготовки выпускников. Для достижения уровня подготовки навыку говорения (один из видов речевой компетенции) на самостоятельном уровне обучения (B2+) даются следующие дескрипторы для развития диалогических способностей:

Диалог

- Вести переговоры с партнерами по бизнесу.
- Делать запросы по конкретным вопросам.
- Участвовать, уметь поддерживать и, в случае необходимости, инициировать длительные обсуждения с носителями языка.
- Участвовать в спонтанных дискуссиях и дебатах.
- Участвовать в интервью по вопросам специальности.
- Точно выражать идеи и мнения в рамках формальных дискуссий.
- Уточнять, использовать перефразировку, «восстанавливать» и вносить собственный вклад в развитие дискуссии.
- Проводить переговоры или решать проблемы в рамках норм речевого этикета.
- Уметь задавать и отвечать на вопросы соответственно формальной ситуации, например, на семинаре[5].

С опорой на новый стандарт нами предпринята попытка разработать типологию упражнений с помощью метода диалога, которые стимулируют способность развития навыка говорения на самостоятельном уровне обучения (B2+) и дают возможность достичь вышеперечисленных дескрипторов.

Как показывает анализ методической литературы заучивание наизусть целых диалогов на ту или иную тему не является эффективным средством обучения устному продуцированию[3, С.69]. В этом плане для достижения эффективного взаимодействия между студентами целесообразно использование новых методов в обучении диалогу.

В методике преподавания ИЯ различают дедуктивный и индуктивный способ обучения диалогу. Диалог строится по принципу «от простого к сложному», то есть, начиная дедуктивным способом (прослушивание абзаца, обучение произношению, интонации, лексические трансформации, комбинирование слов и предложений и др.), преподаватель должен перейти к индуктивному способу (самостоятельное введение диалога с помощью учебно-речевых ситуаций). На сегодняшний день широко используются индуктивный метод в обучении диалогу для студентов языкового вуза, который предполагает обучение навыку говорения с помощью учебно-речевых упражнений как:

- диалог опорно-постановочный;
- диалог беседа, дискуссия;
- диалог сообщение;
- диалог вопрос-ответ;
- диалог ситуация.

Рассмотрим некоторые диалогические упражнения, которые могут быть использованы для развития навыка говорения у студентов языкового вуза (уровень B2+).

Items on board: Преподаватель записывает некоторые предложения на доске по пройденной теме. Студенты в малых группах стараются сформулировать диалог и рассказывают его всему классу в течении 2 минут. Такого рода упражнения развивают умения быстро реагировать на речевую ситуацию, находить речевую формулу с использованием готовых предложений.

Picture and word clues: Применение картинок или диаграмм для запоминания ключевых слов. С помощью картинок или диаграмм студенты легко и быстро могут сформулировать диалог беседу и создать искусственную ситуацию по заданной теме.

Dialogue building: С помощью этого способа студенты могут создать свой диалог по аналогии с изученными. Например: стимулирующие вопросы и задания к изученным темам. По теме «HOTEL» можно дать задание создания естественной ситуации и проведения диалога-беседы. Преподаватель дает первую строку диалога в устной форме – Good morning! Can I help you? И дает сценарий, по которому студенты должны подготовить ролевую игру и презентовать диалог беседу в группах. Это упражнение побуждает к диалогическому обмену

мыслями и требует от студентов индивидуального творческого подхода к ситуации. Создаются условия для живого общения, реальные условия коммуникации.

Любой из вышеперечисленных методов может быть использован преподавателем как урок – диалог. Однако каждый преподаватель может быть творцом и предложить свой метод проведения урока – диалога, так как успех обучения зависит как от правильного определения его целей и содержания, так и от способов достижения целей, то есть способов преподавания [7].

Суммируя все вышесказанное, можно отметить следующее:

- одним из главных навыков в обучении иностранных языков является навык говорения, который стимулирует речевую деятельность у студентов;
- для достижения определенного уровня при обучении навыку говорения целесообразно использование учебно-коммуникативных упражнений нацеленных на выработку диалогических умений;
- плодотворное обучение навыку говорения зависит от целенаправленной языковой активизации с помощью специальных диалогических упражнений, которые способствуют выработке умений строить диалог в условиях, приближенных к естественным речевым ситуациям.

Литература

1. Амброс Е.Р. Система упражнений для развития диалогических умений//Иностранные языки в школе. – 2015. – №6. – С.48-54.
2. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика : учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.
3. Исханова Ф.С. Обучение правильной неподготовленной диалогической речи //Иностранные языки в школе. – 2015. - № 3. – С. 68-72.
4. Миролубов, А. А. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / А. А. Миролубов. – М.: Просвещение, 2010. – 223 с.
5. Государственный образовательный стандарт системы непрерывного образования Республики Узбекистан: Электронный ресурс http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=2165724
6. Scott Thornbury (2002): How to teach speaking. Cambridge: UK, 2nd edition, 156 p.
7. Ur, P.(1996): A course in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 375p.

UDK: 01(09)(575,141)

HOJI MUIN SHUKRULLO O'G'LINING HAYOTI VA IJOD YO'LI

X.S.Ashurova

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Maqolada Hoji Muinning hayoti va ijodi dastlabki tahsil davri yoritilgan. Shuningdek uning o'z ustozlariga bo'lgan hurmati va ularning izidan borishi haqida fikr yuritiladi. Hoji Muinning she'riyatga bo'lgan qiziqishi va keyinchalik esa dramaturgiyadagi ijodi haqida so'z boradi. Hoji Muin yosh avlodni tarbiyalashdagi jonkuyarligi haqida ham mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, hayoti va ijodi, ustoz, she'riyat, dramaturgiya, ta'lim-tarbiya, matbuot.

О жизненном и творческом пути Ходжи Муина Шукрулло Угли

Аннотация. В статье освещены жизнь и творчество Ходжи Муина в период его обучения. Рассмотрено его уважительное отношение к своим учителям и его стремление идти по их стопам. В статье идет речь об интересе Ходжи Муина к поэзии, а далее к драматургии. Также говорится о самоотверженности Ходжи Муина в деле воспитания молодого поколения.

Ключевые слова: общественно-политический, духовно-просветительский, жизнь и творчество, учитель, поэзия, драматургия, образование и воспитание, пресса.

About the life and poetry of the Hoji Muin Shukrullo ugli

Abstract. This article is about Hoji Muin Shukrullo Ugli's life and literary work in the period of his education. His respective relations to his mentors and his efforts to follow their life way is discussed. Current article explains Hoji Muin's interests to poems, and further to dramaturgy. Also his approach and opinion on the raising of young generation is discussed.

Keywords: social, political, spiritual, life and work, teacher, poetry, drama, education and press.

Jadidchilik harakatining ilg'or vakillaridan biri bo'lgan Hoji Muin Shukrullo o'g'li o'tgan asrning boshlarida Samarqandda yashadi va ijod etdi.

Hoji Muin 1883-yilning 19-martida Samarqand shahrining Ruhobod guzarida tug'ilgan. Uning yoshligidan boshlab she'riyatga qiziqishi ijod olamiga kirib kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Hoji Muin o'z tarjimai holidan o'n bir yoshlarida Yassaviy, Mashrab she'rlaridan, «Tuhfat ul-ushshoq» to'plamidagi ayrim g'azallardan g'oyat ta'sirlanganligini qayd etadi va she'rlar yoza boshlaganligini ta'kidlaydi. U o'n ikki yoshida ham ota, ham onasidan yetim qoladi va Ruhobod guzari masjidining imomi bo'lgan bobosi Mirsaid Sharif o'g'li qo'lida tarbiya topadi. O'smir Xoji Muin bobosidan arab tili qoidalari va diniy ilmlarni o'rgana boshlaydi.

Bu bilimlarning mukammallashuviga o'z davrining taniqli olimi va ziyolisi Sayidahmad Vasliy bilan (1900-yili) tanishuv katta imkoniyat yaratdi. Demak, Hoji Muin o'n sakkiz yoshgacha dastlab bobosi, keyinchalik Vasliy ta'siri ostida arabcha sarf, navh va muayyan darajada diniy bilimlarni o'zlashtiradi. Shuningdek, Vasliy uning she'riyatga bo'lgan muhabbatini oshirdi, o'z davrining ma'rifatparvarlari davrasiga ham olib kirdi [1.5.].

Hoji Muinning muallimlik faoliyati 1901-yilda eski maktabdan boshlandi. Shu maktabda muallimlik qilish jarayonida to'plangan muayyan tajribalar asosida va Abduqodir Shakuriyning maktabi ta'siri tufayli 1903-yilning avgust oyida Samarqand shahrining Xo'ja Nisbatdor mahallasida yangi usuldagi maktab ochib, unda o'qituvchilik qiladi. Hoji Muin maorifparvar, vatanparvar, fidoiy inson bo'lganligi uchun ushbu maktabni o'z hisobidan ochdi. U hech qachon o'zining moddiy manfaatini ustun qo'ymadi, balki Behbudiy, Shakuriy, Ajziylarning maktabdorlik an'analari davom ettirdi. Hoji Muinning zamondoshlari bilan suhbatga asoslanib, adabiyotshunos olim R.Muqumov, "Hoji Muin maktabda bolalarni savodxon qilish uchun sarflanadigan mablag'ni xalqdan yig'magan, balki o'zining Devoli ko'ndalang qishlog'idagi bog'chasida yetishtirgan shirin-shakar mevalarni bozorga chiqarib sotish evaziga to'plagan. Maktabdorlikdan daromad olishni sira o'ylamagan" [2.20-25.], - deb yozadi. Aynan shu yili Vasliyning uyida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishib, suhbatda bo'lishi uning hayotida tubdan o'zgarish yasadi va yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, Behbudiyning "Muxtasari jug'rofiyai umumiy" kitobining "Tadbiqoti diniya" qismidagi "Ba'zi eski xurofot va isroiliyat so'zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan" mazmunidagi jumalari uning fikrida tubdan o'zgarish yasadi. Hoji Muin tavsi'i ma'lumotiga turk-totor matbuoti sabab bo'lgan bo'lsa, Behbudiy hazratlarining mazkur bir ikki jumla so'zi birinchi martaba, fikriy inqilobga uchratganligini e'tirof etadi [3.29.]. Shu davrdan boshlab, u Behbudiyning izdoshiga aylandi.

Yangi tashkil qilingan maktablarga, jumladan, Hoji Muin maktabiga ham, eski maktabning ta'lim va tarbiya usuli mos kelmas edi. Shuning uchun o'sha davrda eng avvalo yangi o'quv adabiyotlarni yaratish dolzarb muammoga aylangan edi. Buni yaxshi tushungan Hoji Muin boshqa jadid muallimlari qatori o'ta mas'uliyatli va shu bilan birga sharaflil bo'lgan vazifani ham o'z zimmasiga oldi. U 1908-yilda yangi usuldagi maktablar uchun fors tilida «Rahnamoi savod» darsligini chop ettirdi. Zamondoshi Ismatilla Rahmatullazoda bilan hammualliflikda o'zbek tilida "O'qituvchi" nomli alifbo kitobini tayyorladi.

Yangi jadid maktablarida ta'lim va tarbiyani uzviy va uzliksiz olib borish zarur edi. Shuning uchun Hoji Muin o'quvchilarga nafaqat dars berish bilan chegaralandi, balki o'z davrining mashhur va tajribali pedagoglaridan biri hisoblangan Abduqodir Shakuriyning iltimosiga binoan bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblangan bir qancha she'rlarni turkchadan fors tiliga tarjima qiladi. Hoji Muin shu tarjimalar asosida 1914-yilda «Guldastai adabiyot» nomli she'riy to'plamni nashr qildirdi. To'plamdagi Hoji Muin tomonidan 1908-1914-yillarda yaratilgan "Xitob va go'daki beilm", "Nasihat", "Muxammas", "Ittifoq", "SHikoyat", "E'tirof" kabi milliy va maishiy xarakterdagi she'rlar uniki bo'lib, qolganlari esa tarjima she'rlardir. Hoji Muinning ushbu kitobi

“yangi o‘zbek she‘riyatining dastlabki namunalaridan biri edi” [4.210-212]. Ammo bu to‘plam 2010-yilda chop etilgan Hoji Muinning “Tanlangan asarlarida” keltirilmagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1914-yilda sahnaga qo‘yilgan “Padarkush” asari ta‘siri Hoji Muin ijod yo‘nalishini she‘riyatdan dramaturgiyaga burib yubordi. U keyinchalik, mohir dramaturg, o‘tkir publitsist bo‘lib yetishdi va o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini mohirona tavsirlab berdi. Nusratullo Qudratulla o‘g‘li bilan hamkorlikda yozilgan to‘rt pardali “To‘y” pesasi 1914-yilda bosmadan chiqdi. Birin-ketin dramaturg Hoji Muinning uch pardali «Eski maktab – yangi maktab» pesasi (1916-y.), to‘rt pardali drama (fojiaviy asar)si «Mazluma xotun» (1916-y.), bir pardali intermediya (kulguli asar)si «Ko‘knori» (1916-y.) yaratildi. Barcha asarlarida shu davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy muammolariga serqirrali va keng qamrovli ijodkor sifatida yondashdi va jiddiy e‘tibor qaratdi. Shuningdek, jamiyatning ma‘rifiy taraqqiyotiga monelik qilayotgan ijtimoiy illatlarning sabablarini tahlil qilishga va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qildi.

Jamiyat va xalqning jaholatdan qutilishida milliy matbuotning muhim ahamiyatga ega ekanligining munozaraga o‘rin qoldirmasligini Hoji Muinning publitsistika sohasidagi faoliyatida ko‘rish mumkin. Insonga suv va havo qanchalik zarur bo‘lsa, shu davrda milliy matbuot ham jaholatdan qutilish uchun shunchalik zarur, deb hisoblagan Hoji Muinning maqolalari bot-bot gazeta va jurnallarning sahifalarida ko‘rinar edi. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetasi”da o‘z maqolalari bilan muntazam qatnashib turdi. Hoji Muin 1913-yili Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi hamda “Oyna” jurnali chiqa boshlagach, ularda matbuot va teatrning ahamiyati, axloq-odob masalalari, xalqning ma‘naviyatini shakllantirish, ta‘lim-tarbiya haqida qator maqolalarini e‘lon qildi.

Hoji Muin hayoti va ijodiga 1917-yildagi fevral oyida bo‘lib o‘tgan voqealar sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Uningcha, Vatan ozodligi, xalqning erkinligi uchun kurashishning vaqti etdi. Shuning uchun publitsist Hoji Muin ma‘rifiy mavzulardan ko‘ra ko‘proq siyosiy masalalarga e‘tiborini qarata boshladi va matbuotdagi faoliyatini kuchaytirdi. Xususan, “Hurriyat” gazetasida bosilgan maqolalarida Turkiston muxtoriyati, bolsheviklar, saylov to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari va xulosalari o‘z aksini topgan.

Sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgandan keyin Hoji Muin uning nashri bo‘lgan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida faoliyat ko‘rsatdi. Dastlabki yillarda yozgan maqolalarida uning siyosiy masalalarga nisbatan aniq nuqtai-nazarga ega bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Publitsist mehnatkashlar hokimiyati deb atalgan yangi tuzumning siyosiy hayotidagi noqislikni Chor Rossiyasi davridan qolgan meros, degan fikrda ham bo‘lgan. U o‘zining o‘tkir qalamini xalqning og‘ir ahvolini yoritishga, hukumatning ayrim qarorlarini xalq ommasiga tushuntirib berishga qaratdi. Ammo tez orada sho‘rolar hukumati to‘g‘risidagi orzu-umidlari sarob ekanligini angladi. Uning “Yurt qayg‘usi”, “Sho‘roi islomiya va saylov”, “Namoyish to‘g‘risida” nomli maqolalarida sho‘rolar hukumatining ijtimoiy siyosatidan norozilik kayfiyati borligi seziladi. Bolsheviklarning siyosiy basharasi ochiq-oydin fosh qilingan “Bolsheviklar va biz” sarlavhali maqolasi “Hurriyat” (1918-yil 9-yanvar), “Boy bo‘lmoq yo‘llari” nomli maqolasi “Zarafshon” (1922-yil 3-noyabr) gazetalarda bosildi. “Mashrab” jurnalining 1924-yilgi 1-sonida “Ezma” taxallusi bilan “Azroilmi, soliqchimi?” nomi bilan chiqarilgan qisqagina maqolada “Magar Nikolay vaqtida bizdan biror noshukurlik o‘tgan ekankim, bu kun haq taolo “bolshevik” degan bir toifa maxluqni boshimizga musallat qildi. Xudoyo, tavba qildim. Yana o‘zing bilasan. Mulk o‘zingniki, nima xohlasang qilmoqqa qodirsan...”[5.2.], - degan jummalarni o‘qiymiz. Shu fikrlarning o‘ziyoq bolsheviklarga umid qilish befoyda ekanligi va muallifning qat‘iy siyosiy xulosaga kelganligidan dalolat beradi.

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li Mehriyning qatag‘on qilish ayni avj pallasiga kirgan vaqtda yozgan «Ijodiy tarjimai holim» (1937-yil) qo‘lyozmasi hayoti, serqirrali ijod yo‘li, dunyoqarashi, pedagogik faoliyati, nashr etilgan va etilmay qolgan, tiriklik davrida maxsus yo‘qotilgan asarlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu noyob qo‘lyozmada yozilishicha, 1937-yilgacha uning o‘nta kitobi bosilib chiqqan va 20 ga yaqin to‘plam-kitoblari bosilish arafasida bo‘lgan. Hoji Muin 30 yillik ijodiy faoliyati davomida 23 xil gazeta va jurnallarda adabiy, ilmiy va ijtimoiy mavzularda taxminan 200 tacha maqola, 400 tacha turli xabar va 1500 misraga yaqin o‘zbekcha hamda tojikcha she‘rlar e‘lon qilgan.

Hoji Muinning ijodida biografik mazmundagi maqolalar salmoqli o‘rinni egallaydi. Xususan, ustoz va maslakdoshi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ijodi va uning vafoti munosabati bilan

maxsus uchta maqola yozilgan. Shuningdek, mashhur muallim va muharrir Shokir Muxtoriy, islohotparvar olim va shoir Sayidahmad Vasliyning tarjimai hollari berilgan maqolalar ham bor. Shuni ham e'tirof etish zarurki, Hoji Muin tomonidan yozilgan hajviy maqolalar Boturbek, Mashrab, Ezma, A'rofiy, Chaqimchi, Mug'ombir kabi bir qator taxalluslar bilan e'lon qilingan.

Hoji Muin safdoshlarining qora kunlari uning boshiga ham tushib, 1929-yilda qamoqqa olindi va 1932-yilgacha saqlandi, 1938-yilning yanvariga kelib yana qamoqqa olindi. U 1942-yilda Solikamsk qamoq lagerlaridan birida vafot etdi.

Adabiyotlar

1. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. To'ldirilgan 2-nashri. T.: Ma'naviyat. 2010. bet.
2. R.Muqumov. Hoji Muin kim edi?// Muloqot, 1994, 5-6-sonlar.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Toshkent "Ma'naviyat" 2005. 29-bet.
4. B. Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh. Rizaev, S.Axmedov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.-210-212 betlar.
5. Hoji Muin. Azroilmi, soliqchi?. "Mashrab" jurnali, 1924 yil, 1-son.

УДК: 407

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ В ОСВОЕНИИ И ПРЕПОДАВАНИИ ВТОРОГО ЯЗЫКА: ИЗУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Акбаров А.

*Профессор Казахского национального университета имени Аль-Фараби, Алматы,
Казахстан*

Аннотация. Технологии предлагают современные образовательные инструменты для изучения английского языка как иностранного. Результаты многих исследований ясно показывают, что компьютерные программы, социальные сети, онлайн-видео, аудио инструменты (например, YouTube, Skype, MP3-плееры), смартфоны и планшетные приложения оказывают положительное влияние на изучение английского языка как иностранного. Таким образом, технологические инструменты могут быть эффективными в совершенствовании языковых и коммуникативных навыков студентов.

Ключевые слова: компьютер, овладение языком, английский язык как иностранный, технологии, языковые навыки, самообразование.

The Use of Technology to Enhance Teaching and Acquiring a Foreign Language: Learning English as a L2

Abstract: Technologies offer modern educational tools for learning English as a foreign language. The results of many studies show that computer programs, social networks, online video, audio tools (for example, YouTube, Skype, MP3 players), smartphones and tablet applications have a positive impact on learning English as a foreign language. Thus, technological tools can be effective in improving the language and communication skills of students.

Keywords: Computer, learning a language, English as a foreign language, technology, language skills, autonomous learning.

Ikkinchi chet tilini o'zlashtirish va o'qitishda texnologiyalardan foydalanish: ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish

Annotatsiya: Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda texnologiyalar zamonaviy vositalarni taklif etadi. Qator izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kompyuter dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn video, audio vositalar (masalan, YouTube, Skype, MP3-pleyerlar), smartfon hamda planshet ilovalardan foydalanish ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, texnologik vositalar talabalarning til o'zlashtirishi va muloqot ko'nikmalarini mukammallashtirishlarida samara berishi mumkin.

Kalit so'zlar: kompyuter, til bilish, ingliz tili chet tili sifatida, texnologiyalar, til ko'nikmalari, mustaqil ta'lim.

1. Введение

Xalqaro miqyosdagi O'zbekistonga doir hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, inson salohiyati indeksi miqdoriga ta'lim ko'rsatkichi (40,45%) va umrning kutilayotgan davomiyligining ta'siri esa nisbatan ko'proq (34,92%). BMTning 2014-yilga doir ma'lumotlariga ko'ra, respublikada ta'lim tizimi dunyo miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lib, 177 mamlakat orasida 80-o'rinni, umrning kutilayotgan davomiyligi bo'yicha esa 112-o'rinda turadi.

Ta'kidlanishicha, kelajakda aynan ta'lim tizimida innovatsiyalarni tatbiq qilish ko'rsatkichining o'sishi O'zbekistonda inson rivojlanishi darajasini oshirishda asosiy imkoniyat sifatida xizmat qiladi.[4]

Aytish o'rinliki, O'zbekistonda mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish sohasining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish talabini qo'yadi.

Globallashuv va integratsiyalashuv ta'sirida ta'lim ustuvorligi, ta'lim mazmuni va tuzilishi o'zgarimoqda, yangi standartlar joriy etilmoqda, ta'lim sifati rivojlanishning yangi, yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, “Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari” uchun mustaqillik yillarida ta'lim tizimida barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi amalga oshirilmoqda. Natijada esa ta'lim tizimida innovatsion faollikning jadallashuvi kuzatilmoqda. [5]

Ma'lumki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan boshlangan ta'lim sohasidagi islohotlar tizimi prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan munosib davom ettirilmoqda.

Xususan, Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan jamiyatimiz oldidagi kelajak vazifalar aniq ko'ndalang qo'yilib, *“to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanagan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur.”* [6].

Shu maqsadda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, uning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” hisoblanadi [7].

Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida ilgari surilayotgan besh yillik istiqbolli reja natijasida xususan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat

siyosatini takomillashtirish reja va dasturi ham havola qilindi. Unga ko'ra, ta'lim tizimida eng ko'p muammolar yuzaga kelayotgan bosqichlarini, jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish jarayoniga muhim ahamiyat qaratilishi nazarda tutiladi.[8]

Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati ham o'z navbatida jamiyatda inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda islohotlar samaradorligini ta'minlashda albatta, jamiyatga kirib keladigan oliy ma'lumotli yoshlarning zamon talablariga mos kadr bo'lib etishganliklari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bu masalada ushbu yilning 20-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori "Harakatlar strategiyasi"ni faollashtirishda muhim qadam hisoblanadi.

Ushbu qaror o'z oldiga oliy ta'lim tizimini yangi asosda modernizatsiya qilish maqsadini qo'yib,

- har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

- oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

- ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;

- yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

- pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o'tkazish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'lim muassasalari va qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari o'quv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish;

- oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish;

- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy-muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, oliy ta'lim ilm-fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash;

- oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish kabi aniq vazifalarni bajarilish dasturi bilan havola qilindi.[9]

Inson manfaatlarini ta'minlashda jamiyatning muhim bo'g'inlari sirasiga kiruvchi ta'lim tizimining kelajakdagi 5 yillik rejasini amaliyotga tatbiq etilayotganligi shubhasiz, davlatimiz siyosatining insonparvarlik tamoyillarini qanchalik ustuvor qo'ya olganligiga yorqin dalolat deyish mumkin.

Adabiyotlar

1. Beruni Abu Rayxon. Sobranie svedeniy dlya poznaniya dragotsennostey (Minerologiya). Per. i prim. A.M.Belenitskogo. L., 1963., S. 154.
2. Inson rivojlanishi to'g'risida ma'ruza, 2001., B.8.
3. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibligi. BMT TD. T., 2008., B.10.
4. World Bank . 2014. R.57-58.
5. B.Daniyarov. Pedagogik innovatsiyalar orqali sifatli ta'lim sari. *"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda zamonaviy usul va vositalardan foydalanishni takomillashtirishning dolzarb masalalari"* mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi . T. 2014 yil, 6 iyun.
6. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. *"O'zbekiston"*, T.: 2016, B.20.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni./ Xalq so'zi, 2017 yil yanvar.
8. O'sha joyda.
9. *"Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori./ Xalq so'zi 2017 yil 20 aprel.

UDK 781.22

XONANDALIK OVOZINI SHAKLLANTIRISHDA VOKAL MASHQLARINING AHAMIYATI

B.R.Boltaev, J.Dj.Kozimov
Samarqand Davlat universiteti
b-boltayev@umail.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim musiqa yo'nalishi, san'at hamda pedagogika kollejlari musiqa yo'nalishlaridagi vokal ijrochiligi darslarida vokal mashqlarining ahamiyati, ulardan foydalanishning shakl va metodlari yoritib berilgan. Shuningdek, ovozlarning xususiyati, ularning bo'linish tasnifiga doir qimmatli fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Vokal, akustika, tembr, bas, tenor, soprano, diskant.

Значение вокальных упражнений в формировании голосового исполнения

Аннотация. В данной статье освещены направления музыки в системе высшего образования, значение вокальных упражнений на уроках вокального исполнения в колледжах искусств и музыки. А также приведены мысли имеющие большое значение специфики голосов и характеристики по их распределению.

Ключевые слова: вокал, акустика, тембр, бас, тенор, сопрано, дискант.

The importance of the formation of the singers voice and vocal exercises

Abstract. This article is devoted to the significance of vocal performance and described using their methods and forms in the lessons of music college, pedagogic colleges and in higher education. In addition, some ideas are given on significance of sound specifics and characteristics on their distribution.

Keywords: vocal, acoustics, sound, bas, tenor, soprano, discant.

Kirish.

Bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash masalalari davlatimiz siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu o'rinda milliy musiqiy xonandalik ijrochiligini hamda oliy dargohlarda tahsil olayotgan talabarning qo'shiq ijrochiligini

professional darajaga ko'tarish va shu sohada pedagogik salohiyatini rivojlantirish yo'lida ijobiy harakatlar qilinmoqda. Ushbu o'rinda vokal darslari va mashg'ulotlarining ahamiyati beqiyosdir. Biz bolaligimizdan o'zimiz yoqtirib qolgan qo'shiqlarni xirgoyi qilishga odatlanib qolganmiz, professional vokal san'ati esa ijrochi oldiga yuqori talablarni quyadi. Chinakam professional xonanda yoki shu sohadan saboq beruvchi pedagog bo'lish uchun tiniq ovoz, musiqiy va aktyorlik qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Yaxshi ijrochidan badiiy texnik tayyorgarlik, ya'ni ma'lum diapazonda o'z ovozi erkin idora eta bilishi, ovozning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, ohanglarni ifodali ijro eta bilish talab etiladi. Dastlabki saboqlarda ovozning xususiyatlarini aniqlab olish katta ahamiyatga ega.

Ovozlarining nomlari va diapazonlari (tovush oralari) quyidagilardan iborat:

1. Ayollarning yuqori ovozi - soprano.
2. Ayollarning pastki ovozi - alt.
3. Erkaklarning yuqori ovozi - tenor.
4. Erkaklarning pastki ovozi - bas.
5. Bolalarning yuqori ovozi - soprano yoki o'g'il bolalarning yuqori ovozi - diskant.
6. Bolalarning pastki ovozi - alt deyiladi.

Soprano ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Koloratura soprano juda katta diapazonga ega bo'lib, o'ta harakatchan bo'ladi. Bu ovoz o'zining juda ham tiniq va ingichka temбри bilan boshqa ovozlardan ajralib turadi. SHuning uchun ham ovoz ansambl va xorga tavsiya qilinmaydi. Misol: Amerikalik ashulachi Imma Sumak. [5,42.b]

2. Lirik soprano «do» birinchi oktava - «do» uchinchi oktava – yumshoq tembrli ovoz. Misol uchun: xalq artistlari Halima Nosirova, Saodat Qobulova, O'zbekiston xalq artisti Habiba Oxunova va boshqalar.

3. Dramatik soprano «do» birinchioktava - kuchli ohangdor ovoz.

Masalan: O'zbekiston xalq artisti Naima Po'latova, O'zbekiston xalq artistlari Komuna Ismoilova, Farog'at Rahmatova va boshqalar.

Alt ovozi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Metso soprano 1-alt deyiladi «Sol» kichik, oktava sol ikkinchi oktava oralig'ida, yengil va to'liq jarangdor ovoz hisoblanadi. Masalan: Munajat Yo'licheva, Mehri Abdullaeva.

2. Kontralto sol kichik oktava - «re», «mi» ikkinchi oktava- juda quyuq ovoz. Masalan: Gavhar Tojiboeva, Munajat Teshabaeva;

Tenor ovozlari ikki xil bo'ladi:

1. Lirik tenor - «do» birinchi oktava do uchinchi oktava. Juda sof jarangli ovoz masalan O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Eson Lutfullaev, O'lmas Saidjonov va boshqalar

2. Dramatik tenor «do» birinchi oktava- «si bemol» uchinchi oktava. Kuchli jarangdor ovoz. Misol uchun O'zbekiston xalqartistlari Sattor Yarashev, Mahmudjon G'ofurov, Komiljon Otaniyozov va boshqalar.

Bas ovozlari quyidagi turlarga bo'linadi:

Bariton - «lya» katta oktava - «sol» birinchi oktava. Bas - «fa» katta oktava - «mi», «fa» birinchi oktava. Misol: O'zbekiston xalq artisti Qo'rqmas Muhiddinov.

Bas oktavist - «fa» kontr oktava - «do» birinchi oktava.

Bariton o'z temбри bilan baslarga va yuqori registr tovushlari temбри bilan tenorga yaqinlik xususiyatiga ega. Shuning uchun ham bu ovozni bas bilan tenor o'rtasidagi oraliq ovoz desa bo'ladi.

Bariton ikki xil bo'ladi:

1. Lirik bariton - yumshoq va harakatchan ovoz. Misol uchun: xalq artisti Jo'rabek Murodov, O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'raev, Kamoliddin Rahimov, xalq hofizi Muhiddin Qori Yoqubovlarning ovozlari lirik baritondir.

2. Dramatik bariton - kuchli va jarangdor ovoz. Misol uchun: O'zbekiston xalq artistlari Nasim Hoshimov, Sason Benyaminovlarni dramatik bariton deyish mumkin. [1,32-33b.]

Ovoz ustida ishlash jarayonida ovoz unsurlari uyg'un harakatda bo'lishi talab etiladi. Ya'ni hiqildoq, nutq a'zolari, ovoz rezonatorlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga o'zaro ta'sir kursatgan holda harakatlanadi. To'g'ri uyg'unlashish natijasida murakkab ovoz apparati tizimi vujudga keladi. Bunda ovoz bog'lamlari oz miqdorda kuch sarf qilib, yuksak akustik samaraga erisha oladi. Ovoz

apparating barcha faoliyatini markaziy asab tizimi boshqaradi. Shu tufayli har bir tovush ijrochini musiqiy qobiliyatining natijasi deb baholanadi.

Yosh ijrochilarning musiqiy, vokal eshitish qobiliyatlarini mukammal darajaga yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Vokal eshitish qobiliyati ovozning o'ziga xos (tembr) sifatlarini idrok qila bilishga va uning fiziologik shakllanishini tushunib yetishga yordam beradi. Professional ijroning tovushi oddiy so'z tovushidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki uning akustik spektrida ovoz formantlari bor (yuqori ovoz formantlari 2500-3000 gs atrofida past ovoz formantlari esa 55-600 gs). [3,4.b]. Tovush to'g'ri hosil bo'layotganligini eshitish va tushunish, ayrim muskullarni haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik (hiqildoq, nafas va boshqa a'zolarida), qabul qilingan estetik etalondan chekinmaslik va o'zligini saqlab qolish g'oyat muhimdir.

Vokal ijrochiligi sinfida dars vokal mashqlaridan boshlanadi. Vokal mashqlari bo'lajak xonanda yoki pedagog tarbiyasida muhim o'rin tutadi, binobarin, u talabaning vokal-texnik malakalari ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Vokal darslarining umumiy vaqti 40-45 daqiqa bo'lgan tarzda, (haftada 3 marta) vokal mashqlariga odatda 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida har bir talabaga individual ravishda yondoshishimiz lozim bo'ladi. Mashqlarni tanlaganda talabaning musiqiy qobiliyati va vokal tayyorgarligi, ovoz diapazoni va ovoz apparatidagi nuqsonlari hisobga olinishi muhimdir.

Dastlabki darslardan boshlab ustoz yosh ijro holatidagi qomatiga alohida e'tibor berishi lozimdir. Bunda xonanda qomatini tekis, boshini esa tik tutib, erkin nafas olib, oyoqlarga bardam tayanib kuylashi lozim bo'ladi. Vokal mashqlarini diapazonning o'rta (markaziy) qismidan boshlash lozimdir. Diapazonning pastki va ayniqsa, yuqori tovushlarini asta-sekinlik va ehtiyotkorlik bilan kengaytirish maslahat beriladi. Mashg'ulotlarning boshlang'ich davrida ovozni toliqtirmaslik lozim. Ovoz mushaklari toliqqanda talabaga 3-5 daqiqa dam berilib, suhbat o'tkaziladi. Suhbat davrida bajarilgan ish tahlil etiladi, uning yutuq va kamchiliklari aniqlanadi, yangi vazifalar belgilanadi.

Dastlabki darslarda talaba xotirasida tez muhrlanib qoladigan oddiy, qisqa mashqlar kuylanadi. Keyinchalik, oddiy mashqlar o'zlashtirilgandan so'ng, murakkab mashqlarga kirishiladi. Birinchi mashqlar unli tovushlarni vokallashtirishga qaratilishi lozim. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, unli tovushlar ichida xonandaning o'sishi uchun eng foydalisi – «A» va «I» tovushlardir. Ushbu tovushlar darslarda tug'ri o'zlashtirilsa, qolgan «E», «O», «U» tovushlari ancha oson kuylanadi. Zero, ular unli tovushlarda ovozning tiniqligi, intonatsiyaning sofliqi, registrning ravonligi, diapazonning kengayishi, ovoz mushaklarining erkin ishlatilishi va boshqa vokal malakalarini o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir xonandalik sinfida o'qituvchilar bu malakalarni o'zlashtirishda o'z uslubiy yo'li bilan yondoshadi. Ayniqsa, «Opera xonandaligi» va «An'anaviy xonandalik» sinflarida xonandalarni tarbiyalash tizimida ko'pgina tajribaga egamiz.

Ma'lumki, opera xonandaligida «A» va «O» tovushlari «doirasimon» yopiq tarzda kuylanadi. Estrada xonandaligi ijrochiligidan esa mazkur tovushlar biroz ochiq va «xalqona» yo'lida kuylashi lozim. Zotan, xalq xonandaligi va an'anaviy maqom xonandaligining ovoz va nafas yo'llarini o'ziga mujassam etadi. Estrada san'atining xalq tomonidan tez va oson idrok etishning sababi ham shunda. Muhim qoida kuylash chog'ida hech qachon qisq va noqulaylik holatda bo'lmaslik kerak. Agar birorta tovush noto'g'ri bo'lib chiqsa, yoki xis etilsa, yoki noqulaylik sezilsa ovozingizning o'zi sizga biror narsani noto'g'ri qilganingizni aytadi. Har doim xisoyotlaringizga ishonang. Ular eng zo'r o'qituvchining qulog'idan ham yaxshiroq va aniqroq bo'ladi [4,12.b]

Ovoz mashqlarining asosiy vazifalari:

1. Kuylashda nafasni vokal ixtisosiga mos darajada olish;
2. Kuylashda «artikulyatsiyani» tug'ri ishlatish;
3. Tomoq (ovoz) mushaklarini rivojlantirish;
4. Sof intonatsiyaga erishish;
5. Ovoz diapazonini (doirasini) kengaytirish;

Barcha kuylash texnikalari: kuychanlik (kantilena), stakkato, non legato, tayanchli tovush, falset, tovush filirovkasi, voz dinamikasi (forte, piano) ni egallash; [5,12.b]

Talaba kuylash jarayonida mashqni formal tarzda qaytarmasdan, balki ongli va ijodiy tarzda his etib kuylashga yondoshishi shart. Bu uchun har bir mashqni talabaga kuylashni tavsiya etishda uni

nafaqat kuylab ko'rsatish, balki uning asosiy maqsadini mufassal tushuntirib berish lozim. Shunda talaba ongli ravishda ovozin tug'ri yo'naltiradi, hamda fonetik va texnik qiyinchiliklarni onson yengib o'tadi.

Eng avvalo ovozni erkin va to'liq chiqishini diapazonning o'rta qismida yangratishga erishish lozim. Shundan so'ng diapazoning yuqori tovushlarini kuylashga o'tish mumkin.

Ish jarayonida ustozning idroki nihoyatda xushyor bo'lishi, tomoq siqilishi, artikulyasiyaning notug'ri pozitsiyada ekanligi va xususan ovoz toliqishini o'z vaqtida payqab olib zarur choralar ko'rishi shart. Dars jarayonida talabada vokal mashqlarining barcha turlari «M» (yumuq) tovushdagi yopiq lablar bilan ochiq tarzdagi unli tovushlar, hamda unli va undosh tovushlar birligida «legato», «stakkato», «arpedjio», intervallar, gammalar, kichik kuylarni kuylash va ulardan tegishli malakalar va ko'nikmalar shakllanishi lozim.

Ma'lumki, har bir ustoz-o'qituvchi o'zining shaxsiy tarjibasi va nuqtai nazariga tayanib vokal mashqlari orqali ovozni rivojlantirishda xususiy ish uslubiga ega. Quyida ushbu pedagogik talablarga doir vokal mashqlari tavsiya etiladi.

1. Og'izni yumib kuylanadigan («M» tovush) tovush mashqlari xonandalik nafas va rezonatorlik tovushni to'g'ri olishga qaratilgan.

1 Lento

2 Moderato

3 Moderato

4 Moderato

5 Moderato

[2,9.b]

2. Nafas olish va unli tovushlarni tekislash uchun mashqlarda «ya» tovushini «yo» tovushiga almashtirish mumkin.

6 Moderato non troppo

7 Moderato

8 Moderato

9 Moderato

10 Moderato

11 Moderato

12 Moderato con moto

[2,1.b.]

3. Ushbu mashqlar artikulyatsiya va nafas texnikasini rivojlantirish uchun mashqlar (stakkatoda kuylanadi) hamda diafragmani ishlatish va sof intonatsiya ustida ishlashga qaratilgan.

22 **Allegro** 23

да дэ ди до ду да дэ ди до ду

24 **Allegro** 25

я ха ха ха ха ми я ха ха

26 **Allegro** 27

ми я ха ха ми я ха ха ха ха

28 **Moderato con moto**

фа фа фа фа фа фа фа фа фа

[2,12.b]

4. Ovoz texnikasini rivojlantirish uchun berilgan mashqlarda notalarni bir nafasda ijro etish maqsadga muvofiq.

29 **Allegretto**

ми - я

30

ми - я

31

ми - я - ё

[3,22.b]

5. Ovozni kuychanligi (kantilena) ustida ishlash uchun mashqlar ham vokal ijrochiligida katta ahamiyatga ega.

32 **Moderato cantabile**

[3,25.b]

Xulosa. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, tajribali ustozlar hamisha ta'kidlashganidek, hozirda ham birinchi o'rinda yaxshi talaffuzga, so'zlarni oxirgi harflarigacha aniq va to'g'ri ifodalab, ijroni sekin-asta yuksak badiiy darajada bajara olish mahoratini shakllantira borishga alohida e'tibor berib ishlash lozimligini uqtirmoqchimiz.

To'g'ri nafas olish – vokal ijrochilik san'atida katta ahamiyatga ega. Qo'shiqning mahoratli ifodasi nafas olishga bog'liq. Shunday nafas olish kerakki, she'r mazmuni va so'zlar ma'nosi buzilmasligi kerak. Bunda nafasni bir maromda olib, jumlani oxirigacha yetkazishga harakat qilish zarur. Jumla yoki uning ma'lum bo'lagi, ya'ni «frazani» yaxlitligiga va so'z mantiqi buzilmasligiga ahamiyat berish kerak. Bu borada yuqoridagi mashqlarning ahamiyati o'ziga xosdir.

Adabiyotlar:

1. Mirabdullaev M. Vokal asoslari fanida ovoz sozlash mashqlari.- Namangan : 2009y. "Yangi asr"-78b.
2. Omonullaeva D. Estrada xonandaligi.- Toshkent.; 2007 y. "G'afur G'ulom"-94b.
3. Rizaeva A. Yosh xonandaning kamoloti.-Toshkent.; "Cho'lpon"-2003 y.- 86 b.
4. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. "www.Completevocalinstitute.com".-120 b.
5. Larri Star & Christopher Waterman.American popular music. "Oxford Universite Press. Inc." 2007.-144 b

УДК: 008:37

РОЛЬ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

А.К.Максуджонова

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В данной статье раскрыты педагогические навыки специалистов участвующих в формировании культурно-правового знания у студентов и роль взаимосвязи образования и воспитания.

Ключевые слова: права, законы, правовая культура, духовность, правовое поведение, правовая наука.

O'zbekiston yoshlarining ma'naviyatini ko'tarishda huquqiy madaniyatning roli

Annotatsiya. Maqolada talabalar madaniy-huquqiy bilim saviyasini shakllantirishda mutaxassislarining pedagogik qarashlari tahlil qilinadi hamda unda ta'lim va tarbiyaning o'zaro aloqadorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: huquq, qonunlar, huquqiy madaniyat, ma'naviyat, huquqiy me'yor, huquq fani.

The role of legal culture in increasing of spirituality of youth of Uzbekistan

Abstract. In this article the pedagogical skills of experts concerning the formation of the quality of the cultural and legal knowledge of the students and the role of the relationship of education and upbringing are considered.

Keywords: the rights, laws, legal culture, spiritually, legal behaviour, a legal science.

В то время, как в нашей стране воспитание молодого поколения поднято до уровня государственной политики, одним из важных задач является повышение правового сознания и правовой культуры молодежи и их воспитание в духе уважения законов. А одним из необходимых условий построения правового демократического государства и развития общества является повышение правовой культуры населения.

В этой сфере в Республике осуществляется ряд работ по повышению правовой культуры граждан. В частности, Указ первого Президента И.Каримова “Об улучшении правового воспитания, повышении правовой культуры населения, усовершенствования системы подготовки кадров правоведов, улучшения работы по изучению общественного мнения” имел огромное значение для поднятия вопросов до уровня государственной политики, и создал основу для принятия государственной программы по повышению правовой культуры[1]. 29 августа 1997 года Олий Мажлисом Республики была принята «Национальная программа повышения правовой культуры общества», [2] и в докладе Первого Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на совместном заседании Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан 12 ноября 2010 года под названием «Концепция дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране», подготовка молодежи для жизни в обществе, необходимость формирования у них правовой культуры было отмечено как социальный заказ[3]. «Высокая правовая культура является фундаментом демократического общества и отражением совершенства правовой системы. Она является важным фактором, который активно влияет на различные жизненные процессы общества, помогает сплочению граждан и всех социальных слоев, обеспечивает и укрепляет единство и организованность общества. Уважение закона является одним из основных требований правового общества, эффективной деятельностью политических и правовых систем».

В те годы, когда наше государство приобрело независимость одним из важных и сложных задач, было воспитание и формирование нового поколения, соответствующего новому обществу. Как подчеркнул первый Президент Республики И.А.Каримов «Для нас с первых дней независимости стал важным и решающим вопросом задача обеспечения потребности к кадрам, которая глубоко чувствует ответственность за судьбу своей Родины, за ее настоящее и будущее, которые мыслят независимо и по-новому».

Одним из факторов формирования демократического гражданского общества, является повышение правовой культуры студентов. Тогда сегодняшние молодые студенты в будущем станут великой силой в развитии страны, установления демократических ценностей, в построении свободного, благополучного общества с высокой культурой, управления социальных, экономических, политических правовых сфер. Здесь уместно вспомнить следующее слова первого Президента страны: «... за годы независимости для нас решающей проблемой стало воспитание свободных, всесторонне гармонично развитых людей, знающих своих прав, опирающихся на свои силы и возможности, независимо подходящих к событиям, совершающихся вокруг себя, видящих свои интересы гармонично связанными с интересами народа».

Воспитание студентов в духе уважения законов, жизненным устоям общества, уважения личности человека и людей, формирование у каждого студента твердой веры недопустимости посягательства правам, чести человека, быть готовым дать решительный отпор правонарушениям, возникающих в гражданской деятельности и противоречащим правилам морали, а также уголовным деяниям, являются непосредственной задачей их обучения.

Для повышения правовой культуры студентов, прежде всего, требуется глубокое изучение прав и свобод человека, гарантии их соблюдения, обязанности человека указанные в Конституции. В результате чего, у молодежи формируется понятие о том, как защищать своих

конституционные интересы, как действовать, чтобы восстановить свои права и свободы в случае их нарушения, понятие о том, что намеченные права нельзя ограничить вне конституционных прав и без обоснований. Хорошее знание конституционных гарантий создаёт у молодежи представление об обеспечении прав и свобод мощными средствами, и у каждого молодого человека появится вера в законы, государства, в будущее. Как известно, в повышении правовой культуры молодежи наряду с другими негосударственными некоммерческими организациями также занимают важное место профсоюзные объединения, молодежные и женские организации. Логика современных широкомасштабных реформ требует от этих организаций эффективного использования всех форм правового образования и правового воспитания, еще активнее вести работу по усилению социально-правовой активности молодежи.

При повышении правовой культуры молодые студенты в первую очередь стремятся осознанию новых социальных отношений, изучая опыт прежних поколений, адаптироваться в них и внести свой вклад в развитие общества. Это в свою очередь, требует разработать новые методы, формы и средства формирования правовой культуры.

Актуальность исследования вопросов повышения правовой культуры у студентов в настоящее время обуславливается тем, что, во-первых, постоянно меняющиеся социально-политические процессы, процессы глобализации, демократические реформы, потребности в модернизации страны ставят все новые проблемы перед обществом, во-вторых, возникают новые изменения в сознании, мировоззрении, образе жизни молодежи соответствующие изменениям в обществе. А разработка, необходимых программ, мер и рекомендаций, постоянно наблюдая за этими изменениями, направляя их в соответствующую сторону интересов общества, является задачей правоведов-теоретиков, правоведов, преподавателей-профессоров высших учебных заведений, кураторов групп, практиков-правозащитников.

Правовое сознание и правовая культура в высокой степени, прежде всего, являются продуктом правового воспитания. Правовое воспитание занимает основное место в формировании правового сознания и культуры молодежи.

Понятие «правовое воспитание» по-разному истолковано и разъясняется учеными. В частности, в учебнике Теории государства и права изданного под общей редакцией профессора Х.Т.Одилкориева, ученый разъясняет правовое воспитание следующим образом: «Правовое воспитание – явление сложное и многогранное, т.е. его невозможно истолковать однозначно. Толкование правового воспитания зависит от того, с какой стороны исследуем мы данный процесс, в том числе изучаем его как обще социальный аспект, как социальное действие - право или же в качестве задачи государства как элемент социального управления, предупреждения правонарушений. Когда речь идет о правовом воспитании подразумевается специальный юридический вид влияния на сознания личности в организованном виде и с конкретной целью»[4].

Правовое воспитание толкуется в узком и широком смысле. Правовое воспитание в широком смысле это - получение человеком образования в семье и в садике, учеба, самостоятельное обогащение своих правовых знаний, в целом набор правовых знаний получаемых через самостоятельную работу над собой. Правовое воспитание в узком смысле означает совокупность правовых знаний личности, получаемых в юридических учебных заведениях. Правое воспитание является процессом осуществления комплекса воспитательно-просветительских мер, направленных на усвоение определенного объема правовых знаний и навыков, необходимых для реализации гражданами своих прав и свобод, выполнения обязанностей, возложенных на них. На основе правового воспитания лежит такая важная задача, как жить, соблюдая закон, его уважение, формирование у личности правовой культуры. Если сказать коротко, правовое воспитание это - целевой, научно-практический, системный педагогический процесс целевого формирования знаний, навыков у личности об организации своей жизни и деятельность в рамках законов. Для формирования правовой культуры у молодежи, правовое воспитание, прежде всего, формируется в семье, махалле, школе, средне специальных и высших учебных заведениях. В высших учебных заведениях, в процессе формирования у студентов молодежи в процессе правового воспитания будет целесообразно, если правовое воспитание будет осуществляться в сотрудничестве с лицами, имеющих

специальное юридическое образование, т.е. с правоведами-теоретиками, правоведами, преподавателями-профессорами высших учебных заведений, кураторами групп, практиками-правозащитниками.

Таким образом, при формировании правовой культуры студентов молодежи, чтобы повысить эффективность правового воспитания, их необходимо постепенно обучать правам и обязанностям. Для этого необходимо обратить большое внимание на организацию духовно-просветительских дел, в основном, проводимые в высших учебных заведениях.[5]

При организации духовно-просветительских дел в институтах, целесообразно проводить мероприятия, повышающие правовое сознание студентов, например, конкурсы на тему «Знаете ли Вы свои права», которые пропагандируют правовую грамотность среди студентов, конкурсы «Лучший агитатор права» среди преподавателей профессоров и организовать встречи с инспекторами профилактики, сотрудниками органов внутренних дел, учеными правоведами.

Чтобы повысить эффективность организации формирования правовой культуры студентов молодежи, кураторы групп в своих годовых духовно-просветительских планах должны указать программы, направленные на разъяснение прав и обязанностей студентов института, круглых столов, способствующих формированию правовой культуры, на еженедельных «часах информации», проводимых кураторами групп дать сведения о правах и обязанностях студентов, кроме того, необходимо разъяснение прав и обязанностей студентов на основе годового плана.

Литература

1. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. / Xalq so'zi. 2007 yil 31 avgust. №173 (4326).
2. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy Dasturi". 29.08.1997 y.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza" T. 7 dekabr, 2012.
4. Rubinshteyn S.L. Prinsipi i puti razvitiya psixologii. M. Nauka, 1959.
5. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-2.-T. O'zbekiston Respublikasi IV, 1998.

UDK: 371.3

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY IJTIMOYILASHTIRISH TIZIMI

S.Zohidova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: zohidova88@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish tizimi, pedagogik mahoratni takomillashtirish darajalari, tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish tuzilmasi, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish tizimi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tizim, tuzilma, daraja, pedagogik mahorat, akmeologik yondashuv.

Система профессиональной социализации будущих учителей на основе инновационного подхода

Аннотация: В данной статье рассмотрена система профессиональной социализации будущих учителей на основе инновационного подхода, повышение уровня педагогических навыков, структура профессиональной социализации будущих учителей на основе системного подхода, система профессиональной социализации будущих учителей на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова: Система, структура, уровень, педагогические навыки, акмеологический подход.

The system of professional socialization of future teachers on the basis of innovative approach

Abstract: In this article the system of professional socialization of future teachers examined on the basis of an innovative approach, raising the level of pedagogical skills, the structure of professional socialization of future teachers on the basis of a systematic approach, the system of professional socialization of future teachers on the basis of acmeological approach.

Keywords: System, structure, level, pedagogical skills, the acmeological approach.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish murakkab pedagogik hodisa bo'lganligi sababli qator nazariy-metodologik yondashuvlarga tayanishni taqozo etadi. Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va kasbiy ijtimoiylashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o'z-o'zini tashkillashtirish va rivojlantirishga qodir pedagog shaxsi tarkib toptirilmasa, o'zgarishlar, yangilanishlar bilan boyib boradigan pedagogik faoliyatning samaradorligi to'liq ta'minlanmaydi. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan yangiliklarni samarali o'zlashtirishning va amaliyotga joriy etishning muhim vositalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini takomillashtirishdir.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish asosiy o'rin egallamoqda. Ta'lim-tarbiya tizimida innovatsion texnologiyalarning doimiy o'zgarib borishi bo'lajak o'qituvchilarni o'z faoliyatiga bo'lgan nuqtai nazarining va kasbiy pedagogik madaniyatiga nisbatan qo'yilgan talablarning yangicha o'zgarishiga olib keldi. Hozirgi davrda bo'lajak o'qituvchidan o'z faoliyati, ta'lim-tarbiya qonuniyat, tamoyil va metodlarini chuqur anglash, o'qituvchilarning shaxs sifatida shakllanishi va ularning ta'lim-tarbiyasini samarali yo'lga qo'yish – bugungi kunning muhim talabidir.

Ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy pedagogika fani metodologiyasi pedagogik jarayonga yaxlit hodisa sifatida qarash, uni bir tizimda joylashuvchi alohida tarkibiy qismlar birligi tarzida tushunishni talab etadi. Pedagogik mahorat ham yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri sifatida mazkur jarayonga tizimli yondashuvni talab etadi. Ana shu asosdan kelib chiqib, eng avvalo, "tizim", "tizimlilik", "tizimli yondashuv" tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Chunki mazkur tushunchalarni tadqiqotchilar aksariyat hollarda o'z tadqiqotlarining metodologik asosi sifatida qayd etadilar.

Tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlardan tarkib topgan, birlashtirilgan) muayyan yaxlitlik, birlikni hosil qiluvchi, o'zaro ta'sirlashuv va bog'liqlikda bo'lgan ko'plab elementlarni anglatadi. Tizim – tartibli ravishda joylashgan va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlikdir[1].

"Tizim" bu muayyan tahlitda tartibga keltirilgan elementlar to'plami bo'lib, ular o'zaro bog'liq holatda, muayyan yaxlit birlikni hosil qiladi.

"Tizimlilik" tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tizimli yondashuv – ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo'nalishi bo'lib, uning asosida ob'ektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Tizimli yondashuv tadqiqotchini obyekt yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari turli tiplarini aniqlashga hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirishga yo'naltiradi. Tizimli yondashuvning metodologik o'ziga xosligi uning tadqiqotlarni quyidagilarga yo'naltirishi bilan izohlanadi: obyekt yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berish; murakkab aloqalarining turli tiplarini aniqlash hamda ularni yagona nazariy ko'rinishga keltirish; shuningdek, obyektning yaxlitlik xususiyatlarini, uning tuzilmasi hamda dinamikasini belgilash imkonini beruvchi murakkab obyekt o'zaro bog'langan modellarning ierarxik tizimi to'g'risidagi tasavvurlarni amalga oshiradi. Demak, tizimli yondashuvdan kelib chiqadiki, murakkab obyekt (tizim)ning o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining alohida xususiyatlarini inkor etmaydi, aksincha, ma'lum bir tarkibiy qismlar orasidagi aloqa va munosabatlarga doir bog'lanishlarni hosil qiladi.

Yaxlit tizimning asosiy belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatleri)ning mavjudligidir.

2. Yaxlit tizimning ajralmas alomati uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ulardan tarkib topadi hamda usiz mavjud bo'la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarning yig'masi emas. Ular tizim bilan integratsiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasida uni tadqiq qilish, loyihalash, tarkibiy qismlarini aniqlashga tizimli-tuzilmaviy yondashuv deb ataladi.

Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yahlit, tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi.

3. Yaxlit tizim – maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq, maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning funksiyalarini tashkil qiladi. Funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o'zini tutishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funksional yondashuv deyiladi.

4. Har qanday tizim o'zgaras, barcha davrlar uchun bir xil bo'lib qolmaydi. U absolyut, abadiy emas, chunki qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko'rsatadi, balki, shu bilan birga rivojlanadi; u o'z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o'taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

5. Tizimni uning vaqt bo'yicha rivojlanishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

Tizimli yondashuv obyektning yuzaga kelishi, yaralishi hamda tarkib topishini tizimli-genezis sifatida belgilab beradi.

6. Har bir tizim o'z navbatida o'zidan yuqori darajada turuvchi metatizimning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o'zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, hech bir tizim boshqalardan izolyasiyalanmagan, balki ko'plab aloqalar bilan boshqa turli tizimiy va notizimiy uyushmalar bilan ta'sirlashib turadi. Tizim o'ziga nisbatan tashqi bo'lgan muhitda harakatda bo'ladi, rivojlanadi, u bilan ko'plab kommunikatsiyalar orqali bog'lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtai nazaridan o'rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

7. Tizimga doimiy ravishda o'zida uning turg'unligini buzishga qaratilgan ta'sirlar ko'rsatib turiladi. Ushbu ta'sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga resurslar yetishmasligi, qattiq cheklashlar kabi tashqi salbiy ta'sirlar ham mavjud. Bunga qaramasdan tizim yashaydi va rivojlanib boradi. Demak, tashkil etuvchi qismlarning o'ziga xos yig'masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud. Tizimning yashovchanligini ta'minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi[1].

Bugungi kunda pedagogika fanida ham tizimli yondashuv nazariyasidan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Pedagogik hodisalarni tadqiq etishda tizimli yondashishga doir fundamental fikrlar N.N.Azizxodjayeva, F.R.Yuzlikayev, N.A.Muslimov, U.Sh.Begimqulov, N.M.Egamberdiyeva kabilarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Pedagogik mahoratni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqish g'oyasi esa, XX asrning 70-yillarida tadqiq etila boshlangan. Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan mahorat tushunchasi o'zida quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi: texnologiyaga doir bilimlar, ularni rivojlanishiga munosabat va boshqara olish; shaxsiy, jamoaviy ma'naviy qadriyatlar haqidagi bilimlar va ularni yangi mazmun bilan boyitish ko'nikmasi; pedagogik logika, pedagogik texnika va pedagogik takt, bundan tashqari har bir pedagogning o'quvchi taqdiri bilan qiziqishi.

Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish lozim:

1. Pedagog shaxsining insonparvarlikka yo'nalganligi (uning qiziqishlari, qadriyatlari, ideallari).
2. Kasbiy bilimlar (o'z fanini, uning metodikasini hamda pedagogika va psixologiyani bilish).
3. Pedagogik qobiliyatlar:
 - kommunikativ (samimiylik, muloqotchanlik);

- perseptiv qobiliyatlar (pedagogik intuitsiya, empatiya);
- shaxs dinamiklari (irodalilik va ishonchga egalik);
- emotsional barqarorlik (o'z-o'zini nazorat qila olish);
- kelajakni yorqin tasavvur eta olish;
- ijodkorlik (ijod qilishga qobiliyatlilik).

4. Pedagogik texnika:

- o'z-o'zini boshqara olish;
- pedagogik vazifalarni hal etishda birgalikdagi o'zaro harakat ko'nikmasiga egalik (didaktik, tashkilotchilik ko'nikmalari, o'zaro birgalikdagi harakatga kirishish texnikasini egallash).

Mazkur tizimning muhim omillaridan biri sifatida pedagogning shaxsiy sifatlari (shaxsning yo'nalganligi, qobiliyatlari) yuzaga chiqadi. Bilim va qonuniyatlarga asoslangan texnika barcha vositalarning yagona maqsad yo'lida ta'sir ko'rsatishiga imkon beradi.

Pedagogik mahorat – umumlashgan kasbiy ko'nikmalarni egallash uchun o'qituvchining o'quvchilarga yuqori darajada ta'lim va tarbiya berishiga imkon beruvchi ilmiy anglangan va foydalaniladigan shaxs xususiyatlari majmuidir. Mazkur nuqtai nazardan pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: pedagog shaxsi (uning yo'nalganligi), bilimlari (kasbiy, nazariy va metodik), pedagogik qobiliyatlari, pedagogik texnika va pedagogik texnologiya.

Bundan tashqari pedagogik mahoratning tuzilishida pedagogik tajriba ham o'z aksini topishi lozim. Ana shu nuqtai nazardan pedagogik mahorat – bu ta'lim, tarbiya, ma'lumot va shaxs rivojlanishiga doir vazifalarni yaxlit tarzda hal etishda namoyon bo'luvchi bilim, shaxsiy sifatlari va pedagogik tajribalar asosidagi ta'limiy faoliyatni amalga oshirish san'atidir.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, pedagogik bilim, pedagogik tajriba va shaxsiy sifatlari (aynan: kasbiy-pedagogik yo'nalgan shaxs sifatlari) pedagogik mahoratning asosini tashkil etadi. Pedagogik mahoratning mohiyati aniq ta'limiy sharoitlarda zaruriy natijalarga erishishga imkon beruvchi tarkibiy qism va asoslarni ijodiy birlashuviga asoslangan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillash-tirishning asosiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda hamda o'qituvchi faoliyatining asosiy tavsifi va natijalariga asoslanib, tizimli yondashuv asosida pedagogik mahoratni takomillashtirishning to'rt darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

I. Boshlang'ich – reproduktiv:

- 1) kasbiy faoliyat asoslarini amaliy o'zlashtirish;
 - 2) pedagogik vazifalarni nostandart tarzda hal etish;
 - 3) pedagogik faoliyatning barqaror bo'lmagan sifat natijalari.
- Etakchi faoliyat – reproduktiv.

II. O'rta – produktiv:

- 1) kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash;
- 2) o'z pedagogik faoliyatida amaliyotda mavjud ta'lim va tarbiya usullaridan foydalanish;
- 3) pedagogik vazifalarni qisman nostandart tarzda hal etish;
- 4) pedagogik faoliyatning alohida turlaridagi samarali ko'rsatkichlar.

Yetakchi faoliyat – produktiv.

III. O'rtacha yuqori – produktiv-ijodiy:

- 1) bir qator yuqori darajada rivojlangan ko'nikma va malakalar;
- 2) fanda ma'lum va ilg'or tajribadagi faoliyat usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va metodlarini izlab topish;

- 3) pedagogik faoliyatning barqaror sifat natijalari.

Yetakchi faoliyat – produktiv-ijodiy.

IV. Yuqori – ijodiy daraja:

- 1) yuqori darajada rivojlangan kasbiy ko'nikmalar tizimi;
- 2) fan doirasida va yaxlit tarzda ijodiy faoliyat;
- 3) pedagogik faoliyatning nostandart va sifat ko'rsatkichlari;
- 4) yangiliklarni izlab topishdagi samaradorlik.

Yetakchi faoliyat – ijodiylik.

Mazkur darajalarga asoslangan holda, tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish mazmuni quyidagi tarzda takomillashtirildi (2.2.1-rasm).

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	Faoliyatni tashkil etish shakllari
Tayyorlov	Pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat tushunchalari mohiyatini anglash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bilan bog'liq nazariy bilimlarni egallash	Oliy ta'lim muassasalari, mahorat darslari, davra suhbatlari, debatlar, ilmiy konferensiya va seminarlar
Asosiy	Pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangilikni kiritish bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, izlanish, tajriba-sinov dasturlarini ishlab chiqish, yangilik kiritish jarayonida qo'llaniladigan vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etishning samarali shakllarini tanlash malakasini takomillash-tirish	Muammoli va maqsadli kurslar, ochiq, ko'rgazmali mashg'ulotlar, seminar-treninglar
Yakunlovchi	Pedagogik mahoratni takomillash-tirishning samaradorligini aniqlash, loyiha yaratish malakasini egallash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash va kiritilgan yangilik-larning monitoringini o'tkazish	Individual o'z-o'zini rivojlantirish dastur-lari, loyihalar, keys-stadilar

1-rasm. Tizimli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish tuzilmasi

Akmeologik yondashuv (A.A.Derkach, S.N.Tolstov, N.B.Kovaleva, A.S.Oding, I.O.Sorokina, N.M.Egamberdiyeva) bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishning ilmiy asosi sifatida oliy ta'lim muassasasi talabalarini mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol subyektlari tarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning subyekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi[2].

Akmeologik nuqtai nazardan innovatsion salohiyat innovatsiyalarning paydo bo'lish jarayonining tezligi, natijaviyligi, o'ziga xosligini, bundan tashqari yangilikni yaratish, idrok etish, amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini hamda mazkur jarayonni amalga oshirishni ta'minlovchi psixologik mexanizm – refleksiyani tavsiflash uchun tayanch tushuncha vazifasini bajaradi. N.G.Alekseyev va I.N.Semenovlar amaliy faoliyatni tahlil etish asosida qo'shqatlamli (birinchi qatlam – faoliyat, ikkinchisi esa, meteoqatlam – uning refleksiv tashkillanishi) amaliy-yo'naltirilgan bilimlar tushunchasini qo'llashni taklif etishdi[3].

Innovatsion salohiyat ham o'z navbatida qo'shqatlamli ko'rinishga ega: birinchidan, unda xilma-xil yangiliklar kiritishga kamroq yoki ko'proq bir xil munosabat asosi bor bo'lsa, ikkinchidan, aniq vaziyat bilan bog'liq vaqtinchalik o'zgaruvchan qatlam mavjud bo'ladi. Birinchi qatlamning bosh tavsifi bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy kasbiy faoliyatga va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir ekanligida namoyon bo'lsa, vaziyatli qatlamning asosiy jihati innovatsion salohiyatning bo'lajak o'qituvchilik kasbining o'ziga xosliklari va shart-sharoitlari, ya'ni ishtirokchilarning innovatsion o'zgarishlar natijasiga ijobiy munosabati, yangi muhitni qabul qilishga turli guruhlarining roziligi kabilarga bog'liqlikda ko'rinadi.

I.O.Sorokinaning fikricha, kasbiy ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. Akmeologik qobiliyatlar – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish kabilar inson hayotiy faoliyati jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq ularning aynan jadal rivojlanishi autopsixologik kompetentlikning rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi.

Shaxsiy autopsixologik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) umumiy – o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini boshqarishga qodirlik; 2) bilishga doir – rivojlanish psixologiyasi va faqat insongagina xos yuqori ong darajasi sifatidagi intellekt; 3) kognitiv – ijodiy faoliyatning akmeologik mazmunida kognitivlik o‘z-o‘zini anglash va kasbiy faoliyatning o‘zaro harakatida aks etadi; 4) kreativ – ijodiy vazifalarni nostandart hal etish yo‘llarini izlab topish, yangi timsollarni tasavvur qilish va yaratish; ijtimoiy-perseptiv – ijtimoiy-perseptivlik akmeologik mazmunda o‘z-o‘zini baholashning shaxslararo o‘zaro harakatida aks etadi; empatiyaga doir – emotsional ta’sirga beriluvchanlik; emotsional ta’sirlarga moslashuvchanlik[4].

A.A.Derkach, S.P.Tolstov va N.M.Egamberdiyevlarning tadqiqotiga tayangan holda, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish tizimi takomillashtirildi. Quyida mazkur modelning tarkibiy qismlariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Model o‘zaro bir-biriga bog‘langan to‘rt tarkibiy qismni o‘z ichiga qamrab oladi: 1) motivatsion-qadriyatli; 2) kognitiv; 3) faoliyatli; 4) kreativ.

Modelning motivatsion-qadriyatli tarkibiy qismi motivatsion va qadriyatli qismlardan tashkil topgan. Motivatsion tarkibiy qism o‘zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

1) bilishga doir va kasbiy motivatsiyani o‘zaro uyg‘unlashtirishdagi barqaror ichki ehtiyojning mavjudligi;

2) mahsuldor faoliyatga intilish;

3) innovatsion jarayonlarga faol ishtirok etish ishtiyoqi;

4) o‘z-o‘zini namoyon etish ehtiyoji.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida mazkur jarayonni tizimli va yaxlit, uning barcha subyektlari kuch va imkoniyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan tarzda birlashtirish hamda har bir pedagogning individual va tipologik o‘ziga xosliklari bilan bog‘liqlikda faoliyat yo‘nalishlarini tanlay olish imkoniyatini beradi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tizimli, akmeologik va aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish modellari ularni pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N. Kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori....diss. – T., 2007. B.77.
2. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oily ta’lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari doktori...diss. – T., 2010. – B.131-132.
3. Алексеев Н.Г., Семенов И.Н. Методологический анализ структуры эргономического знания: Тез.докладов IV Международ. конф. стран-членов СЭВ по эргономике. – М., 1998. – С.3-4.
4. Сорокина И.О. Сущность и содержание профессиональной креативности в структуре аутопсихологической компетентности государственных служащих. – М., 2007. – С.12.

UDK:378.14

UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINI O‘RGANISH JARAYONIDA TA’LIMIY-MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

N.Shodiyev, D.Sulaymanova

Samarqand davlat universiteti

E-mail: sulaymanova_dildora@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya ta’lim mazmunini O‘rta Osiyo qomusiy olimlarining psixologik fikrlari, g‘oyalari va ta’limotlari asosida boyitish orqali talabalarni mazkur fanga qiziqishining ortishi hamda ularni ma’naviy shakllantirish masalalari qaraladi.

Kalit so‘zlar: psixologik fikr, ta’limot, qiziqish, qadriyat, milliy qadriyat, ma’naviyat, ma’naviy shakllantirish, axloqiy sifatlar, tashxis.

Использование национальных ценностей в процессе изучения курса общей психологии

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы, связанные с обогащением содержания психологического образования на основе взглядов, идей и учений ученых энциклопедистов Средней Азии в целях повышения интереса студентов к этой науке, а также формирования у них духовности.

Ключевые слова: психологическая мысль, идея, интерес, ценности, национальная ценность, духовность, формирование духовности, нравственные качества, диагноз.

Use of national values in the process of studying the course of general psychology

Abstract: In the article is given information of the meaning of psychological education to increase the interest of the students to the following subject through development of the basis of psychological ideas and education of Central Asian scientists and tasks of their spiritual development.

Keywords: Psychological thought, idea, interest, value, national value, spirituality, the formation of spirituality, moral qualities, diagnosis.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'limning milliy yo'naltirilganligi-ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limning milliy taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etish...". uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsipi sifatida alohida qayd etilgan [1,44]. Biroq bakalavriat yo'nalishi (barcha ixtisosliklar) uchun amaldagi "Umumiy psixologiya" (T., 2006) fani namunaviy dasturini ta'limning milliy yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan tahlili uning "Kirish" qismida ham mazkur predmet bo'yicha bayon qilingan ta'lim standartlarida ham psixologiya fani professor-o'qituvchilari oldida ta'lim mazmunini buyuk mutafakkirlarimiz meros qilib qoldirgan boy ta'limiy milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'un holda o'rgatishga qaratilgan tavsiya, ko'rsatmalar berilmagan. Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar mazkur fan namunaviy dasturining ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mazmunida ham talabalarni buyuk mutafakkirlar va allomalarning psixologiya fani rivojiga qo'shgan ulkan hissalarini o'rganishga yo'naltirilgan mavzu, savollar "... psixika haqida Sharq mutafakkirlari (Al Xorazmiy, Al Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rashid, G'azzoliy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Abu Bakr Ar Roziy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy va b.q.)larning psixologik qarashlari" (I bob). "Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari" (VII bob)dan tashqari qayd etilmaganligidan dalolat bermoqda.

Shu munosabat bilan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish boshlangandan so'ng chop etilgan. M.G.Davletshin, M.To'ychiyevaning "Umumiy psixologiya" (T., 2002), V.M.Karimovaning "Psixologiya" (T., 2000), "Psixologiya" ma'ruza matni (T., 2001), E.G'oziyevning "Psixologiya" (T., 2003), P.U.Ivanov, M.E.Zufarovning "Umumiy psixologiya" (T., 2008) darsliklarining tahlili ularning mavzulari mazmuniga qomusiy olimlarimizning boy milliy merosi juda ham kam singdirilganligini alohida ta'kidlash joizdir.

Bu esa yuqorida ko'rsatilgan didaktik vositalar I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida "Axir, darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerakmasmi", [2,8] -deb qo'ygan savoliga to'liq javob bera olmaydi.

Psixologiya ta'lim mazmunini milliy qadriyatlarimiz bilan ma'lum darajada boyitishda M.Salaxutdinovanning "Markaziy Osiyoda psixologik fikrlar taraqqiyoti" uslubiy qo'llanmasi (Samarqand: SamDU nashri, 2006. -44 bet) xizmat qiladi. Unda muallif Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, temuriylar davri namoyondalari Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Mirzo Shohiy va shu davrda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy asarlarida berilgan psixologik kategoriyalar va ularning mazmuni bugungi psixologiya fani kategoriyalari ta'rifi bilan solishtirilgan hamda olimlar ijodida shaxs ruhiy holatlari, bilish jarayonlari, shaxs va jamiyat, shaxsiy xususiyatlarga doir ma'lumotlar ajratib olingan va ilmiy tahlil qilingan.

Mazkur kamchilikni ma'lum darajada bartaraf etish maqsadida "Umumiy psixologiya" fani o'quv dasturining mavzu va savollari bilan uzviy bog'liq bo'lgan qomusiy olimlarimizning psixologiyaga doir boy ilmiy merosini namoyon qilish, ular orasidan bo'lajak o'qituvchilar pedagogik

faoliyatlari uchun eng zarurlarini tanlab olish, ularga didaktik qayta ishlov berish hamda ulardan kundalik pedagogik faoliyatda samarali foydalanish maqsadida professor-o'qituvchilar ishchi rejalarida aks ettirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Bu yerda biz ulardan ayrimlarini qarash bilan chegaralanamiz. Movarounnahr allomalari va mutafakkirlarining psixologiya fani rivojiga qo'shgan merosidan Oliy ta'lim muassasasi o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish uchun material tanlab olishda asosiy e'tiborni talabalarda kuchli ehtiros va hissiyotni uyg'otadiganlariga qaratish joizdir. Bundan kutilgan maqsad bo'lajak o'qituvchilarning ichki imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga yo'naltirish, u yoki bu bilimlarni egallashga faol undash va turg'un qiziqishlarini uyg'otishdan iborat. Shu boisdan ham boy milliy psixologiya fani xazinasidan psixologiya fani dasturi mavzu va savollariga mos material tanlab olishda, uning yangiligiga e'tibor berish, Beruniy, Ibn Sino, Az-Zamaxshariy kabi qomusiy olimlarning fanga bo'lgan kuchli e'tiqodlari, irodaviy zo'r berishlari, barcha to'siqlar, aziyatlarni mardonavor engib fanda misli ko'rilmagan natijalarga erishganliklari bilan bog'liq tarixiy materiallardan misollar keltirishda foydalanish, buyuk kashfiyotlar, allomalarning ilmiy va hayotiy faoliyatlaridan qiziqarli misollar keltirish, psixologik bilimlarni kundalik hayotimizda amalga oshirish kabi motivlarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur fanning namunaviy dasturiga muvofiq, "Psixologiya fanining tarmoqlari" (I bob) mavzusida "Etnopsixologiya tarmog'i" Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Ijtimoiy psixologiya tarmog'i" Abu Nasr Forobiyning "Fozil shahar aholisining fikrlari", Tibbiy va zoopsixologiya tarmoqlari" Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash shifo", "Donishnoma" asarlarida ilk bor ishlab chiqilganini, "Sport psixologiyasi" tarmog'i (fani)ni vujudga kelishida Abu Ali ibn Sinoning kishilar hayotida jismoniy madaniyatning ahamiyatiga, jismoniy mashqlar bolaning yoshiga, kuchiga, hayotiy tajribasiga mos ravishda olib borish zarurligiga, ularning kishi organizmini mustahkamlashga ham, ruhiyatini tetiklashtirishga ham aqliy qobiliyatlarini o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ham topgan ilmiy va amaliy javoblari "Tib qonunlari" asarining 1-kitobida aks ettirganini muhim o'rin tutishini, g'arblik olimlarning yangi davrda psixologiyaga doir qilgan kashfiyotlarining anchagina qismini ulardan ming yil avval buyuk ajdodlarimiz (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va b.q.) tomonidan kashf qilinganligini talabalarga ko'rsatish, ularda ulug' allomalar va mutafakkirlarimizga ruhiga mehrsadoat uyg'otadi.

Mazkur fan namunaviy dasturiga muvofiq "Psixologiya fanining metodlari va uning vazifalari" mavzusida "Psixologiya metodlari" sifatida faqat "Kuzatish, eksperiment"ni o'rganish ko'zda tutilgan, xolos. Ya'ni Sharqda insonshunoslik, insonni bilish metodikasi bo'yicha ming-ming yillik tajriba mavjudligi inobatga olinmagan.

Insonni bilishning oddiy sharqona usuli pedagogik tashxis hisoblanadi. Bu borada genetik, biastrologik va biografik metodlar eng ommalashgan usullardir. Genetik metod-butun jahon olimlari tomonidan tan olingan hamda pedagogik-psixologik amaliyotda o'zini oqlagan metod bo'lib, uni sobiq sovet pedagogika-psixologiya fanlari, ta'lim-tarbiya tizimi inkor qilib keldi, unga amal qilmadi, ya'ni barcha ta'lim-tarbiya oluvchilarga bir xil andozali ta'lim-tarbiya joriy qilindi. Bu esa muqarrar ravishda sovet ta'lim-tarbiya tizimini inqiroziga sabab bo'ldi.

Sobiq sovet tizimi davrida taqvo sifatida rad etilgan shaxsni o'rganishga sharqona biastrologik metod eng samarali kalitdir. Zero, bola ota-onaning farzandi bo'lishi bilan birga tabiatning ham, ijtimoiy borliqning ham mevasidir.

Ma'lumki, har bir inson makon va zamonda shakllanadi. Ayniqsa, u murg'akligida ota-onadan olganidek, tabiat, ma'naviy-ruhiy muhit, jamiyat ta'sirida kamol topadi. Xalqimizda "Qon bilan kirgan" barcha xususiyatlar barqaror ekanligi haqida hikmat bor. Sharqona metod bola tug'ilgan yil fasli, qaysi burjning ta'sirida bo'lishini hisobga oladi. Bir burj ostida tug'ilgan bolalar bir ota-onaning bolalariga nisbatan ham yaxshiroq xususiyatga ega bo'ladilar. Bir sinf, bir xil mijozdagi bolalarni o'qitishda bu tabiiy yaqinlik, ta'lim-tarbiya natijalarida o'z aksini topadi.

Bolaga tashxis qo'yishda ommalashgan biografik metodning imkoniyatlarini yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki, Sharq xalqlarida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bolaga baho berishda asosiy qoidaga aylangan.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, bolaning qobiliyati, layoqati, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot metodlari kabi milliy qadriyatlarimizni tiklanishi,

shubhasiz uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari amaliyotida munosib o'rin egallashi barobarida talabalarga kelgusi pedagogik faoliyatlarida milliy dastur talablariga muvofiq o'quvchilarning tug'ilgan yili, fasli, burjlarini o'rganish orqali ular orasidan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ular iste'dodini rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlarni olib borishga imkon yaratadi.

Mazkur fanning "Emotsiya va iroda psixologiyasi" deb nomlangan 3-bobining "Emotsiya jarayonlarining xarakteristikasi" mavzusini o'rganish jarayonida kafedra professor-o'qituvchisi Abu Ali ibn Sinoninig bolalarni musiqaga qiziqishlari, musiqaning insonni estetik, axloqiy-etik va jismoniy takomillashtirish bo'yicha keng imkoniyatlari, uning ijobiy emotsional hissini uyg'otish va ma'naviy-ruhiy poklash qobiliyatini yoritib berishi barobarida ulug' alloma musiqa "Musiqa psixoterapevtik vosita hisoblanadi va u inson psixologiyasiga ta'sir qiladi", degan g'oyasini keyinchalik Evropada XVI asrdan boshlab amaliyotda o'z tasdig'ini topa boshlaganligini;

"Donishnoma", "Musiqa ilmi haqida risola" asarlarida esa ulug' alloma musiqaning tarbiyaviy jihatlariga to'xtalib, uni o'ziga jalb qiluvchi kuchli psixologik ta'sir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini ochib berganini; "Tib qonunlari" asarida musiqaning ta'sir kuchidan foydalangan holda bolalarning kichik yoshidan boshlab musiqa vositasida ularda musiqiy hissiyotlarni tarkib toptirish, ularning ichki kechinmalariga ta'sir eta olish qudratini tarbiya masalalarida foydalanishning mazmuni, shakli va vositalari bilan bo'lajak o'qituvchilarni tanishtirib borish, ularning kelgusi pedagogik faoliyatlarida, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirishda, musiqaga layoqatli bolalarni namoyon qilishda, ularni musiqa maktablariga yo'llashda asqotadi.

"Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish. ... Odamda iroda sifatlarining taraqqiyoti... Irodani tarbiyalash va kishining o'z irodasini tarbiyalashi" savollarini o'rganish jarayonida talabalarni Abu Ali ibn Sino o'z ona shahri Buxorodan ham Urganchdan o'zaro ichki urushlar tufayli quvg'in qilinganda ham hech qachon tushkunlikka tushmaganini, barcha qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan bardosh berib, o'zi tanlagan ijod yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tganini, o'zidagi irodaviy kuchlarni safarbar qilib, o'z zamonasining deyarli barcha fan sohalari bo'yicha insoniyat uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy va amaliy ishlarni bir zumga ham to'xtatmaganini, buyuk qomusiy olim irodaviy xatti-harakatlarning eng namunaviy ko'rinishlarini namoyon qilib, oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun tinimsiz intilganini, vujudga kelgan barcha tashqi qiyinchiliklarni mardonavor yengib, o'z hayotidagi eng muhim narsa-ilmiy tadqiqot bilan mashg'ul bo'lganini, irodaviy zo'r berish va irodaviy faoliyati orqali fanning qator sohalari bo'yicha misli ko'rilmagan darajada yutuqlarni qo'lga kiritganini; alloma o'zidagi eng yaxshi ruhiy kuchlarning hammasini safarbar qilib, o'z zamonasining tibbiyot, falsafa, mantiq, she'riyat, musiqa nazariyasi, psixologiya, pedagogika, tabiiy-matematika kabi fanlar taraqqiyotiga bemisl hissa qo'shib jahon ahlini hayratga solayotganini talabalarga ma'ruza, seminar mashg'ulotlarida hamda mustaqil ta'lim jarayonida muntazam ravishda tushuntirib borish shubhasiz ularda o'zbek xalqiga mansubligidan g'urur-iftixorni hamda irodaviy sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, Abu Ali Ibn Sinoning inson o'zidagi tasodifiy ta'sir tufayli paydo bo'lgan salbiy sifatlardan qutilish uchun o'z irodasini safarbar etmog'ini; agar bu sifatlarning odatiga aylanib qolgan bo'lsa, u kishi tabiatiga moslashib yomonlikka o'rganib qolishini; har bir inson o'zidagi yaxshi sifatlarning, ya'ni barcha ruhiy kuchlarga aloqador adolat, ezgulik va ularning juziy tomonlari bo'lmish sabr-toqat, ziyraklik, tirishqoqollik, qat'iyyatlilik va b.q. etishmasligini sezishi, o'z irodasiga tayanib ezgu sifatlarni oshirish hisobiga o'zidagi etishmovchiliklarni kamaytirishi lozim degan o'gitlarini aniq misollarda talabalarga izohlab berish ularning kelgusi pedagogik faoliyatlarida kasbiy mahorat, kompetensiyalarini oshirishlari uchun matonat bilan ishlashlariga turtki bo'ladi.

Tarixda "Jorulloh", "Arablar va ajamlar ustozlari" kabi sharaflil nomlarga sazovor bo'lgan Mahmud az-Zamaxshariy bobomiz jismoniy nogironligiga qaramay Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, ko'plab ilmiy safarlar qilib, o'zining "Muqaddimat ul-adab" asarida arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqdi, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalari ham shuhrat qozongan, o'zining teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirganini talabalarga ko'rsatish orqali ularning o'quv-biluv faoliyatlariga jonli dila bilan berilib, zo'r qiziqish va g'ayrat bilan ishlashlariga erishish mumkin.

Muhammad payg'ambar o'z hadislarida kishi o'z irodasiga ega bo'lishini va g'azab kelganda uni boshqara bilishni qahramonlik belgisi deb aytganlarini hamda "Kurashda yiqitgan qahramon emas, balki "g'azab" kelganda uni bosa oladigan kishi eng kuchli odamdir" deb yozilgan 300-nchi hadisni

ikki qismli kundalik iterfaol ta'lim usuli orqali tahlil qilishga talabalarni jalb qilish orqali ularda irodaviy sifatlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarga "Shaxs psixologiyasi" (4-bob) bilan bog'liq masalalarni bayon qilish jarayonida ularda hozirgi zamon kishisi shaxsiga xos milliy axloqiy xususiyatlar bilan tanishtirishda Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar va mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan fikrlardan foydalanish joiz. Jumladan, ularni Abu Nasr Forobiyning "Aql to'g'risida"gi risolasida o'zida 12 tug'ma xislatni birlashtirgan kishi axloqli odam bo'ladi degan fikri bilan tanshitirish joiz. Shu munosabat bilan talabalar diqqat-e'tiboriga o'zida ana shunday tug'ma xislatlarni mujassam etgan shaxsning bilim olish va o'qishga muhabbati yuqori, o'rganmoqchi bo'lgan bilimlarni oson o'zlashtiradigan; ovqatlanish, ichimlik iste'mol qilishda ochko'zlik qilmaydigan; qimor o'yinlaridan uzoq yuradigan va ular keltiradigan hursandchiliklardan jirkanadigan; haqiqat va uning tarfdorlarini sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan; oliyjanob ishlarni bajaradigan; dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga past nazar bilan qaraydigan; adolatni sevadigan, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga qarshi kurashadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan; adolatli bo'lib, qaysarlik qilmaydigan, o'zbilarmonlikka berilmaydigan, qat'iylik, jasurlik ko'rsatib o'zi zarur deb bilgan ishlarni bajaradigan, bunda o'zlik va qo'rqishni bilmaydigan kabi axloqiy xususiyatlarini havola qilish asqotadi.

Alisher Navoiy insonning axloqiy fazilatlari to'g'risidagi o'z qarashlarida har bir odam munosib ishlar bilan shug'ullanishi, o'z nomini yomon va tuban xulq-atvor bilan bulg'amasligi, uning martabasi, aqli, shaxsiy qobiliyati, irodasiga qarab ko'tarilishi lozimligi, insonga baho berishda uning hayotdagi faoliyati, qilgan ishlariga, jamiyatga naf keltirganiga, foydali ishlar bilan shug'ullanganligiga qarab uni qadrli, fazilatli kishi yoki boshqalarga ziyon etkazadigan, insonlarning tinch- osoyishtaligini buzadigan kimsalar chin inson emas, deb hisoblash barobarida buyuk shoir o'z davrining tabaqalarga mansub bo'lgan tirik shaxs (odil va zolim podsho, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va riyokor shaxs, olim va johil, vafoli va vafosiz savdogar, saxovatli va xasis dehqon yoki chorvador va hokazo) larning barchasini xususiyatlarini "Mahbub ul - qulub", "Hayratul abror" asarlarida o'zaro zid qo'yib, ularning kishilik jamiyatiga keltirgan foyda va zararlarini aniq dalillar asosida isbotlab berganligini talabalarga tushuntirish, shubhasiz ularda ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga hamda kelgusi pedagogik faoliyatlarida anashunday xususiyatlarni o'quvchilarda tarbiyalashda ijobiy turtki bo'ladi.

"Shaxsning individual xususiyatlaari" deb nomlangan ettinchi bobining "Qobiliyat" mavzusini o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar diqqatini Hazrat Alisher Navoiyda qobiliyat juda erta uyg'onganligiga, u 5-6 yoshidan boshlab she'r yoza boshlaganiga va keyinchalik alloma iste'dodli yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berganligi tufayli jahonga mashhur tarixchi Xondamir, rassom Kamoliddin Behzod va boshqalar kamolot cho'qqilariga erishganliklariga hamda ulug' mutafakkirning "Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zolimlikdir va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyani bunisiga zoe ketkazma", deb olg'a surgan g'oyasiga jalb qilish asqotadi.

Shuningdek, mazkur mavzuda Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiyning geniylik is'tedodli faoliyatlari tufayli ijtimoiy-ma'naviy turmushning barcha sohalarida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lgani va insoniyat tarixi chinakam taraqqiyot sari olg'a qadam qo'rganini talabalarga tushuntirish ularda milliy g'ururni jo'sh urdiradi. Chunki, ularning biri "...o'nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani, umuminsoniy taraqqiyot rivojiga..." [3,42] (I.A.Karimov) ulkan ahamiyat kasb etgani bo'lsa, ikkinchisi "Geodeziya", "Mineralogiya", "Farmokologiya" kabi fanlarning kashf qilib, ikkinchi Ptolemey, Leonarda do Vinchini ikkinchi Beruniy deyish mantiqqa ko'proq to'g'ri keladi" (rus sharqshunos olimi P.Tolstoy), XI asrni "Beruniy asri" (amerikalik fan tarixchi olimi Sarton) degan ta'riflarga muyassar bo'lgan bo'lsa, uchinchi o'zining barcha asarlari, ayniqsa, umrining oxirgi yillarida yaratgan "Lison ut-tayr" (1498 y.), "Muhkammat ul- lug'utayn" (1499 y.), "Maxbub ul-qulub" (1500 y.) asarlari orqali VIII-XV asrlar islom mintaqasi ma'naviyati takomiliga yakun yasagani hamda millatimiz (ya'ni davr taqozosi bilan mintaqasi bo'ylab sochilib ketgan turkiy qavm vakillarining yaxlit ma'naviy qiyofasini tugal saqlab qolishi yo'lidagi samarali faoliyatiga yakun yasadi) va umumbashariyat takomiliga-yangi davrni boshlab berganini talabalarga tushuntirish, ularning kelgusi

faoliyatlarida o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarida ibrat namuna bo'lish barobarida ularning qalbida milliy iftixor his tuyg'usini uyg'otadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, milliy psixologiyamizga doir materiallar "G'arblik olimlarning yangi davrda psixologiyaga doir qilgan kashfiyotlarning anchagina qismini ulardan ming yillar avval bizning buyuk ajdodlarimiz (Abu Nasr Forobiy, bu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) tomonidan qilinganidan dalolat beradi. Bo'lajak o'qituvchilarning psixologiya faniga qiziqishini o'stirish va ularning ma'naviy tarbiyasini yanada takomillashtirish vazifasi psixologiya ta'lim jarayoni mazmuniga ulug' allomalar va mutafakkirlarning sochma holda meros qilib qoldirgan milliy psixologik bilimlar xazinasini muntazam ravishda sinchkovlik bilan tadqiq qilishni va namoyon qilingan fikr, g'oya va ta'limotlarni o'quv-tarbiya jarayoniga singdirib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"//Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997, B. 32-64.
2. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust//Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997, B. 3-19.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008, B. 174.
4. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar I jild. -T.: O'rta va oliy maktab, 1968, B. 486.
5. Abu Rayxon Beruniy Hindiston. Tanlangan asarlar. II jild. –T.: Fan, 1965, B. 538.
6. Abu Rayxon Beruniy Geodeziya. Tanlangan asarlar. III jild. –T.: Fan, 1982, B. 344.
7. Abu Ali ibn Sino Tib qonunlari. Tanlangan asarlar. I-V tomlar. Birinchi kitob. –T.: Xalq merosi, 1992, B. 298.
8. Abu Ali ibn Sino Donishnoma. -Dushanbe: Irfon, 1990, B.388.
9. Антология педагогической мысли Узбекской ССР. –М.: Педагогика, 1986, С. 320.
- 10.Navoiy Alisher. Mukammal asar to'plami. O'n to'rtinchi bob. Maxbub ul-qulub. –T.: Fan, 1998, B. 302.
- 11.Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlanadi//Ta'lim muammolari j., -T., 2006, 1-son. B.80.
- 12.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild. –T.: O'qituvchi, 1995, B.464.

UDK: 407

PEDAGOGLARDA XORIJIY TILLAR BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH AXBOROT-METODIK TA'MINOTINING DIDAKTIK TAMOYILLARI

X.A.Mamatqulov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Maqolada pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, internet-resurs, integratsiya, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kommunikatsiya, masofaviy ta'lim, motivatsiya.

Дидактические факторы развития профессиональной компетентности педагогов по иностранным языкам

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение информационно-коммуникационных технологий в повышении уровня профессиональной компетентности учителей по иностранным языкам.

Ключевые слова: инновация, интернет-ресурс, интеграция, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, коммуникация, дистанционное обучение, мотивация.

Didactic principles of information-methodological resources on the development of pedagogues' career competency in the field of foreign languages

Abstract. In this article the role and importance of ICT for improving professional competence of teachers from foreign languages is discussed.

Keywords: innovation, online resource, integration, competence, professional competence, creativity, linguistics, distance learning, motivation, pragmatics, sociolinguistics.

Ta'limda islohotlarning amalga oshirilishi unda yuz berayotgan tezkor jarayonlarning sodir bo'lishi pedagog kadrlardan o'z ishlariga mas'uliyatli munosabatda bo'lish vazifalarini yuklamoqda.

Shu bois, ta'lim tizimida pedagoglar faoliyatini zamon talablari darajasida yuritilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ortib bormoqda. Ma'lumotlar ko'lamining ortib, pedagoglar ish yuklamalarining ko'payib borish holatlari ularning o'z ustida samarali ishlashi uchun imkoniyatlarni chegaralaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi pedagoglar ish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ma'lumotlarning haddan ziyod ko'pligi va mazkur ma'lumotlar orasidan o'z faoliyatlarida zarurlarini tanlab olish ma'suliyatini ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolar echimini topish maqsadida pedagoglarning zaruriy ma'lumotlarini osonlik va qulay sharoitda o'zlashtirish uchun ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan kengroq va samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotimiz doirasida axborot-metodik ta'minotni shakllantirish va amaliyotga tadbir etishning to'rt bosqichini taklif etiladi. Ulardan birinchisida ta'lim dasturlari, ma'ruza matnlari, nazorat uchun mo'ljallangan savollar, modulning mazmunini qamrab oluvchi nazorat topshiriqlari va nazorat savollari, individual topshiriqlarga oid uslubiy tavsiyanomalarning elektron shakllari ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy materiallarni joylashtirish uchun dasturiy platforma yaratiladi. Uchinchi bosqichda modularga doir axborot-metodik ta'minot yaratilib, uni o'qitishning masofali va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha amalga oshirish orqali o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanadi. To'rtinchi bosqichda tinglovchining bilish faoliyatiga mos boshqarish elementlari kiritiladi hamda ta'lim jarayoni yakuni bo'yicha tinglovchi bilim, ko'nikma va malakalarining mavjud talablarga mosligini aniqlovchi dasturiy ta'minot orqali nazorat va monitoring tizimi ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'limga joriy etish, masofaviy ta'limning axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish borasida pedagogik dasturiy va kommunikatsiya vositalaridan iborat axborot-metodik ta'minot ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Axborot-metodik ta'minotning asosini xorijiy tillar ta'lim yo'nalishi bo'yicha axborot-ta'lim resurslari tashkil etadi. Mazkur axborot-metodik ta'minotdan mutaxassisligi chet tillari bo'lmagan pedagog kadrlar Internet tizimi orqali mustaqil xorijiy tillar bo'yicha o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishda foydalanishlari mumkin.

Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib pedagoglarning mustaqil ishlarini tashkil etish istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi. Ma'lumki, o'quv materiallarining turli shakllari, jumladan, o'rganiladigan jarayon va xodisalarni virtual shaklda aks ettiradigan elektron o'quv-uslubiy resurslar, yangi mavzularni o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda javob olish imkoniyatini beradigan integrallashgan elektron lug'at-ma'lumotnomalar pedagoglar tomonidan o'quv fanlarini mustaqil o'rganishga zarur bo'ladigan resurslardan hisoblanadi.

Ta'limda integrallashgan elektron lug'at-ma'lumotnomalar ikki muhim shartni qanoatlantirmog'i lozim. Birinchidan, u barcha pedagoglarga istalgan vaqtda mavzular bo'yicha lug'aviy materiallar haqida istalgan ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun sharoit yaratadi. Murojaat etiladigan lug'aviy materiallar kompyuter ensiklopediyasi ko'rinishida, ikkinchidan, mazkur lug'aviy materiallar takomillashtirilgan va oson to'ldiriladigan bo'lmog'i lozim.

Mustaqil ishni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning muhim ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Axborot-metodik ta'minotdan foydalanib mustaqil ishni tashkil etish mazmuniga ko'ra, bir necha didaktik vazifalarni bajarish imkoniyatlarini beradi, masalan:

- ta'limning interfaol xususiyati asosida pedagoglarning fikrlash qobiliyatlari yanada rivojlantiriladi va o'quv materiallarini o'zlashtirish sifat va samaradorligi oshiriladi;

• aniq bir holatlarda tasvirlash va namoyish qilinishi murakkab yoki qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish orqali kuzatish imkoniyatini yaratadi;

• o'quv materiallarining bilib, o'zlashtirib olinishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki tinglovchi erishgan mantiqiy fikrlashi va qabul qilish darajasiga ko'ra ham yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi;

• mavjud bo'lgan an'anaviy hamda masofaviy ta'lim o'quv-uslubiy ta'minotining o'zaro samarali integratsiyasini amalga oshiriradi;

• pedagoglarda mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlab topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni echish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi;

• pedagoglarning malaka oshirish bitiruv ishlarini bajarishda, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malaka va ko'nikmalar shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim jarayonlarini takomillashtirish omillari sifatida kompyuter bilan muloqotning uslubiy ta'minotini axborot-ta'lim resurslari orqali amalga oshirish, kompyuter axborot-ta'lim muhiti va zamonaviy talablar darajasidagi axborot-ta'lim resurslarining ishlab chiqilganligi, gipermatn, multimedia, o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimlarining qabul qilinishini qayd etish mumkin.

O'rganishlarga ko'ra, elektron axborot-ta'lim resurslari axborotlarni kompyuter texnologiyalari vositalari asosida yaratish, tizimlashtirish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatini beruvchi manba sifatida qaralishi mumkin. Bilimlarning elektron manbasi mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha axborotlarni o'zida mujassamlashtirgan holda, uning elementlari mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan bo'lib, boshqa elementlarga chiqish imkoniyatini beruvchi tuzilmaga ega axborotlashtirilgan tizimni tashkil etadi. Bunda bilimlar elektron manbasiga kiritilmagan, ya'ni undan tashqi elementlarga ham murojaat qilish imkoniyati ta'minlanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish uchun yaratilayotgan elektron axborot-ta'lim resurslariga turli ilmiy ma'lumotlarni, o'quv materiallarini, axborotlar majmualarini kiritishning keng imkoniyatlari, xususan integrativ kurslarni kiritish, o'rganilayotgan modulning tarixi va uslubiyati bilan ta'minlash, ijtimoiy-gumanitar, kasbiy fanlar bo'yicha innovatsion bilimlarni kiritish mustaqil ta'lim mazmunini sezilarli darajada o'zgartirish va boyitishga xizmat qiladi hamda uni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kompyuter vositalarining mustaqil ishni tashkil etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil etilganida, uning interfaolliigi bevosita muloqot orqali o'quv rejasida ko'rsatilgan modullar bo'yicha yaratilgan maxsus dasturiy ta'minot yordamida pedagoglarga mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kompyuter vositasida pedagoglar o'z murojaatlariga javob oladilar, ular bilan bimalol muloqotga kirishiladi va ular kompyuter ta'limiy usullarining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini yaratishning tashkiliy-metodik tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz:

- o'quv dasturining modulni o'rganish maqsadini ifoda etishi;
- elektron o'quv materiallarining shartli belgilar va atamalarni aniq hamda to'g'ri ifodalash talablariga to'la javob bera olishi;
- materiallarning tinglovchilar tomonidan avval o'rgangan muhitning yaratilishini ta'minlay olishi;
- gipermatnli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, tinglovchilar elektron o'quv materiallarining ilovalaridan foydalanishda to'g'ri yo'lni topa olishi;
- tinglovchilar faoliyatining mustaqil faoliyat, o'zini-o'zi nazorat qilish faoliyatiga almashtirilishi;
- materiallar mazmunining to'liqligi bois tinglovchining qo'shimcha o'quv manbalariga murojaat etishining bir qadar kamaytirilishi;
- materiallar tuzilmasida modul tamoyilidan foydalanish;
- materiallar tarkibidan nazorat topshiriqlari, glossariy, shaxsiy faoliyatni mustaqil nazorat qilish uchun taklif etilgan javobli savollar hamda mashq qilishga asoslangan topshiriqlar kabi majburiy elementlarning mavjudligi.

Tinglovchining axborot-metodik ta'minot resurslaridan samarali foydalanishga tayyorlash maqsadida avval boshidanoq barcha texnologik vositalar ro'yxati, talab etiladigan o'quv-texnologik vositalarining alohida turlarini olish manbai, vaqti va shakli bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Зеер Э.Ф., Шахматова Н. Личностно-ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург. 1999.
2. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. – М.: Русский язык, 1989, – 220 с.
3. Полат Е.С. Теория и практика дистанционного обучения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 416 с.
4. Хуторский А.В. Деятельность как содержание образования // Ж. Народное образование. – Москва, 2003. – № 8. – С. 107-114.
5. Щадриков В.Д. Деятельность и способности. – Москва: Педагогика, 1994. – 320 с.

УДК: 392.72

О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ВСЕОБЩЕГО МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА

А.А.Мустафакулов

Ташкентский государственный педагогический университет

Аннотация: Данная статья посвящена некоторым вопросам совершенствования подготовки педагогических кадров на основе внедрения в высших образовательных учреждениях теории и практических результатов всеобщего менеджмента качества.

Ключевые слова: всеобщий менеджмент качества, качество образования, управление качеством образования.

Pedagog kadrlar tayyorlashni tashkillashtirish omillari va yalpi sifati menejmenti

Annotatsiya. Ushbu maqola yalpi sifat menejmenti sharoitida oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishning ayrim masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: yalpi sifat menejmenti, ta'lim sifati, ta'lim sifatini boshqarish.

On improving the training of pedagogical personnel in the context of universal quality management

Abstract: This article is devoted to the improvement of teacher training through the introduction of the higher educational institutions of theory and practical results of the total quality management.

Keywords: total quality management, quality of education, quality management education.

Сегодня качественное образование стало ведущей темой обсуждения в научных работах, в среде специалистов непрерывного образования и сфере управления. В стратегических направлениях развития Республики Узбекистан [1] подчеркивается важность продолжения курса дальнейшего совершенствования системы непрерывного образования, повышения доступности **качественных** образовательных услуг, подготовки высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда, кардинальное повышение **качества** общего среднего образования, повышение **качества** и **эффективности** деятельности высших образовательных учреждений на основе внедрения международных стандартов обучения и оценки качества преподавания, стимулирование научно-исследовательской и инновационной деятельности, создание эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику и т.д.

Особый акцент сделан на новые подходы к достижению высокого качества образования. Они стали актуальными в связи со сменой отечественной образовательной парадигмы, обусловленной вхождением Узбекистана во многие международные образовательные

программы, а также общеевропейской и мировой тенденцией интеграции и глобализации мировой экономики.

Повышение качества подготовки специалиста как приоритетная задача современной политики Узбекистана в области образования определяется Национальной программой по подготовке кадров, постановлениями и Указами Президента, а также постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан [2].

Анализ научно-педагогической литературы и изучение образова-тельной практики в высших педагогических вузах республики позволили выявить основные проблемы в обеспечении качества профессионального педагогического образования.

Как показали результаты анализа, действующие государственные образовательные стандарты высшего педагогического образования хотя ориентированы на модульную организацию учебного процесса на основе компетентного подхода, фактическая ее реализация на практике пока ещё находится на начальной стадии. Образовательные программы, разрабатываемые на основе этих стандартов не в полной мере учитывают индивидуальные запросы как студентов, так и основных потребителей выпускаемых специалистов, рынка труда.

Анализ проведенных научных исследований последних лет в мире, странах СНГ и республике свидетельствует, что совершенствование качества образовательного процесса предполагает развитие внутреннего потенциала высшего учебного заведения, осуществляющего профессиональную подготовку специалистов, его информационной, научно-методической и технологической базы, ресурсного обеспечения и совершенствования механизмов управления.

В исследованиях В. Байденко[3], Е.Карпухиной[4], И. Зимней[5], Н. Кузьминой[6], М. Поташника [7] и других подчеркивается, что повышение качества профессионального образования возможно за счет укрепления преемственных связей в системе «школа - вуз - производство», создания единого пространства профессионального становления личности. Исследователи предлагают различные пути интеграции уровней образовательного процесса, показывают возможные формы сотрудничества образовательных учреждений, научно-исследовательских центров и производства, раскрывают содержательные и технологические аспекты преемственности уровней общего и профессионального образования, демонстрируют модели управления образовательными комплексами.

В работах Н. Кузьминой [8], В. Панасюк [9], А. Пульбере [10] ведущая роль в совершенствовании качества образования отводится личности обучающегося, его общей и профессиональной компетентности, а главным условием обеспечения качества становится инновационный образовательный процесс, обеспечивающий субъектное развитие личности специалистов на протяжении всей жизни.

В исследованиях отечественных ученых М. Бадаловой [11], М. Юлдашева [12], М. Вахабова [13] уделяется особое внимание реализации в национальную экономику международных стандартов качества ИСО 9000, совершенствованию менеджмента качества образования в повышении квалификации работников народного образования, совершенствованию модели организации мониторинга качества обучения и системного управления в системе общего среднего образования.

Однако, несмотря на то, что в мировой и отечественной науке и практике накоплен значительный опыт интенсификации профессиональной подготовки специалистов, в системе высших педагогических образовательных учреждений республики вопросы повышения качества подготовки будущих учителей посредством реализации в учебно-образовательном процессе философии и принципов Всеобщего менеджмента качества, его содержание и педагогические условия, технологические и технические аспекты, не были предметом специального исследования.

В современной экономической науке используются различные модели менеджмента качества: система качества (Quality System), система менеджмента, основанная на управлении качеством (Quality Driven Management System), всеобщее управление качеством (Total Quality Management), управление качеством (Quality Control), статистический контроль качества

(Statistical Quality Control), система обеспечения качества (Quality Assurance System) и т. д. На основе всех этих систем созданы модели менеджмента качества в образовательных системах.

Современный этап развития высшего педагогического образования республики характеризуется интенсивным поиском путей и условий совершенствования процессов управления качеством профессионального педагогического образования.

На наш взгляд, совершенствование этих процессов должны основываться на рекомендациях по внедрению международных стандартов серии ИСО 9000–2001, Стандартах и Директивах для гарантии качества Высшего образования, разработанных Европейской Ассоциацией гарантии качества (ENQA) в сфере высшего образования и республиканских стандартов по менеджменту качества, к разработке которых начали уделять внимание в последнее время.

Вместе с тем, теоретический анализ проблемы, изучение опыта внедрения системы менеджмента качества (СМК) педагогического образования в ведущих вузах мира и стран СНГ показали, что в существующих моделях СМК основное внимание исследователей уделено изучению организационно-методических аспектов управления качеством образования и недостаточно выражены роль и место процесса развития личности будущего специалиста как главной цели профессионального образования и ведущего показателя его развития. Содержательно-технологические аспекты личностно ориентированного профессионального образования в условиях внедрения системы управления качеством профессиональной подготовки будущих учителей в вузе не становились предметом специального изучения.

Литература

1. 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 февраль, Ф-4849-сонли фармони
2. Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15 февраля 2016 года № 111-ф «Об осуществлении в Республике Узбекистан целей устойчивого развития, рассчитанного на 2016-2030 годы», № 25 «О дальнейшем совершенствовании системы переподготовки педагогических кадров и повышения их квалификации» от 16 февраля 2006 года, № 234 «О дальнейшем совершенствовании системы переподготовки работников народного образования и повышения их квалификации» от 15 августа 2014 года и др.
3. Байденко В. И. Болонский процесс: структурная реформа высшего образования Европы. — М: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2003. 128 с.;
4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции новая парадигма результата образования. // Высшее образование сегодня. — 2005. — № 5. — С. 27–32.;
5. Карпухина Е. А. Некоторые аспекты международного опыта управления вузами. Повышение эффективности управления в Российских вузах. -СПб., 2001. -С. 92.;
6. Кузьмина Н. А. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. — 144 с.;
7. Поташник М. М. Инновационные школы в России: Становление и развитие. Опыт программно-целевого управления: Пособие для руководителей общеобразовательных учреждений. — М.: Новая школа, 1996. -320 с.
8. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М., 1990. — 367 с.;
9. Панасюк В. П. Научные основы проектирования педагогических систем внутри школьного управления качеством образовательного процесса. / Под научной редакцией Субетто А. И. СПб., 1997. — 297 с. ;
10. Пульбере А. И. Мониторинг качества знаний в условиях личностно ориентированного образования // Педагогика. 2005. — № 9. — С. 33–36.

11. М.У.Бадалова. Миллий иқтисодиётда халқаро ИСО 9000 серияли сифатни бошқариш тизимини жорий этиш хусусиятлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.Т.:2009 – Б.168.;
12. М.А.Юлдашев. Халқ таълими ходимларининг малакасини оширишда таълим сифати менежментини такомиллаштириш докторлик диссертацияси автореферат – Т.: 2016. – 93 б.;
13. Вахобов М.М. Умумий ўрта таълим тизимида ўқитиш сифати мониторинги моделини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. –Т, 2016.- 81 б.

UDK: 371.3

O'QUVCHI-YOSHLARNING IJODKORLIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI

Z.Nazarova

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

E-mail: murodnormuminov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan ijodiy faoliyat jarayoni, ularning teng munosabatdagi hamkorlik texnologiyasi haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: kompetentsiya, kompetentlik, hamkorlik texnologiyasi, interfaol, diadat, triada, kvartet.

Технология сотрудничества в формировании творческой компетентности у учащихся молодежи

Аннотация: В данной статье речь идет об осознанном сотрудничестве в равных отношениях и о процессе творческой деятельности которые обоснованы на общении между преподавателями и учащимся.

Ключевые слова: компетенция, технология сотрудничества, интерактив, диада, триада, квартал.

The cooperation technology in formation of creative competence among students

Annotation: This article is about a conscious cooperation in equal relations and a process of creative activity that are grounded on communication between teachers and students.

Keywords: competence, cooperation technology, interactive, dyad, triad, quartet.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida ham tub islohotlar amalga oshirilib, yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi dasturlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bormoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotining 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko'rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNISEF, YUNESKO va boshqa nufuzli Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Davlat va jamiyat kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi hozirgi talablar darajasida bo'lmog'i uchun hech narsani ayamayotgan bir davrda yashar ekanmiz, o'z umrini ta'lim ishga bag'ishlagan har bir shaxs, u davlat va jamiyat tomonidan bildirilgan yuksak ishonchga munosib bo'lish uchun barcha g'ayrat, shijoatini to'la bag'ishlashi, tashabbuskorlik, ijodkorlik, omilkorlik bilan, vijdon amriga ko'ra ish yuritish, o'z faoliyatida yuksak mazmun, samaradorlikka erishmog'i shart. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek; "Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash

qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi" [2,61-6er]. Shunga erishish kerakki, maktab bola uchun malol keladigan og'ir yuk, mashaqqat va qo'rquv maskani emas, u quvonadigan, talpinadigan, o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarib, namoyon eta oladigan mehribonlik maskani bo'lishi kerak. O'quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi, o'qish maqsadlari ichki zaruratga aylanishi kerak. O'quvchi real hayotga kirib borishi, unda faol ishtirok etishi uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga, ilmiy bilish metodlariga ega bo'lish kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki, ochiq jamiyatning asosiy belgisi bu dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rnini topishi uchun erkin izlanishdir. "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – **inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash** masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda" [1]. O'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog'lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktika bu ta'limdagi faollikdir. Maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishda har bir dars mavzusiga jiddiy yondashishda noan'anaviy darslar ahamiyati beqiyosdir Hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgarlar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning «men»ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan «interfaol» o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ijobiy samara bermoqda.

Ta'lim jarayonida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvini, mashg'ulotlar uchun vaqtni ko'proq ajratish hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun bir-biriga ko'maklashuvi kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan. Hamkorlik texnologiyasi: o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir.

Hamkorlik – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan ijodiy faoliyat jarayon bo'lib, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro teng munosabatlaridagi ongli hamkorligidir. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi Hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan ta'lim, o'quv jarayonida birgalikda ta'lim olish nazarda tutiladi va o'quv faoliyati hamkorlikda amalga oshiriladilar, hamda hamkorlikda ishlash jarayonida har bir guruh o'quvchilari guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berish bilan birga, o'zlari ham guruhidan ma'naviy ko'mak yoki yordam oladilar va unga yo'naltirilgan ta'lim o'z-o'zidan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan interfaol usullardan foydalanish jarayoni bilan bog'liqlikda kechadi va yo'naltirilgan ta'lim dars jarayonida o'qituvchi → o'quvchi, o'quvchi → o'qituvchi va o'quvchilar → o'quvchilar shaklidagi faol munosabatlar majmuidan iboratligini ko'ramiz. Hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida interfaol usullardan juftlikda ishlash (diadat), uchlikda ishlash (triada), to'rtlikda ishlash (kvartet) va kichik guruhlarda ishlashni kabilarni qamrab oladi. Texnologiyaning asosiy g'oyasi –o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir, unda o'quvchida kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatishni, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalashni, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, uning asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi – sinf, o'qituvchi – kichik guruh, o'qituvchi – katta guruh, o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – o'quvchi

(juftlikda ishlash), kichik guruh – kichik guruh, kichik guruh – sinf va boshqa tashkiliy shakllar qoʻllaniladi [3,102- bet].

Hamkorlikda oʻqitish nima uchun kerak?

Hamkorlikda oʻqitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- oʻquvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantiradi

- oʻquvchining oʻrganish jarayonini boyitadi;

- oʻquvchilarda materialni oʻrganishga ishtiyoq uygʻotadi;

- oʻquvchilarning oʻz shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

oʻquvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

turli xil madaniyat va ijtimoiy–iqtisodiy guruhlar oʻrtasida ijobiy oʻzaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasiga asoslangan mashgʻulotlarni oʻziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qoʻllash tizimi mavjud boʻlib, quyida shu mashgʻulotlardan ayrim namunalarni koʻrsatib oʻtamiz:

• davra suhbat;

• roʻyxat tuzish;

• muammolar yechishni tashkil qilish;

• bir daqiqalik ishlar;

• juftlik izohlari.

Bu mashgʻulot turlarining koʻpida oʻquvchilarni kichik guruhlariga boʻlish, ularga rollar va vazifalar taqsim qilish koʻzda tutiladi. Masalan, “Ajurli arra” metodi. Ajur frantsuzcha “ajour” soʻzidan olingan boʻlib, “bir yoqdan ikkinchi yoqqa oʻtgan, ikki tomoni ochiq” degan maʼnoni anglatadi. Bu metod bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilardan iborat:

oʻquvchilardan bir nechta (4–5 kishilik) kichik guruhlar tashkil etiladi;

oʻquvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir nechta asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzular) ga qirqladi;

mavzuchalar va ulardagi matnli maʼlumotlar guruhlarining har bir aʼzosiga tarqatiladi;

guruh aʼzolari matnli maʼlumotlardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;

guruhlarining yaxshi oʻzlashtiruvchi aʼzolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;

ekspert guruhi aʼzolari qoʻllaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga oʻrgatish rejasini egallashadilar;

ekspertlar oʻzlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib oʻrganganlarini boshqa sheriklariga oʻrgatishadi.

Oʻqitishda bunday yondashuv oʻquvchilarning hamkorlikda ishlashlariga va katta hajmdagi oʻquv materiallarining oʻzlashtirilishiga olib keladi. Bu metoddan foydalanuvchi pedagog – oʻquvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan oʻrganishni, birgalikda muhokama etishni, savol–javob qilishni, oʻrganganlarini boshqalarga oʻrgatishlari zarurligini oldindan aytadi. Hamkorlikda oʻqitish texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda oʻzaro manfaatdorlik mavjud boʻladi. Hamkorlik faoliyati esa oʻzaro manfaatdor kishilar tomonidan amalga oshadi, yaʼni, hamkorlik → manfaat ustida quriladi. Shuning uchun, hamkorlikda oʻqitish texnologiyasini amalga oshirayotgan vaqtda pedagogik faoliyatdan oʻquvchilarning manfaatdor ekanligini, mashgʻulot davomida olingan bilim, koʻnikma va malakalardan oʻquvchilar oʻz kelajaklarini qurishlari mumkin ekanliklarini tushuntira olish lozim. Bunday vaziyatda oʻquvchilarda oʻqishga nisbatan qiziqish va ehtiyoj paydo boʻladi, ular esa oʻquvchilarni oʻzlashtirishga majbur etadi. Maʼlumki, har qanday texnologiya taʼlimning yangi mazmunini shakllantiruvchi taʼlim tamoyillariga asoslanadi. Taʼlim jarayonining faol subʼektlari oʻqituvchi va oʻquvchilar boʻlib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari shundan iboratki, maʼlum mavzu boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur oʻzlashtirish imkonini beradi. Hamkorlik texnologiyalarida didaktik jarayonning eng yaxshi tajribalari umumlashgan boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

➤ qoʻllanish darajasiga koʻra: umumpedagogik;

➤ falsafiy asoslarga koʻra: gumanistik;

- rivojlanishning asosiy omillariga ko'ra: komplekslilik, biogen, sotsiogen va psixogen;
- shaxsga yo'naltirilganligiga ko'ra: har tomonlama uyg'un;
- mazmuniga ko'ra: ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, dunyoviy, insoniy, umumta'limiy, chuqur anglangan;
- boshqarish tarziga ko'ra: kichik guruhlar tizimi;
- tashkiliy shakllarga ko'ra: akademik+klublar, individual+guruhli, tabaqalashtirilgan;
- o'quvchiga yondashilishiga ko'ra: shaxsiy–insoniy, sub'ekt–sub'ekt munosabatlari asosida (hamkorlik);
- egallagan metodlarga ko'ra: muammoli–izlanuvchi, ijodkorlikka, dialogga, o'yinga asoslangan;
- o'quvchilar toifalariga ko'ra: ommaviy (barcha toifalar uchun).

Dars jarayonida hamkorlik texnologiyalarining ushbu tajribalari asosida qo'llanilishi shaxs tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham barkamol avlod tarbiyasida, ularga ta'lim berish jarayonida ana shunday ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish kerak. Hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish metodlari sifatida quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. "Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish" metodi 1976 yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar alohida–alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi. Xullas, hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish metodlaridan dars jarayonida unumli foydalanish o'quvchilarni kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga ko'maklashadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi darajasi "kompetentsiya" va "kompetentlik" tushunchalari yordamida amaliyotda ommalashib ketdi. Olimlarning fikriga ko'ra, «kompetentsiya» shaxs mukammal biladigan predmet – soha bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi uchun tayyor ekanligi o'lchovi hisoblanadi. Ya'ni, kompetentsiya – bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va qo'llay olish qobiliyatidir. "Kompetentlik" tushunchasini esa undan farqli o'laroq, shaxsning yo'naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma'lum sohada faoliyat ko'rsata olishi ko'nikmasi ekanligini ta'kidlaydilar. Demak, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot–kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb–hunar tanlash, sog'lom raqobat ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'limda kompetentsiyaviy yondashuv o'quvchilarning shaxsiy kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarni samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Ya'ni, kompetentlik – o'quvchining o'zlashtirgan bilimi, o'quv ko'nikmalari va malakalarini kundalik hayotiy faoliyatida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanishga tayyor ekanligi (qobiliyatiga ega ekanligi) ni ko'rsatishdir.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda va samarali aqliy mehnat qilishga, o'rtoqlari bilan hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishiga zamin tayyorlaydi. Eng muhimi, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari orqali o'quvchilarda ma'naviy madaniyatga ega bo'lish, mantiqiy, metodologik qiyoslay olish, idrok qilish, tatbiq etish, tajriba o'tkazish, analiz–sintez qilish, o'z–o'zini baholash kompetentsiyalari muvaffaqiyatli shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlik ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilar kompetentligi darajasi oshib boradi va o'z navbatida har tomonlama barkamol avlodni shakllanishi uchun xizmat qiladi, shuningdek, darslarda olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni ijtimoiy hayotda amalda qo'llash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 8 dekabr "Xalq so'zi" gazetasi
2. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat", 2008, 61 -bet
3. O' Tolipov, M. Usmonboeva «Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» «Fan» Toshkent. 2005, 102- bet

UDK: 371

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

J.Eshnazarov¹, N.B.Xalmatova²

¹Samarqand Davlat Universiteti

²Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Annotatsiya. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy sifatlarini jismoniy mashqlar orqali rivojlantirish usullari, o'quvchilarni jismoniy mashqlar va amaliy jismoniy harakatlarga o'rgatishning maqsadi ularni sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish va o'quvchilarda hayotiy zarur harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Kalit so'zlar. sifat, harakat, ko'nikma, rivojlanish, jismoniy mashq, mezon.

Развитие физических качеств учащихся на уроках физического воспитания

Аннотация: В данной статье приводятся методы развития физических качеств учащихся при помощи упражнений на уроках. Целью обучения физических и практических упражнений является оздоровление учащихся, развитие и формирование жизненно важных умений и навыков движения.

Ключевые слова: качество, движение, умение, развитие, физическое упражнение, критерий.

The development of the pupils' physical features during the physical training lessons

Annotation: The aim of the development of the pupils' physical features is to make them healthier with the help of developed methods of training, the physical exercises, practical and physical exercises themselves and to create the experience and skills which is necessary for their healthy life process.

Keywords: quality, movement, capability, development, physical exercises, criteria.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy sog'lom hamda aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishi uchun barcha shart sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda[7].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sport Davlat siyosatining ustivor yo'nalishlari doirasida rivoj topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan 1992-yil 14-yanvar 513-sonli, 2000-yil 2-mayda qayta tahrirda qabul qilingan 76-sonli, 2015-yil 24-iyulda Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi" qonunlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hamda ushbu soha bo'yicha qabul qilingan va ayni kunda izchillik bilan hayotga tatbiq etilib kelinayotgan qator hukumat qarorlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu qaror va farmonlar «Sog'lom avlod davlat dasturi» hamda "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish haqidagi" farmoni va qarorlar bilan uyg'unlashib ketadi[1,2,3,4].

Uning tub mazmuni va mohiyati haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Shunchaki sportni

rivojlantirish emas, millat kelajagi, yurtning ertasi bilan bevosita bog'liq. Bolalarda jismoniy tarbiyaga mehr uyg'otish, ularni sportning sehrli olamiga olib kirish har birimizning kundalik vazifamiz bo'lmog'i kerak. Mana shu jihatga e'tibor qaratmay turib sog'lom millat, sog'lom jamiyat haqida gapirish qiyin» - deb uqtirib o'tadi. Ota-onalardan tortib barcha soha xodimlariga, ayniqsa, jismoniy tarbiya mutaxassislari zimmasiga millat kelajagini yanada sog'lomlashtirishga qaratilgan mas'uliyatni yuklaydi [5].

Yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda pedagogika fani oldidagi muhim masalalaridan biridir. Yosh avlodning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlarining maqsadi o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish va sog'lomlashtirishdan iborat bo'ladi. Jismoniy rivojlantirish jarayonlari jismoniy fazilatlarini takomillashtirish bilan amalga oshiriladi. Jismoniy fazilatlar kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari mashg'ulotlar va jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish jarayonlarida tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya darsi maktabda jismoniy tarbiyaning asosiy shakli hisoblanadi. O'quvchilarning jismoniy tarbiya, sport sog'lomlashtirish jarayonlarini tashkil etishda jismoniy tarbiya vositalaridan keng foydalaniladi. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari jismoniy mashqlar hisoblanadi. Jismoniy mashqlar bir shaklga keltirilgan va maqsadga yo'naltirilgan jismoniy harakatlardir. Harakatli faollikning rivojlanishi kunikmali jismoniy tarbiya (KJT)da umumiy jismoniy tarbiya uslublari asosida mustahkamlanadi.

O'quvchilarda jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e'tiborini oshirish, ma'naviy, axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. Ko'pgina olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o'quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun milliy va harakatli o'yinlarga asoslangan dars, mashqlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish eng muhim masaladir [10,11,12].

Jismoniy mashqlar bolalarni jismoniy harakatlarga o'rgatish bilan birga ularning jismoniy fazilatlarini bo'lib hisoblangan kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarni jismoniy mashqlar va amaliy jismoniy harakatlarga o'rgatishning maqsadi ularni sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish va hayotiy zarur harakat, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Yosh bolalar bilan jismoniy tarbiya darslari va mashg'ulotlari mutaxassis o'qituvchi va murabbiylar rahbarligida olib borilishi kerak. Chunki jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda yoshi, jinsi va jismoniy rivojlanish darajalariga e'tibor berish kerak. Agar noto'g'ri mashqlar berilsa bola organizmiga bilmagan holda zarar etkazish mumkin. Kuch fazilatini rivojlantirish mashg'ulotlari bilan 15 yoshdan shug'ullanish mumkin bo'ladi. Jumladan, kuch imkoniyatlarini tarbiyalash uchun cheksizlik sa'y-harakatlari uslubini ko'plab takrorlash orqali, musobaqali va o'yinli uslublarga kuch xarakterdagi mashqlarni kiritgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tezkorlik-takroriy, rivojlantiruvchi mashqlar, o'yinlar va musobaqali usullar orqali rivojlantirilishi mumkin. Tezkorlik fazilati qisqa masofaga yugurishlar, harakatlarni tez bajarish hisobiga rivojlantirilib boriladi, bunday mashg'ulotlarda bolalar 10-11 yoshdan ishtirok etishlari mumkin. Chidamlilik bir maromdagi, uzluksiz, takroriy, tanaffusli mashqlar, o'yinli va musobaqali usullar orqali rivojlantiriladi. Chaqqonlik maxsus mashqlar- mushakli sa'y-harakatlarning differensiallanishi, bo'shliqni differensiallashtirish, qobiliyatni takomillashtirish, vaqt davomida harakatlarni differensiallash, muvozanatni saqlash funksiyalarini takomillashtirish, taqsimlangan zo'riqishlar va bo'shashishlar uyg'unligi yordamida rivojlanadi. Chunki yugurish, to'p otish, tepaga ko'tarilish, chaqqonlik estafetalari ham yaxshi foyda beradi. Chaqqonlik fazilatini rivojlantirish, o'zini boshqara olish va muvozanat saqlay olish qobiliyatlarini tarbiyalash mashg'ulotlariga bolalar 13 yoshdan jalb etilishi kerak. Chidamlilik fazilati qiyin rivojlantiriladigan fazilat hisoblanib, bu mashg'ulotlarga ham bolalar 15 yoshdan yuqori bo'lganda jalb etiladi. Mashg'ulotlar asosan uzoq masofaga yurishlar, yugurishlar va harakatlarni uzoq vaqt va ko'p marta takrorlashdan iborat bo'ladi. Egiluvchanlik mahalliy ya'ni mashqlar alohida olingan bo'g'inlarning harakatini rivojlantirishga yo'naltirilgan, integrallik mashqlar, o'yinli va musobaqali usullar orqali rivojlanadi. Egiluvchanlik fazilatini erta, 5-6 yoshdan rivojlantirish mumkin bo'lsada, muntazam egiluvchanlik mashqlarini

bajarib turishni talab etadi, aksincha, bo'g'imlar harakatchanligi tez yo'qolishi mumkin. Jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkil etish orqali bolada jismoniy sifatlarni rivojlantirish mumkin [9].

O'quv mezonlarini to'g'ridan -to'g'ri bajarish jarayoni mezonlarni qabul qilish deb ataladi. Mezonlar natijalari aniq bo'lishi uchun, ma'lum qonun qoidalarga jismoniy tarbiya o'qituvchilari albatta rioya qilishi zarur:

1. Mezonlarni bajarishni shu paytda o'tkazish kerakki bolalar yaxshi jismoniy formada bo'lganda va organizm charchamagan holatda o'tkazilishi kerak.
2. Mezonlar engil mashqdan keyin organizm qizdiriladi, mushak tonusi yuqori bo'lganda, nafas olish va qon aylanish sistemalari faol ishlaganda bajariladi.
3. Mezon sifatida foydalaniladigan jismoniy mashqlarni o'quvchi yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.
4. Mezon mashqlarini bajarish usullari qat'iy standartlashtirilgan bo'lishi shart.

Bu qoidalarga qat'iy rioya qilish jismoniy mashqlarni bajarilishi odatdagi mashqlardan farq qiladi.

Harakatlantiruvchi harakatni mustaqil egallashni asosiy qoidalari, oddiydan murakkabgacha, ma'lumdan noma'lumgacha, yangi harakatlantiruvchi harakatni tez va to'g'ri egallash uchun ma'lum uslubiy qoidalarga rioya qilish zarur.

Birinchi qoidasi - «oddiydan murakkabgacha». O'rganilayotgan mashq har xil koordinatsion murakkablikda bo'lishi mumkin. Agarda mashq juda murakkab bo'lsa, uni yaxshisi qismlarga bo'lib o'rgatish yaxshi bo'ladi. Masalan, gimnastika otini ustidan birdaniga sakrab o'tishni to'g'ri egallash ancha qiyin bo'ladi. Shuning uchun, dastlab gimnastika ko'prigidan sakrab oyoq qo'yishni va undan depsinishni to'g'ri o'rganish lozim; keyin gimnastika otiga sakrab chiqishni va sakrab tushishni bilgandan so'ng to'liq koordinatsiyali sakrash o'rgatila boshlanadi.

Ikkinchi qoidasi - «ma'lumdan noma'lumgacha». Bola harakatlantiruvchi harakatni har xil maqsadlar uchun foydalanishi mumkin. Masalan, tennis koptogini nishonga va uzoqqa uloqtirish, yugurish vaqtida futbol to'pini olib yurish va qisqa masofani oshib o'tishi mumkin. Agarda barchasini birdaniga o'rgatishga harakat qilinsa, bu samarali yo'l bo'lmaydi. Shuning uchun dastlab standart harakatlantiruvchi harakatni o'rgatish kerak, uni bitta maqsadni hal etish uchun foydalaniladi, ya'ni uni o'rgatish muammolari bo'lmaganda bajariladi. Masalan, dastlab turgan joyda ma'lum masofadan va ma'lum uslubda savatga to'p otish o'rgatiladi. Shundan so'ng bu harakat sakrash bilan to'pni olib yurganda har xil masofadan bajarishni o'rgatiladi. Qaysiki, sharoit va shu bilan birga savatga to'p tashlashni aniq amalga oshirish imkoniyatlari o'zgarib turishi inobatga olinadi, shundan keyingina to'g'ridan -to'g'ri o'yin vaqtida qo'llaniladi.

Uchinchi qoida - «o'rganib olingandan o'rganib olinmagangacha» yoki «o'zlashtirib olingandan o'zlashtirib olinmagangacha».

Yangi harakatlantiruvchi harakatni yaxshi o'rgatishda, u yaxshi egallangan harakatlarga asoslanadi. Masalan, gimnastika yakka cho'pida birdaniga harakatda burilishni o'rgatish murakkab va ham xavfli bo'ladi. Shuning uchun dastlab ularni polda o'rgatiladi, keyin gimnastika skameykasida, past gimnastika yakka cho'pida va faqat shundan keyingina standart yuqori yoki baland yakka cho'pda bajariladi.

Ushbu qoidalarga rioya qilgan holda turli – tuman mustaqil ravishda harakatlantiruvchi harakatni o'rgatish mumkin. Eng muhimi - ko'proq murakkab vazifalarni oshirishga o'tishda shoshilmaslik zarur. Buni faqat shu paytda, qachonki, o'quvchilarchilar oldingi topshiriqni engil va to'g'ri, shu bilan birga, ko'p marta bajargandagina amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg'ulot mazmuniga jismoniy sifatlarni rivojlantirish kuch, tezlik, egiluvchanlik, epchillik, chidamlilik, shuningdek almashish jarayonlarini yaxshilash, qon aylanish, nafas olish sistemalarining imkoniyatlarini oshirishga oid mashqlar kiritiladi. Kuchni rivojlantirish uchun mashqni ikki turidan foydalaniladi. Birinchi turi – bu o'zining shaxsiy og'irligini cho'zish bilan bajariladigan mashq, masalan, baland turnikda tortilish, qo'llarga tayanib yotgan holda bukish va yozish, cho'qqayib o'tirish, sakrash. Ikkinchi turi - har xil mushak guruhlarini rivojlantirishda qo'shimcha cho'zilish bilan bajariladigan mashqlar, masalan, cho'qqayib o'tirish, engashish va elkada shtangani ko'tarish bilan burilishlar. Tezlikni rivojlantirish uchun imkoni boricha maksimal tezlik bilan bajariladigan mashqlar qo'llaniladi, masalan, qisqa masofaga yugurish, tez me'yorda koptokni otish va olib kelish mashqlari kiradi. Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun

bo'g'imlardagi har xil harakatlar, mushak va bog'lamlar cho'zishni talab qiladigan mashqlardan foydalaniladi; oldinga chuqurroq engashish, qo'l va oyoqlar bilan keng harakat qilish, siltash, osilish. bolada chidamlilikni rivojlantirish uchun unga katta tezlikda bo'lmagan, biroq uzoq vaqt damomida bajariladigan mashqlar qo'llaniladi, masalan, bir me'yorda yugurish yoki 2-3 km ga kross hamda chang'ida harakatlanish bo'lishi mumkin. Epchillik sifatini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar qoida bo'yicha yuqorida qayd qilingan sifatlarni namoyon qilishni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan 76–2-sonli qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabr qabul qilingan № O'RQ—394 sonli qonuni . Ma'rifat-gazetasi 2015 y 72-son 2-8 betlar.
4. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida o'zbekiston respublikasining qonuni. 2-8 b.
5. 2016-yil 9-fevralda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Sog'lom ona va bola yili” Davlat dasturi.
7. A.I. Ikramov, D.I.Ahmedova “Barkamol avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning tibbiy asoslari” Uslubiy qo'lanma.T.: O'zbekiston, 2011y. 7b.
6. A.Achilov “Dastlabki odimlar, rejalar, natijalar”. T.:O'zbekiston, 2007 y. 3b.
7. Salijonov X “ Jismoniy mashqlar fiziologiyasi asoslari fanidan ma'ruzalar matni” Farg'ona-2001y.
8. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. “Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash”. T.: O'zbekiston, 2004 y. 5 b.
9. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T.: O'zbekiston, 2004 y. 27 b
10. Atoev A.K., Belov B. V., Sermeev A.B. Sportivno-massovaya rabota po mestu jitelstva. T.: O'qituvchi, 1992 y. 178 b.
11. Nasriddinov F.N., Saternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. T.: O'qituvchi, 1999. 140 b.
12. Xo'jaev F. T..Usmonxo'jaev. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari (1-sinf uchun metodik qo'llanma.) T.: O'qituvchi, 1996 y. 183 b.

UDK: 37

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ ПЕДАГОГА

Ш.Б.Ахмедова

Самаркандский государственный университет

E-mail: shahzodaaxmedova@gmail.com

Аннотация: Данная статья раскрывает аспекты эмоционального выгорания, факторы возникновения и предотвращения эмоционального выгорания у педагогов.

Ключевые слова: выгорание, педагог, фактор, синдром, предотвратить, стресс, безразличие, провокация.

Pedagogning ruhiy zo'riqishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglarda emotsional zo'riqishning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zo'riqish, pedagog, alomatlar, bartaraf etish, stress, befarqlilik, fitna.

Emotional burnout of teacher

Abstract. This article reveals the dimensions of burnout, factors and prevention of burnout of teachers.

Keywords: burnout, teacher, factor syndrome, prevent stress, indifference, a provocation.

Одной из наиболее распространенных преград к профессионализму, творчеству и самореализации педагога является возникновение синдрома профессионального выгорания.

По данным исследований российских психологов, через 20 лет работы в высших учебных заведениях у подавляющего числа педагогов наступает эмоциональное выгорание, а к 40 годам эмоционально сгорают все учителя.

Эмоциональное выгорание - это состояние физического, эмоционального, умственного истощения, это выработанный личностью механизм психологической защиты в форме полного или частичного исключения эмоций в ответ на психотравмирующие воздействия.

Наиболее часто выгорание рассматривается как долговременная стрессовая реакция или синдром, возникающий вследствие продолжительных профессиональных стрессов средней интенсивности. В связи с этим синдром эмоционального выгорания ряд авторов обозначает как синдром психического выгорания или синдром профессионального выгорания.

Выгорание - это относительно устойчивое состояние, однако при наличии соответствующей поддержки с ним можно успешно бороться.

Основными признаками эмоционального выгорания являются: истощение, усталость; психосоматические осложнения; бессонница; негативные установки по отношению к ученикам, коллегам; негативные установки по отношению к своей работе; пренебрежение исполнением своих обязанностей; увеличение объема психостимуляторов; уменьшение аппетита или переедание; негативная самооценка; усиление агрессивности; усиление пассивности; чувство вины.

Развитие синдрома носит стадийный характер. Сначала наблюдаются значительные энергетические затраты. По мере развития синдрома появляется чувство усталости, которое постепенно сменяется разочарованием, снижением интереса к своей работе.

Распространенной является модель синдрома выгорания К. Маслач и С. Джексона (1981 г.). Они выделяют три его основных составляющих:

1. Эмоциональное истощение обнаруживает себя в чувствах беспомощности, безнадежности, в эмоциональных срывах, усталости, снижении энергетического тонуса и работоспособности, возникновении физического недомогания. Возникает чувство «приглушенности», «притупленности» эмоций, наступает безразличие к потребностям других людей.

2. Деперсонализация проявляется в деформации отношений с другими людьми. В одних случаях это может быть повышение зависимости от других. В других случаях – повышение негативизма по отношению к людям. При появлении деперсонализации педагог перестает воспринимать воспитанников как личностей. Он дистанцируется, ожидая от них самого худшего. Негативные реакции проявляются по-разному: нежелание общаться, склонность унижать, игнорировать просьбы.

3. Сокращенная профессиональная реализация (или редукция личных достижений) – третий компонент выгорания. Может проявляться либо в тенденции к негативному оцениванию себя, своих профессиональных достижений и успехов, негативизме относительно служебных достоинств и возможностей, либо в редуцировании собственного достоинства, ограничении своих возможностей, обязанностей по отношению к другим.

Факторы, вызывающие синдром профессионального выгорания.

Можно выделить три группы факторов, оказывающих влияние на развитие синдрома выгорания:

1. К личностным факторам риска «выгорания» относятся склонность к интроверсии; реактивность; низкая или чрезмерно высокая эмпатия; жесткость и авторитарность по отношению к другим; низкий уровень самоуважения и самооценки и др.

2. Статусно-ролевые факторы риска выгорания включают ролевой конфликт; ролевую неопределенность; неудовлетворенность профессиональным и личностным ростом (самоактуализацией); низкий социальный статус; ролевые поведенческие стереотипы, ограничивающие творческую активность; отверженность в значимой (референтной) группе; негативные полоролевые (гендерные) установки, ущемляющие права и свободу личности.

3. К корпоративным (профессионально-организационным) факторам риска выгорания относятся: нечеткая организация и планирование труда; монотонность работы; вкладывание в

работу больших личностных ресурсов при недостаточности признания и положительной оценки; строгая регламентация времени работы, особенно при нереальных сроках исполнения; негативные или «холодные» отношения с коллегами, отсутствие сплоченности; напряженность и конфликты в профессиональной среде, недостаточная поддержка со стороны коллег; конфликты, конкуренция; дефицит административной, социальной и профессиональной поддержки; др.

Следует отметить, что ни один из факторов сам по себе не может вызвать выгорания. Его возникновение – это результат действия совокупности всех факторов как на профессиональном, так и на личностном уровне. Каждый человек имеет индивидуальный, изменчивый профиль ресурсов противодействия выгоранию. Под **ресурсами** понимаются внутренние и внешние переменные, способствующие психологической устойчивости в стрессогенных ситуациях. Ресурсы подобны иммунитету, имея который можно избежать не только синдрома выгорания, но и других негативных сторон профессии и современной жизни.

Внутренние (личностные) ресурсы противодействия профессиональному выгоранию.

К ресурсам личности относят: умения и навыки, знания и опыт, модели конструктивного поведения, актуализированные способности. Они дают возможность человеку быть более адаптивным и стрессоустойчивым, успешным и удовлетворенным качеством своей жизни.

Можно выделить четыре уровня личностных ресурсов противодействия выгоранию:

Физиологический уровень является базовым, к нему относится то, что биологически задано. Он включает в себя тип нервной системы (ее силу, слабость, устойчивость и др.), пол, возраст, состояние здоровья, способы реагирования организма на стресс.

Психологический уровень. Он включает в себя три подуровня:

а) Эмоционально-волевой. Эмоциональное противодействие (преодоление) – осознание и принятие своих чувств и эмоций, потребностей и желаний, овладение социально приемлемыми формами проявления чувств, контроль динамики переживания, устранение застреваний, неполного реагирования и другое.

б) Когнитивный. Когнитивное противодействие – понимание причин стресса, осмысление ситуации и включение ее образа в целостное представление субъекта о себе, окружении и взаимосвязях с ним. Психологическая компетентность, позитивность и рациональность мышления, гибкость мышления, поиск и оценка возможных средств, которые могут быть мобилизованы для преодоления стресса, поиск конструктивных стратегий преодоления, самооценка, поиск самоподкрепления и поддержки.

в) Поведенческий (деятельностный). Поведенческое (деятельностное) противодействие – активность и гибкость поведения, перестройка поведения, коррекция стратегий и планов, задач и режимов деятельности, активизация или дезактивизация поведения или деятельности.

Социальный уровень: социальные роли, позиции и установки, отношение к другим людям.

Духовный уровень. К этому уровню относятся три психологических ресурса.

Надежда – психологическая категория, способствующая жизни и росту. Это активное ожидание и готовность встретиться с тем, что может появиться на свет. Надеяться – значит в каждый момент времени быть готовым к тому, что еще не появилось на свет, несмотря ни на что, не отчаиваться, если на том или ином участке жизненного пути это рождение не произошло.

Рациональная вера – убежденность в том, что существует огромное число реальных возможностей, нужно вовремя обнаружить эти возможности. Вера – рациональная интерпретация настоящего.

Душевная сила – мужество. Душевная сила – способность сопротивляться попыткам подвергнуть опасности надежду и веру и разрушить их, превращая в «голый» оптимизм или в иррациональную веру. Спиноза под душевной силой понимал способность сказать «нет», когда весь мир хочет услышать «да».

Ключевым ресурсом противодействия «выгоранию» можно считать способность личности к смыслотворчеству. Потеря смысла жизни ведет к ряду профессиональных и личностных деформаций, к числу которых относится синдром профессионального выгорания.

Смысл жизни может быть утрачен «в силу непропорциональности тех психических и личностных затрат, той цены, которую личность платит за свои реальные достижения... Слишком высокая психологическая цена, затраченная на жизненные достижения, понижает мотивацию, притязания и подрывает смысл жизни... Когда цена бывает слишком малой, когда успех приходит без всяких усилий со стороны личности, личность также перестает испытывать удовлетворение, а это, в свою очередь, разрушает смысл ее жизни».

Обновление смыслов профессиональной деятельности происходит постоянно, обостряясь в периоды кризисов. Умение находить новые смыслы в профессии, переоценивать свою роль и открывать в ней новые грани, ставить перед собой новые цели – все это является факторами преодоления профессионального выгорания. Человеку необходима гибкость в построении новых смыслов, помогающих адаптироваться к изменившимся условиям.

Оптимальный смысл жизни представляет собой генеральную линию жизни, задающую высокую планку активной жизнедеятельности человека, помогает ему максимально использовать собственные резервы, направляя их на преобразование обстоятельств и собственной личности. Принятие ответственности за каждый жизненный выбор позволяет человеку почувствовать свою жизненную силу.

Внешние (социальные) ресурсы противодействия выгоранию.

К наиболее выраженным внешним ресурсам относятся сферы профессиональной деятельности, семейной жизни и «свободного времени».

Практика показывает, что наиболее стрессоустойчивым оказывается тот, кто получает положительные эмоции и поддержку в семье, удовлетворение от работы и имеет «отдушину» в виде какого-либо увлечения, позволяющего почувствовать, что жизнь больше, чем работа. Напротив, при сильных рабочих стрессах, перегрузке в семье, нехватке либо саморазрушающей трате свободного времени внутренние ресурсы истощаются.

Например, поддержка может являться «сквозным ресурсом», пронизывая все три уровня. В таком случае человек получает поддержку от коллег или начальства на работе, от близких дома и от друзей.

Человек, имеющий ограниченные внешние ресурсы для успешного противодействия факторам выгорания, должен иметь сильные внутренние ресурсы. Посредством развития личностных ресурсов противодействия выгоранию можно дольше оставаться на пике своего профессионального и личностного расцвета.

Риск выгорания смягчают стабильная и привлекательная работа, представляющая возможности для творчества, профессионального и личностного роста; удовлетворенность качеством жизни в различных ее аспектах; наличие разнообразных интересов, перспективные жизненные планы.

Реже «выгорают» оптимистические и жизнерадостные люди, умеющие успешно преодолевать жизненные невзгоды и возрастные кризисы. Те, кто занимает активную жизненную позицию, и обращается к творческому поиску решения при столкновении с трудными обстоятельствами, владеет средствами психической саморегуляции, заботится о восполнении своих психоэнергетических и социально-психологических ресурсов.

Снижают риск выгорания сильная социальная, профессиональная поддержка, круг надежных друзей и поддержка со стороны семьи.

В работе по профилактике эмоционального выгорания первостепенная роль должна отводиться развитию и укреплению жизнерадостности, вере в людей, неизменной уверенности в успехе дела, за которое взялся.

Жизненный успех не дается без труда. Но не следует считать трудности непоправимыми катастрофами. То, что можно, следует исправить. А на нет – и суда нет, как говорят в народе. Большая мудрость содержится в изречениях: «Жизнь на 10% состоит из того, что вы в ней делаете, а на 90% - из того, как вы ее воспринимаете», «Если не можете изменить ситуацию, измените свое отношение к ней». Неразрешимых проблем нет. Если есть проблема, значит, есть и решение. Если есть профессиональное сгорание, значит, есть способы его предотвращения и коррекции. У каждого человека есть выбор: опустить руки, позволить себе «сгореть на работе» или, наоборот, приложить все усилия, чтобы исключить возможность

возникновения синдрома. Важно помнить, что наша жизнь – это наша жизнь, наше здоровье – это наше здоровье.

Литература

1. Профилактика синдрома профессионального выгорания педагогов: диагностика, тренинги, упражнения / Авт.-сост. О.И. Бабич. – Волгоград: Учитель, 2009.
2. Психология здоровья: учебник для вузов / Под ред. Г.С. Никифорова. - СПб.: Питер, 2003.
3. Федоренко Л.Г. Психологическое здоровье в условиях школы: Психопрофилактика эмоционального напряжения. – СПб., КАРО, 2003.
4. Шепель В.М. Как жить долго и радостно. – М.: АНТИКВА, 2006.
5. Эффективный учитель / Авт.-сост. О.М. Ольшевская. – Минск: Красико-Принт, 2010.

УДК: 371.3:377.5

O'QUV USTAXONALARIDA TRENAJERLARDAN FOYDALANISH

Sh.U.Qosimov

O'rta maxsus, kasb-unar ta'limi tizimi kadrlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti

Annotatsiya. Maqolada trenajerlar yordamida (mehnat) ishlab chiqarish sharoitlarini o'quv ishlab chiqarish jarayonida aks ettirish imkoniyatlari yoritilgan. Trenajerlar ta'lim jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarning maxsus fanlar nazariyasidan amaliy ko'nikmalarni egallashga o'tishini osonlashtiradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, amaliyot, o'quv ustaxonasi, amaliy ko'nikma, mehnat, moslama, trenajer, model, real model, texnik model, loyihalashtirish.

Использование тренажеров в учебное мастерских

Аннотация. В статье освещены возможности демонстрации производственных условий с помощью тренажеров в учебно-производственном процессе. Тренажеры активируют образовательного процесса, облегчают переход учеников из теории специальных предметов к владению практических умений.

Ключевые слова: Образование, практика, учебная мастерская, практическое умение, труд, приспособление, тренажер, модель, реальный модель, технический модель, проектирование.

Using simulators in the training master

Abstract. The article highlights the possibility of demonstrating working conditions using simulators in teaching and production process. Trainers activate the education process; facilitate the transition of students from the theory of special subjects to the possession of practical skills.

Keywords: Education, practice, training workshop, practical skill, work, device, simulator, model, real model, technical model, design.

O'quv-ishlab chiqarish vositalari ta'lim amaliyotining asosiy o'quv materiali hisoblanadi, ular tarkibiga o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari, turli stanok va jihozlar hamda qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi moslamalar kiradi.

O'quv (o'quv-ishlab chiqarish) ustaxonalari kasbiy ta'lim muassasalarining o'quvchilari egallayotgan kasb-qunarlariga xos bo'lgan ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishga xizmat qiladigan muqim tarkibiy qismi qisoblanadi[1].

O'quv ustaxonalarida o'quvchilar muayyan maxsulotlar ishlab chiqarishga doir amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar, kasbiy ta'lim dasturida ko'zda tutilgan aqoliga xizmat ko'rsatish turlari, ishlab chiqarish buyurtmalarini qabul qilish va bajarishga oid amaliy bilimlarini oshiradilar. Bu erda o'quvchilar ish o'rinlarini qanday tutishga doir malakalarni egallash bilan bir qatorda kelgusi faoliyatlarida qo'llaydigan texnika, uskuna va jihozlar, ularning ishlash tamoyillari bilan tanishadilar, turli ish usullarini o'zlashtiradilar, ishlab chiqarish madaniyati bilan tanishadilar, vaqtning qadriga

etish kerakligini anglab etishadi, shuningdek, mehnat xavfsizligi qoidalarini, mehnat intizomi bilan yaqindan tanishish va ularga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'quv ustaxonalarida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish ta'limining samaradorligi unda yaratilgan o'quv-ishlab chiqarish muhiti qulayliklari hamda mavjud shart-sharoitlar bilan belgilanadi:

- moddiy-texnik sharoitlar: zarur ish maydoniga egalik; jihoz va uskunalarning soz va toza holati, qo'shimcha xizmat ko'rsatish jihozlarning shayligi, materiallar va xomashyolarning etarli zahirasiga egalik; uskunalariga sifatli va o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish; yonq'in va texnika xavfsizligi talablariga javob berishi;

- sanitar-gigienik sharoitlar: normadagi tabiiy va sun'iy yoritish tizimiga ega bo'lish; binoning o'quv ustaxonasiga qo'yiladigan talablar mazmuniga mos kelishi, sanitariya-gigienik talablarga javob berishi; havo harorati, uning havoni shamollatish, almashinish tizimi bilan jihozlanganligi, chang va shovqindan xoli bo'lishi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari bilan jihozlanganligi;

- estetik: xona bilan o'rnatilgan ishlab chiqarish uskunalarining rangi dizayn talablariga mos bo'lishi, obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish ishlari qamda mavjud jihozlarning o'zaro uyq'unligi;

- texnik-pedagogik sharoitlar: o'quvchilarning optimal mehnat sharoitlarida faoliyat yuritishlarini qo'llab-quvvatlash; qar bir o'quvchi va talabani individual to'la jihozlangan ish (meqnat) o'rni bilan ta'minlash; meqnatni ilmiy asosda tashkil qilish talablariga mos tarzda o'quvchilarning jamoaviy o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish uchun etarli sharoitlar yaratish.

O'quvchilarning o'quv ustaxonalaridagi ishlab chiqarish ta'limi maxsus jihozlangan ish o'rinlarida tashkil qilinadi.

O'quvchi yoki talabaning ish o'rni uning qaysi kasbni egallayotganligidan qat'iy nazar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- o'quvchilar ishlaydigan uskunalarining har tomonlama texnik sozligi, qimoya vositalarining mavjudligi, yerlanish, saqlagich(predoxranitel) hamda boshqa qimoya vositalarining sozligi va shayligi;
- ish o'rni maydonining etarli tarzda yoritilganligi; uning o'quvchi va usta erkin qarakatlanishi va tez charchab qolmasligi uchun qulay o'rindiqlar bilan jihozlanganligi;
- o'tirgan holat ishlash zarur bo'lgan joylarda maxsus yoritgichlar bilan ta'minlanganlik; turli avariya holatlari sodir bo'lishi ehtimoli mavjud joylarda ishlab chiqarish ustasi bilan tezda aloqaga chiqish uchun telefon, ratsiya, turli ovoqli yoki rangli aloqa vositalari bilan ta'minlanganlik;
- o'zi ishlayotgan moslamaning tozalash va boshqa texnik xizmat ko'rsatilishi uchun qulay bo'lishi.

O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ta'limi ustasi uchun alohida joy hozirlanadi, e'tirof etilayotgan ish o'rning barcha talablar asosida jihozlanishi o'qituvchining pedagogik faoliyati samarasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ustaning ish o'rni o'quv ishlab chiqarish jarayonini boshqarishni tez, sifatli hamda mazmunli tashkil qilishi uchun barcha texnik, sanitariya-gigienik, xavfsizlik kabi qulayliklarga ega bo'lishi shart; uning ilmiy jihatdan to'g'ri jihozlanganligi o'quvchilarga jamoaviy ko'rsatmalar berishga munosib sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish amaliyotining samarali kechishi bilan bir qatorda bo'lq'usi mutaxassislar tayyorgarlik sifatiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Trenajerlar texnik vositalarining alohida guruhini tashkil qiladi. Trenajer (imitator) – bu o'qitishning texnik vositasi bo'lib, ular yordamida (mehnat) ishlab chiqarish sharoitlarini o'quv ishlab chiqarish jarayonida aks ettirish imkoniyatlari yaratiladi[2].

Trenajerlar o'quvchilarda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini boshqarish, texnik obektlardagi nosozliklar sababini aniqlash va bartaraf etish, murakkab harakatlarni bajarish kabi ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda juda xilma xil trenajerdan o'quvchilar, paraxod boshqaruvchilari, haydovchilar, mashinistlar, energetika hamda kimyotexnologik moslamalar boshqaruvchi operatorlari singari ko'plab murakkab soha xodimlarini tayyorlashda keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Trenajerlarni qo'llashning o'ziga xos afzallik jihatlari o'rganilayotgan ob'ektni real sharoitlarda

yaxlit holda amalga oshirish o'ta qiyin yoki buning imkoni bo'lmagan holatlardagi operatsiyalarni bajarishga o'rgatishga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Masalan, o'quvchilarga ayrim ishlab chiqarish moslamasining ishlash printsiplarini tushuntirishda ularni alohida qismlarga ajratib ko'rsatish imkoni bo'lmashligi mumkin, yoki samolyot, paroxod, vertolyot kabi murakkab texnikalarni boshqarish jarayonini bevosita real sharoitda ko'rsatish katta qiyinchilik tuq'dirish bilan birga ishtirokchilar va atrofdigilar hayoti va xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Trenajerlarni qo'llashning quyidagi afzalliklari mavjud:

- ta'lim jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarning maxsus fanlar nazariyasidan amaliy ko'nikmalarni egallashga o'tishini osonlashtiradi;
- o'quvchilar faoliyatini ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtiradi va bunda amalda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar, avariya va boshqa xavflardan holilikni ta'minlaydi;
- o'quvchilarga real ishlab chiqarish jarayonida qo'llab bo'lmaydigan murakkab jarayonlarni takror amalga oshirish, ishlab chiqarish bilan boq'liq istalgan vaqt yoki vaziyatni tanlash, ish rejimin tempini o'zgartirib ko'rish imkonini yaratadi;
- murakkab ish sharoitini (immitatsiya qilish) yaratish, jumladan, o'quvchilarning haqiqiy mehnat sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan turli avariya holatlarini yaratib ko'rishlari;
- turli nosozliklarni batamom bartaraf etilgunga qadar modellashtirish yoki bashorat qilish;
- o'quvchilarda turli trenajerlar bilan jihozlangan qayta aloqa xususiyatiga ega maxsus vositalar bilan ishlashda o'z-o'zini boshqarish muhim omil qisoblanadigan usullarini rivojlantirish.

Trenajerlarni yaratishning muhim omillaridan biri o'quvchilarning mehnat faoliyatiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'rganilayotgan materiallarni qisqartirish, qismlarga ajratish, ya'ni aynan ko'proq mashq qilish kerak bo'lgan vaziyatlar ustida ishlash imkoni hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quv maqsadida ishlab chiqarish muhiti yoki operatsiyasi, shuningdek, mehnat faoliyati to'laligicha modellashtirilmasdan, balki o'quvchining amaliy faoliyati uchun aynan o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'rni loyihalashtiriladi. Modellar operatsiyalarni amalga oshirishning real sharoitlariga qanchalik yaqin bo'lsa, ta'lim vositasi samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Qo'llaniladigan ta'lim trenajerlari qo'llanishi va tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratiladi.

Real ob'ektlarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish usullarini ishlab chiqishga mo'ljallangan texnik ob'ektlar tarkibi va vazifalarini loyihalashtiruvchi trenajerlar. Bularga aviatsiya, avtomobil trenajerlari, kimyo ishlab chiqarish texnologik qurilmalarini loyihalashtiruvchi va boshqa trenajerlar kiradi. Bu trenajerlar, o'z navbatida, haqiqiy ishlab chiqarish jarayonidagi singari hajm va kattalikdagi bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan boq'liq mashq va amallarini bajarishga asoslangan hamda ularning kichraytirilgan maketi(modeli)ni yaratishga mo'ljallangan trenajerlarga bo'linadi (masalan, kichraytirilgan o'lchamlarda).

Texnik ob'ektlar tuzilishi va funktsiyasini modellashtiruvchi trenajerlar elektron-hisoblash texnikalari bazasida jismoniy va matematik tamoyillar asosida quriladi.

Jismoniy model deganda bir qator jismoniy xususiyatlarga ega bo'lgan originaliga o'xshash, lekin qajmi, vazni bilan farqlanadigan qamda ikkilamchi xossalarga ega bo'lmagan predmet, jarayon va vaziyatlar anglaniladi. Masalan, avtomobil trenajeri haydovchining o'rnini va yo'ldagi "harakat"(harakatlanayotgan yo'l va avtomobil)ni imitatsiya qiladi[3].

Matematik loyihalash tamoyili asosida qisoblash texnikasi bazasidagi trenajerlari, shuningdek, hisoblash mashinalari bazasida kompyuter trenajerlari ham yaratiladi.

O'quvchilarning muayyan intellektual faoliyat bilan boq'liq ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan trenajerlar. Bunday trenajerlarga misol qilib turli apparatura va jihozlar nosozligini ko'rsatib berishga hamda ishlab chiqarish jarayonida brak maxsulotlarni aniqlash va ajratishga mo'ljallangan trenajer-imitatorlarni keltirish mumkin. E'tirof etilayotgan trenajerlarni yaratishda texnik ob'ektlar qurilishi va funktsiyalaridan nusxa olishni loyihalash vazifasi qo'yilmaydi. Ulardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilarga algoritmlar, muayyan aqliy harakatlarni amalga oshirish qoidalari(masalan, brak maxsulotning paydo bo'lish sababi)ni aniqlash o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Trenajerlar xilma xilligining asosiy farqi ularning u yoki bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishni engillashtirishga moslashganligiga qarab aniqlanadi. Odatda, mashq'ulot qurilmalari texnik ob'ektlar tuzilishi va funktsiyalarini loyihalashtirmaydi. Ajratib ko'rsatilgan ko'nikmalarni shakllantirish uncha murakkab bo'lmagan jihoz va moslamalarni qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Masalan, metallarni kesishga yoki ularga turli naqsh berishga mo'ljallangan arra hamda pichoq bilan ishlashga oid qo'l qarakatlari ko'nikmalarini mashq qildirishga moslangan trenajerlar.

Trenajerlarda mashqlarni tashkil qilishda o'quvchilarni displeyda foydalanishlari kerak bo'ladigan maxsus vizual til, ma'lumotlarni kodlash usullari, ekrandagi turli indikatorlar, harflar shrifti, oraliq masofasi, rangi, yorug'lik parametrlari bilan tanishtirish, juda muhim. Bu barcha turdagi kasblarni egallayotgan o'quvchilar uchun zarur, masalan, kimyo yoki neft singari noyob qisoblanadigan ishlab chiqarish operatorlarini tayyorlashda qo'l keladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan trenajerda barcha texnologik rejimdan tortib, xatto avariya holatidagi vaziyatlarni imitatsiya qilish bilan boq'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Odatiy ish rejimining buzilishi bilan boq'liq holatlar maxsus rangdagi belgilar yoki sirena ovozlari yordamida signallar orqali ifodalanadi. O'quvchilar nazorat – o'lchash asboblari tomonidan berilgan signallar asosida tegishli tezkor qarakatlarni amalga oshirishlari va ish rejimini normal holatga keltirishga doir choralarni qo'l yoki boshqaruv pultidagi kalitlar yordamida amalga oshirishlari talab etiladi. Trenajerlar hatto moslamalarning ishlash mexanizmlarini avtomatik rejim tarzida namoyish etish xususiyatiga ham ega. Bunday moslamalarning ishlash printsiplarini o'quvchilar maxsus nazorat-o'lchov asboblari montiori yoki ovoz hamda rang orqali berilayotgan signallar vositasida kuzatishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchi va talabalarning harakatlari keyinchalik nazorat va taqtil qilish maqsadida o'zi yozadigan moslamalar yordamida qayd etib boriladi.

Trenajrlarning yana bir muhim afzalliklari sifatida ishlab chiqarish yoki operatsiyalarni amalga oshirishning barcha jarayonlarini turli tezliklarda, ya'ni har xil vaqt oralig'ida aks ettira olishi bilan xarakterlanadi. Gap shundaki, real kimyo va boshqa kimyoviy neft ishlab chiqarish jarayonlari o'quv jarayoniga nisbatan sekin kechadi, o'quv trenajrlari yordamida bu jarayonlarning tezlashtirilishi o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonlarini tezlashtirishga olib keladi va bu orqali o'quv vaqti iqtisod qilinadi. Texnologik jarayonlar modelining tezlashuvi uning parametrlari, ko'rgazmalilik darajasini yanada oshirish imkonini beradi.

Trenajrlarga asoslangan ta'limning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mashqulot choq'ida trenajerlar yordamida usta (o'qituvchi)ning jarayonning alohida olingan ma'lum fragmentini ajratib ola bilishi va o'quvchilarga o'rgatishda aynan shunga urqu berish imkonining mavjudligi;

- o'quvchilarning topshiriq mazmunini tahlil qilishlari; trenajerda loyihalashtirilayotgan tizim holatini aniqlashi, normadan oq'ish qolatlarini, ularning sababi yoki hajmini belgilay olishi;

- o'quvchilarning tizimni normaga keltirish algoritmi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilishi;

- o'quvchilarning moslamani normal holatga keltiruvchi tugmachalarni trenajer yordamida boshqarish ko'nikmalarini egallashi bilan boq'liq faoliyat mashqlarini istagancha takrorlash, trenajrlardan kelayotgan turli signallar vositasida apparat va uskunalarning to'qri ishlayotganligi hamda ishlab chiqarish jarayonining bir maromda kechayotganligini joriy nazoratini amalga oshirishi;

- usta(o'qituvchi) hamda o'quvchi tomonidan trenajer nazorat boshqaruv pulti ko'rsatkichlari yordamida mashqlarning samarali kechayotganligini tahlil qilib borish;

- o'quvchilarning trenajrlarda bajargan harakatlari va ular asosida olgan natijalarini asoslashi.

Adabiyotlar:

1. Avazov Sh., Muslimov N, Qosimov Sh., Xodiev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlari amaliy kasbiy ta'lim metodikasi va texnologiyalari(chizmalar, jadvallar va suratlarda) Metodik qo'llanma. Toshkent: "NAVRO'Z", 2014. -300 b.
2. Скаун В.А. Методика производственного обучения в схемах и таблицах. - М.: «Издательский центр Академии профессионального образования», 2001. – 176 с.
3. Xodjaboev A.R., Qosimov Sh.U. Amaliy kasbiy ta'limni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007. - 148 b.

UDK: 371.14 (575.1)

IMOM BUXORIY TA'LIMOTIDA UZLUKSIZ TA'LIM G'OYASINING IRMOQLARI**Avliyakov N. X., Musayeva N. N.***Buxoro muhandislik – texnologiya instituti*

Annotatsiya. Uzluksiz ta'lim tizimi zamonaviy axborot jamiyatning tayanch ustunlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Imom Buxoriy ta'limotida ushbu uzluksiz ta'lim g'oyasining irmoqlari aniqlangan va tamoyillar sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: uzluksizlik, ilm, g'oya, uzluksiz ta'lim g'oyasi, uzluksiz ta'lim g'oyasini amalga oshirish tamoyillari.

Истоки идеи непрерывного образования в учениях Имама Бухарий

Аннотация. Система непрерывного образования служит одним из базовых ступеней современного информационного общества. Эти идеи непрерывного образования определены в учение Имама Бухарий и представлены в виде принципов.

Ключевые слова: Непрерывность, наука, идея, идеи непрерывного образования, реализация принципов идеи непрерывного образования.

The origins of the idea of continuing education in the teachings of Imam Bukhari

Abstract. Continuing education is one of the basic steps of the modern information society. These ideas of continuing education is defined in the education of Imom Bukhoriy and disclosed in the form of principles.

Keywords: Continuity, knowledge, ideas, the idea of continuous education, continuous education of the idea of the implementation of the principles.

Ilm - fan negizida sivilizatsiyaning shakllanishi va yuksalishi tabiiyki, butun jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy ob'ektiv qonuniyatlaridan biri uzluksizlik bo'lib, bunda bosqichlardagi miqdoriy ko'rsatkichlar yig'indisi jamiyat holatini sifat o'zgarishlariga olib keladi. Shu bilan birga ushbu bosqichlar xalqalar sifatida jamiyat taraqqiyoti zanjirini tashkil etadi. Unda har bir xalqa o'zining betakror hissa qo'shganligi bilan namoyondir. Shunga o'xshash yo'l bilan ta'lim tizimi va uning mohiyatining rivojlanishi jarayoni amalga oshadi. Uning alohida bosqichlari yaxlit ta'lim taraqqiyoti zanjirini tashkil etadi. Mazkur zanjirning zamonaviy xalqasi uzluksiz ta'lim tizimi hisoblanadi. Ta'lim tizimi rivojning ushbu xususiyatlarni inobatga olib YUNESKO uzluksiz ta'limni dunyodagi barcha mamlakatlarida ta'limga doir yangilik va islohotlar sifatida qabul qilish zarurligini e'tirof etuvchi qaror qabul qildi.

Tarixiy rivojlanishning yutuqlarini davom ettirib, jadallashgan ilmiy-texnika taraqqiyoti hamda XXI asr axborotlashgan jamiyati talablariga asoslanib, mamlakatimizda, dunyoda o'xshashi bo'lmagan, uzluksiz ta'limning tengsiz tizimi yaratildi. «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» qonunlar bo'yicha ushbu uzluksiz ta'lim tizimining negizi deb quydagilar hisoblanadi: maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim; o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi; oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Mamlakatimizda majburiy o'n ikki yillik ta'lim joriy etilganligi: umumta'lim maktabida to'qqiz yil va uch yil kasb-hunar kollejida yoki akademik litseyda o'qishni tashkil etishi bizning g'ururimizga aylandi. Ya'ni dunyoda birinchi bo'lib umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limga erishildi. Bu esa, davlat har bir yoshni kasbiy faoliyatga tayyorlashni o'z zimmasiga olishi, oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish va iqtidorli yoshlarni aniqlash uchun sharoit yaratilishini anglatadi.

Shakllangan ta'lim zanjirini davomiyligi, uzluksiz ta'lim g'oyasi paydo bo'lishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish zaruriyatini taqazo etadi.

Uzluksiz ta'lim g'oyasini vujudga kelish irmoqlarini aniqlash uning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini shakllantirish sifatida qaralishi mumkin.

Izlanishlar natijalariga ko'ra, ta'kidlash mumkinki ushbu ilmiy muammo yechimi bo'yicha hozirgacha umum tan olingan qarash mavjud emas. Asosiy qarashlarni quyidagi uch guruhga umumlashtirish mumkin:

- Uzlüksiz ta'lim g'oyasi inson jamiyati paydo bo'lgani bilan vujudga kelgan;
- Uzlüksiz ta'lim g'oyasi paydo bo'lishi zamonaviy davrdagi ma'naviy, ijtimoiy, ishlab chiqarish va ilmiy –texnikaviy soxadagi jarayonlarni jadallashuvi bilan bog'liq;
- Uzlüksiz ta'lim g'oyasini paydo bo'lishiga ancha vaqt bo'ldi, lekin unga mos amaliyot turi yaqinda vujudga keldi.

Ushbu qarashlarni tahlili "g'oya" ibora o'zining mohiyatining ochib berish zarurligini taqazo etdi. Zero har bir shakllantirilgan qarash "g'oya" ga berilgan ta'rifga tayanishi talab etiladi.

"G'oya" – bu tushunchani yuksak shakli, borligini fikr bilan egalash, olamni amaliy o'zgartirishning omili, nazariy tizimini qurish tamoyilidir. Antik davrda uzluksiz ta'lim g'oyasi paydo bo'lganligi to'g'risidagi fikrlar Platon va Aristotelning fuqaro va jamiyat a'zosi sifatida insonni tarbiyalash tassavvuriga tayanadi. Lekin "tassavur" o'zaro aloqador mohiyatlarni ochib berolmaydi, shuning uchun u tushunchaning yuksak shakli, borligini fikr bilan egallashi, nazariy tizimini qurish tamoyili bo'lolmaydi, demak "g'oya", asosini ham tashkil etolmaydi. Shu bois uzluksiz ta'lim g'oyasini paydo bo'lishini antik davr bilan bog'lashga asos yo'qligini qayd etish mumkin.

Ushbu muammo murakkab va serqirradir. Bizning fikrimizcha, Imom Buxoriyning "Al jomi' as - sahih" kitobining tarkibiy qismi bo'lgan "Ilm kitobi" asarida aks ettirilgan uning ta'limoti ushbu qirralarning birini yoritadi, desak xato bo'lmaydi. "Ilm kitobi" mazmunidan kelib chiqadigan, uning alohida boblarining tahlilidan qilingan quyidagi xulosalardan uni uzluksiz ta'lim g'oyasining irmoqlari deb hisoblash mumkin:

- *Doimo ilm olish va uni oshirishga intilish zarur.* Ilm uning egasini martabasini ulug'laydi va unga abadiy xizmat qiladi. (1-bob: "Ilm fazilati to'g'risida").
- *Har qanday ishni boshlash uchun yoki o'z fikrini ifodalash uchun ilm egallash zarur, bunda kichik ilmlarni o'zlashtirishdan so'ng katta ilmlarni o'rganish yo'lidan borish darkor.* Ushbu jarayoning uzluksizligiga rioya etish muhimdir, chunki ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishish mumkin, eshitgandan so'ng o'z fikrini bayon etish maqsadga muvofiqdir. Egallagan ilm – odam faoliyatini baholashning bosh mezonidir. (11-bob. "Bir ishni qilishdan ham, so'zlashdan ham avval ilm darkorligi to'g'risida").
- *Ilmni, undan foydalanish darajasigacha o'zlashtirish joizdir*(15- bob: "Ilmni fahmlash (teran tushunish)").
- *Ilmni uzluksiz egallab turish foydalidir, shu jumladan keksa yoshda ham va ilmni boshqalarga o'rgatish oliyjanoblikdir*_(16-bob: "Ilmu hikmatni orzu qilmoq").
- *Ilm mo'jizalarni yaratishga qodirdir* (23-bob: "Ilm fazilatlari haqida").
- *Ilmni o'rganish va tarqatishdan uyalmaslik kerak.* Ilmni tarqatishdan uyalmoq, uni keltirishi mumkin bo'lgan ne'matlardan mahrum qiladi. (51-bob: "Ilm o'rganishdan uyalmoq").
- *Ilmning insoniyat uchun ahamiyati eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan.* Ilmning susaymog'i, ilmga e'tiborsizlik qiyomatning eng birinchi alomatidir deb ta'qilanadi. (22-bob: "Ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi").

Ushbu xulosalarni umumlashtirilgan holda Sharqda jamiyatni har bir a'zosi uchun ilm o'rganishi farz darajasiga ko'tarilganligini, ilmni to'plash yo'li bilan, uni uzluksiz chuqurlashtirib borish natijasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishish mumkinligini ta'kidlash mumkin.

Imom Buxoriy asarlarining tahlili uzluksiz ta'lim g'oyasini amalga oshirishning quyidagi tamoyillarni shakllantirishga imkon berdi:

1. *Ta'limning ustivorligi va o'qishga qiziqtirish.* O'z mavqeini namoyish etish, saodatli bo'lish, har qanday mehnat faoliyatini bajarish uchun, ilm (bilim) olish birlamchi omil bo'lib xizmat qiladi. Imom Buxoriyning ta'kidlashicha "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ay".

2. *Ta'limning insonparvarlashuvi va hamkorlik.* Bu bolalarga muhabbat, ustoz va shogird orasidagi o'zaro hurmatli munosabatlar, o'qitiladigan shaxs qiziqishlarini qoniqtirish uchun g'amxo'rlik, mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirish va ta'lim jarayonini sifatli amalga oshirish uchun shart sharoit yaratishdan iborat. Qanday shaklda bo'lmasin shaxsni haqorat qilish, yoki kamsitish mutlaqo taqiqlanadi.

3. *Butun hayot davomida ta'lim olishning uzluksizligi va uzviyligi.* Bu ilmga (bilim), ilmni to'plash orqali erishiladi, shu jumladan yosh ulg'ayib qolganda ham, degan xulosadan kelib chiqadi.

O'qitishda va ta'lim olishdagi yondashuv Sharqda "Beshikdan qabrgacha ilm izla" degan chaqiriqda o'z aksini topgan.

4. Individual ta'lim, ilmni uzatish va uyda ta'lim olishning integratsiyasi. Bular barchasi Imom Buxoriyning "Ilm kitobi" asarida keltirilgan o'qitish usulida mujassamlashgan (28-bob: "Navbat bilan ilm olmoq"). Ushbu usulning mohiyati shundaki, ikki o'quvchi navbat bilan individual mashg'ulotlarga qatnashadi. Bir kun bir o'quvchi muallimga qatnashsa, ikkinchi kun ikkinchisi qatnaydi. O'sha kuni mashg'ulotdan so'ng birinchi o'quvchi, o'zi o'zlashtirgan o'quv materialni ikkinchi o'quvchiga tushuntiradi. Ikkinchi kun esa individual mashg'ulotda ikkinchi o'quvchi qatnashadi, shu kunning o'zida mashg'ulotdan so'ng, o'tilgan o'quv materialini birinchi o'quvchiga tushuntiradi. Bu o'qitish kursi to'la tugaganigacha davom etadi.

Mazkur o'qitish uslubi "o'qib turib – o'qitaman," o'zida individual o'qitish, ilmni uzatish va mustaqil ishni samarali tarzda qamrab oladi. Bu yo'l bilan olingan ta'lim sifatli va mustahkam bo'ladi. Chunki individual mashg'ulotlar jarayonida muallim bilan olingan ilm (bilim)lar, ularni uzatish jarayonida mustahkamlanadi.

5. *O'qitish va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi.* Sharqda barcha davrlarda ta'lim va tarbiya qo'sh jarayon xuddi bir tanganing ikki tomoni sifatida qaralgan. Natijasida o'qimishli inson tarbiya deganda, ilmni egallangan sifatida qabul qilingan. Albatta bilim darajasi hammada ham bir xil bo'lavermaydi (tanganing qiymati ko'rsatilgan yuz tomoni kabi), tarbiyaga esa jamiyatda mavjud bo'lgan xulq-atvor, ahloq me'yorlari, madaniyat, ma'naviyatidan kelib chiqqan bir xil talablar qo'yiladi (tanganing orqa tomoni hammasi uchun bir xil bo'lgani kabi).

Imom Buxoriy ta'limotida, odamlarda poklik, halollik, adolatparvarlik, hushmuomalalikni, kamtarlik, aytgan so'zi ustidan chiqish, kabi fazilatlarini shakllantirishga ham alohida etibor berilgan. Pedagogik jarayonni inson faoliyatining bir sohasi sifatida qaralishi mumkinligini hisobga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirilganlar Imom Buxoriyning "Ilm kitobi", "Adab kitobi", "Ijzat so'ramoq" kitobi asarlari mazmunidan kelib chiqadi.

Ta'lim jarayonida tarbiyaga qay darajada e'tibor berilganligini berilgan savolga talaba zudlik bilan javob berishi ham odobsizlik deb baholashdan xulosa chiqarish mumkin. (15-bob: "Ilm kitobi"). Bundan yuqoriroq e'tiborni tasavvur qilish ham mumkin emasdir. Hozirgi kunda mazkur tamoyillar barcha zamonlarda ham uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etishda uning nazariy asoslaridan biri sifatida xizmat qilib kelishi namoyon bo'lmoqda.

Xotimada ta'kidlash mumkinki, Imom Buxoriy ta'limoti asosida shakllangan tamoyillar va o'sha davrda paydo bo'lgan "Beshikdan qabrgacha ilm izla", "Ilmni o'rganish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir", "Ilm- fanni munosib va nomunosiblarga taqdim etish lozim, fanning o'zi o'zi haqida qayg'urishga qodir nomunosibga qololmasligi uchun" kabi chaqiriqlar XXI asr axborot jamiyatning uzluksiz ta'limi tizimi uchun ham o'ta muhim bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotning poydevori. – T.: 1997.- 64 b.
2. Al-Buxoriy «Hadis». I tom. «Ilm kitobi». T., 1992 – 560 b.
3. Al-Buxoriy «Hadis». IV tom. «Adab kitobi». T., 1992 – 526 b.
4. Al-Buxoriy «Hadis». IV tom. «Ijzat so'ramoq kitobi» T., 1992 – 526 b.
5. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Ismoil Al-Buxoriy ta'limotida uzluksiz ta'lim g'oyasi va zamonaviy o'qitish texnologiyalarining irmoqlari. -T.: Fan va texnologiyalar, 2012-72 s.
6. Enikeev M. N. Psixologicheskiy ensiklopedichesiy slovar. – M.: "Prospekt", 2007. – 560 s.
7. Seyitxalilov E. A., Raximov B. X., Madjidov I. X. Pedagogicheskiy slovar – spravochnik. T.: "Sodgiana", 2011- 700 s.

UDK: 15

SHAXSDA AYBDORLIK HISSINING YUZAGA KELISHI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**D.F. Jo'raqulova***Samarqand davlat Universiteti*

Annotatsiya. Maqolada aybdorlik hissini yuzaga kelishi, nomoyon bo'lish xususiyatlari hamda undan xalos bo'lish usullari qiziqarli tarzda bayon etilgan. Shu bilan birga, odamning ma'naviy sezgirligi vijdon hissida yorqin nomoyon bo'lishi hayotiy amallar bilan yoritilgan. Maqola keng o'quvchilar jamoasi, pedagog va psixologlar uchun mo'ljallangan bo'lib, kasbiy va shaxsiy hayotlarida foydalanishlari mumkin.

Kalit sozlar: ayb, aybdorlik hissi, uyat, vijdon, xato, qo'rquv, agressiya, bola, ota-ona, axloq, baholash, xulq-atvor.

Проявление чувства вины и его психологические характеристики

Аннотация. В статье излагаются вопросы проявления чувства вины. Подробно раскрывается взаимосвязь вины как элемента духовно-нравственной сферы человека и совести, ее отражение в жизненной практике.

Ключевые слова: вина, чувство вины, стыд, совесть, ошибка, страх, агрессия, дитя, родитель, поведение, оценка, мораль.

The existence of guilt and its psychological characteristics

Abstract. The article presents questions manifestation of guilt, its characteristics, interesting ways of its resolution. In addition, the detail revealed the relationship of guilt as an element of spiritual and moral sphere of human conscience, her reflection in the practical life. Article written for a wide range of public and educational psychologists for use in professional and everyday life.

Keywords: fault, guilt, shame, conscience, mistake, horror, aggression, child, parent, morals, character.

Aybdorlik hissi tabiiy o'zimizni yaxshi ko'rish hissini yo'qotganimizda va o'zimizning xatolarimizni kechirishni bilmaganimizda vujudga keladi. O'zingning xatolarini sezish yaxshi narsa, ammo bundan kerakli xulosalarni chiqarganingdan keyin ham uyalib yursang – bu yomon. Doimiy ravishda ta'qib qiladigan aybdorlik hissi bizni o'zimizning hech qanday ayb ish qilmaganligimiz, o'zimizning yuqori darajaga egaligimiz, qadr-qimmatimiz borligi hissidan mahrum qiladi. Bu esa bizni jamiyatda o'z o'rnimizni topolmasligimizga, o'zimizni baxtsiz his qilishimizga, o'z-o'zimizga beradigan bahonining keskin pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Buning oldini olish uchun esa jamiyatdagi har bir shaxs aybdorlik hissining yuzaga kelish sabablari, uning ijobiy va salbiy tomonlari, uni yuzaga keltiruvchi omillar, undan xalos bo'lish chora-tadbirlari haqida yetarli darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi talab etiladi.

Aybdorlik hissi, uyat va vijdon tushunchalari doim yonma-yon keladi, gohida bir kechinmani ikkinchisidan ajratish ham qiyin tuyuladi. Lekin, bularning barchasi biz o'ylagandek bir xil kechinma emas, aybdorlik hissi, uyat va vijdon tushunchalari bir-biridan farq qiladi.

Aybdorlik hissi – qo'rquv, autoagressiya va mana shu ichki agressiyadan himoyalaniş holatlarining birikmasidir. Aybdorlik hissi – tug'ma kechinma bo'lmay, balki u ijtimoiy shakllangandir. Aybdorlik hissi bolalarga ilk yoshlaridayoq gohida anglangan, gohida o'zlari ham sezmaganda holda ota-onalari yoki atrofidagi yaqin kishilari tomonidan shakllantiriladi. Ko'pincha bolalar kattalarning noroziliklari, qilgan nojo'ya hatti-harakatlari uchun ular tomonidan jazolanishlari natijasida o'zlarida aybdorlik hissini shakllantirishadi. Keyinchalik inson aybdorlik hissini o'z ichki olamida qaytadan yuzaga keltiradi, bu esa odatda beixtiyor, anglanmagan holatda avtomatik ravishda amalga oshadi.[1,214-215]

Uyat va vijdon kechinmalari ham aybdorlik hissiga o'xshaydi, biroq ularning tuzilish mexanizmi umuman boshqacha. Kishida uyalish hissi paydo bo'lganda u o'zida alohida o'ng'aysizlik, bezovtalik va yuzi shuvitlik sezadi. Uyalib xijolat tortayotgan kishi boshqa odamlar bilan uchrashganda uning

axloqiy qoidalarni buzganligidan xabardor bo'lgan odamlarning ko'ziga tikilib qaray olmaydi, qizaradi.

Odamning ma'naviy sezgirligi vijdon hissida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Vijdon hissi, vijdon "azobi" uyatning, kishi o'zining nohaq ekanligini anglaganligining, o'z niyati va qilayotgan nojo'ya harakati uchun ayrim kishilar oldidagi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaganligining eng kuchli ko'rinishidir.

Kishi axloqiy qoidalarni buzganini boshqalar ko'rmagan bo'lsa ham, boshqa kishilar shu kishining axloqqa xilof biror nojo'ya harakat qilgani haqida, hatto shubhalanmagan bo'lsa ham ayrim kishilar vijdonan siqilib, hayajonlanib turadi.

Vijdon hissining barqarorligi, uzoq davom qilishi bu hisning o'ziga xos xususiyatidir.[3,85-87]

Aybdorlik hissi, uyat va o'z-o'zini baholash tuyg'ulari o'rtasida bevosita aloqa ham mavjud. Bizda aybdorlik va uyat hislari qanchalik ko'p bo'lsa, o'z-o'zimizga beradigan baho shunchalik past bo'ladi. Biz o'zimizni ilgari qaysidir ishni qilgan yoki qilmaganligimiz uchun koyiymiz, jazolaymiz yoki yomon ko'rib qolamiz. Aybdorlik hissi barbod etuvchi xususiyatga ega bo'lib, u kishilarda achchiqlanish, depressiya, alkogolizm, munosabatlardagi muammolar va kasalliklarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.

Ilgari yo'l qo'yilgan va endi to'g'rilab bo'lmaydigan ishlar uchun azoblanish umuman befoydadir. Aybdorlik holatidagi birdan-bir bir foydali narsa shuki u bizga xatoga yo'l qo'yganimiz va qandaydir hatti-harakat qilishimiz va undan to'g'ri xulosalar chiqarishimiz zarurligi haqida xabar berib turadi.

Biz o'zimizni aybdor his qiladigan vaziyatlarni ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

1.O'zimizning ma'naviy-axloqiy qarashlarimiz va e'tiqodlarimizga qarshi bo'lgan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanganimizda;

2.Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga, ota-onalarimizning fikrlariga qarshi biror-bir faoliyatni amalga oshirganimizda.

Bola uchun aybdorlik hissi og'ir va yoqimsiz holat bo'lib hisoblanadi, lekin ko'pchilik ota-onalar uchun o'z farzandlarida bu hisni shakllantirmasdan turib ularni to'g'ri tarbiyalashning iloji yo'qdek tuyuladi. Aybdorlik hissi nafaqat bolalar tarbiyasida balki kattalar hayotida ham muhim ahamiyat kasb etib, keyinchalik ularni jiddiy afsuslanishga majbur qiluvchi ayrim hatti-harakatlardan o'zlarini tiyishlariga sabab bo'ladi. Oddiy qilib aytganda aybdorlik hissini xuddi qonun himoyachilariga o'xshatish mumkin, ko'pchilik uchun ular yoqimsiz, lekin ularsiz ham yashashning hozircha iloji yo'q. Qonun davlat va jamiyatdagi barcha voqiya va hodisalarni nazorat qilib turgani singari, aybdorlik hissi ham insonning ma'naviy-axloqiy hatti-harakatlarini nazorat qilib turadi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi, shaxslarda aybdorlik hissi qanday yuzaga keladi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar nimalardan iborat?

Aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi birinchi va eng asosiy omil bu oila bo'lib hisoblanadi. Aybdorlik hissi, aybdorlik holati bolalarda asosan jazolash orqali yuzaga keltiriladi. Bolaning ayrim nojo'ya hatti-harakatlari ota-ona tomonidan "yomon" deb topilsa u albatta turli yo'llar bilan jazolanadi, bu jismoniy jazo, og'riq, yolg'izlik hissi yoki boshqalar bo'lishi mumkin. Bu holatda bola mana shu berilgan jazoni yana qaytarilishi mumkinligi haqida o'ylab ham o'z hatti-harakatining "yomon" ekanligini tushunib etadi. Agar "yomon" deb baholangan hatti-harakatlarga beriladigan jazo yetarli miqdorda takrorlangan bo'lsa, keyinchalik bola yana shunday holatga tushganda hattoki yonida ota-onasi bo'lmasa ham qo'rquv va og'riq hislari avtomatik ravishda o'z-o'zidan yuzaga keladi.

Bizni bolaligimizda doimo "kattalar" boshqarishadi, nazorat qilishadi, tanqid qilishadi, qilgan hatti-harakatlarimizga qarab mehr-muhabbatlarini chegaralashadi. Bu vaqtda ota-onamizdan tez-tez eshitadigan gaplarimiz "sen o'zingni yomon tutayapsan, sen barcha ishlarni noto'g'ri bajarding, sen aybdorsan, endi men seni yaxshi ko'rmayman" kabilardan iborat bo'lib qoladi. Bu gaplar keyinchalik bog'chada, o'quv yurtlarida, hattoki ishxonada boshliq tomonidan ham tez-tez takrorlanib turadi. Bu bilan "kattalar" o'zlari bilib yoki bilmasdan bolalarda aybdorlik kompleksini tarbiyalaydilar va rivojlantiradilar.[5, 118-121]

Ko'pchilik oilalarda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan qattiqqo'llik bilan tarbiyalanadi. O'g'il bolalarni ko'pincha kechirishadi, ular biror-bir kichik ishni bajarishsa ham xursand bo'lishadi. Lekin, qiz bolalar "deyarli to'g'ilgan vaqtidan" boshlab uydagi barcha ishlarni bajara olishi, bajarganda ham yaxshi bajarishi lozim, chunki u ertaga uy bekasi bo'lishi, barcha uy-ro'zg'or ishlarini o'zi bajarishi

kerak deb hisoblashadi. Shuning uchun ham barcha ishlarda “a’lochi” bo’lishga intilish sindromi ayollarda erkaklarga nisbatan kuchliroq bo’ladi, buni ayollarning doimo o’zlarini oqlashlarida, kechirim so’rashlarida, o’z hatti-harakatlarini tushuntirishga harakat qilishlarida ham ko’rishimiz mumkin.

Aybdorlik hissini har kim har xil qabul qiladi. Mas’uliyatli va mehribon kishilar uchun aybdorlik hissi tarbiyalashning samarali qurolidir. Mas’uliyatsiz kishi esa aybdorlik hissini o’zini xarob qilish tomonga ham burishi mumkin, uning uchun yuzaga kelgan vaziyatni qandaydir yo’l bilan to’g’rilash o’rniga o’ziga azob berish bir muncha osonroq tuyuladi.

Aybdorlik hissi ta’siri ostida inson ko’pincha hayotda xohlagan orzu-istaklariga erishish uchun harakat qilishdan qo’rqadi. Chunki, aybdorlik hissi shaxsning o’z-o’ziga beradigan bahosini pasayishiga va o’z kuchiga bo’lgan ishonchini yo’qolishiga sabab bo’ladi. Agar hayotda nimanidir yo’lga qo’yish, tashkil qilish imkoniyati paydo bo’lsa ham aybdorlik hissi uyg’onib unga”sen bunga loyiq emassan, bu sen uchun emas” deb aytishi mumkin.

Gohida kishilar yillar davomida ma’lum bir hayot tarzida qotib qolishadi. O’zgarishlar ular uchun qiyin, bajarib bo’lmaydigan ishdek tuyuladi, ular bundanda yaxshiroq turmush tarziga loyiq ekanliklariga o’zlari ham ishonishmaydi. Atrofida bir xil insonlar, bir xil voqealar, mustahkam yaxlit davra, go’yoki uning ichidan chiqib ketishning iloji yo’qdek. Voqealarning bunday davom etishi kishilarda apatiya, depressiya, passivlik va kelajakdan qo’rqish tuyg’ularining yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Bunday passiv umidsizlik holatidan chiqishning eng samarali yo’li bu – faol hayot tarzidir. Muntazam zo’r berish, hatti-harakatlar va insonning o’zini yengib chiqishi har-xil yomon hissiyotlarni bartaraf etadi. Birinchi galda inson o’zini kechirishni o’rganishi kerak, shundagina u eng yaxshi narsalarga ham loyiqqligini his qila oladi.[6, 16-17]

Agar inson ilgari yo’l qo’ygan qandaydir xatosi uchun aybdorlik hissini boshdan kechirayotgan bo’lsa va hozirda buni to’g’rilashning iloji bo’lmasa, demak bunda u uchun eng to’g’ri yo’l ayni damda mavjud holatlarga nisbatan tushunish, ilqlik va uyg’unlikni yuzaga keltirish zarur. Masalan, agar siz ilgari kimnidir nohaq xafa qilgan bo’lsangiz ayni damda o’zingizni qiynashingizni hojati yo’q, faqatgina hozirgi hayotingizda sizning atrofingizdagi kishilarga nisbatan o’zaro tushunish, do’stona va iliq munosabatda bo’lishning o’zi kifoya qiladi. Kishining o’z hatti-harakatlariga nisbatan bunday oqilona, faol qaror qabul qilishi va mas’uliyatni his qilishi tufayli aybdorlik hissi egoizm, ochko’zlik va serjahlilik hislaridan donolik, mehr-muhabbat va tushunish hislariga o’tuvchi ko’prik vazifasini bajaradi.

Aybdorlik hissidan qanday qutulish mumkinligini tushunish uchun quyidagilarni bilish va esda tutish lozim:

1. Aybdorlik hissi – bu tabiat ne’mati emas, balki u jazolash vaqtida his qilinadigan qo’rquv yordamida inson tanasiga singdiriladi, ya’ni insonning hayoti davomida boshqalar tomonidan shakllantiriladi.

2. Aybdorlik hissi qanday harakat yaxshi yoki yomonligi haqida ma’lumot bermaydi, balki tarbiyachilaringiz sizni nima uchun jazolashgan va bu hisni yuzaga keltirishgan bo’lsa, aybdorlik hissi ham xuddi shuning uchun jazolaydi.

3. Aybdorlik hissidan inson to’g’ri xulosa chiqarmasa u xatolarni tahlil qilishga yordam bermaydi, balki xalaqit qiladi. Bu his yoqimsiz kechinma bo’lib hisoblanadi, zero insonlar yoqimsiz fikrlardan qochishadi, xatolari to’g’risida ham kam o’ylashadi, ularni tahlil qilishmaydi, xulosalar chiqarishmaydi. Bundan tashqari o’zidagi shaxsiy aybdorlik hissi sababli inson boshqalarni ham aybdor deb sanaydi, “nima, bitta men shunaqa yomon va noto’g’ri ish qiladigan odammanmi? Ana boshqalar ham mendan yaxshi emas-ku?

4. Aybdorlik hissi sizni yanada insoniyoq qilmasligi ham mumkin, chunki aynan aybdorlik hissi tufayli ko’pchilik insonlar yovuzlik, g’azablanish, jahl kabi tuyg’ularni boshdan kechirishadi va bu yomonliklarni barcha atrofdagilarga ham sochishadi.

Bizga ma’lumki aybdorlik hissi qandaydir nojo’ya hatti-harakat qilganimizdan keyin yuzaga keladi. Bunday vaqtda esa kishi o’ziga savol bera boshlaydi va ko’pincha berilgan savolar zanjiri qo’yidagicha bo’ladi:

- Nima uchun (nima uchun bu yuz berdi)?
- Kim (bunda) aybdor?
- Nima qilish kerak?

Bu savollarga berilgan javoblar esa ko'pincha ichki ixtilofga, aybdorlik hissiga olib keladi. Masalan: Malika guldonni sindirib qo'ydi (va u o'ziga savollar bera boshlaydi).

- Nima uchun (nima uchun bu yuz berdi)?
- Chunki men beso'naqayman, hech bir ishni to'g'ri qilolmayman (bu erda aybdorlik hissi yuzaga keladi).

- Kim (bunda) aybdor? - Men.

- Nima qilish kerak?

(bu erda aybdorlik hissi yanada ko'payadi va kayfiyati ham ko'proq tushadi).

Bizning fikrimizcha bunday vaziyatlar pda savollar zanjirini boshqacharoq berish to'g'ri bo'ladi.

- Nima bo'ldi?

- Bu yuzaga kelgan vaziyatdan qanday foyda va yangi imkoniyatlar bo'lishi mumkin?

- Bu vaziyatda yutib chiqish uchun qanday yo'l tutish kerak?

Bunday savollar zanjiri har bir murakkab vaziyatlarda sizning kuchingizni oshirib, to'g'ri qaror qabul qilishingizga sabab bo'ladi. Buni yuqoridagi vaziyat misolida qaytadan ko'rib chiqamiz.

- Nima bo'ldi? – Guldon sindi.

- Bu yuzaga kelgan vaziyatning qanday foydali tomoni bor?

- Endi yangi guldon sotib olish mumkin (bu va boshqa vaziyatlarda biron-bir foydali tomonini topish kerak, chunki har qanday vaziyatning ham o'ziga yarasha foydali tomoni bor. Hozirgi vaziyatda foydali tomon yangi guldon sotib olish mumkinligida, chunki oldingisi eskirib qolgan va hammaning joniga tekkan edi).

- Bu vaziyatda yutib chiqish qanday yo'l tutish kerak?

- Keyingi safar ehtiyotkor bo'lib guldon yoki boshqa sinadigan narsalarni stol chetiga qo'yish kerak emas.

Bu uchta savolga beriladigan javoblar sizni to'g'ri qaror qabul qilishingizga, yuzaga kelgan vaziyatda yutib chiqishingizga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, aybdorlik hissidan xalos bo'lish uchun ko'p hollarda "Olti qadam" usulidan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Bu usul qo'yidagicha amalga oshiriladi:

1. Eng avvalo siz xato yoki noto'g'ri ish qilganingizni tan oling.

2. O'z xatolaringizni tan olgach, vaziyatni tahlil qiling, o'z xulq-atvoringiz sabablari va motivlarini aniqlang. Bu qadam sizni keyinchalik xatolardan uzoq bo'lishingizga sabab bo'ladi.

3. Chin qalbdan o'zingizni avf eting, agar lozim bo'lsa fikran yoki real hayotda siz oldida aybdorlik his qilayotgan insonlardan uzr so'rang. O'zini kechirish – aybdorlik hissini yengishdagi eng muhim qadamdir.

4. Vaziyatni to'g'rilash mumkin bo'lsa, gunohni bosib ketuvchi biror ish qiling. Avvalo, siz xafa qilgan odamlardan chin qalbdan uzr so'rang.

5. O'z xulq-atvoringizni o'zgartiring, kelajakda shunday vaziyatda boshqacha yo'l tutish haqida qat'iy qaror qiling. Bu qadam sizga bir xatoni qayta-qayta takrorlamaslikka yordam beradi.

6. Aybdorlikni chetga surib qo'yib xotirjam yashashda davom eting. Bu qadam oldingi besh qadam amalga oshgandan keyingi tabiiy qadamdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, birinchi galda inson o'zini kechirishni o'rganishi lozim, shundagina biz eng yaxshi narsalarga ham loyiqligimizni his qila olamiz.

Odamlar aybdorlik kompleksidan qochish uchun o'zlariga turli xil mashg'ulotlarni o'ylab topishadi. Masalan, ko'pchilik bolalar kattalarning ularga qattiq muomalasidan keyin riyokorlik yo'liga o'tib olishadi va shu bilan kattalarning sevgisini qaytarishga urinishadi.

Agar odam doimiy ravishda gazning o'chganligini tekshirsa, qo'llarini tez-tez yuvaversa, kuldonda bittagina sigareta bo'lsa ham darrov uni tozalab qo'ysa, xonada oxiri ko'rinmaydigan tartib o'rnatish bilan shug'ullansa, tez-tez biror narsaga teginaversa yoki o'ynab o'tirsa – bularning hammasi uning ichidagi zo'riqish va diskomfort natijasida kelib chiqadi. Bu ichki zo'riqishning katta qismi albatta aybdorlik kompleksi tufayli paydo bo'ladi.

Aybdorlik hissi bo'lgan odam boshqalarga rad javobini bera olmaydi va undan boshqalar o'z maqsadlari yo'lida foydalanishlariga yo'l ochib beradi. Bu odam kechalari uxlamasdan o'ziga yuklatilgan vazifani bajaradi. U boshqalarga bergan zararini shu yo'l bilan kompensatsiyalamoqchi bo'ladi, hatto aslida u hech qanday zarar keltirmagan bo'lsa ham.

Bundan qutilish uchun siz YO‘Q deyishni o‘rganishingiz kerak. O‘zingiz bajarishni xohlamaydigan iltimoslarga qat’iy ravishda rad javobini bering. Bu ularga hurmatsizlik bo‘lmaydi. Iltimosni bajarmaslik uchun sizning asosingiz bo‘lsa, buni boshqalar tushunishadi va buning uchun sizni yomon ko‘rishmaydi.

Hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun o‘zimizning qadr-qimmatimiz borligini his qilishimiz kerak. O‘zimizni hurmat qilmasdan o‘z maqsadlarimizni amalga oshira olmaymiz. Agar biz o‘zimizni hech kimga kerak emas deb his qilsak, haqiqiy xohishlarimiz paydo bo‘lishi bilan ularni bostira boshlaymiz. Aybdorlik hissi tufayli o‘zimizni boshqalar uchun qurbon qilamiz. Men dunyodagi hurmatga loyiq bo‘lgan yagona odamman – bu oliy odamning shioridir.

Adabiyotlar

1. Изард К.Э. Психология эмоций / Перевод. СПб.: Питер, 2002. - 464с.
2. Ильин Е. П. Эмоции и чувства: Учеб. пособие. СПб. и др.: Питер, 2001. -749с.
3. Кирилина Т. Ю. Совесть и ее роль в нравственном развитии личности. М.: Изд-во Моск. гос. ун-та леса, 2001. - 126 с.
4. Корнилов М.Н. "Культура стыда" и "культура вины" в Японии и на Западе // Человек: образ и сущность. М., 1998. Вып. 9. - С. 94-123 Ъ
5. Матюшин Г.Г. Стыд и совесть как формы моральной самооценки. М : Изд-во МГОПУ : НОУ, 1998. - 233 с
6. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. СПб.: С.- Петерб. фил. Ин-та социологии, 1995. — 39 с.
7. Юнг К.Г. Психология бессознательного / Перевод. — М.: «Изд-во АСТ-ЛТД», «Канон +», 1998. -400с.
8. Якоби М. Стыд и истоки самоуважения/ Перевод. М.: ИАП, 2001. - 256 с.

UDK.796:151

SPORT MUSOBAQASI PSIXOLOGIYASINING TAVSIFI VA TAHLILI

Y.Masharipov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori darajada ishchanlikni vujudga keltirish, musobaqada chidamlilikni o‘stirish yo‘llaridan foydalanish, sportchining musobaqadan oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o‘rganish, noqulay holatdan chiqib ketish imkoniyatlarini izlab topish, psixologik va chiniqish uslublaridan foydalanish masalalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: kuch ta’sirlanish, his-tuyg‘u, harakatlar, ishchanlik, kuchlanish, chidamlilik, vahimadan chiqib ketish uslubi, noqulay ruhiy holat, sportda qaltirash, irodaviy sifatlar, sport murabbiysi.

Психологический анализ и характеристика спортивных соревнований

Аннотация. В данной статье анализируются методы совершенствования высокой работоспособности спортсменов, использование методов развития выносливости в соревнованиях, изучается психологическое, рассмотрены методы выхода из трудной ситуации, психологические методы и методы закаливания.

Ключевые слова: спортсмен, соревнования, работоспособность, выносливость, быстрота, сила, методы и выходы из стрессовых состояниях в трудных психологических ситуации, боязливость, стартовые лихорадки, тренер.

The psychological analyze and characteristic of sports competitions

Abstract. The methods of perfectness of higher ability of sportsmen, usage of methods for durloping the endurance in competitions are analysed, psychologically investigated, the methods of realizing from complicated situation, psychological methods and methods of hardening are looked through in this article.

Keywords: sportsmen, competition, work able ness, endurance, quickness, power, in herd of psychological situation, fearful, fever of sport, the trainer of sports, the nrethads and solution from state of stress.

Sport boshqa faoliyat turlaridan o'z sub'yekti his-tuyg'ularining o'ta junbushga kelishi va kuchli hayajonlanishi bilan farqlanadi. Sportdagi bellashuvlar, olishuvlar, ularda faqat kuchli ta'sirlanishni vujudga keltiribgina qolmasdan, musobaqada ishtirok etayotgan juda ko'p qatnashuvchilarda, jumladan, tomoshabinlarda ham hayajonlanish, xursandlik va xafa bo'lish kabi his-tuyg'ularni vujudga keltiradi. Turli xil sport musobaqalari millionlab kishilarni o'ziga jalb qila oladi hamda kishilarda mavjud bo'lgan eng yuksak his-tuyg'ularni uyg'otib yuboradi.

Sportchilardagi emotsional harakatlar sport musobaqalari jarayonida vujudga keladi. Harakatning kuchlanish dinamikasi raqib bilan musobaqalashishda katta kuchlanish va qiyinchiliklarni yengishda paydo bo'ladigan irodaviy faollik, sportchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda ko'rinadi. Bularning barchasi sport faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. Yuqori kuchlanish bilan emotsionallik holatning o'zgarishi: xursandchilik bilan xafagarchilikning almashinib turishi yoki aksincha, qarama-qarshi o'zgarish, ya'ni g'azablanish o'rnini yana g'alabaga ishonch, xursandchilik, yaxshi kayfiyat va boshqa emotsional xususiyatlar egallashi tabiiy holatdir. Aynan shu holat sportchi ruhiy holatini boshqarish muammolarini keltirib chiqaradi.

Sportchilarda mashq va musobaqa jarayonidagi o'zgarishlardan: yurak faoliyati, nafas olishdagi farqlar, har xil og'riqlar, chidamsizlik, noxush tuyg'ular, ko'p terlash muskullardagi biotoklar, endokrin reaksiyalar bilan bog'liq turli xil emotsional o'zgarishlar aniqlangan. Sport insondagi faol ruhiy ko'tarinkilik va xafagarchilikni, sportchining emotsional tayyorgarligini, butun organizmidagi bor imkoniyatlarni musobaqa jarayonida namayon etish imkonini beradi. Sportchining emotsional holatini startdan oldin yuqori darajaga ko'tarilishi (masalan, uzoq va qisqa masofaga yuguruvchilarda, bokschilarda), muskullarining katta tezlikda ishlashi natijasida yurak urishi tezlashadi, tomirlaridagi qonning yurishi tezlashadi. Shuningdek, aniq faoliyat jarayonida vujudga kelgan his-tuyg'ular bajariladigan harakatlar natijasiga katta ta'sir etadi. Bu sportchining ishchanligini oshiradi, organizmining faoliyat jarayonini tezlashtiradi, sportchining xulq-atvorini yaxshilaydi, ichki harakat motivlarini o'stiradi, musobaqada g'alabaga erishishini ta'minlaydi. Sportchining kuchlanishli emotsional tuyg'ulari va musobaqalarga ruhan tayyorgarligi turli sport o'yinlari va jismoniy mashqlar jarayonida shakllanib boradi. Shuningdek, sportchilarda o'rinli g'azablanish yoki mag'rurlik va to'g'rilik kabi sifatning kamol topishi ularda musobaqalashish ishtiyoqini oshiradi.

«Sport psixologiyasi» fani sportchilarning mahoratini shakllantirish, musobaqalarda qatnashish imkoniyatini vujudga keltirish va kengaytirish, musobaqalarga ruhan tayyorlash uslublarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Shu jarayonda sport fanlari bilan hamkorlikda, quyidagi muammolarning ilmiy-nazariy, psixologik asoslarini ishlab chiqadi:

- 1) sportchilar ruhiyatiga sport faoliyatining ta'sirini o'rganish;
- 2) sportchilarda yuqori ishchanlikni vujudga keltirish hamda musobaqa jarayonida o'zini-o'zi boshqarish, chidamlilikni oshirish uslublarini ishlab chiqish;
- 3) sportchining musobaqadan oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o'rganish;
- 4) noqulay ruhiy holatdan, vahimadan chiqib ketish uslublaridan foydalanishga odatlantirish.

Sportchilar o'tgan sport musobaqalarida qo'lga kiritgan g'alabalari bilan xotirjam bo'lib qolmasdan, muntazam ravishda o'tkaziladigan sport mashg'uloti va musobaqalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun o'zlarini ruhan tayyorlab borishlari lozim. Sport amaliyotining keyingi natijalariga ilmiy asosda yondashilsa, sportchining oldingi musobaqalarda ko'rsatgan natijalariga qarab, uning yaqin kunlarda bo'ladigan musobaqalarda qanday ko'rsatkichlarga erishishi haqida hech qaysi mutaxassis aniq xulosa chiqarishga o'zgarish qila oladi. Musobaqalarda yaxshi natijalarga erishib yurgan sportchilar odatda o'zlarini kuchli sportchilar qatoriga qo'yadilar. Biroq, kutilmaganda shu kuchli sportchi bilan birga mashq qilib yurgan, sport musobaqalarida biror marta ham yaxshi natijaga erisha olmagan sportchi bir qancha vaqt o'tgandan so'ng musobaqalarning birida yuqori natijaga erishib, kuchli sportchilar qatoridan joy oladi. Bunday hodisalar sport sohasida tez-tez uchraydi. Binobarin, murabbiydan har bir sportchi bilan bir xil munosabatda bo'lishga odatlanish, ularga ko'zlangan maqsadga erishish yo'llari haqida bir xil to'g'ri ko'rsatma va maslahatlar berib borish talab qilinadi. Murabbiy sportchida shunday ishonch tug'dirmog'i lozimki, sportchi jismoniy mashq va

musobaqalar jarayonida har kuni ichki ruhiy faollik va mahorat kasb etib, sport ustaligi ko'rsatkichlariga erishish darajasiga ko'tarilsin.

Sportchilarning startdan oldingi ruhiy holatini murabbiylar, fiziologlar, ruhshunoslar ko'p yillardan buyon o'rganib kelmoqdalar. Lekin sportchilarning startdan oldingi ruhiy tayyorgarlik holati haqidagi ko'plab muammolar, masalalar shu kungacha maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqilmagan yoki ilmiy hal qilinmagan. Ruhshunos olim Z.Myuller ayrim risola va maqolalarida xalqaro sport musobaqalarida sportchilarning qoniqarsiz ko'rsatkichlari faqat ularning jismoniy, texnik yoki taktik tayyorgarligigagina bog'liq bo'lmasdan, balki ularning musobaqadan oldingi ruhiy tayyorgarlik holatiga ham bog'liq ekanligini birmuncha batafsil tushuntirib berishga erishgan.

Sportchining musobaqa jarayonidagi ruhiy hayajonlanish holati xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Ularning musobaqadan oldingi yuqori darajadagi ruhiy tayyorgarlik holati qiyin vaziyatlarda ham o'zini tuta bilishi hamda o'zini to'g'ri boshqarishida ko'rinadi. Sportchining musobaqadan oldingi ruhiy holati uning oldingi turli xil musobaqalarda erishgan muvaffaqiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ayrim olimlarning fikricha, miyada hosil bo'lgan o'rtacha qo'zg'alish musobaqada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Agar miyadagi qo'zg'alish start olish vahimasi darajasigacha yetib borsa, qo'zg'alish yuqori bo'lib, sportchining musobaqadagi natijalari qoniqarsiz ko'rsatkichlar bilan yakunlanadi. Sportchining musobaqaga tayyorgarlik holati asab tizimining ta'sirchanligiga ham bog'liq bo'ladi. Uning startga tayyorgarlik holatini quyidagi uch qismga ajratish mumkin: a) sportchining startda qaltirashi, jonsizlik holati; b) sportchining startga yuqori tayyorgarligi va jangovarlik holati; d) sportchining ruhan tushkunlik va yomon kayfiyatlilik holati.

Sportchining startga tayyorgarlik holati oldingi musobaqalarda o'z kuchini qanday safarbar etganligiga ham bog'liq bo'ladi. Bularidan tashqari, startga tayyorgarlik holati 1) musobaqaning xarakteriga; 2) tomoshabinlarning xulq-atvoriga; 3) sportchining musobaqa oldidan bajargan jismoniy mashqlari sifatiga; 4) o'z kuchiga ishonch hosil qilishiga; 5) sportchining alohida o'ziga xos xususiyatlari kabilarga ham bog'liqdir. Bu sabablar sportchining startga tayyorgarligiga ta'sir qiladi.

Ba'zi bir sportchilarda musobaqaga qatnashgandan keyin vegetativ ko'rsatkichlardan muskul tonuslarining sezilarli darajada o'sishi hamda kechki uyquning o'zgarishi kuzatiladi. Ruhiy notinchlik tez pasaymaydi, vahimaga tez-tez tushaveradigan sportchilarda sport musobaqasi davrini o'tkazish holati juda og'ir kechadi, tashvishlanish sportchini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Sportchining musobaqadan keyingi holati ruhiy tushkunlik, ezilganlik, o'z kuchiga ishonmaslik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan sportchilarning musobaqa jarayonida tavakkaliga harakat qilishlari natijasida sport qonun-qoidalarini tez-tez buzish hollari takrorlanib turadi. Bularning hammasi sportchining sportga bo'lgan qiziqishini, sport mashg'ulotiga qatnashishini, o'ziga nisbatan talabchanligini pasaytiradi, o'z shaxsiy sifatlariga baho berishi o'zgaradi.

Sportchilarning musobaqadan oldingi ruhiy holatini, ularning musobaqaga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida tarqatilgan so'rovnoma (anketa) savollariga sportchilarning bergan javoblaridan quyidagilar murabbiylarning alohida e'tiborida bo'lishi maqsadga muvofiq: «Bo'lajak sport musobaqalari meni doimo vahimaga soladi?», «Men murabbiyning bergan tanbehidan tez ta'sirlanaman, o'zimga og'ir olib, qiynalib yuraman». Bu javoblardan sportchi o'zining ruhiy holatini to'g'ri boshqarish malakalarini egallash usullarini o'rganish uchun yordamga muhtoj ekanligi anglashilmoqda. Demak, murabbiylar faqat sportchilarning ruhiy holati kuchini o'rganish bilan cheklanmasdan, ularning sport faoliyatida o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatini ham o'rganib, bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi uch asosiy masalaga e'tiborlarini qaratishlari lozim bo'ladi: a) sportchining ruhiy holatini ongli boshqarishga odatlantirish; b) o'zining ojiz va kuchli tomonlarini bilishga, tahlil qilishga o'rgatish; v) sportchilarda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatlarini o'stirish.

Bu muammoli masalalarni yanada chuqurroq o'rganish, oqilona tahlil etish va ilmiy-amaliy jihatdan to'g'ri hal qilish uchun sportchi-talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qildik: «Sizningcha, sportda yuqori natijalarga erishish uchun sportchilar qanday sifatlarga ega bo'lishlari zarur?». Mazkur savolga deyarli barcha sportchilar talab darajasida mashq qilish kerak deyishdi. Shu bilan birga sportchilarning 45,8 foizi yuqori natijalarga erishish uchun irodaviy sifatlar, 24,4 foiz sportchiga esa tetik kayfiyat, o'zini to'g'ri boshqarish, musobaqada vahimaga tushmaslik, xulq-atvorini nazorat qilish, tashqi ta'sirlarga ko'p berilavermaslik, o'z kuchiga va g'alabaga ishonch kabilarni asosiy omil deb hisobladilar. Ba'zi bir sportchilar o'z vaqtida dam olish, sport mashg'uloti

davomida yuqori ishchanlilikda bo'lish va aqliy qobiliyatlarni o'stirish kabilar ham yuqori natijalarga erishishning garovi ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Sportchilarning musobaqa jarayonida o'z ruhiy holatini to'g'ri boshqarish qobiliyatlari o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bunga erishish uchun u shug'ullanayotgan sport turining mazmuniga va bugungi kun talabiga tarbiyaviy ishlar olib borilishi zarur. Eng muhimi, sportchilarni sport mashg'uloti va musobaqalarda ruhiy zo'riqishdan asrash kerak. Buning uchun har bir murabbiy va jismoniy madaniyat o'qituvchilari o'z shogirdlarini ruhiy qiziqqonlik, tushkunlik, serzardalik holatlarini yengib o'tishga o'rgatishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, boshqalar, jumladan, sport hakamlari bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, qiyin sharoitlarda o'zini boshqarishga o'rgatishni ham unutmasliklari kerak.

Sportchi musobaqada g'alaba qilish uchun bor kuchini sarf qiladi, lekin o'ylaganidek natijalarga erisholmagach, tajovuzkor harakatlar qilishga o'tadi. Biroq u o'zining bunday harakatlari bilan musobaqada yaxshi ko'rsatkichlarga erisha olmaydi. U ixtiyorsiz ravishda bunday xulq-atvorga moslashib qolganidan o'zi ham pushaymon bo'lib yuradi. Bir-birlari bilan jismoniy to'qnashganida tajovuzkor harakatlar qilish hayvonlarga xos ekanligini olimlar ilmiy tajribalar asosida isbotlab berganlar. Tajovuzkor harakatlar insonlar uchun nuqson ekanligini sportchilarga qat'iy uqtirish lozim.

Yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlarida atrofidagi kishilarga, ota-onalariga va boshqa oila a'zolariga, tengdoshlariga bir xil munosabatda bo'ladi. Lekin bolada bir yoshdan keyin, o'z ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmaslari bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarning paydo bo'lishi natijasida tajovuzkorlik munosabatlarining ayrim ko'rinishlari vujudga kela boshlaydi. Ba'zi bir bolalarning kattalar yoki kichiklarga nisbatan tajovuzkorlik munosabatlari ochiq va aniq ko'rinib turadi. Biz quyida bolalardagi tajovuzkorlik munosabatlari shakllanishining bir necha holatlarini ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz:

1. Ba'zi ota-onalar boshqalarga ko'rsatgan tajovuzkor munosabatlari uchun bolasini maqtab ham qo'yadi yoki boshqa bolalardagi tajovuzkorlik harakatlarini ibrat qilib misol tariqasida ko'rsatishadi. Umuman, bolalar kattalarning tajovuzkorlik harakatlarini kuzatib boradilar. Agar katta yoshdagi kishi bola uchun ishonchli shaxs bo'lsa, o'sha odamning harakatlaridagi tajovuzkorlik harakatlarini o'ziga qabul qiladi va shu odamga o'xshashga harakat qiladi.

2. Ayrim ota-onalar bolalarining tajovuzkor harakatlari uchun ularga maxsus jazo chorasini qo'llamaydilar.

3. Ko'pchilik ota-onalar farzandlarida paydo bo'layotgan tajovuzkorlik harakatlarini aql bilan pasaytirishga va asta-sekin tarbiyalashga harakat qilmaydilar.

4. Ota-onalar bolalarida paydo bo'layotgan tajovuzkor harakatlarni me'yordan ortiq qattiqqo'llilik, do'q-po'pisa qilish yo'li bilan yo'qotishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. Lekin bunday bolalar ulg'ayganida, ularda tajovuzkor xarakterlarning vujudga kelishi tajribada isbotlangan.

Agar bola tengdoshlariga yoki o'yin paytida o'z do'stlariga tajovuz qilsa, kattalarning e'tiboridan chetda qoladi, shuning uchun ba'zi bir yoshlarning xarakteridagi tajovuzkorlik o'zgaruvchan bo'ladi. Ba'zi holatlarda o'zidan kichik yoki jismonan o'jiz bolalarga ham tajovuzkorlik qilish holatlari uchrab turadi.

Bola yigitlik yoshiga yetgandan keyin o'zini erkin his qiladigan bo'ladi. Kattalarga va tengdoshlariga tajovuzkorlik qilgan bolalarda ota-onaning tanbehi natijasida uyalish, bezovtalanish, qayg'urish holatlari turlicha bo'ladi. Ota-onaning tarbiyasi natijasida bola ulg'aygandan keyin tajovuzkor harakatlardan ta'sirlanishi va hayajonlanishi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

<i>Ota-onaning xulqi, fe'l-atvori, bola tarbiyasiga yondashuvi</i>	<i>Bolaning ulg'aygandan keyin tajovuzkor harakatlardan ta'sirlanish darajasi</i>
1. Bolaning ota-onaga yoki kattalarga tajovuzkorligi taqiqlanmagan.	Bola kattalarga tajovuzkorlik qilganida o'zini gunohkor deb hisoblamaydi yoki uni past darajada his qiladi.
2. Bolaning kattalarga tajovuzkor harakatlari taqiqlangan.	Bola kattalarga bilmasdan tajovuz qilsa, o'zini aybdor deb hisoblaydi.
3. Bola tengdoshlariga tajovuzkorona harakatlar qilganida ota-onalar tomonidan tanbeh berilmagan.	Bola tengdoshlariga tajovuzkorona harakatlar qilganida o'zini aybdor deb hisoblamaydi yoki uni past darajada his qiladi.

4. Bolaning tengdoshlariga va do'stlariga tajovuzkorona harakatlar qilishi taqiqlangan.	Bola tengdoshlariga, do'stlariga va komandadagi raqiblariga tajovuzkorona harakat qilganida o'zini aybdor deb hisoblaydi.
---	---

Bola ulg'ayib borgani sayin o'zining ijtimoiy haq-huquqi va intizom tushunchalarini ongli ravishda his qila boshlaydi. Bola atrofdagi odamlarga bilmasdan tajovuzkorona harakat qilganligini yaxshi tushunadigan bo'ladi. Yosh sportchi esa sport musobaqasi qoidalarini o'zlashtirib olganidan keyin o'zining tajovuzkorona harakatlarini his qiladigan bo'ladi. Agar yosh sportchi musobaqada o'z raqibiga nisbatan qonunga xilof tajovuzkorona harakatlar qilsa, sport musobaqasi hakamlari tomonidan tegishli jazo va tadbirlar qo'llanilishini yaxshi biladi. Ba'zi bir yosh sportchilar o'zining tajovuzkorlik harakatlaridan qattiq ta'sirlanadi, aynan shu ta'sirchanligi bois, o'zining xarakteriga mos sport turini tanlashda qiynaladi yoki xatoliklarga yo'l qo'yadi. Masalan, agar sportchida insonparvarlik his-tuyg'ulari yaxshi rivojlangan bo'lsa, u sportning tajovuzkor harakatlar qilish mumkin bo'lgan turlari bilan shug'ullanmagani ma'qul. Lekin sportning ayrim turlarida tajovuzkorlik juda zarur. Busiz sportda g'alabaga erishish juda qiyin kechadi. Ba'zi bir sportchilar yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lsa-da, sport musobaqalarida tajovuzkor harakatlar ko'rsata olmaydi. Biroq shu komandadagi do'sti o'rtacha jismoniy tayyorgarligi bilan musobaqada tajovuzkor harakatlar ko'rsata oladi. Ba'zan yosh sportchilarning sport faoliyati jarayonida kattalar yoki murabbiylaridan yetarli darajada tarbiya olmaganligi ulardagi vijondsizlik va beodoblik xislatlarini tez shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunday sportchilar yoshining o'tishi va sportda ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrayverishi natijasida sport bilan tamoman xayrlashadilar. Biroq shundan keyin ham o'zining tajovuzkorlik harakatlarini to'xtata olmagan uchun ruhiy qiyinchiliklarga ko'p uchraydilar. Ular o'zining xulq-atvorini o'zgartira olmaganidan boshqa odamlardek osoyishta hayot kechirishda juda qiynalishadi. Shuning uchun murabbiy sportchilarni tajovuzkor harakatlarni faqat raqibiga qarshi sport musobaqasi qoidalari asosida qo'llashga odatlantirishi lozim.

Sportchi musobaqada o'zining tajovuzkor harakatlaridan kuchli xayajonlanadi yoki o'zida sportchi uchun nuqson hisoblangan quyidagi xulq-atvor vujudga kelganini yaqqol sezadi: o'zining musobaqadagi xulq-atvoridan shubhalanish, o'z-o'zini ayblash, o'ziga ishonmaslik, murabbiydan arazlash, unga keskin ziddiyatli munosabatda bo'lish kabilar. Sportchida bunday xususiyatlarning paydo bo'lishi, birinchidan, sportchi mashq qilayotgan muhit ta'siriga, ikkinchidan, ota-ona tomonidan bolani tarbiyalashda qo'llanilayotgan uslublarning noto'g'riligiga bog'liq. Tajovuzkorlik va boshqa salbiy holatlarning sportchi hayotida tez-tez takrorlanaverishi tufayli, bular bolaning xarakteriga aylanib qoladi. Agar o'smirda murabbiy bilan uchrashmasdan oldin tajovuzkor harakatlar shakllanmagan bo'lsa, murabbiyning musobaqada qattiq g'azab bilan «ur», «yiqit», «bos» degan baqiriqlari sportchida tajovuzkor harakatlarni vujudga keltirmaydi. Bunday sharoitda murabbiy sportchining xarakterini tushunib, unga o'z munosabatini moslashtirishi maqsadga muvofiqdir.

Katta yoshdagi kishilarda va o'smirlarda paydo bo'ladigan tajovuzkor harakatlar faqat tarbiyaning ta'siriga bog'liq bo'lmasdan, boshqa turli xil voqea va hodisalarning ta'siri natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, o'smirning hayotida tajovuzkorlik unga bir necha marta muvaffaqiyat keltirgan bo'lsa, bu holda tajovuzkorlik o'smirning xulq-atvoriga aylanib qoladi. Agar sportning agressiv turlarida sportchi tajovuz yo'li bilan musobaqada bir necha marta g'alaba qozongan bo'lsa va kattalar tomonidan bu g'alaba yuqori baholanib, rag'batlantirilgan bo'lsa, sportchidagi bu taassurot yoshligida ota-onasi bergan tarbiyaga nisbatan kuchliroq bo'lishi aniqlangan.

Kishilarning tajovuzkor harakatlari to'g'risida olimlarimiz tomonidan o'rganilgan ilmiy nazariyalar mavjud. Ayrim psixologlar tajovuzkorlik uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizdan bizga tabiiy (tug'ma yo'l bilan) o'tib kelayotgan hamma insonlarga xos xususiyat ekanligi, kishilar o'zidagi tajovuzkorlikni boshqarish imkoniyatiga hamma vaqt ham ega bo'lavermasligini ta'kidlashsa, boshqa bir guruh olimlar kishilardagi tajovuzkorlik faqat evolyutsiya, ya'ni tarixiy rivojlanish jarayoniga bog'liq bo'lmasdan, balki vaziyatga qarab, turli xil to'siqlarni yengish jarayonida ishlatilgan uslub bo'lib, asta-sekin insonlarning xulq-atvoriga aylanib qolgan odat deb hisoblaydilar.

Biz kurashchilarda musobaqadan oldin yoki keyin tajovuzkorona harakatlarga ko'plab yo'l qo'yilganligi, lekin musobaqadan keyin tajovuzkorlik holatining sekin pasayishini kuzatdik. «Siz hujum qilishni qanday tushunasiz?» degan savolga sportchilar quyidagicha javob berdilar: «Agar meni kimdir birinchi haqoratlasa yoki urs, men ham xuddi shunday javob qaytaraman», «Men o'zimni tuta

olmasam, birovni tarsakilab yuboraman». Shundan ma'lumki, ayrim sportchilarning musobaqadagi tajovuzkor harakatlari boshqa bir sportchida tajovuzkorlikni vujudga keltiradi. Bu esa sport musobaqasi qoidasini buzishga olib keladi. Sportchining musobaqada o'zida tajovuzkor harakatlarni his etishi turli vaziyatlarda turlicha bo'ladi. Masalan, futbolchining to'pni o'yinda zarb bilan tepgandagi holati boksining ringda qattiq zarb bilan urgandagi holatiga qaraganda qanoat hosil qilishi o'ziga xos bo'ladi. Sport faoliyatida ba'zi sportchilardagi tajovuzkor xarakterlar raqibiga, komandaga, murabbiyga va tomoshabinlarga qaratilgan bo'ladi, lekin bu sport musobaqasi qoidasi asosida bajariladi. Biz turli vaziyatlarda futbolchilardagi tajovuzkorlikni o'rganib, uning kelib chiqishi haqida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'yinda yutayotgan komandaga nisbatan, yutqazayotgan komanda o'yinchilari o'yin qoidasini ko'proq buzadilar. Bundan ma'lumki, sportchining musobaqadagi mag'lubiyati tajovuzlik harakatlarini vujudga keltiradi.

2. O'z maydonida o'ynayotgan komanda o'yinga kelgan komanda o'yinchilariga qaraganda o'yin qoidasini kam buzishadi. Mehmon komanda o'yinchilari o'z maydonida o'ynayotgan o'yinchilarni xuddi dushmandek qabul qilishadi. Ular o'z raqiblaridan tashqari, tomoshabinlarga nisbatan ham tajovuzkor tuyg'uda bo'ladilar.

3. Qaysi komandada ochkolar va darvozaga urilgan to'plar soni ko'p bo'lsa, kam ochko to'plagan va oz to'p urgan komanda o'yinchilariga nisbatan o'yin qoidasini kam buzadilar. Futbolchi raqib darvozasiga har to'p urganida unda ruhiy tanglik pasayadi va o'sha komanda o'yinchilarida ruhiy va jismoniy qayta tiklanish kuchayadi. Lekin o'yinda kam to'p kiritgan komanda o'yinchilarida ruhiy keskinlik saqlanadi yoki ruhiy keskinlikning kuchayishi tufayli o'yinchilardagi tajovuzkorlik harakatlari ortadi, ular o'yin qoidasini ko'proq darajada buzadilar.

4. O'yin jadvalidan yuqoriroq joy olgan komanda o'yinchilariga qaraganda, quyiroy joy egallagan komanda o'yinchilari o'yin qoidasini ko'p buzadilar. O'yin jadvalida oxirgi o'rinni olgan komanda o'yinchilari hatto o'yinda yutayotgan bo'lsalar ham qo'pol tajovuzkorona harakatlar qiladilar.

5. O'yin jadvalida 8- va 9-o'rinlarni egallab turgan komandalar musobaqalashganida, 9-o'rinni egallagan komanda o'yinchilari o'yin qoidasini ko'proq buzadilar. Ayniqsa, 12- va 13- o'rinni egallab turgan komandalar o'yinchilari 8- va 9-joyini egallagan komanda o'yinchilariga qaraganda o'yin qoidasini ko'p martalab buzadilar.

Yaxshi natijalarga erishgan komanda o'yinchilari chempionatda yutqazishdan yoki yuqori o'rindagi joyini yo'qotishdan cho'chib, g'ayrat bilan o'ynaydilar, lekin musobaqada tajovuzkorona harakatlarni takror va takror sodir etadilar. Shuningdek, yuqori natijalarga erishayotgan komanda o'yinchilari chempionatda yutqazishdan yoki yuqori o'rindagi joyini yo'qotishdan qo'rqishib, kuchli o'yin ko'rsatishga harakat qiladilar. Shu bois ular o'yinda tajovuzkor harakatlarga ko'p martalab yo'l qo'yadilar. Shu komandadan pastroq joyini egallagan komanda o'yinchilari jadval oxiriga tushib qolishdan qo'rqqanidan, o'yinda tajovuzkorlik va do'q-po'pisani ko'p martalab sodir etadilar.

Shundan ma'lumki, musobaqa jarayonida o'yinchilarning tajovuzkor harakatlari, do'q-po'pisa qilishlari va ayrim hollarda o'yin qoidasini buzishlari tabiiy hodisadir. Musobaqada o'yin qoidasining buzilishi asosan quyidagi to'rt xil vaziyatda vujudga kelishi aniqlandi: 1) komandaning yutishi yoki yutqazishi; 2) o'yin o'zining yoki boshqa komandalar maydonida o'ynalishi; 3) ochko va to'plar farqi, ya'ni birining ikkinchisidan yuqori bo'lishi; 4) komanda o'z raqiblariga nisbatan o'yin jadvalidan joy olganligi.

Ko'pgina sport turlarida sportchilarda uchraydigan tajovuzkorlikni boshqarish murabbiyning asosiy vazifasidir. Murabbiylar sportchilardagi jismoniy kuchni to'pga, nayzaga, raqibga yoki boshqa ob'yektga to'g'ri yo'naltirishga odatlantirishi zarur.

Adabiyotlar

1. M.Mamatov Sport psixologiyasi kursidan ma'ruza mavzulari. UzMU. Toshkent 1999 y. 28-30 b.
2. Y.Masharipov. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2010 y. 125-128 b.
3. Y.Masharipov Umumiy va sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Ilm Ziya" 2016 y. 190-195 b.

4. X.B.Tulenova. Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent 2001 y. 13-15 b.
5. M.A.Tursunov, Z.G.Gapparov. Sport psixologiyasi (laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma) Toshkent 2011 y. 20-22 b.
6. B.B.Kipchakov, O.E.Toshmurodov. Jismoniy madaniyat darslarida harakatli o'yinlarni qo'llash. SamDU ilmiy axborotnoma juranli. Samarqand 2015. № 2 (90) – 136-141 betlar.

УДК: 15

ПОНЯТИЙНЫЕ АСПЕКТЫ ФЕНОМЕНА «ТОЛЕРАНТНОСТЬ»

З.А.Абидова

Узбекский государственный институт физической культуры

Аннотация: В данной статье сделана попытка систематизации понятийных аспектов феномена толерантности. Автором проводится аналитико-структурированный анализ понятий толерантности включающие в себя онтогенез понятия толерантности, этнокультурные понятия толерантности, понятия толерантности в разных отраслях науки и энциклопедические понятия толерантности, рассматриваемые в существующих словарях.

Ключевые слова: толерантность, терпимость, интолерантность, квази-толерантность, реакция, фактор, понятие, наука, словарь.

Conceptual aspects of the phenomenon «tolerance»

Abstract. This article attempts to systematization of conceptual aspects of tolerance. The author conducted an analysis of the concepts of tolerance include ontogenesis concepts of tolerance, ethno-cultural concept of tolerance in different sectors of science and encyclopedic the concept of tolerance considered in the existing dictionaries.

Keywords: tolerance, indulgence, intolerance, quasi-tolerance, the reaction, factor, the concept, science, dictionary.

«Tolerantlik» fenomeni tushunchaviy jabhalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada tolerantlik fenomeni tushunchaviy jabhalari tizimlashtirilgan. Muallif tolerantlik tushunchasini analitik-tizimli tahlil etib, tolerantlik tushunchasining ontogenezi, tolerantlik tushunchasining etnomadaniyati, tolerantlik tushunchasini turli sohalarida qo'llanilishi va tolerantlik tushunchasini turli lug'atlardagi talqinlarining ensiklopedik ma'nolarini o'rgangan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, chidamlilik, intolerantlik, kvazi-tolerantlik, reaksiya, omil, tushuncha, ilm, lug'at.

Идея новой образовательной парадигмы, акцентирующей внимания на внутреннем мире человека, его свободе, творчестве, индивидуальности является актуальной. Проводимые реформы в Узбекистане направлены на создание необходимых условий для того, чтобы человек мог раскрыться как личность, проявить свои способности, свой талант. Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов неоднократно отмечал необходимость уделения особого внимание на гармоничное развитие молодежи [1].

Несомненным инструментом достижения этой цели является толерантность человека и общества. Изучение толерантности, как феномена, представляет собой одну из актуальных проблем понимания психосоциальных процессов. Попытка понимания роли и задачи данного феномена обязывает изучение её понятийных аспектов.

Многие авторы при изучении содержательной, структурной стороны толерантности отмечают невозможность составления интегрированного определения толерантности из-за размытости, многозначности этого понятия [2]. Для изучения феномена толерантности прежде всего следует разобраться в самом понятии, то есть в её номенологии.

Номенология понятия толерантности включает в себя онтогенез понятия толерантности, этнокультурные понятия толерантности, понятия толерантности в разных отраслях науки и энциклопедические понятия толерантности, рассматриваемые в существующих словарях.

Онтогенез понятия толерантности в историческом контексте можно условно разделить на три этапа:

1. Состояние безусловной толерантности, которая проявляется в толерантном отношении при отсутствии самого понятия толерантности. В данный период во взаимоотношениях наблюдалось принятие все и всех таким какие они есть, при этом даже не обсуждался вопрос что такое толерантность. Люди просто были толерантными.

2. Состояние глубокой интолерантности или как обычно говорят квази-толерантности. Данное состояние проявляется на фоне канонических морально-этнических норм. В состоянии интолерантного общества наблюдается возникновение зачатков потребности развития толерантных отношений.

3. Состояние осознанной толерантности проявляется в толерантном отношении на основе осознанной необходимости различий. В данном случаи различия воспринимаются как условие развития человечества, а толерантное отношение способствует его проявлению.

Анализ понятия толерантности на основе языков и содержащихся в них представлений показывает разнообразие её толкования, которое приобретаетсся благодаря национальному своеобразию и культуре, но в то же время можно заметить общий смысл, которое отражает её сущность [2].

Толерантность является словом латинского происхождения «tolerantia», которое означает терпение, терпимость к иному рода взглядам, нравам, привычкам.

В русском языке (терпимость): способность терпеть что-то или кого-то, быть выдержанным, выносливым, стойким, уметь мириться с существованием чего-либо или кого-либо, считаться с мнением других, быть снисходительным к чему-либо или к кому-либо.

В персидском языке толерантность терпение, терпимость, выносливость, готовность к примирению.

В узбекском языке (толорантлик, бағрикенглик) терпеть, терпимость, быть терпеливым.

В арабском языке (tasamul') прощение, снисходительность, мягкость, милосердие, сострадание, благосклонность, терпение, расположенность к другим.

В армянском языке терпимость, допущение, дозволение.

В китайском языке (kuan gong) позволять, принимать, допускать, проявлять великодушие в отношении других.

В испанском языке (tolerancia) способность понимать чужие мнения или идеи.

В английском языке (tolerance) готовность и способность без протеста воспринимать личность, вещь или явление.

Во французском языке (tolerance) уважение свободы другого, его образа мыслей, поведения, политических и религиозных взглядов, это отношение, при котором допускается, что другие могут думать и действовать иначе, нежели ты сам.

Как видно из проведенного анализа смысл понятия толерантности в языках сводится от не осознанной вынужденной реакции, необходимости до осознанной готовности и уважительного отношения к иному.

В настоящее время понятие “толорантность” используется практически во всех существующих отраслях науки. Её используют как в научной и популярной литературе, так и в политических дискуссиях и средствах массовой информации. Существуют разные отрасли науки: естественные, социально-гуманитарные, формальные науки, и в каждой из них термин толерантности используют при решении широкого спектра прикладных задач [3].

Анализируя значение термина «толорантность» в естественных науках можно заключить что толорантность понимается как реакция и/или устойчивость биологических и небологических систем в пределе определенных минимальных и максимальных воздействующих факторов.

В социально-гуманитарных науках толорантность – это субъект-субъектные отношения и состояния формирующее такое мировоззрение субъекта, которое позволит адекватно реагировать, соответственно действовать и осознавать инаковость каждого субъекта в микро- и макросоциуме и занятия активной позиции, что приводит к выживаемости и сосуществованию (симбиозу) субъектов в обществе.

С точки зрения формальных наук толерантность – это определение меры схождения, неразличимости и взаимозаменяемости.

Таким образом, из анализа понятия «толерантность» в различных областях науки можно кумулировать в общее определение. Толерантность – это понимание меры схождения, неразличимости и взаимозаменяемости, реакции и/или устойчивости биологических и небологических систем в пределе определенных минимальных и максимальных воздействующих факторов, формирование мировоззрения субъектов, которое позволяют адекватно реагировать, соответственно действовать и осознать инаковость каждого субъекта в микро- и макросоциуме, занятия активной позиции, позволяющая выживаемости и сосуществованию (симбиозу) субъектов в обществе.

В естественных науках понятие толерантности относится к определенному спектру факторов от минимума до максимума, в социально-гуманитарных науках этот спектр расширяется от одного и каждого индивида до совокупности всех индивидов (человек-человечество). Это очень схоже с понятием толерантности в формальных науках, где толерантность рассматривается как схождение, неразличимость, одинаковость и взаимозаменяемость. В связи с этим общность в человеческом обществе заключается в различимости каждого индивида и в необходимости различия, как неотъемлемое условие расцвета человечества.

Если проанализировать существующие словари то условно можно выделить несколько подходов к пониманию толерантности [4].

В первом варианте толерантность понимается как способность терпеть. Например в толковом словаре живого великорусского языка В.Даля, в словаре русского языка С.И.Ожегова, в этимологическом словаре русского языка под редакцией М.Фасмера, в школьном этимологическом словаре русского языка Н.М.Шанского, в толковом словаре русского языка под редакцией Д.Н.Ушакова, в толковом словаре узбекского языка под редакцией А.Мадвалиева можно увидеть, что понятие толерантности сводится к терпению, терпеливости.

Во втором варианте толерантность понимается как способность переносить. Например в «Советском энциклопедическом словаре», в историко-этимологическом словаре современного русского языка, в Большом толковом словаре русского языка под редакцией С.И.Кузнецова можно увидеть, что значение толерантности принимает оттенок способности перенести, вынести те или иные воздействующие неблагоприятные факторы или явления.

В третьем варианте понятие толерантность приобретает смысл и оттенок снисходительности, лояльности, похожее на вынужденное соблюдение общепринятых этических норм. Например в «Словаре иностранных слов и выражений», в «Большом словаре иностранных слов», в «Большом Академическом словаре» 1963 года издания, в «Национальной энциклопедии Узбекистана» 2004 года издания можно увидеть этические требования необходимости быть толерантным, что проявляется с некоторой вынужденной снисходительностью, великодушием и лояльностью.

В четвертом варианте понятие толерантность трактуется как принятие. Например в Оксфордском словаре «Толерантность – готовность и способность принимать без протеста или вмешательства личность или вещь». Как видно из определения проявляются элементы готовности к непредвзятого принятия «иного». Принятие «иного» увеличивают шансы признания происходящего.

В пятом варианте понятие толерантность рассматривается как состояние признания или готовность к признанию. Например, в американском словаре «American Heritage Dictionary», в толковом словаре русского языка С.И.Ожегова, Н.Ю.Шведова 2008 года издания можно увидеть, что толерантность трактуется как готовность благосклонно признавать, принимать поведение, убеждения и взгляды других людей, которые отличаются от собственных. При этом даже в том случае, когда эти убеждения, взгляды тобою не разделяются и не одобряются. Как видно из определений толерантность рассматривается как состояние признания или готовность к признанию «иного», что в свою очередь увеличивает шансы понимания происходящего.

В шестом варианте толерантность принимается как уважение. Во французском словаре Le Robert quotidien толерантность обозначает уважение свободы других, их вероисповеданий, мировоззрений и политических взглядов. Интолерантность – это отсутствие толерантности

(религиозной, политической и др.), неприятие свободы мнения других (синоним фанатизма). В данном варианте уже не рассматривается вопрос оценки ситуации, факт признания или готовности к признанию, а проявление отношения к «иному», само явление, т.е. уважение, любовь или другие ответственные межличностные отношения.

Выше приведенные понятия толерантности можно отразить по следующей онтогенетической схеме: 1. Вынужденное действие (терпение). 2. Способность ответной реакции (переносить, вынести). 3. Необходимость соблюдения социальных норм (снисходительность, лояльность). 4. Необходимость поведения (принятие). 5. Готовность к изменениям (признание, готовность признать). 6. Отношение к происходящему явлению (уважение, любовь, ответственность).

Анализ существующих определений толерантности и развития данного понятия привели к пониманию значения толерантности – не как вынужденное действие, не ответная реакция, не необходимость соблюдения принятых норм, не обязательность принятия «иного», и даже не готовность к изменениям, а проявление уважения и других ответственных отношений к «иному».

Таким образом, толерантность в словарях трактуется не однозначно. В некоторых словарях толерантность определяется как вынужденная позиция личности – терпеть, в некоторых как пассивная позиция личности – переносить, а в некоторых словарях толерантность понимается как снисходительность, лояльность. Если вынужденная и пассивная позиция воспринимается как «снизу-вверх», то позиция снисходительности, лояльности это «сверху-вниз». Также можно увидеть подходы к толерантности как «равный» – принятие, признание, готовность признать, уважение. Примечателен тот факт, что подход к толерантности от года в год даже в словарях одних и тех же авторов меняется от понимания как вынужденная, пассивная, необходимая позиция до осознанного проявления отношений к окружающим.

Анализируя понятийные аспекты толерантности включающее в себя онтогенез понятия толерантности, этнокультурные понятия, понятия толерантности в разных отраслях науки и энциклопедические понятия толерантности, рассматриваемые в существующих словарях можно сделать вывод что смысл понятия толерантности сводится от не осознанной вынужденной реакции, необходимости до осознанной готовности и уважительного отношения к иному. Толерантность – это понимание меры схождения, неразличимости и взаимозаменяемости, и, реакции и/или устойчивости биологических и небιологических систем в пределе определенных минимальных и максимальных воздействующих факторов, и формирование мировоззрения субъектов, которое позволяют адекватно реагировать, соответственно действовать и осознавать инаковость каждого субъекта в микро- и макросоциуме и занятия активной позиции, позволяющая выживаемости и сосуществованию (симбиозу) субъектов в обществе.

Вышеизложенные понятийные аспекты толерантности являются одним из компонентов созданной нами классификации понятий и сущности феномена толерантности, которая будет изложена в следующих работах.

Литература

1. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси”, Ташкент, 2000.
2. Толерантность в современном обществе: опыт междисциплинарных исследований // Сборник научных статей / под научн. ред. М.В.Новикова, Н.В.Нижегородцевой. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2011. – 357 с.
3. Абидова З.А. Феномен толерантности в различных отраслях науки // Вестник НУУз. – Ташкент, 2015. – №1/4. – С. 69-72.
4. Абидова З.А. Энциклопедические понятия толерантности // Журнал «Фан ва жамият». – Нукус, 2015. – №4. – С. 34-35.

UDK: 15(575.1)

SHAXSNING SHAKLLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

M.S.Zakirova, N.H.Djuxonova

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsni shakllanishi, unda shaxsga xos fazilatlarining tarkib topishida milliy qadriyatlarining o'rni yoritib berilgan. Mazkur muammo ilmiy jihatdan tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosim, milliy ruh, xalq og'zaki ijodi, tarixiy meros.

Роль национальных ценностей в формировании личности

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение национальных ценностей как факторы формирования личности. Данная проблема исследована с научной точки зрения.

Ключевые слова: ценности, традиции, национальные чувства, устное народное творчество, историческое наследие.

Role of national values in formation of personality

Abstract: In this article the role and importance of the national values are discussed as factors of formation of personality. This problem is studied from scientific view.

Keywords: valuables, traditions, national feelings, national speaking creation, historical heritage.

Mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy-ilmiy merosini o'rganish va unga munosib baho berish muhim vazifalardan biriga aylandi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi" (1. 30-31b).

Qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, marosim va bayramlarimiz yoshlarni ma'naviy kamol toptirishda muhim ahamiyatga ega. Bu milliy qadriyatlarimizda xalqimizning milliy ruhi, ma'naviy olami zuhur etadi va bu go'zal tuyg'ular bolalikdan bizning ongu shuurimizdan mustahkam o'rin oladi. O'zlikni anglash insonning kamol topishdagi muhim jarayon bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk kishigina o'zligini anglab yetadi. O'zligini anglagan inson har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchini teran anglab yetgan bo'ladi. Omillardan biri milliy qadriyatlardir. Milliy qadriyatlar, aytish mumkinki, ular orasida eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

Qadriyat muayyan bir xalq turmush turzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, turmush tarsi, tarixini namoyon etadi. Urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, bayramlar xalqimiz hayotida nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Ularning shakllanishi, taraqqiyot darajasi ham o'ziga xos tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Qadriyatdarning hayotdagi o'rni va ahamiyati baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim. Shu o'rinda biz milliy qadriyatlar tizimini shaxs shakllanishiga ta'sini o'rganish uchun ilmiy tadqiqot o'tkazdik.

Biz shaxsning shakllanishida milliy qadriyatlarining tizimli ta'sirini o'rganish maqsadida anketa savolnomasini tuzib chiqdik. Natijalarni bir yoqlama bo'lmasligi uchun respondentlarni turli yosh va guruh a'zolaridan tanlab oldik. Bizning tadqiqotimizda Rishton tumani XTMTMTTE bo'limiga qarashli 40-son umumta'lim maktabi 15 nafat bitiruvchi o'quvchilar, 18 nafar psixologiya yunalishi 3

bosqich talabalari, 15 nafar o'zbek oilalaridagi ota-onalar qatnashdilar. Anketa so'rovnomasida qadriyatlardan xalq og'zaki ijodi- bu "Xalq og'zaki ijodi" deb nomlandi, unda a) ertaklar; b) maqol va matallar; d) dostonlar; ye) laparlar va qo'shiqlar; j) teatr, qo'g'irchoq o'yini; g) topishmoq va chistonning shaxsni shakllanishidagi o'rni va ular kishida qanday sifatlarni shakllanishiga ta'sirini o'rganish maqsad etib qo'yildi.


Anketa so'rovnomasining 2- bo'limi "Tarixiy meroslar" deb nomlanib, unda a) tarixiy asarlar; b) tarixiy shaxslar; d) tarixiy obidalar; ye) muzeylar; j) milliy an'analar va odatlar; g) milliy bayramlar i) milliy hynarmandchilikning shaxsni shakllanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

O'tkazilgan anketani "Xalq og'zaki ijodi" deb nomlangan bo'limda respondentlarning natijalarini tahlil etdik.

1-jadval. Ertaklarning shaxs shakllanishiga ta'siri natijalari

№	08	09	010	011	012
I	15	6	10	8	11
II	10	9	8	10	10
III	5	9	12	12	11
IV	11	12	8	11	7
V	11	12	12	6	11
Jami	52	48	50	47	50

1-jadvaldagi natijalarni 1-rasm grafikda tasvirlaymiz.



Birinchi bo'limning punktlari bo'yich natijalar shu ko'rinishda tahlil etildi.

2. Tarixiy meroslar deb nomlangan bo'limi bo'yicha.


b) Tarixiy shaxslar. Bu yo'nalishga munosabatlar respondentlar tomonidan quyidagicha ko'rsatgichni berdi.

Inson o'zining buyuk bobolari orqali o'zini anglaydi, qanday insonlarning avlodi ekanligini tushunib yetadi va ularga o'xshashga intiladi. Quyida shu bandga bildirilgan munosabatlar natijalarini keltiramiz.

2-jadval. Tarixiy shaxslarning shaxs shakllanishiga ta'siri natijalari

№	064	065	066	067	068
I	9	11	3	7	20
II	4	7	12	13	14
III	12	9	11	14	4
IV	9	14	9	13	5
V	16	8	13	7	6
Jami	50	49	48	54	49

Agar biz 2-jadvalni 2-grafik ta'svirlamoqchi bo'lsak quyidagicha bo'ladi.



Ikkinchi bo‘limning punktlari bo‘yicha natijalar shu ko‘rinishda tahlil etildi.

3- jadval. Anketa so‘rovnomasi bo‘yicha respondentlarning javoblarini umumiy ko‘rsatkichi

“Xalq og‘zaki ijodi” deb nomlangan bo‘limi bo‘yicha					
Asotir, mif, afsonaning shaxs shakllanishiga ta’siri bo‘yicha	01	02	03	04	05
	50	50	50	50	44
Ertaklarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	08	09	010	011	012
	52	48	50	47	50
Maqol va matallarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	015	016	017	018	019
	49	44	40	47	46
Dostonlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	022	023	024	025	026
	58	50	50	51	53
She’riyat va nazmlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	029	030	031	032	033
	50	53	48	50	50
Lapar va qo‘shiqslarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	036	037	038	039	040
	48	50	46	50	52
Topishmoq chistonlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	043	044	045	046	047
	43	50	50	50	50
Teatr va qo‘goirchoq o‘yinlarining shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	050	051	052	053	054
	49	49	50	52	43
Tarixiy meroslar deb nomlangan bo‘limi bo‘yicha					
Tarixiy asarlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	057	058	059	060	061
	50	49	51	51	52
Tarixiy shaxslarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	064	065	066	067	068
	50	49	48	54	49
Tarixiy obidalarining shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	071	072	073	074	075
	51	44	50	50	49
Muzeylarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	078	079	080	081	082
	45	50	49	49	51
Milliy urf-odatlarining shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	085	086	087	088	089
	48	51	50	50	49
Milliy bayramlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	092	093	094	095	096
	49	50	51	50	50
Milliy hunarmandchilikning shaxs shakllanishiga ta’siri bo‘yicha	099	0100	0101	0102	0103
	50	51	51	49	49

Ushbu natijalarni ishonchlilik darajasini matematik tahlil qildik va quyidagi formalardan foydalandik.

$$r = \frac{E_{xy} - \frac{(E_x)(E_y)}{n}}{\sqrt{C_1 \cdot C_2}} \quad C_1 = E_x^2 - \frac{(E_x)^2}{n} \quad C_2 = E_y^2 - \frac{(E_y)^2}{n}$$

$$C_1 = E_x^2 - \frac{(E_x)^2}{n} = 570 - \frac{(50)^2}{5} = 570 - 500 = 70 \quad C_2 = E_y^2 - \frac{(E_y)^2}{n} = 568 - \frac{(50)^2}{5} = 568 - 500 = 68$$

$$r = \frac{E_{xy} - \frac{(E_x)(E_y)}{n}}{\sqrt{C_1 \cdot C_2}} = \frac{568 - \frac{50 \cdot 50}{5}}{\sqrt{70 \cdot 68}} = \frac{568 - 500}{\sqrt{4760}} = \frac{68}{68,9} = 0,9$$

Ushbu tarzda barsha bo'limlar bo'yicha ishonchlilik darajasi aniqlaydi.

“Xalq og‘zaki ijodi” deb nomlangan bo‘limi bo‘yicha	II	III	IV	V
Asotir, mif, afsonaning shaxs shakllanishiga ta’siri bo‘yicha	0,8	0,9	0,9	0,8
Ertaklarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,8	0,9	0,8	0,8
Maqol va matallarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,9	0,9
Dostonlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,8	0,9	0,9	0,9
She’riyat va nazmlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,6	0,7	0,8	0,8
Lapar va qo‘shiqlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,9	0,7
Topishmoq chistonlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,8	0,9
Teatr va qo‘goirchoq o‘yinlarining shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,7	0,8
Tarixiy meroslar deb nomlangan bo‘limi bo‘yicha	II	III	IV	V
Tarixiy asarlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,8	0,9	0,9	0,8
Tarixiy shaxslarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,8	0,8	0,8	0,9
Tarixiy obidalarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,9	0,9
Muzeylarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,8	0,8	0,8	0,9
Milliy urf-odatlarining shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,9	0,9	0,9	0,9
Milliy bayramlarning shaxs shakllanishiga ta’siri natijalari bo‘yicha	0,7	0,7	0,8	0,8
Milliy hunarmandchilikning shaxs shakllanishiga ta’siri bo‘yicha	0,9	0,8	0,6	0,8

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulisaga keldik:

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, shaxsda shaxsga xos ijobiy fazilatlarni shakllanishda qadriyatlar muhim vositalarda biri ekan. Ta’lim-tarbiya jarayonida qadriyatlar tizimidan foydalanish bolalarga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Insonga xos ijobiy va salbiy fazilatlarni ajratishga va o‘zlarini qanday tutishga o‘rganadilar. Avlodlar avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlar tizimi shaxsning tevarak-dunyo va shaxslararo munosabatlar bilan tanishtirishning eng qiziqarli, unga zavq-shavq bag‘ishlovchi va bolaning xulqiga irodaviy zo‘riqishlarsiz, engillik bilan ta’sir ko‘rsatuvchi vositadir. Shu tariqa bolalar hayot va shaxslararo munosabat bilan tanishadilar. Hozirjavoblik va topqirlikka o‘rganadilar. Kishi shaxsga xos fazilatlarning mohiyatini sekin- asta yoshi ortishi birlan tushunib boradilar. Shu jarayonda bola “yaxshi” va “yomon” tushunchalarining mohiyatini tushunib uni taqqoslay boshlaydi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kafshiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo‘lgan — insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘z xalqining ko‘p asrlilik boy tarixi, ajoyib ma’naviy merosi bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg‘usi, o‘tmishni qumsash emas, balki qadimiy tarixni, xalq yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarni kengroq o‘rganish va ochib berish, ularni yangi avlodlar tomonidan ajdodlar merosi sifatida o‘zlashtirishni ta’minlashdan iboratdir. Xalq og‘zaki ijodi yoshlarga milliy tarbiya berish va boshqa xalq vakillariga hurmatni tarkib toptirish vositasidir.

Bu natijalarga tayangan holda ushbu tavsiyalarni havola etamiz:

1. Shaxsning shakllanishida nafaqat o‘zbek xalq qadriyatlari balki turli millatlarning qadriyatlaridan foydalanib borish bolaning dunyoqarashini, bilim darajasini oshirish, dunyoni anglashga yordam berishini hisobga olib ta’lim-tarbiya tarbiya jarayonida undan tizimli foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Shaxsning shakllanishida milliy qadriyatlarga hurmat, milliy o‘zlikni anglash va boshqa millat vakillariga hurmatni tarkib toptirishda muhim o‘rin egallashini yodda tutish kerak.

3. Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tamadduni taraqqiyot bosqichlari tajribalarini o'zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg'ularga yo'g'rilgan va komillik sari da'vat etuvchi ma'naviy-ruhiy tushunchalar darajasiga ko'tarilishini anglagan holda shaxs shakllanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlardan uyg'un holda foydalanish samaralidir.

4. Shaxs shakllanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlaridan foydalanish bilan birga ular haqida tushunchalar berib borish ham maqsadga muvofiqdir.

5. Qadriyatlarning bola shaxsini shakllanishidagi o'rni muhimligini hisobga olib, bolaning ta'lim- tarbiyasida yoshiga mos ravishda uning turlaridan reja asosida, muntazam foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

6. Qadriyatlaridan eng qiziqarli, unga zavq-shavq bag'ishlovchi va bolaning xulqiga irodaviy zo'riqlarsiz, engillik bilan ta'sir ko'rsatuvchi vosita ekanligiga e'tiborni qarating.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “O'zbekiston”, 2008. – 182b
2. Jabborov I.M. “O'zbek xalq etnografiyasi” T., 1990. 142b.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. T., 1997. 250 b

UDK:159.923

SHAXS GENEZISI MUAMMOSI

O'.Shamsiyev, K.Murodov

O'zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy oila munosabatlari, oilada onaning roli, oilaning psixologik muhiti va bu jarayonlarga obyektiv baho beriladi.

Kalit so'zlar: ona, oila, zamonaviy oilaviy munosabatlar, oilaviy psixologik muhit, kelajak avlod.

Проблема генезиса личности

Резюме. В данной статье изучены взаимоотношения современных семей, роль матери в семье, семейный психологический климат и даётся объективные оценки этим процессам.

Ключевые слова: мать, семья, современные семейные отношения, семейный психологический климат, подрастающее поколение.

The problem of personality genesis

Abstract. In this article modern family relationships, role of mother in the family, family and psychological climate and provides objective evaluation of these processes are studied.

Keywords: mother, family, modern family relationships, psychological climate, younger generation.

Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida rivojlanish jarayoni va uning oilaviy munosabatlar bilan aloqalarini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, mazkur yoshdagi inson o'zini-o'zi anglash jarayoni juda faol bo'lib, unda “Men” konsepsiyasining shakllanishi muhim bosqich hisoblanadi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, M.I.Lisina, V.S.Muxina va b.). Biroq, o'zini-o'zi anglash, “Men” konsepsiyasi, “Men” obrazi tizimi kabi atama va tushunchalar o'rtasidagi farqlar bizni aynan nimani tadqiq etayotganligimizni tushunish uchun, umuman, o'zini-o'zi anglash muammosiga murojaat etishga majbur qiladi. Bizni qiziqtirayotgan o'zini-o'zi anglash genezisi muammolarini chuqur ko'rib chiqishga yaqinroq (yaqindan) yondashish uchun oxirgi paytlarda tobora ommalashib borayotgan fanlararo (transdissiplinar) yondashuvni qo'llash hamda kelgusi nazariy va eksperimental tadqiqotlarimiz uchun negiz sifatida xizmat qiluvchi asosiy tushuncha va farazlarning tizimli tahlilini qilishga to'g'ri keladi.

O'zini-o'zi anglash masalasi dolzarb bo'lib, insonning borliqqa nisbatan munosabati, ongi, o'zini anglashining ijtimoiy, falsafiy asoslari psixologiyadan tashqari sotsiologiya, falsafa fanlarida ham o'rganiladi. Biz maqola maqsadlaridan kelib chiqqan holda uning ijtimoiy borliqqa aloqador xususiyatlari o'rganilgan ayrim tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Psixologiya nuqtai nazaridan – ong insongagina xos bo'lgan ruhiy aks ettirishning oliy darajasi. U faolligi, intiluvchanligi, refleksivligi,

motivatsion-qimmatli xususiyati va aniqlik darajasi bilan tavsiflanadi, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyat ongning tarkibini shakllantiruvchi interiorizatsiya jarayoni tufayli ontogenezning dastlabki bosqichlarida shakllanuvchi, beto'xtov o'zgarib turuvchi sensor axborot oqimiga (I.Kantga borib taqaluvchi g'oya) quyiluvchi barqaror va invariant sxema yoki tuzilmalarni tashkil qiladi. SHu tariqa uning ichki nutqi, predmetlilik va belgili tuzilmalar vositasida ifodalanuvchi ijtimoiy xususiyati kabi asosiy xislatlari bilan belgilanadi (A.V.Petrovskiy, M.G.YAroshevskiy).

B.G.Anan'ev insonning shaxs sifatida tizimli rivojlanishini to'rt xil – individ, individual, sub'ekt va ob'ekt tavsifnomalariga taqsimlagan. Bunda insonning shaxs sifatida shakllanishi, individualizatsiya, sub'ektivatsiya va ob'ektivatsiyadan iborat, ularning mahsuli va shartlari esa shaxsdagi temperament, xarakter, motivatsiya va qobiliyatlarda namoyon bo'ladi. Bu tuzilmalarning yaxlit mavjud bo'lishi shaxs shakllanishi jarayonining xususiyatlarini, ulardan birontasining ustunlik qilishi esa – uni yo'nalganlik xususiyatlarini belgilab beradi. Ta'kidlab o'tamizki, ong o'zini anglash jabhalari tizimida insonning shaxs sifatida rivojlanish jarayonini tushunish uchun ba'zida o'zini-o'zi anglashni ifodalovchi internallik va ongni ifodalovchi eksternallikdan foydalanish mumkin, bunda ularning birinchisi tashqaridan ichkariga, ya'ni tashqi ijtimoiy muhitdan ichki ruhiyatga yo'nalgan bo'lsa, ikkinchisi tashqariga yo'nalgandir. Internallik insonning ko'ngilli ravishda o'zi va jamiyat oldiga qo'yuvchi mas'uliyatini, eksternallik esa uning ijtimoiylashuv, ijtimoiy borliqqa qo'shilish jarayonlarini aks ettiradi. Bunda internal o'zini-o'zi anglash his-tuyg'ular bilan birgalikda tashqi madaniyat ta'siri ostida shakllanadi, eksternal ong faolligi esa nutq va ehtiyoj shakllarida namoyon bo'luvchi ekstravertlikda ifodalanadi.

Shunday qilib, insonning o'zini-o'zi anglashi, o'zini bilib olishi murakkab muammolardan biri bo'lib, ilk bora Suqrot tomonidan faqat shaxs ichki dunyosini bilish tamoyili nuqtai nazaridan o'rganilgan edi. Shaxsning ongli hayotida o'zini-o'zi anglashining ahamiyati shundaki, ushbu fenomen odamni amaliy faoliyatga kirishishdan oldin "o'zingni boshqarishni o'rganish uchun o'zingni bilib olishing lozim" degan tamoyil asosida yashashga o'rgatadi. R.Dekart ong tushunchasini tashqi dunyoni emas, faqat o'zinigina aks ettirishga qodir dunyo sifatida ta'riflab, o'zini bilib olish, ya'ni o'zini anglash tushunchasini kiritdi. O'zini-o'zi anglash o'sha paytda atrof-muhitdan ajralib, o'zini izolyasiyalagan holda o'zini-o'zi kuzatish (introspeksiya)ga teng hisoblangan. Keyinroq V.Vundt o'zini anglashni his-tuyg'u elementlaridan tarkib topuvchi va ong mazmunidan ajralib turuvchi ongning bir holati sifatida belgilagan.

Yuqorida nomi qayd etib o'tilgan mualliflardan tashqari, o'zini anglash muammolari falsafa va psixologiyaning turli yo'nalishlari vakillarining asarlarida ham o'z aksini topgan, jumladan, Gegel, L.Feyerbax, U.Djems, K.Rodjers, E.Erikson, R.Berns, M.L.Raust fon Vrixt, K.Xorni, M.Kun, T.Makpartlend, E.Diksteyn, D.M.Bolduin, CH.X.Kuli, D.G.Mid, P.Jane, I.S.Kon, L.N.Leontev, S.R.Rubinshteyn, B.V.Zeygarnik, V.V.Stolin, A.A.Bodalev, A.B.Orlov, I.I.Chesnokova, V.A.Petrovskiy va boshqalarning ilmiy izlanishlarini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, Sharq mumtoz adabiyotida ham o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi tarbiyalash bilan komillik darajasiga erishish masalasiga jiddiy e'tibor berilgan. Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino: "O'zimni qanchalik izlasam ham, hech topa olmadim", – deb yozadi.

O'rta asrlarda yashagan faylasuf, ilohiyotshunos olim Abu Homid G'azzoliy "Kimiyoi saodat" (Ruh haqiqati) asarining bir necha boblarini o'zini anglashning inson uchun ahamiyati haqida yozadi: "Hech narsa o'zingga o'zingdan yaqinroq ermas. O'zingni tanimasang, o'zgani nechuk tanig'aysan?" Olim o'zini tanish, anglash bilan, o'z kamchiliklarini (nafsini) yo'qotish komillik yo'lidagi dastlabki bosqich deb biladi.

Sharq va G'arb dunyosi tanigan faylasuf, shoir Jaloliddin Rumiyning ta'kidlashicha, "Zamonamiz olimlari (hamma narsani biladilar) o'zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo'lgan borliq, bu – ularning menligi", – deb yozishida chuqur ma'no mavjuddir.

G'azal mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida ramziy ma'nolarda – hamma narsa insonning o'zida yashiringanligini, o'zligini izlagan kishi uni topishi mumkinligi ta'kidlanadi.

O'zini-o'zi anglash muammosi Umar Xayyom, Jaloliddin Rumi, A.G'ijduvoni, A.YAssaviy va boshqalarning asarlaridagi bosh g'oyani tashkil etsa, A.Qahhor, Oybek, E.Vohidov va boshqa zamonaviy adiblarning ijodlarida ham o'zlikni anglash motivlarining ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Ularning har biri o'z asarlarida insonning o'z mohiyatiga kirib borish jarayonlari mexanizmini

o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Bu ilmiy ishlar va asarlardagi tushunchalarni jamlab umumlashtirgan holda, biz o'zini-o'zi anglash tushunchasini ta'riflash va tavsiflashga harakat qilib ko'ramiz.

Suunday qilib, o'zini anglash individning o'zini tashqi dunyodan ajratishi, unga nisbatan o'z munosabatini anglashi, shaxs sifatida o'zini, o'z xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari, istaklarini anglash va baholash jarayonidir. SHak-shubhasiz, o'zini-o'zi anglash ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning yordamida inson, avvalo, o'zligini anglaydi, uning ongida "Men" obrazi hamda "Men" konsepsiyasi, o'zi haqidagi ijtimoiy tasavvurlari kompleksi shakllanadi. Jarayon va mahsulning bu tarzda farqlanishi U.Djems tomonidan kiritilgan bo'lib, u bilib oluvchi "sof Men" va bilib olinadigan "empirik Men"ni ajratib ko'rsatgan. Bunda albatta, ong emas inson, ong va o'zini anglash egasi bo'lgan obraz, tushuncha va tasavvur kabi ichki vositalar tizimi, jumladan, shaxsiy xislatlar, qobiliyatlar va motivlar haqidagi tasavvurlar tahlil etilgan.

Bizning o'zligimiz va o'zimiz haqidagi tasavvurlarimiz shakllanib, rivojlanib va o'zgarib borishiga sabab bo'luvchi o'zini anglashning bevosita psixologik jarayonlari va mexanizmlari qanday? Bizning fikrimizcha, "Men" modellarining eng ishonchlisi M.Rozenberg tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu model "Men" tarkibiy qismlari, ularning strukturasi, o'lchamlari, diqqatga sazovor jihatlari, o'zlik sohasi, reja va darajalari, shuningdek, motiv va his-tuyg'u impulslari kabi bir qator jihatlar tavsifini qamrab oladi. "Refleksiv Men" tarkibiy qismlarini tahlil birliklari yoki elementlari tashkil qiladi. O'lchamlar ayrim tarkibiy qismlarni tavsiflaydi hamda barqarorlik, dadillik, o'zini-o'zi hurmat qilishni ta'minlaydi; o'ziga nisbatan diqqat-e'tibor o'zlikning ong tarkibidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi. O'zlik sohasida uning soha va xususiyatlari nazarda tutiladi; o'zlik rejalari ob'ektivlanganlik darajasini belgilab beradi, motivlar insonni o'zi haqidagi tasavvurlari manfaatlarida harakat qilishga undaydi hamda o'zini hurmat qilish va "Men" obrazidagi doimiyligiga intilishni qamrab oladi.

O'zlikning kognitiv sxemasida aks ettirilgan "Men" nazariyasi yoki o'zgalar baho va g'oyalarining bog'liqligi, o'zi haqidagi tasavvuri atrofdagilar fikriga qarab o'zgaradi (Ch.Kuli), ijtimoiy taqqoslash, bunda individ o'z "Men"ini o'tmishdagi yoki kelajakdagi "Men" bilan, o'z da'volarini esa yutuqlar bilan taqqoslaydi (U.Djems), o'zini-o'zi kuzatish (samoatributsiya), bunda ichki xususiyatlar haqida individ tomonidan ob'ektiv, ya'ni xulq-atvor ko'rsatkichlari bo'yicha xulosa chiqariladi; (B.F.Skinner, D.Bem) yuqoridagi o'zaro bog'liq va ko'pincha bir-biriga o'tib ketuvchi barcha jarayonlarning ma'naviy bog'liqligi (M.Rozenberg) ta'minlanadi.

Refleksiv "Men", individ va muhit o'rtasida axborot almashinishi vositasida ifodalanuvchi bilib olish sxemasi o'tkazilgan qator tadqiqotlar natijalarida ayon bo'ldi. Bu jarayonda o'zini anglashning, ya'ni sub'ekt ongida uning xislatlari va xususiyatlari aks etishining roli qanday? Aslida, bizningcha, bu muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'zini anglash o'zini bilib olishning moslik darajasiga mansub emas, o'zini-o'zi anglagan (refleksiv) va o'zini-o'zi anglaydigan "Men" esa hech qachon bir-biriga to'liq mos kelmaydi. Axborotni qayta ishlash va ongda saqlash nafaqat uni kodlash va xotirada saqlashni, balki axborotni tanlash va saralash qoidalari bilan ifodalanuvchi ma'lum bir nazorat tizimini ham nazarda tutadi. Bu esa biologik va ijtimoiy maqsadga muvofiqlik tamoyillariga asosan, ushbu axborotni anglab olish o'zlikning saqlanishiga qanchalik xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Bola o'zini-o'zi anglashi jarayonining ijtimoiy psixologik mohiyatini anglashga bag'ishlangan tadqiqotlar va nazariy yondashuvlardan olingan xulosalarga asoslanib, biz quyidagi fikrlarni umumlashtirishga muvaffaq bo'ldik:

– o'zini-o'zi anglashi, o'zini bilib olish jarayoni shaxs ontogenetik taraqqiyoti davri davomida va ayniqsa, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda sezilarli tarzda jadal rivojlanadi;

– o'zini-o'zi anglash "Men" obrazining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning aynan kognitiv elementi hisoblanadi, lekin uning shakllanishi affektiv va baholash elementlari bilan bir maromda, uyg'un rivojlanadi.

Adabiyotlar

1. Shamsiyev O'.B. "Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini-o'zi anglash jarayoni" //O'quv-uslubiy qo'llanma "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2012 yil, 52-bet.
2. Shamsiyev O'.B., Shamsieva M.B. "Oilaviy xolding va shaxs genezisi" //O'quv-uslubiy qo'llanma "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" nashriyoti, 2016 yil, 56-bet.

UDK: 338.467

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA
ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI****B. Safarov, M. Buzrukova**
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh etish jarayonida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishida xorijiy tajribani qo'llash yo'llarining nazariy va uslubiy asoslari, milliy xususiyatlari, xorijiy rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va innovatsion faollikni ta'minlashning an'anaviy va noan'anaviy usullari tatqiq etildi. Shuningdek, maqolada kadrlar tayyorlashning milliy modeli asosida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishida xorijiy tajribani qo'llash yo'llarining tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari hamda ta'lim sifatini nazorat qilishning xorijiy tajribalari o'rganilib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda xorijiy tajribalar qo'llashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari: Ta'lim sifati, ta'lim, ta'lim muassasasi, ilmiy-texnik taraqqiyot, standart.

**Analyze of leading foreign experience in raising the quality of education during
globalization**

Annotation. In this work issues of development and implementation of innovations in the education system and also factors affecting the quality of education are considered. Specific features of the innovations that can be favorable for innovation in Higher educational Institutions and issues of raising the quality of education according international standarts are analized.

Keywords: quality of education, educational institution, innovation management mechanism, market of educational services, introduction of innovations, innovation policy of the state.

**Анализ ведущих зарубежных опытов в повышении качества образования в период
глобализации**

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы разработки и внедрения нововведений в системе образования. А также факторы влияющие на качество образования. Специфические особенности нововведений, которые могут быть благоприятны для инновационной деятельности в ВУЗах, а также проанализированы вопросы повышения качества образования согласно международных стандартов.

Ключевые слова: механизм управления инновациями, привлечения инновационных подходов, рынок образовательных услуг, внедрения нововведений, инновационная политика государства.

Ta'lim sifatining asosiy mazmuni XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'ylab «Sifat inqilobi» yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e'tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilar majmui bo'lib, ularga qo'yilgan talablar va o'z vazifalariga to'liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste'molchilarning talablari bilan aniqlanadi.

Sifatga e'tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

- XX asrning 60-yillari - bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil - mahsulot sifati;
- XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan ishlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o'tish bosqichi;
- XX asrning 80-yillari- sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o'tish davri;
- XX asrning 90-yillaridan boshlab ta'lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati

- asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

Ta'lim sifati – ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligining shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv-tarbiyaviy faoliyatining turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, material texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Ta'lim sifati – inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Bilim sifati – o'quv jarayonini tugatgandan so'ng olingan bilimlarning fundamentalligi, yuqoriligi va ish jarayonida qanchalik kerakliligi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sifati o'ta muhim, muammoli va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, boshqa barcha ijtimoiy masalalar, siyosiy muammolar va iqtisodiy ko'rsatkichlar aynan ta'lim sifati darajasiga bog'liq holda rivojlanadi. Qolaversa, ta'lim sifati davlat va jamiyat taqdirini, butun insoniyat taqdirini belgilab beradi. Shu sababli ham ta'lim sifatini - hayot sifati deb izohlash xato bo'lmaydi.

«Ta'lim sifati» atamasi quyidagi omillarga bog'liq holda turlicha ahamiyat kasb etadi:

- oliy ta'lim ishtirokchilarining manfaatlari;
 - kirish ma'lumotlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma'lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o'zaro nisbati;
 - baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi;
 - oliy ta'limning tarixiy rivojlanish davri.
- Shuningdek, ta'lim sifati atamasi quyidagi turli darajadagi aniqlanishlarga ham ega:
- ❖ sifat – eng yuqori ko'rsatkich sifatida;
 - ❖ sifat – maqsadga to'liq erishilgan faoliyat shaklida;
 - ❖ sifat–yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida. Yuqorida keltirilgan «ta'lim sifati» to'g'risidagi aniqlanishlar ta'lim sohasidagi islohotlarning tarixiy davriga bog'liq holda o'z afzalliklari va kamchiliklariga egadir. Ta'lim sifati absolyut va nisbiy tushuncha sifatida qaralishi ham mumkin.

Ta'lim sifatining absolyut tushunchasida ta'lim muassasasining statusi, mavqeyi va ustunligini aks etishi nazarda tutiladi. Bunday ideal tushuncha ta'lim muassasasi imidjining rivojlanishi va mustahkamlanishiga sharoit yaratadi va ta'lim sifati ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori darajadagi ta'lim standartiga intilishini ifodalaydi.

Ta'lim sifati nisbiy tushuncha sifatida ham qaralishi mumkin:

- ta'lim standartiga mosligi;
- ta'lim xizmati iste'molchilarining rasmiy talablariga mos kelishi.

Birinchi tushuncha ishlab chiqaruvchi (ta'lim muassasasi) nuqtayi nazaridan sifatni belgilasa, ikkinchisi esa iste'molchi, ya'ni ishlab chiqarish korxonalari tomonidan sifatni baholaydi. Lekin, ko'pincha ta'lim xizmati sohasi va iste'molchilarning manfaatlari va sifat tushunchasi yuzasidan qarashlari bir-biriga to'liq mos kelmaydi. Shu sababli ta'lim muassasalarida ta'lim sifati muammosiga ikki xil nuqtayi nazardan qarashlari talab etiladi:

➤ ta'lim muassasasi nuqtayi nazaridan. Bunda marketing tadqiqotlar yo'nalishi – ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartiga mosligi bilan belgilanadi.

➤ ta'lim xizmati iste'molchilari nuqtayi nazaridan. Marketing tadqiqotlar yo'nalishi - ta'lim xizmati iste'molchilari talablarini qondirilish darajasi orqali baholanadi.

Ta'lim sifatiga baho berishda ta'lim samaradorligi tushunchasini ham e'tiborga olish talab etiladi. Ta'lim sifati va samaradorligi tushunchalarini aniqlovchi mezonlar bir-biridan qanday farq qiladi degan savol paydo bo'ladi.

Sifat – bu olingan natijaning maqsadga nisbati (yoki teskarisi), samaradorlik esa olingan natijaning xarajatlarga nisbati bilan baholanadi.

Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal xarajatlar hisobida yuqori ta'lim

sifatiga erishish talab etiladi.

Ta'lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan ta'lim jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy holatini shakllantiradi.

Ta'lim mazmuni va uning yo'nalishlari ta'lim standartlari va dasturlarida o'z aksini topadi. Ta'lim sifatini baholashda quyidagi ketma-ketlikni tashkil etuvchilar hisobga olinishi talab etiladi:

- bilim sohibi, tarqatuvchisi;
- bilim uzatuvchilari;
- bilimni uzatish texnologiyasi;
- bilim oluvchi;
- bilimni mustahkamlash darajasi;
- olingan bilimlarning zarurligi, kerakligi;
- yangi bilimlar olish zarurligi va imkoniyati.

Ta'lim sifati birinchi navbatda bilim sohiblari, tarqatuvchilarining sifati, saviyasi va malakasi bilan belgilanadi. Bilim sohiblari deganda muayyan oliy o'quv yurtining professor o'qituvchilar tarkibi va ularning ilmiy salohiyati tushuniladi.

Ular turli xil pedagogik texnologiyalar va uslublar yordamida bilim oluvchilarga bilim berishadi. Shu sababli bilimni uzatish texnologiyasining zamonaviyligi, u yordamida ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish darajasi, olingan bilimlarning mustahkamligi, asoslanganligi ham muhim rol o'ynaydi. Bitiruvchi ishlab chiqarishga ishga joylashgach olingan bilimlarning nechog'lik zarurligi yoki kerakligini bilishi ham talab etiladi. Bu o'z navbatida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot yangidan yangi mehnat vositalari va qurollarini yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy texnologiyalar va texnik vositalarni ishlab chiqarishni joriy etish, jahon bozoriga mos raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida, bitiruvchi o'zining ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyatida yangi innovatsion texnologiya va texnikalarni ham uzluksiz o'rganib borishi talab etiladi, ya'ni bilimlar olish zaruriyati yuzaga keladi. Natijada talabaga bilim berish bilan bir qatorda uning mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish ham zarur hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim sifatini aniqlashda sifat ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- professor-o'qituvchilar tarkibiy sifati;
- o'quv yurtining material-texnik bazasi;
- o'qituvchilar tarkibining asoslanganligi;
- o'quv dasturlarining sifati;
- talabalar sifati;
- infratuzilma sifati;
- bilim sifati;
- rahbariyatning innovatsiya faolligi;

Sifat standartlari to'plamining asosini ISO 9000 "Sifatni boshqarish va ta'minlash standartlari, tanlash va amalda qo'llash bo'yicha rahbariy qoidalar" hujjati tashkil etadi. Ushbu me'yoriy hujjatda tashkilot va korxonalarning sifatini ta'minlash sohasidagi siyosatning asosiy prinsiplari va sifatni boshqarishning 3 ta modeli ko'rsatilgan hamda sifatga oid turli xil tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, to'liq yoritilgan.

ISO 9000 standartlar to'plamida keltirilgan sifatni boshqarish modellari quyidagilardan iborat:

Birinchi model – standart ISO 9001 "Sifat tizimi. Ishlab chiqish (loyihalash, ishlab chiqarish, o'rnatish va xizmat ko'rsatish) bosqichida sifatni ta'minlash modeli" Ushbu model mahsulot ishlab chiqarish hayotiy siklining barcha bosqichlarini, ya'ni *loyihalash - ishlab chiqarish - o'rnatish - xizmat ko'rsatish*ni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich - standart ISO 9002 "Sifat tizimi. Ishlab chiqarish va o'rnatish bosqichida sifatni ta'minlash modeli".

Uchinchi bosqich - standart ISO 9003 "Sifat tizimi. Tayyor mahsulotni nazorat qilish va sinash bosqichida sifatni ta'minlash modeli".

Standartga iqtisodiy jarayonlar uchun yangi atama "Tasdiq darajasi" tushunchasi kiritilgan. Bu iste'molchi (buyurtmachi)ga mahsulotni tayyorlovchi tashkilot (korxona) tomonidan ishlab chiqilgan

mahsulot va uni boshqarish sifati o'zaro tasdiqlangan shartnomadagi texnik talablarga qanchalik mos kelishini belgilaydi.

ISO 9004 "Sifat tizimi. Sifatni boshqarish tizimi elementlari. Rahbariy qoidalar"da korxonalarda sifatni boshqarishga oid 20 element va uni qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Rahbar o'z korxonasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu standart tavsiyalari asosida sifatni boshqarish elementlarini tanlab olishi mumkin.

Ta'lim sifati bo'yicha Yevropa standarti. Boloniya Deklaratsiyasi. Boloniya jarayoni – oliy ta'limda yagona Yevropa tizimini vujudga keltirish maqsadida Yevropa davlatlari ta'lim tizimini bir-biriga yaqinlashtiruvchi va moslashishtiruvchi jarayondir. Bolon jarayonining rasmiy boshlanish vaqti 1999-yil 19-iyunda Yevropaning 29 davlati tomonidan Boloniya deklaratsiyasining qabul qilinishi hisoblanadi. Bolon jarayonining boshlanish tarixi 1970-yillarda Yevropa Ittifoqi vazirlar Kengashining ta'lim sohasidagi birinchi rezolutsiyasining qabul qilinishi bilan belgilanadi. 1998-yilda Yevropaning 4 ta davlati (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya) ta'lim vazirlari Parij universitetining 800 yilligini nishonlash vaqtida, oliy ta'limdagi turli tizimlar Yevropada fan va ta'limni rivojlanishiga to'siq bo'layotganligi to'g'risida bir fikrga kelishdi va Sorbon deklaratsiyasini imzolashdi. Deklaratsiyaning maqsadi Yevropada oliy ta'lim tizimini standartlashtirish maqsadida umumiy qoidalar ishlab chiqishdan iborat edi.

Sorbon deklaratsiyasi maqsadi 1999-yilda Bolon deklaratsiyasini imzolinishi bilan o'z tasdig'ini topdi va Yevropaning 29 davlati o'z xohishi bilan, ixtiyoriy ravishda ushbu deklaratsiyani imzoladilar.

Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqiga a'zo 49 davlatdan quyidagi 47 tasi (Monako va San-Marinodan tashqari) va Yevropa Komissiyasi ushbu jarayon ishtirokchisi hisoblanadi: Avstriya (1999), Ozarbayjon (2005), Albaniya (2003), Andorra (2003), Armaniston (2005), Belgiya (1999), Bolgariya (1999), Bosniya va Gersegoviniya (2003), Vatikan (2003), Buyuk Britaniya (1999), Vengriya (1999), Gretsiya (1999), Gruziya (2005), Irlandiya (1999), Islandiya (1999), Ispaniya (1999), Italiya (1999), Qozoqiston (2010), Kipr (2001), Latviya (1999), Litva (1999), Lixtenshteyn (1999), Lyuksemburg (1999), Makedoniya (2003), Malta (1999), Moldaviya (2005), Niderlandiya (1999), Norvegiya (1999), Polsha (1999), Portugaliya (1999), Rossiya (2003), Ruminiya (1999), Serbiya (2003), Slovakiya (1999), Sloveniya (1999), Turkiya (2001), Ukraina (2005), Finlyandiya (1999), Fransiya (1999), Xorvatiya (2001), Chernogoriya (2007), Chexiya (1999), Shveysariya (1999), Shvetsiya (1999), Estoniya (1999).

Boloniya jarayonining asosiy maqsadi:

➤ Yevropada yagona oliy ta'lim tizimini vujudga keltirish, jahonda Yevropa oliy ta'lim tizimini faollashtirish;

➤ Yevropaning barcha oliy ta'lim muassasalariga kirishga keng yo'l ochish;

➤ Yevropa oliy ta'lim tizimining sifati va mavqeyini yanada oshirish;

➤ o'qituvchilar va talabalar mobilligini rivojlantirish;

➤ Bolon deklaratsiyasiga a'zo davlatlar oliy ta'lim tizimida barcha akademik darajalar va boshqa ixtisosliklarni mehnat bozori talablari asosida bir xil shakllantirish hisobiga bitiruvchilarni muvaffaqiyatli ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish. Deklaratsiya quyidagi 7 ta asosiy tamoyillarni o'z ichiga olgan:

1. Bir xil akademik daraja va diplom ilovasini berish orqali Yevropa fuqarolarini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish, Yevropa oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash.

2. Oliy ta'limda ikki pog'onali (siklli) o'qitishni yo'lga qo'yish: tayanch (dastlabki) oliy ta'lim (undergraduate) va bitiruvchi (graduate). Birinchi sikl kamida 3 yil davom etishi ko'zda tutilgan va bakalavr darajasini beradi. Ikkinchi sikl magistr darajasini olish bilan yakunlanadi.

3. Talabalarning katta hajmda mobilligini ta'minlash maqsadida zaxet birliklarining yagona Yevropacha tizimini tadbiq etish.

4. Talabalarning mobilligini rivojlantirish. Transmilliy ta'lim standartini o'rnatish.

5. Taqqoslanadigan mezonlar va uslubiyatlarni ishlab chiqish maqsadida sifatni ta'minlash uchun Yevropa hamjamiyatiga ko'maklashish.

6. Ta'lim sifatining ichki nazorat tizimini tatbiq etish va OTM faoliyatini tashqi baholashga talabalar hamda ish beruvchilarni jalb etish.

7. O'quv rejalarini, institutlararo hamkorlik, mobillik va hamkorlik o'quv dasturlari, amaliy tayyorlov va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni rivojlantirish orqali oliy ta'limda yevropacha an'analarning yuzaga kelishiga ko'maklashish.

Bolon deklaratsiyasi doirasida har ikki yilda bir marta a'zo davlatlar ta'lim vazirlari ishtirokida konferensiya tashkil etiladi. Shuningdek, ushbu jarayon doirasida tashkiliy forumlar (1-tashkiliy Bolon forumi -2009 yil Lyoven shahrida, 2- tashkiliy Bolon forumi – 2010 yil Venada) o'tkazilgan.

Yevropa oliy ta'lim tizimi kelajagini aniqlaydigan tamoyillar ichida quyidagi 3 ta omil asosiy o'rin egallaydi:

1. Ikki pog'onali (siklli) oliy ta'limni tadbiq etish (bakalavr, magistr).
2. Sinov birliklarini ko'chirish va to'ldirishga imkon beruvchi Yevropa kredit tizmi (YeSTS) ni joriy etish.

3. Oliy ta'lim muassasalari va oliy ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalash jarayonini yevropacha an'analarga moslash. Bolon jarayoni tamoyillari ta'lim dasturlarini qiyoslash muammosini hal etishga qaratilgan **ECTS (European Credit Transfer System)** ta'lim natijalarini baholash tizimini ishlab chiqish va qo'llash, akademik mobillikni oshirishga ko'maklashishni nazarda tutadi. YeSTS quyidagi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan:

- talabalarga chet ellarda o'qishga yordam berish;
 - bir oliy o'quv yurtidan ikkinchisiga o'qishni ko'chirganda o'qish natijalarini taqqoslash va qayta to'ldirishni ta'minlash;
 - chet el oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga tezkor kirish va akademik tan olishni ta'minlash.
- OTM YeSTS tizimini joriy etishi uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:
- o'quv rejalarining aniq va tushunarligini ta'minlaydi (o'quv jarayoni to'g'risida to'liq ma'lumotlarni batafsil bayon etadi);
 - akademik ixtisoslik (daraja)ni tan olinishida ko'maklashadi;
 - o'quv rejasida kurslar tarkibini, talabani o'quv yuklamasini va o'qish natijalarini aniq ifodalaydi;
 - o'zining mustaqilligini saqlaydi hamda talabani o'qish natijalariga oid qabul qilingan qarorlari uchun to'liq javob beradi.

ECTS Yevropa Komissiyasi ERASMUS dastur loyihasining dastlabkisi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, undan ko'zlangan maqsad Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar oliy ta'lim tizimida barcha ta'lim natijalarini akademik jihatdan tan olishni qo'llab quvvatlashdir.

1992/93 akademik yillardan boshlab – Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar va Ozod Yevropa savdo assosiatitsiyasi (YeFTA) doirasida ta'lim natijalarining tan olinishi talabalarga o'z tahsillarini boshqa davlatlar oliy o'quv yurtlarida davom ettirishga imkoniyat yaratdi va talabalar mobilligining rivojlanishiga sharoit yaratdi.

ECTS olti yil mobaynida tajribaviy tekshiruvdan o'tgan (1989/90 yildan 1994/95 yilgacha) va buning uchun quyidagi beshta fan sohasi tanlab olingan: «Biznesni boshqarish», «Ximiya», «Tarix», «Tibbiyot», «Muhandislik mexanikasi». Talabalar almashinuvi tizimida Yevropa oliy o'quv yurtlarining 145 fakulteti qatnashgan. ECTS ta'lim natijalarini akademik tan olishning markazlashuviga qarshi tizim bo'lib, oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangandir. Ushbu tamoyilni amalga tatbiq etish uchun ECTS bir qator qoidalarini o'rnatadi: oliy ta'lim muassasasi kurslari to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini yaratish; talabalarni qabul qiluvchi va yuboruvchi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida kelishuv; o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalarini baholashning yagona tizimini (ECTS ballari – kredit) ni tadbiq etilishi. ECTS tizimiga ko'ra o'quvchi bir semestrda 30 ta yoki bir yilda 60 ta kredit olishi mumkin. ECTS o'z tuzilishiga ko'ra to'rtta asosiy qismni o'z ichiga oladi: axborot ta'minoti; bitim; kredit tizimi; akademik yilda talaba to'plagan kreditlar yig'indisini aniqlash.

Axborot ta'minoti quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot paketidan iboratdir:

- o'quv rejasi;
- o'quv rejasiga kirgan kurs dasturlari;
- har bir kursni kreditlash tizimi (har bir kurs uchun ajratilgan kreditlar soni);
- bilimlarni baholash tizimi;
- baholash shkalasi;
- qo'shimcha ma'lumotlar.

Bitim. Bu shartli jarayon bo‘lib, talaba ECTS doirasidagi biror chet el oliy o‘quv yurtida o‘qishini davom ettirishi maqsadida standart arizani to‘ldiradi va ushbu ariza talaba tahsil olayotgan OO‘Yu hamda ECTS koordinatoriga yuboriladi. Talabaning oldin o‘zlashtirgan kurslari soni va hajmi (kreditlar soni) talaba tanlagan oliy o‘quv yurtiga taqdim etiladi. Agar talaba mazkur OTMga qabul qilinsa ikkala OO‘Yu koordinatorlari orqali talabaga ma‘lum qilinadi.

Kreditlar tizimi. Bu tizim o‘quv yilini muvaffaqiyatli tugatishga qaratilgan, bajarilgan ishlar hajmini miqdoriy jihatdan baholash jarayonini ifoda etadi. ECTS doirasida bir o‘quv yili bo‘yicha kreditlar soni 60 ga teng bo‘lishi lozim. Kredit talaba tomonidan o‘quv yili davomida bajarilgan ishlar hajmini, jumladan ma‘ruzalar tinglash, amaliy va seminar mashg‘ulotlarda qatnashish, laboratoriya ishlarini bajarish va boshqa yuklamalarni ifodalaydi.

Transmilliy ta‘lim. Hozirgi vaqtda jahon ta‘lim tizimida “Transmilliy ta‘lim” atamasi keng ishlatilmoqda. Transmilliy ta‘lim deganda boshqa davlatda yashab, boshqa mamlakat universitetlarida ta‘lim olish jarayoni tushuniladi. Yuqorida ta‘kidlanganidek transmilliy ta‘limda ta‘lim sifatini xalqaro nazorat qilish maqsadida Global Alliance for Transnational Education (GATE) tashkiloti tuzilgan. Ushbu tashkilot tomonidan transmilliy ta‘lim prinsiplari va ushbu prinsiplar asosida faoliyat yurituvchi OTMni sertifikatsiyalash tartibi ishlab chiqilgan. Tashkilotning asosiy prinsiplariga asosan quyidagilar kiradi:

Transmilliy ta‘limning maqsad va vazifalari ta‘lim oluvchiga tushunarli va aniq bo‘lishi, universitet-provayder kompetensiyasiga mos kelishi zarur. Transmilliy dastur asosida ta‘lim oluvchi talabalar uchun universitet-provayderi tomonidan universitetning manzili va o‘qitish texnologiyasi qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, ta‘lim dasturining standartga mos kelishi va sifat mezonlariga to‘liq javob berishi kafolatlangan bo‘lishi lozim. Transmilliy ta‘lim ushbu universitet joylashgan davlat qonuniy hujjatlariga mos kelishi va talaba yashayotgan davlat tomonidan quvvatlanishi (tan olinishi) kerak. Universitet-provayder transmilliy ta‘lim dasturini amalga oshirish va ta‘minlashi uchun:

-yetarli darajada yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar bilan ta‘minlangan bo‘lishi;

-universitet-provayderning faoliyati muntazam nazorat qilib borilishi va baholanishi;

-transmilliy ta‘limni kafolatlovchi adyektiv muhit va texnik vositalar bilan to‘liq ta‘minlangan bo‘lishi va u talabaning butun o‘qish davrida barqaror bo‘lishi;

-transmilliy ta‘lim dasturi va o‘qitish uslublari pedagogik jihatdan talaba talablariga javob berishi;

-talabalar transmilliy ta‘lim dasturini maksimal darajada o‘zlashtirishlariga kafolat berishi;

ta‘lim dasturlari kelajakda ta‘lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida muntazam nazorat qilinishi va baholanishi lozim.

Ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim sifatini ta‘minlash avvalo ta‘lim sifatini baholash mezonlari orqali ta‘minlanadi.

Ta‘lim sifatini ta‘minlashning yana bir komponenti, yuqori malakali professor-o‘qituvchi tarkibi hisoblanadi.

O‘zbekistonda oliy ta‘lim sifatini ta‘minlash jarayoni bo‘yicha

SWOT – tahlil

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Interfaol metodlardan keng foydalanilishi. Elektron ta‘limga e‘tiborning kattaligi. Ta‘lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarning yagonaligi; Professor-o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi.	O‘quv jarayonini tashkil etish davlat siyosati darajasida qaralishi; Amaliy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash bo‘yicha kasbiy faoliyat obyektlarida amaliyot o‘tash imkoniyati; Talabalarga fanlarni qayta o‘zlashtirish bo‘yicha imkoniyat berilishi
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Masofaviy ta‘lim olish imkoniyati yo‘qligi. Mustaqil ta‘limga e‘tiborning kamligi.	Talabalarda fanlarni tanlash imkoniyati yo‘qligi.

O'zbekiston ta'lim tizimi bo'yicha SWOT – tahlil

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Jahon ta'lim tizimi tamoyillariga mos ravishda milliy ta'lim tizimining yaratilganligi. Ta'lim tizimiga davlat bosh siyosati darajasida qaralishi. Olingan bilimlar asosida istalgan kasb egasi bo'lish imkonini berishi. Milliy qadryatlarning e'zozlanishi va ularni avlodlarga yetkazishga harakat qilinishi va boshqalar.	Ta'lim siyosatini amalga oshirishda moddiy va ma'naviy sharoitlarning yaratilganligi. Uzluksiz ta'lim tizimining bir bo'lagi sifatida malaka oshirish kurslarining jahon andozalari asosida qayta ishlab chiqilganligi. Rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llay olishi uchun sharoitlarning mavjudligi
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Zamonaviy sifat menejmenti, kreativlik talablariga javob beradigan kadrlarning yetishmasligi. Innovatsion va korporativ, integratsion hamkorliklarni yanada rivojlantirish zarurligi. OTTda xalqaro standartlarga mos normativ huquqiy bazani takomillashtirish zarurligi	Eskicha fikrlaydigan ayrim xodimlarning konservatorlik va proteksionistik siyosati

Tahlildan kelib chiqadigan tavsiyalar:

1. Ta'lim sifatini ta'minlash jarayoni professor-o'qituvchi va talabaning fan doirasidagi harakatining kasbiy faoliyat obyektlari talablariga mos kelishiga qaratilgan intilish sifatida qarashdir. Ta'lim sifatini ta'minlash muammosi doimiy xarakterdagi muammo bo'lib, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoni ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.
2. Ta'lim sifatining ta'minlanishi asosan uni baholash asosida aniqlanadi va ta'limda belgilangan talablarni bajarilishiga undovchi vosita hisoblanadi. Ta'lim sifatini ta'minlash jarayoni ko'pgina omillarga hamda ta'lim sifatini baholash usullari hamda shakllariga bog'liq bo'ladi.
3. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini ta'minlash avvalo ta'lim sifatini baholash mezonlari orqali ta'minlanadi. Bular, institutsional va ixtisoslashtirilgan baholash tizimlaridir.
4. ISO 9001 sifat sertifikatini talablaridan kelib chiqqan holda talabalarning mustaqil ta'lim orqali to'playdigan bilim va ko'nikmalarini on-line tizimdan foydalanib, masofaviy ta'lim jumladan (Blended education, webinar, chat) kabilar innovatsion texnologiyalar orqali o'tkazishni ta'minlab borish.
5. Har bir OTM miqyosida muassasa rahbari huzurida talabalardan iborat "Ta'lim sifati" komissiyasi tuzish lozim. Har semestr yakunida har bir fan bo'yicha tanlov asosida guruhdagi bir nafar talabadan so'rovnoma olish darkor. Olingan natija muassasa matbuot organida e'lon qilinishi kerak. Bu esa moddiy bo'lmasada, ma'naviy motivatsiya rolini o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda.
4. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Uchrashuvda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-Toshkent, O'zbekiston, 2017, 103 b.
6. Болонская декларация. http://www.aic.lv/ace/ace_disk/Bologna/maindoc/Lisb_conv.pdf

7. Информационно-просветительский портал. Педагогический контроль и оценка качества образования. –М.: 2010. <http://www.eduhmao.ru/info/1/3693/23155/>.
8. Система оценивания качества образовательного процесса в европейских странах – М.: 2009 http://www.pssw.vspu.ru/other/science/publications/klicheva_merkulova/chapter1_quality.htm

UDK: 338.46

XIZMAT KO'RSATISH VA SERVIS SOHALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM YO'NALISHLAR

Sh.Kuvondikov, H.Hasanov
Samarqand davlat universiteti
shuhratq@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada xizmat ko'rsatish va servis sohaslarining qishloq aholisi bandligini ta'minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, qishloqda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, an'anaviy xizmatlar, xizmatlar bozori.

Важные направления в развитии сферы услуг

Аннотация. В статье раскрыта роль сферы услуг в обеспечении занятости сельского населения. А так же предложены научно обоснованные концепции развития сферы услуг на селе.

Ключевые слова: услуга, традиционный услуги, услуги рынок.

Important directions in the development of services

Abstract. In the article the role of the service sector in securing the employment of the rural population is disclosed. And also the scientific justification of the concept of development of the service sector in the village is proposed.

Keywords: service, traditional services, market of services.

Xizmat sohasini rivojlantirish aholi farovonligi va ish bilan bandlik masalasining hal bo'lishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan 5 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida xususiy sektorniahamiyatini oshirishga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, 2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturiga ko'ra, 2016-yilda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib, uning yalpi ichki maxsulotdagi ulushini 54-56 foizga yetkazish, xizmatlarning yangi, zamonaviy turlarini joriy etish, aholini, birinchi navbatda, qishloq joylarda odamlarni ish bilan band qilish muammolarini hal etishdagi rolini oshirish chora tadbirlari ko'zda tutilgan.

2013-2016-yillarda mamlakatimizda xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat bo'ldi¹:

1. Xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faolligini yanada kuchaytirish uchun qullay shart-sharoit yaratish, xususan, bu boradagi rasmiyatchilik to'siqlarini bartaraf etish vazifasi qo'yilgan.

2. Xizmatlar hajmini yuqori sura'tlarda o'sishini ta'minlash va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2016 yilda 54-56 foizga yetkazish.

3. Xizmatlar va servis sohasida band bo'lgan aholining sonini muntazam oshirib borish.

4. Qishloq joylarda xizmat va servis sohasini jadal rivojlantirish, xususan, qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar, birinchi navbatda, komunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, suvdan foydalanish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayorlash va mashina traktor parklari sohasidagi xizmatlar hajmi va turlarini yanada oshirib borish.

¹Ushbu yo'nalishlar bevosita Prezidentning «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jaddalashtirish chora tadbirlari to'g'risida» gi (2006-yil 17-aprel) qarorda va «O'zbekiston Respublikasida 2012-2016-yillarda xizmat va servis sohasini rivojlantirish dasturi» da keltirilgan.

5. Mamlakatimizda an'anaviy xizmatlar turlarini rivojlantirish, ayrim bugungi kun talabiga javob beradigan, ammo unitilib ketilgan xizmat turlarini izlab topish va ularni tiklash.

6. Xizmatlarning yangi istiqbolli turlarini, xususan, yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va boshqalarini jadal rivojlantirish.

7. Mamlakatimiz xizmatlar eksportini ko'paytirish uchun ushbu soha korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga erishish.

8. Eng muhimi, xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun ushbu tadbirlar asos bo'lib qoladi. Chunki, bugungi ehtiyoj va talabdan kelib chiqib, belgilangan tadbirlar, ushbu sohani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlarni va vazifalarni batafsil bajarish uchun xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini 2013-2016 yillarda rivojlantirish Dasturi ishlab chiqilgan.

Ushbu Dasturga asosan aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga, O'zbekiston respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi huzuridagi aholi bandligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan shu soha bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish va shu asosda aholining bandlik darajasini oshirish vazifasi ham yuklatilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yilda 49 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda 54,5 foizga etdi. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 60-80 foizgacha yetmoqda va iqtisodiyotlarida band bo'lgan aholining 70 foizi aynan shu sohada faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda, Prezidentimiz sohani jadal rivojlantirish zarurligiga katta e'tibor qaratdi. Zero, xizmat sohalarining rivojlanmaganligi aholi iste'mol xarajatlari tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish sohasi umuman olganda o'sish tendensiyasiga ega. Mazkur qarorda ko'rilgan chora-tadbirlar va ularga berilgan imtiyozlar kelajakda ushbu sohaning jadal rivojlanishini ta'minlash bilan birga, xizmatlar sifatining oshishiga, uning xalqaro andozalar darajasidagi holatining shakllanishiga olib keladi.

O'zbekistonda xizmat sohalarini rag'batlantirilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hal qiluvchi strategik omillaridan biri xisoblanadi. Xizmat sohasi korxonalari umuman olganda, mamlakat bo'yicha iqtisodiy faol korxonalarning asosiy qismini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, aynan ko'p sonli korxonalar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab oladi. Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari 80 ming 400 tani yoki umumiy xizmat sohasi korxonalarining 80 foizini tashkil etadi. Bunday turdagi korxonalar aholiga ko'rsatilayotgan moddiy va nomoddiy xizmat turlarini tashkil etadi. Moddiy xizmatlarga, savdo va umumiy ovqatlanish, transport, aloqa, maishiy xizmat va uy-joy komunal xo'jaligi kiradi. Ushbu korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar insonni turli xil moddiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining qulayligi va afzalligi shundaki, uni tashkil etishning osonligi va ixchamligi, ishchi kuchi va mehnat resurslarining oiladan yetishib chiqishi, aniq mijozlar talabi uchun turli xil xizmatlar ko'rsatish, mahaliy xom ashyolardan keng foydalanilishi hamda tovar va xizmatlarni sotish esa mahaliy bozorlarda amalga oshiriladi.

Xulosa qilish mumkinki, kichik biznes o'z o'rnini aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida ham topmoqda. Bugungi kunda madaniy-maishiy uskunalarini ijaraga berish va ta'mirlash ishlari xususan, kiyim kechaklarni ta'mirlash, aholiga yuqori saviyada transport xizmatini ko'rsatish, xonadonlarga zarur xo'jalik buyumlarini yetkazib burish uchun kerakli xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda uy-joy qurilishi va komunal kompleksida islohatlar jarayoni kechishi munosabati bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan aynan shu sohalarida aholining maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada kichik korxonalar uy-joy ekspluatatsiyasi, ularni suv, issiqlik manbai, elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha ham o'z xizmat turlarini taklif qilishmoqda. Tabiiyki ta'mirlash-qurilish ishlari bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan, dala hovli madaniy-maishiy imoratlarni qurish va ta'mirlash amalga oshirilmoqda. Aytish joizki, bu ishlar ko'llamida ham aholining uy-joy qurilishi va kommunal xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojlari u yoki bu darajada qondirilmoqda.

Shunday qilib, xizmat sohasi tadbirkorlik faoliyatiga quyidagilar kiradi: umumiy ovqatlanish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va saqlash; kiyimlar, oyoq kiyimlar, ichki

kiyimlarini tikish va ta'mirlash; mebellar, xo'jalik va madaniy maishiy jihozlar, inventarlar, idishlar, yengil transport vositalarini ta'mirlash; uy-joy qurish va ta'mirlash; dehqonchilikda kartoshka, sabzovot, mevalar va boshqa mahsulotlarini yetishtirish; mahsuldor hayvon va o'simliklarni saqlash kabi agroservis xizmatlari.

Yuqorida nomi ko'rsatilgan "Harakatlar strategiyasi", farmonlar, qonunlar va nizomlar xizmat sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, xizmat sohasi kelajakda iqtisodiyotning muhim sohasiga aylanadi. Shu munosabat bilan viloyatimiz shahar va qishloqlarida quyidagi yo'nalishlar hayotga tadbiriq etilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- Qishloq joylarda xizmat va servis sohasini jadal rivojlantirish, xususan, qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar, suvdan foydalanish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayorlash va mashina traktor parklari sohasidagi xizmatlar bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar faoliyatini tiklashni rag'batlantirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va agroservis yo'nalishidagi korxonalarga, ularga o'z faoliyatlarini boshlab olishi uchun zarur bo'lgan boshlang'ich mablag' bilan ta'minlashda iimtiyozli kreditlarni yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa qilib aytganda, xizmat sohasini rivojlantirish, bandlik muammosini ayniqsa, xotin-qizlar, qishloq yoshlarini ish bilan ta'minlash va butun mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish imkoniyati yaratadi.

Adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi (2006-yil 17 aprel) Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2016 yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
5. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti).

UDK 331. 1:37(575.1)

BILIMLARNI BOSHQARISH: METODOLOGIK NUQTAI NAZAR

B.M.Boboqulov, S.B.Sharipov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilimlarni boshqarish muammosiga oid turli qarashlar tahlil qilinib, bilimlarni boshqarishning tashkiliy jihatlar, vazifalari, boshqarish tamoyillari bo'yicha muallifning metodologik nuqtai-nazari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bilimlarni boshqarish, intellektual kapital, bilimlar iqtisodiyoti, boshqarish maqsadi, boshqarish vazifalari, boshqaruv tamoyillari.

Управление знаниями: методологическая точка зрения

Аннотация: В данной статье посредством анализа разных подходов, касающихся проблем управления знаниями, приведена методологическая точка зрения автора по организационным аспектам управления знаниями, их функциям и принципам.

Ключевые слова: управление знаниями, интеллектуальный капитал, экономика знаний, цель управления, функции управления, принципы управления.

Knowledge management: methodological point of view

Abstract. In the article different approaches of knowledge management problems are analyzed, the author's methodological point of view on the organizational aspects of knowledge management, its functions and principles is presented.

Keywords: knowledge management, intellectual capital, knowledge economy, management objective, management functions, management principles.

Kirish

Hozirgi davrda iqtisodiy tuzumlarning zamonaviy transformatsiyasi ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy hayotni globallasuvi hamda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari bilan izohlanadi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy tuzum innovatsion, global axborotlar, bilimlar iqtisodiyoti ko'rinishini olib bormoqda. Shu maqsadda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"ga [1] alohida e'tibor berilgan. Bu hol o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqaruv strategiyasi nazariyasida ham yangicha yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Shunday yondashuvlardan biri "Bilimlarni boshqarish" konsepsiyasidir.

"Bilimlarni boshqarish" (knowledge management) tushunchasi so'ngi vaqtlarda ko'plab rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda ommalashib bormoqda, ammo uning "kategoriya" sifatida mazmuni fikrimizga bir muncha noaniq. Ko'plab tadqiqotchilar "bilimlarni boshqarish" tushunchasini mazmun jihatdan intellektual kapitalni boshqarish tushunchasi, ba'zi hollarda esa ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlarini boshqarish tushunchasi bilan bir xil deb talqin qilishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida bilimlarni boshqarishga oid bo'lgan bir qator xorijlik olimlarning bilimlarni boshqarish bo'yicha ilmiy qarashlari tahlili, ilmiy abstraksiya, dealiktik, tizimli yondashuv, tahlil va taqqoslash usullari asosida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Bilimlarni boshqarishga oid ilk fikrlarni bir qator xorijlik olimlar V.V. Gluxov, K.Ving, P.Druker, U.Zander, M.K.Rumizen, U.Bukovich, I.Nonaki, X.Takeuchi [2] kabi olimlar o'tgan asrning 80-90 yillarida o'z tadqiqotlarida keltirishgan. Yuqoridagi olimlar fikrlarining asosiy mazmuni postindustrial jamiyatda ishlab chiqaruvchi korxonalar, firmalar, tashkilotlarning raqobat bardoshligini oshirishning asosiy manbai bilimlar hisoblanadi degan g'oyaga asoslanadi. Ushbu tezisning isbotini o'tgan asrning so'ngi yillarida ko'plab rivojlangan mamlakatlar bilimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini real ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qo'llanilishda ko'rishimiz mumkin. Xususan, shu maqsadda ko'plab ilmiy, amaliy jurnallar, forumlar tashkil etildi, "o'qiyotgan tashkilot", "intellektual kapital", "intellektual mulk" kabi tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bundan tashqari ko'plab tashkilotlarda bilimlar konsepsiyasi va uni strategik va taktik boshqaruvi firma faoliyatida muhim omil sifatida qabul qilindi.

Dastlabki vaqtlarda bilimlarni boshqarish konsepsiyasini qo'llash va rivojlantirish faqat yuqori texnologiyali tarmoqlarda amalga oshirilgan. Ammo XXI asrga kelib bilimlar, ilmiy tadqiqotlar, intellektual kapital, innovatsiyalar mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha korxonalar firmalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatida keng qo'llanila boshlandi. Hattoki, "bilimlar iqtisodiyoti" fani shakllandi. Ushbu fanning asosiy maqsadi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida bilimlarning o'rni, roli hamda uning ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Demak, so'ngi vaqtlarda bilimlarni boshqarish masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib ushbu masala tadqiqotiga fikrimizcha, uchta holat sabab bo'lmoqda. Birinchidan; korxona, firmalarning tarkibiy tuzilishi, holati hamda zamonaviy raqobat muhitidagi keskin o'zgarishlar nafaqat oldingi tarkibiy tuzulishini qayta ko'rib chiqishni, balki yangi novatorlik yondashuvlarini qidirib topish va joriy etishni talab etadi. Ikkinchidan; korxona, firma fa'oliyatida bilim iqtisodiyotini joriy etishni tizimli o'rganish (tahlil qilish) uchun emperik manbalarni yetarli darajada to'planmaganligi. Uchinchidan; bilimlarni boshqarish konsepsiyasida plyuralizm (fikrlar erkinligi) tamoyili hamma vaqt ham to'laqonli amal qilmasligi. Yuqoridagi holatlar bir tomondan, bilimlarni boshqarish, uni tashkil etish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, bilimlarni boshqarishni milliy iqtisodiyot darajasida o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bilimlarni boshqarishning oʻrni va rolini bilish uchun uning ilmiy tadqiqoti muammosi sifatida mazmun mohiyatini toʻliq tushunib olish maqsadga muvofiq. Buning uchun, birinchidan; bilimlarni yaratish hamda ulardan foydalanish nafaqat individual yoki jamoa miqyosida, balki mamlakat yoki jamiyat darajasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buning oqibatida, fikrimizcha, jamiyat aʼzolari, turli ijtimoiy guruhlar, hududlar yoki mamlakat miqyosida bilimlarni oʻzlashtirish va boshqarish borasida oʻzaro uzviy bogʻliqlik vujudga keladi. Maʼlumki, jamiyat taraqqiyotining industrial davriga qadar bunday oʻzaro kommunikativ aloqalar, hamkorlik bir muncha past darajada namoyon boʻlgan. Ammo, ishlab chiqarishning ilmiy, texnik darajasini, mehnat resurslarining kasbiy malaka darajasini oshib borishi bilan jamiyat miqyosida bilimlarning ijtimoiy xarakterini toʻliqroq namoyon boʻlishi kuzatila boshlandi. Ikkinchidan; bilimlarni boshqarishni tashkillashtirishda insonlarni hamjihatlikda (hamkorlikda) faoliyatini oshirish hamda qoʻyilgan maqsadlarga erishish uchun intellektual resurslarni shakllantirish va foydalanish samaradorligini oshirish.

Yuqorida eʼtirof etilgan holatlarni inobatga olgan holda bilimlarni boshqarishning taʼrifini quyidagicha keltirishimiz mumkin. Bilimlarni boshqarish bu aniq bir iqtisodiy jarayon boʻlib, uning obʼyektlari, yaʼni, korxona, tashkilot, tarmoq doirasida bilimlardan foydalanish, targʻib qilish hamda uni samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish shakllari, usullari, uslublariga boshqaruvchilik taʼsirining yigʻindisidir.

Bilimlarni boshqarishning nazariy asosi boʻlib jamiyatda boʻladigan ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va biologik jarayonlarning turli jabxalarini qamrab olgan iqtisodiyot, kibernetika, informatika, huquq, menejment, psixologiya, tizimli tahlil va boshqa fanlar hisoblanadi [3]. Ushbu fanlar tomonidan bilimlarni maʼlum bir jihatlarini asoslanishi uni real ijtimoiy hayotga amal qilishini, boshqarishni taʼminlaydi.

Bilimlarni boshqarishdan asosiy maqsad, bir tomondan hozirgi davrdagi jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida bilimlar tanqisligi va ularni eskirishini kuchayishi boʻlsa, ikkinchi tomondan, bilimlardan foydalanayotgan korxona, tashkilot, muassasalar subʼyektlarini raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi [2]. Bu holat hozirgi davrda bilimlardan doimiy, tizimli va muntazam foydalanish yoʻl-yoʻriqlar talab etadi hamda qanday va qaysi yoʻnalishdagi yangi bilimlarga ehtiyoj mavjudligini, ulardan samarali foydalanishni taʼminlashni belgilab beradi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davrida insoniyatning bilimlarga boʻlgan ehtiyojini yuqori darajada boʻlishiga, unga boʻlgan talabning doimiy tanqisligi keltirib chiqaradi. Demak, yangidan yaratilgan bilimlar yaʼni, ilmiy yangiliklar, ilmiy yutuqlar, ixtirolar muntazam, tizimli tarzda jamiyatdagi real ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qoʻllab borilishi lozim. Aks holda, ularning bilim (ilmiy yangilik) sifatidagi mazmuni yoʻqoladi. Ayniqsa, iqtisodiy resurslar cheklangan bir sharoitda bilimlar tanqisligi bartaraf etish eng dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun koʻpchilik yetuk mutaxassis-olimlar [4] uchta muhim vazifani bajarish lozimligini taʼkidlaydilar. Bular :

- bilimlarni oʻzlashtirish – yaʼni hozirda yaratilgan bilimlardan foydalanish va ularni korxona tashkilot muassasalar ehtiyojiga yoʻnaltirish ;

- bilimlarni egallash – yaʼni insoniyat tomonidan bilimlarni umrbod egallab borishni taʼminlash;

- bilimlarni yetkazish – yaʼni raqobatchilik asosida ilmiy texnik ijod mahsulidan foydalanish, bilimlarga oid axborot resurslaridan barcha subʼyektlar foydalanishini taʼminlash.

Bizning fikrimizcha, yuqorida taʼkidlangan uch vazifa bilimlarni boshqarish jarayonining asosi sifatida xizmat qiladi. Bilimlarni boshqarishni tashkil etishda, unga taktik va strategik jarayon sifatida yondashish maqsadga muvofiq. Boshqarishning taktik jarayoni oʻz ichiga yangi bilimlar haqida axborotlarni izlash, bilimlar toʻgʻrisidagi axborotlardan foydalanish, bilimlarni oʻzlashtirish, bilimlarni takomillashtirish va yetkazish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Boshqarishning strategik jarayoni esa, bilimlarni baholash, bilimlarni saqlash, eskirgan bilimlarni yoʻq qilish va yangilash kabi jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Bilimlarni boshqarish jarayonida yuqoridagi holatlarni inobatga olinishi bir tomondan, bilimlarga boʻlgan ehtiyojni toʻliqroq qondirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mavjud bilimlarni hamda yangidan yaratilgan bilimlarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga keng qoʻllashga, ulardan samarali foydalanishga sabab boʻladi .

Faʼoliyat turi sifatida bilimlarni boshqarish bu subʼyektlarni bir-birlari bilan va ularni atrof-muhit obʼyektlari bilan oʻzaro maqsadli uzviy bogʻliqlikdagi aloqa jarayoni boʻlib, uning natijasida

bilimlarning ko'lamini (hajmi) muntazam oshib boradi va real ijtimoiy-iqtisodiy hayotda qo'llanilishi kuchayadi.

Demak, boshqaruv fa'oliyatining bir turi sifatida bilimlarni boshqarish:

- mavjud bilimlarni aniqlash, tanlash, sintez qilish, umumlashtirish, saqlash, tiklash, ommalashtirish orqali unga qo'shimcha qadr qimmat beradi.

- bilimlarni foydaliligi va afzalligi to'g'risidagi axborotlarni tarqatish, ommalashtirish orqali uning iste'mol xarakterini kuchaytiradi.

- insonlarni yangi bilimlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlari (o'qish-o'qitish jarayoni) uchun interfaol muhitni yaratib, ularni faollashtiradi [4].

Bilimlarni boshqarishni mohiyatini to'liqroq tushunib olish uchun uning axborotlar menejmentidan farqini bilish lozim. Ma'lumki, axborotlar menejmenti ilmiy texnik ijod (ilmiy yangilik) yutuqlarini tashkilot boshqaruvida foydalanishga, axborotlarni saqlash va yetkazib berish samaradorligiga yo'naltirsa, bilimlarni boshqaruv esa ilmiy axborotlarni saralash, sintez qilish orqali foydalanish uchun optimal shaklga keltirib, ularni qadr-qimmatini oshirishga yo'naltiradi.

Bilimlar boshqaruvini turli darajada olib borish maqsadga muvofiq. Dastlab uni alohida individ (shaxs) darajasida olib borish lozim, chunki shaxs darajasida bilimlarni boshqarishni tashkil etilishi uning keyingi darajalaridagi boshqaruvida ijobiy natija beradi. Bu borada mamlakatimizda olib boriladigan islohotlar yaqqol misol bo'ladi. Xususan, ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi tarbiyalanayotgan shaxslarni zamonaviy eng ilg'or bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Bilimlarni boshqarishning keyingi darajasi alohida korxona, tashkilot, muassasa miqyosida boshqarishni olib borilishidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, fikrimizcha, hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt iqtidorli, bilimli xodimlarni qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirishi, shuningdek, jamoada ijodkorlik, mehnat fa'oliyatida ilmiy yondashuv muhitini shakllantirish zarur.

Bilimlarni boshqarishning keyingi darajasi hudud, tarmoq yoki yirik ishlab chiqarish birlashmasi (yirik kompaniya) miqyosida, ya'ni mezodarajada uni olib borilishidir. Bunda hududning iqtisoslashuvi, tarmoq xususiyatini inobatga olib bilim boshqaruvi yo'lga qo'yiladi yoki yirik ishlab chiqarish birlashmalari miqyosida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktirlik ishlanmalari tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Bilimlarni boshqarishning keyingi darajasi bu milliy iqtisodiyot (mamlakat) miqyosidagi iqtisodiyotdir. Boshqaruvni bu darajada optimal va samarali tashkil etilishi mamlakatda intellektual mulk salohiyatini va undan olinadigan daromadni oshiradi. Ma'lumki, so'ngi yillarda ilmiy salohiyat rivojlangan mamlakatlarda yaratilayotgan YaMM ning 10-15 foizi intellektual mulk savdosi hisobidan shakllanmoqda.

Mezodarajada bilimlarni boshqaruvchi global tadqiqotlarni koordinatsiyalash asosida olib borilib, u insoniyatni oldida turgan global muammolarni hal etish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni ko'zda tutadi.

Intellektual kapital va bilimlarni boshqarish muammosiga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili asosida ko'pchilik mutaxassislar bilimlarga (bilimlarni o'zlashtirishga) quyidagi metodologik yondashuvlarni tavsiya etishadi [5].

- 1) Bilimlarga intilish yondashuvi. Bu yondashuv ishlab chiqarish jarayoni va bilimlarni o'zlashtirishni intellektual fa'oliyat sifatida individual (indivud) darajada tahlil qilishni talab etadi.

- 2) Xulq-atvor yondashuvi. Bu yondashuvning maqsadi insoniyatni barcha resurslardan samarali foydalanishni amalga oshirish hisobiga insonlarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tushunib yetishga yordamlashish hisoblanadi.

- 3) Tizimli yondashuv. Bu yondashuv bilimlarga boshqaruv ob'yekti sifatida, o'zida boshqaruvning turli elementlarini birlashtirgan tizim sifatida qarashni talab etadi. Ushbu yondashuv asosida "bilimlar tizimi" va "bilimlarni boshqarish tizimi" tushunchalari shakllanadi.

- 4) Bilimlarni boshqarishning mantiqiy yondashuvi esa bilimlar oqimini, ularning o'zlashtirishni va yetkazib berish jarayonini tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Bilimlarni boshqarish fa'oliyat sifatida ma'lum bir tamoyillar asosida olib boriladi. Ushbu tamoyillarning mazmun va klassifikatsiyasi uzoq vaqt davomida shakllanib (aniqlanib) kelgan. Boshqaruv nazariyasi bo'yicha mutaxassislar quyidagi tamoyillarni tavsiya etishgan. Bular quyidagilar:

- Ilmiylik tamoyili- ya'ni ilmiy tavsiyalar asosida bilimlarni boshqarish tizimining shakllanishi va uni amaliyotda qo'llanilishi jarayonida ro'yobga chiqadi.

- Tizimli yondashuv tamoyili- bu tamoyil bilimlarni boshqarishda uning barcha komponentlarini o'zaro bog'liqlikda amal qilishida namoyon bo'ladi.

- Holatdan kelib chiqqan holda yondashuv tamoyili – bu tamoyil atrof-muhit ahamiyatini inobatga olib, barcha holatlar o'rganilishi asosida korxonalar fa'oliyatini muvofaqqiyati uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda namoyon bo'ladi.

- Psixologik omillarni bilish va foydalanish tamoyili- bu tamoyil har bir shaxsning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun amal qiladi.

- Ilm sohasi xodimlarining vakolati va javobgarligi tamoyili, ya'ni har bir ilm (ta'lim) sohasi xodimi o'z xizmat vazifasini sifatli bajarishi uchun javobgarlikni his etishida ro'yobga chiqadi.

Demak, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida bilimlarga bo'lgan talabning tobora o'sib borishi, ularni tartiblashtirishni, maqsadga muvofiq yo'naltirishni, tizimlashtirishni talab etib, ularni to'laqonli bajarilishi bilimlarni boshqarish jarayonini samarali tashkil etilishi bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkun:

- Birinchidan, so'ngi vaqtlarda bilimlarni boshqarish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda, chunki milliy iqtisodiyotda fa'oliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibiy tuzulishi, mehnatni tashkil etishdagi yondashuv, zamonaviy raqobat muhiti uni ilmiy jixatdan tadqiq etishni va nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqishni zarur qilib qo'yimoqda.

- Ikkinchidan, hozirgi davrda bilimlarni boshqarishning o'rni va roli bilimlarni yaratish va ulardan foydalanish induvidual yoki jamoa darajasida amalga oshirilishida emas, balki mamlakat miqyosida amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Buning oqibatida bilimlarni boshqarish optimallasadi.

- Uchinchidan, bilimlarni boshqarish jarayoniga boshqarishning taktik va strategik maqsadlarini ko'zlagan holda, e'tibor berilishi maqsadga muvofiq. Bu holatda, bilimlarni o'zlashtirish, ularni yetkazish, takomillashtirish, baholash jarayonlari samarali amalga oshirilib, bilimlarni jamiyat ehtiyojini qondirish uchun o'rni va roli oshib boradi.

- To'rtinchidan, bilimlarni boshqarish jarayonini hudud, tarmoq, yirik ishlab chiqarish birlashmalari va makro darajada olib borilishini yo'lga qo'yilishi, milliy iqtisodiyot ko'lamida intellektual salohiyatni oshishiga, jamiyat oldida turgan global muammolarni hal etish uchun ta'lim, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirishga sabab bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, keyingi vaqtlarda bilimlar iqtisodiyoti, uni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etilishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining bosh omili bo'ladi.

Adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.my.gov.uz elektron sayti.
2. Глухов В. В. Экономика знаний (учебник). Изд.: "Питер" 2003. – 529с.
3. Пирогов С. В. Управление наукой (социально-экономический аспект).— М.: Мысль, 1983. – 645с.
4. Мильнер Б.З. Управление знаниями в современной экономики.-М.: ИЭ РАН, 2008. - 624с.
5. Букович У., Уильямс Р. Управление знаниями: руководство к действию.-М.: ИНФРА – М, 2002. -482с.

MA'NAVIY ZARARNI QOPLASHNING AYRIM MASALALARI

M.Z.Muqimova, M. Kuldashv

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra davlat, jabrlanuvchilarning odil sudlov bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi hamda yetkazilgan zararni kompensasiyasini kafolatlaydi. Maqolada jinoyat natijasida yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashning ayrim masalalari milliy va chet mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy o'rganilib tahlil qilingan. Jabrlanuvchilarga jinoyat tufayli yetkazilgan zarar tufayli ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bir qancha yechinlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jinoyat-prosessual qonunchilik, sud-huquq islohotlari, ma'naviy zarar, kompensasiya, da'vo, qadr-qimmat, inson huquqlari, inson manfaatlari, jabrlanuvchi.

Некоторые вопросы возмещения морального вреда

Annotatsiya. Государство, в соответствии с Конституцией Республики Узбекистан обеспечивает потерпевшим доступ к правосудию и компенсацию причиненного ущерба, а значит, и морального вреда. Компенсация морального вреда – сравнительно новое понятие в современном праве. Ряд важных положений ещё не урегулирован.

В данной статье на основе национального и зарубежного законодательства рассматриваются некоторые вопросы возмещения морального вреда при совершении преступления. Предложены решение проблем для защиты прав и интересов потерпевшего от преступления.

Kalit so'zlar: преступления, уголовно- процессуальное законодательство, судебно-правовая реформа, моральный вред, компенсация, честь и достоинство, и право и интересы человека, потерпевший.

Some questions of non-pecuniary damage

Annotatsiya. The State, in accordance with the Constitution of Uzbekistan guarantees the victims' access to justice and compensation for damages, and, therefore, non-pecuniary damage. Compensation for moral harm - a relatively new concept in modern law. A number of important provisions have not yet been settled.

In this article, based on national and international legislation is considered some of the issues for non-pecuniary harm when committing a crime. Proposed solution to the problems of protection of the rights and interests of the victim of the crime.

Keywords: crime, criminal procedural legislation, judicial and legal reform, moral damage compensation, honor and dignity, and the rights and interests of the person injured.

Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar sud-huquq sohasini erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratib, uning chinakkam mustaqilligiga erishishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, «sud ishlarida adolatli qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan, yuksak malakali sud xodimlari korpusini shakllantirish»ni taqozo etmoqda.[2]

Bu borada jinoyat va jinoyat sessual qonunchiligida shaxs huquqlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan, inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etishga asoslangan keng ko'lamli islohotlar ularning uzviy davomidir.[2] Bu avvalo, davlatimizning huquqni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyati negizida fuqarolarning izzat-nafsi va qadr-qimmat, hayoti va salomatligi, shaxsiy erkinligi va boshqa manfaatlarini himoya qilish bilan izohlanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun,

inson manfaatlarini ta'minlash uchun» bo'lib,[3] undan ko'zlangan asosiy maqsad - «jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». [4]

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguncha, totalitar tizim manfaatlariga to'g'ri kelmaganligi sababli huquq tizimida ma'naviy zarar kompensatsiyasi masalasiga deyarli e'tibor qaratilmadi. Mustaqillik va suverenitetga erishishi davlat va jamiyat oldida huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha dolzarb va yuksak vazifa, maqsadlarni yuzaga keltirdi. Milliy qonunchiligimizda dastlab ma'naviy ziyonni qoplash masalasi 1996-yil 1-apreldan amalga kirgan Mehnat kodeksi (112-modda) bilan belgilab berildi. 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 115-moddasi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasi, 1997-yil 1-martdan amalga kiritilgan Fuqarolik kodeksining 11, 99, 100, 163, 1021 va 1022-moddalari, 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan «Avtomobil transporti to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasi va boshqa qator qonunlar bilan tartibga solindi.

Huquq tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jinoyat huquqi va prosessida ma'naviy zararni undirish masalasi huquq tizimlariga va jamiyatda shakllangan qadriyatlarga ko'ra tartibga solinganligi kuzatiladi. Qadimgi Rimda O'n ikki jadval qonuni bilan javobgarlik belgilangan iniuria jinoyati bo'yicha shaxslarning tanasiga yekazilgan zarar uchun tovon o'ndirilgan. Tovu o'ndirish imkoni bo'lmasa qasos olingan. Keyinchalik pretorlarning hamda Rim klassik yuristlarining faoliyatlari natijasida iniuria jinoyati tufayli yekazilgan zarar asosida ma'naviy zarar kategoriyasi o'rta chiqariladi hamda yanada rivojlantiriladi.[5]

Islom huquqida odam o'ldirish yoki og'ir tan jarohati yekazishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun qasos yoki dia olingan. Bunda qasddan odam o'ldirilsa yoki og'ir tan jarohati yekazilsa, faqat jinoyatchidan qasos, aks holda, ya'ni ehtiyotsizlik orqali ushbu jinoyatlar sodir etilgan bo'lsa, shuningdek qasos olishni imkoni bo'lmasa, aybdordan yoxud uning qarindoshlaridan diya undirilgan. Boshqacha qilib aytganda, diya qilingan jinoyat orqali yyekazilgan zararning moddiy va ma'naviy qarshiligi edi.

Turkiston xalqlari ming yillar mobaynida odat huquqlari asosida ham yashaganlar. Odat huquqlariga binoan nomusga tegish, o'g'irlik, xotin yoki qizlarni olib qochish va boshqa jinoyatlar bo'yicha yuridik tabiatiga ko'ra jabrlanuvchi tomonga ma'naviy zarar undirilganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, yengil tan jarohati yekazilganda, qiymati arzonroq bo'lgan buyumlarni, og'ir tan jarohati yekazilganda jabrlanuvchi uylanmagan bo'lsa unga aybdor tomon qizini yoki singlisini turmushga berishga, nomusiga tekkan qizga uylanishiga majbur qilishgan. O'g'irlangan chorva mollari egasiga qaytarilayotganda har biriga qo'shimcha yana ikkitadan qoramol undirilgan. [6]

Hozirgi zamon yurisprudensiyasida zarar fuqarolik-huquqiy kategoriyasi hisoblanib, fuqarolik huquqining boshqa huquq sohalari bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi muhim zanjir ekanligini kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 14-moddasiga ko'ra «Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi». Huquqshunos olimlarimiz o'rtasida zararni ikki tipga: a) moddiy zarar; b) ma'naviy zararga ajratish keng tarqalgan. Holbuki, hozirgi kunning huquq doktrinasini va amaliyotida zarar quyidagicha tasniflanadi: [7]

- Jismoniy zarar (le *prjudice corporel*) – ya'ni, bir insonning jismoniy yoki aqliy butunligiga yoki sog'ligiga yekazilgan zarar;
- Ma'naviy zarar (le *prjudice moral*) - ya'ni, bir shaxsning ruhiyatiga, or-nomusiga, obro'siga yekazilgan zarar (tuhmat, yaqin qarindoshining nobud bo'lishi);
- Moddiy zarar (le *prjudice materiel*) - ya'ni, bir shaxsning mol-mulkiga (avtomobiliga, ashyolariga) va moliyaviy manfaatlariga yekazilgan zarar.

Insonning jismoniy va aqliy butunligi shaxsiy huquqlari tizimida o'rin egallagan insoniy qadriyatlardan biri bo'lib, yashash huquqi singari muhimdir. Mazkur huquq ham xalqaro huquq hamda milliy huquq himoyasi ostiga olingan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan (1991 yil 30 sentabr) birinchi xalqaro hujjat – Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy

deklorasiyasida har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta'kidlangan.(3-5-moddalar). Shaxsiy daxlsizlik huquqi milliy huquq tizimimizda eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bilan qo'riqlanadi. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'roonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr qimmatni kamsituvchi boshqa tarzda taziyqqa duchor etilishi mumkin emas (O'z R Konstitusiyasi 25-26 - moddalar). O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham (JK 2-modda) shaxsni, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Adolat qaror topishi uchun albatta, jinoyatga munosib jazo tayinlash masalaning birinchi jihati bo'lsa, jabrlanuvchiga yyekazilgan zararni qoplash masalaning muhim ikkinchi jihatini tashkil qiladi.

Jinoyat prosessual faoliyat nafaqat jinoyatni faktik holati hamda uni sodir qilgan shaxslarni aniqlash, jumladan, jinoiy tajovuz orqali yekazilgan zararlarni imkoniyat darajasida bartaraf etishga ham qaratiladi. Bunda ma'naviy zararni qoplash institutidan ham samarali foydalanish talab qilinadi. Ma'naviy zararni qoplash vositasida moddiy zararni qoplashning zararni to'liq qoplay olmasligi holatlarida yoxud moddiy zarar bo'lmasa ham yekazilgan zararining kompensasiyasiga imkoniyat yaratadi.

Jinoyat ko'p holatlarda shaxslarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga tajovuz qiladi. Bunday jinoyat oqibatlarini bartaraf etish yo'llaridan biri jinoyat jarayonida fuqaroviy da'vo berishdir. Kompleks yuridik institut hisoblangan jinoyat prosessidagi fuqaroviy da'vo instituti doirasida fuqarolik va fuqarolik prosessual huquqi me'yorlari jinoyat prosessual normalarini to'ldiradi hamda jinoyat prosessual tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak. Yozma yoki og'zaki shaklda qo'zg'atilgan ma'naviy zararni undirish bo'yicha fuqaroviy da'voning: a) moddiy-huquqiy; b) prosessual-huquqiy tomoni farqlanadi. Ushbu jarayonda da'vogar faqat jismoniy shaxs bo'lishligi bilan xarakterlanadi.

Jinoyat prosessida ma'naviy zararni qoplash bo'yicha da'volar ikki elementdan tashkil topadi:

1) predmet, ya'ni sudga murojaat bilan jinoyat sodir qilinish oqibatida yekazilgan ma'naviy zararni qoplab berish talabi; 2) asos, ya'ni yuridik faktlar (jinoiy qilmish; ma'naviy zararining mavjudligi; jinoyat va zarar o'rtasidagi sababiy bog'lanish).

Huquqiy tizimlarda ma'naviy zararni qoplash masalalasi maqsadiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, Fransiyada ma'naviy zararni integral qoplash tamoyiliga (le principe de la r paration int grale) asoslanadi.[8] Ushbu davlatdagi doktrinaga ko'ra, ma'naviy zararni qoplash – bu, insonning tajovuzga duchor bo'lishi holatida yuzaga keladigan va ushbu huquqbuzarlikka nisbatan jabrlanganning ruhiy va jismoniy butunligiga qilingan tajovuz natijasida o'rtaga chiqqan azob va iztiroblarni esdan chiqarilishi, yashash quvonchi va orzu-umidlarini takroran qo'lga kiritishi, buzilgan ruhiy muvozanatini qaytadan tiklashini ko'zlovchi tenglashtirish, butunlashtirish vositasidir. Ushbu vositada jazolash va foyda olishni rad qiladi.

AQShda ma'naviy zararni qoplash presedentlar asosida hal etilib, jabrlanuvchining alohida ruhiy holati e'tiborga olinadi. Shuningdek AQShda ma'naviy zararni qoplash masalasiga jazo funksiyasi ham belgilangan (dommages et int r ts punitifs). Huquq tartiboti huquqbuzarliklarning takror sodir etilishi hamda ortib borishiga muros qila olmaydi. Shuning uchun huquq qoidalari faqat huquqbuzarlarga ular tomonidan yekazilgan zararlarni qoplab berishni emas, balki kelajakda bu turdagi huquqbuzarliklarni oldini olish va boshqalar tomonidan ham takorlanmasligini ta'minlash maqsadida ma'naviy zararni qoplash masalasida jazo funksiyasi berilgan.

Ko'pgina davlatlar qonunchiligida «ma'naviy zarar» tushunchasi qo'llanilmay, «azoblar uchun kompensasiya» atamasi ishlatiladi. Jumladan, Germaniya qonunchiligida «azoblar uchun to'lov» nazarda tutilgan bo'lib, azoblar deganda jabrlanuvchiga yekazilgan jismoniy va ruhiy azoblar tushuniladi.

AQSH, Angliyada «ruhiy zarar» tushunchasi mavjud bo'lib, zararni qoplashning aniq mexanizmi ishlab chiqishga harakat qilingan, Jumladan, Angliyada aybning shakli (qasddan yoki ehtiyotsizlik) e'tiborga olinib, muayyan pul miqdori belgilanadi.

Ispaniyada ma'naviy zararni qoplash Jinoyat qonuni bilan tartibga solinadi.

Milliy qonunchilikda ham boshqa davlatlar qonunchiligidagi singari jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir umum qabul qilingan prinsiplar va qoidalarga amal qilinadi.

Yuqoridan ko‘rinadiki, ma‘naviy zararni qoplash masalasi inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bugungi kunda murakkab va dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu muammoni hal qilish uchun esa Jinoyat prosessual qonunchiligi nuqtai nazardan xuddi moddiy zararni qoplash singari aniq huquqiy mexanizm ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

Demak, jinoyatga jazoning muqarrarligi adolatni qaror topishida muhim tamoyil hisoblanadi. Bunda jabrlanuvchi tomonning ham manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashuvchi ma‘naviy zararni qoplash institutining quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratilishi lozim:

- qonunchilikda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi tomonidan qabul qilingan bu boradagi qarorda ma‘naviy zarar tushunchasi, uni qoplashning aniq mezonlari ishlab chiqilmagan, qonunchilikda muayyan ish bo‘yicha jinoyat natijasida yekazilgan ma‘naviy zararni aniqlash sudlarga havola etilgan, bu esa sudlarda qonun normalarini bir xil qo‘llash qoidalarini ko‘pgina hollarda buzilishiga olib keladi.

Bu borada jinoyat natijasida yekazilgan ma‘naviy zararni qoplash institutini takomillashtirish maqsadida qonunchilikka quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni taklif qilamiz:

-birinchidan, jinoyat natijasida yekazilgan «ma‘naviy zarar» tushunchasi Jinoyat-prosessual qonunchiligida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z aksini topishi va jabrlanuvchining unga yekazilgan ma‘naviy zararni undirish to‘g‘risidagi da‘vosi jinoyat prosessida ko‘rib chiqilishi kerak;

- ikkinchidan, sud amaliyotida ma‘naviy zararni aniqlashda ko‘proq jabrlanuvchi boshidan kechirgan azoblarga e‘tibor qaratiladi va u sud tomonidan turlicha talqin etiladi. Shuning uchun bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi tomonidan «Jinoyat natijasida yekazilgan ma‘naviy zararni qoplashga doir» alohida qaror qabul qilinishi va unda «jismoniy va ma‘naviy azoblar» tushunchasi, bu boradagi ishlarni sudda ko‘rish tartibiga keng to‘xtalib o‘tish lozim;

- uchinchidan, sudlarda ma‘naviy zararni qoplashda qonun normalariga og‘ishmay amal qilish, shuningdek jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilish mexanizmini amalga oshirish borasida, nazarimizda, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi (ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar) va jinoyatning ob‘ektini (hayot, sog‘liq va boshqa) e‘tiborga olgan holda eng kam oylik ish haqi hisobidan kelib chiqqan holda aniq pul miqdorini undirishga doir alohida qoidalar kiritish lozim;

- to‘rtinchidan, sud-huquq islohotlarining uzviy davomi sifatida qabul qilinishi nazarda tutilgan «Jabrlanuvchi, guvoh va jinoyat prosessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonuni»da ushbu masalaning ham ayrim jihatlariga e‘tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi, 07.12.2016 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 22.10.2016 y. 209 (6644)-son).
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkiniklari – oliy qadriyat. T.14. –Toshkent:O‘zbekiston, 2006. –B.63.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir. –Toshkent:O‘zbekiston, 2005. –43-50 b.
5. Iqzan Karadeniz Zelebecan. Roma hukumati. -Ankara: Yetkin yayinlari. 2004. 253-254 s.
6. Turkestanskiy sbornik. Tashkent, 1908. T.459. S.46
7. <http://vosdroits.service-public.fr/particuliers/F1422.xhtml>
8. A propos de la notion de dommages et intérêts punitifs en droit français et américain, par Albane Pons. m2bde.u-paris10.fr/nod e/2404

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir

X.Sh.Tashpulatov
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev

Muharrirlar:

E. U. Arziqulov	- f.-m.f.n., dotsent
O. R. Raxmatullayev	- geogr.f.n., dotsent
B. S. G'oyibov	- t.f.n., dotsent
I.Sulaymonov	- f.f.n., dotsent
A.I.Inatov	

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev	- k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov	- f.-m.f.n.
R.Toshquvatova	- fals.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 31.08.2017 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 114. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitetxiyoboni, 15.
SamDUBosmaxonasida chopetildi.